где, $q_0 = max\, q_{ij}$. Принято $A = B\Psi(\Psi \geq 1)$. Вылет консольных частей принят одинаковым по всему периметру и обозначен $\lambda B_i(\lambda < 1)$, таким образом полные размера плиты равны:[1]

$$A + 2\lambda B = B(\Psi + 2\lambda)$$
$$B + 2\lambda B = B(1 + 2\lambda) \qquad (1)$$

В пределах основных размеров A и B на плиту нанесена расчетная сетка, содержащая N точек в каждом направлении. Сетка распространена на консольные участки (рис.1) и за пределы плиты так, что размеры сеточной области превосходит размеры плиты. В общем случае при $\Psi > 1$ ячейка сетки имеет прямоугольную форму с отношением сторон, равным Ψ.



Рис.1. Расположение колонн совпадающие с узлами сеточной области и схемы разрушения

Шаг сетки вдоль оси OX равен $AN^{-1} = B\Psi N^{-1} = \Psi t$. Аналогично в направлении оси Oy имеем $BN^{-1} = t$. Вылет консольных участков λB должен быть кратным t или $t\Psi$ в зависимости от направления.

Для описания предельной прочности плит при положительном, отрицательном изгибе в каждом направлении и при кручении введены безразмерные поля, соответственно $(\alpha_1, \alpha_2, \alpha_4, \alpha_5)ij$ α_{3ij}

Значения этих величин в каждом узле ij сеточной области с помощью соотношений

$$\alpha_1 = \mu_{1x}\xi^{-1}(\xi - \delta_1 - (2\alpha_B)^{-1} \cdot \mu_{1x}\xi)$$
$$\alpha_2 = \mu_{1x}\xi^{-1}(\xi - \delta_1 - (2\alpha_B)^{-1} \cdot \mu_{1y}\xi)$$
$$\alpha_4 = \mu_{2x}\xi^{-1}(\xi - \delta_2 - (2\alpha_B)^{-1} \cdot \mu_{2x}\xi) \qquad (2)$$
$$\alpha_5 = \mu_{2y}\xi^{-1}(\xi - \delta_2 - (2\alpha_B)^{-1} \cdot \mu_{1y}\xi$$

Принято, что расположения колонн совпадает с узлами сеточной области (рис.1). Оно может не быть регулярным. При регулярной сетке колонн введены обозначения L_1 – количества ячеек сетки между осями колонн вдоль координатной оси O_y; L_2-вдоль оси O_x. Тогда полное количество колонн

$$NN = (NL_2^{-1} + 1)(NL_1 + 1) \qquad (3)$$

Дополнительно введем обозначения в каждом узле сетки

$$\alpha_6 = 0{,}5(\alpha_1 + \alpha_2);\ \alpha_1 = 0{,}5(\alpha_4 + \alpha_5);$$

Результаты и обсуждения. Принимая все вышеуказанные рассмотрим несущая способность пластин при локальном разрушении.

Схема разрушения *N1* (рис.1.) предполагает излом пластины в отсеке между четырьмя соседними опорами. Такая схема сопутствуют работе защемленной пластины, она содержит кольцевой множество радиальных пластических шарниров.

При единичном возможном опускании центральной виртуозный угол взаимного поворота в кольцевой линии составит $\varphi = R^{-1}$ где *R*-радиус кольцевой линии. Из плана угловых перемещений следует, что углов взаимного поворота всех радиальных дисков $2\pi\varphi$.

Если ограничимся в начале случаем изотропной пластин, то работа D_i внутренних сил на возможных перемещениях может быть представлена равенством.

$$D_i = 2\pi R m_0^+ \varphi + m_0^- 2\pi R\varphi \qquad (4)$$

С учетом величины угла $\boldsymbol{\varphi}$ и принятых обозначений, получим из (4)

$$D_i = 2\pi\mathfrak{S}\xi^2 B^2(\alpha_5 + \alpha_6) \qquad (5)$$

где, $\xi = h\mathrm{B}^{-1}$; $\boldsymbol{h}$-толщина пластины.

Внешняя равномерно распределенная нагрузка совершает работу на перемещениях-прогибах пластины. Принятой схеме разрушения соответствует эпюра прогибов в форме конуса с радиусом $\boldsymbol{R}$ и единичной высотой. Объем такого конуса равен $V = 3^{-1}\pi R^2$ следовательно

$D_e = 3^{-1}q\pi R^2$ где $\boldsymbol{q}$-интенсивность равномерной нагрузки.

Из равенства $D_i - D_e = 0$ получаем:

$$q = 6(\pi R^2)^{-1} \cdot \pi\mathfrak{S}\xi^2 B^2(\alpha_5 + \alpha_6) \qquad (6)$$

В них среди всех нагрузок, описываемых соотношением (6) можно выбрать наименьшую, то необходимо определить максимальную значение радиуса *R* кольцевой линии текучести. Из рис.1 очевидно, что диаметр $D = 2R$ не должен превосходит, большой пролет (большой шаг колонн).

Учитывая, что сетка колонн может иметь прямоугольные очертания – при $\Psi \neq 1$ либо при $L_1 \neq L_2$ наибольших пролетов трещин через эти величины.

$$R = max\big(\Psi(L_2L_1)\big)B \cdot (2N)^{-1} \qquad (7)$$

После подстановки равенства (7) в (6) получим окончательно

$$P = (max\big(\Psi(L_1L_2)\big))^{-1} \cdot 24\xi^2(\alpha_6 + \alpha_1)N^2 \qquad (8)$$

где, $\rho = q\mathfrak{S}^{-1}$-относительная интенсивность нагрузки.

Вторая форма (рис.1) учитывает возможность разрушения пластины от действия сосредоточенной силы, приложенной к ней со стороны колонны (реакция опоры).

Пусть в основной части пластины (в осях крайних рядов колонны) нагрузка имеет интенсивность $\boldsymbol{q}$, а на консольных участках интенсивность $\eta_1 q$. Полная нагрузка в основной части $Q_1 = ABq = B^2\Psi\mathfrak{S}\rho$

Полная нагрузка на консольных участках

$Q_2 = \eta_1 q((A+2\lambda B)(B + 2\lambda B) - AB) = \mathfrak{S}B^2 p\eta_1 \cdot 2 \cdot \lambda(1 + \Psi + 2\lambda)$

Складывая обе величины, получим:

$$Q_1 + Q_2 = B^2\Psi\mathfrak{S} + 2\lambda\eta_1\mathfrak{S}B^2 p(1 + \varphi + 2\lambda) = B^2 p\mathfrak{S}\big(\Psi + 2\lambda\eta_1(1 + \Psi + 2\lambda)\big) \qquad (9)$$

В них число колонн составляет $\boldsymbol{NN}$ (3), то усилие действуют в одной точке, равно:

$$p = Q\gamma \cdot (NN)^{-1} = \mathfrak{S}B^2 p\Psi\gamma(NN)^{-1}$$

где коэффициент γ учитывает неравномерность распределения нагрузки между опорами.

При единичном перемещение точки, нагруженное реакция ρ совершает виртуальную работу $D_e = \rho t$

Работа D_i внутренних сил для схемы №2 не отличается от работы, совершаемой внутренними усилиями на перемещениях схемы №1, поэтому выражение (5) сохраняет свою силу. Из условия равновесия $D_i - D_e = 0$ получаем:

$$P_2 = (\gamma\Psi)^{-1} \cdot 2\pi\xi^2(\alpha_6 + \alpha_7)NN \qquad (10)$$

Третья схема разрушения (рис.1) также относится к основной части пластины и предполагает «балочное» разрушение одного из пролетов, при этом образуются три линейных пластических шарнира – один пролетный и два опорных.

Если разрушается пролет l_y, расположенный вдоль оси Oy, то работа внутренних сил выражается равенством:

$$D_i = 2m_{oy} - 2l_y^{-1} + m_{oy}^{+} = 4\Subset B^2 \cdot \xi^2 N(Bl_1)^{-1}(\alpha_2 + \alpha_5) \qquad (11)$$

а внешняя распределенная нагрузка совершает работу

$$D_i = 2^{-1}1ql_y = 2^{-1}qBl_1N^{-1} \qquad (12)$$

Из равенств правых частей (11) и (12) следует, что

$$P_{\xi(1)} = 8\xi^2(\alpha_2 + \alpha_5)N^2L_1^{-2} \qquad (13)$$

Аналогичным образом для случая разрушения пролета l_x, расположенного вдоль оси Ox, получаем:

$D_i = 4\Subset B^2\xi^2 N(BL_2\Psi)^{-1}(\alpha_1 + \alpha_4)$; $\qquad D_e = \eta^{-1}qN^{-1}B\Psi L_2$

и следовательно

$$P_{\xi(2)} = 8(\Psi L_2)^{-2}\xi^2(\alpha_1 + \alpha_4)N^2 \qquad (14)$$

Поскольку наперед не известно, какой пролет может разрушится – это зависит не только от конфигурации Ψ пластины, размещения колонн L_1и L_2, но также и от армирования $\alpha_1, \ldots . \alpha_5$, из двух величин $\rho_{\xi(1)}$ и $\rho_{\xi(2)}$ следует выбрать наименьшую

$$P_\xi = min\left(P_{\xi(1)}, P_{\xi(2)}\right) = 8\xi^2N^2min\left((\Psi L_2)^{-2}(\alpha_1 + \alpha_5), L_1^{-2}(\alpha_2 + \alpha_5)\right) \qquad (15)$$

Следующие три формы разрушения связаны с консольными участками пластины, схема №4 определяется отрицательным изломом всей консольной части вдоль одной из сторон, здесь образуется один линейный пластический шарнир. Так как вылет консоли равен λB, то при единичном опускании её края угол поворота в переделе $\varphi = (\lambda B)^{-1}$ и виртуальная работа внутренних сил

$$D_i = min\ (m_{ox}^{-}, m_{oy}^{-}) \cdot (\lambda B)^{-1}(BV\Psi B) \qquad (16)$$

Здесь наименьшее значение предельного погонного изгибающего момента необходимо принять потому, что излом консоли может происходить вдоль любой стороны. Из (16) после преобразований находим

$$D_i = \lambda^{-1}\Subset\xi^2B^2(\alpha_4V\Psi\alpha_5) \qquad (17)$$

Для виртуальной работы внешней нагрузки справедливо следующее выражение

$$D_e = 2^{-1}\eta_0B^2\lambda(1V\Psi)$$

С учетом этих выражений получаем для схемы №4 величину безразмерной интенсивности $P_4 = (\lambda\eta_1)^{-1} \cdot 2\xi^2 min\ (\alpha_4, \alpha_5)$ (18)

Пятая схема разрушения предполагает консольное разрушение аналогично пролетному разрушению по схему №1. Из выражения (6) получаем путем замены радиуса R кольцевой схемы разрушения вылетом консоли λ_ηB и учитывая интенсивность нагрузки на консоли $q\eta_1$: $P_5 = (\lambda\eta_1)^{-1}6\xi^2(\alpha_6 + \alpha_1)$ (19)

Шестая форма разрушения соответствует угловому разрушению консоли (рис.1). Расстояние угла консоли от угловой колонны равно $2^{0,5}\lambda$B, так что угол поворота в пластическом линейном шарнире составляет $\varphi = (2^{0,5}\lambda B)^{-1}$

При отрицательном изломе т.е. отрицательной Гауссовой кривизне предельный погонный момент равен $m = \Subset h^2\alpha_1$, поэтому работа внутренних сил может быть описана следующем виде $D_i = \Subset\xi^2B^2\alpha_1$

Эпюра вертикальных возможных перемещений есть пирамида с единичной высотой, ее объем равен $3^{-1}\lambda B^2$, так что $D_e = 3^{-1}q\eta_1\lambda B^2$

и окончательно получаем $\rho_6 = (\lambda^2\eta)^{-1} \cdot 3\xi^2\alpha_1$ (20)

Выводы. Методика расчета несущей способности пластин сложного очертания описанной [1], применена к расчетам пластин, имеющие точечное опирание. Эта методика учитывает возможность полного разрушения пластин.

1. С учетом особенностей опирания дополнительно разработана методика, основанная на локальном разрушении пластин при точечном опирании. Рассмотрены шесть схем местного разрушения, для них в замкнутой форме получены оценки предельной интенсивности направленной нагрузки.
2. Для решения задач оптимального проектирования предложена алгоритм и математическая процедура формирования изогнутых поверхностей (пластин различного Гауссовой кривизны) пластин, опирающихся на произвольное число конечных опор.
3. Сформулированы и решены задачи об оптимальном размещении опор и толщине пластин применительно к плитам перекрытий в зданиях, возводимых методом подъема.

Список литератур

1. Рекомендация по расчету жилых и общественных зданий, возводимых методам подъёма (Методические указания). Ереван: ВИЭКТИ Минпромстроя Арм.ССР, 1985.
2. Akhmedov Yu., Sh Muradov. Geometric Modeling of Coating Shells and Calculations of their Bearing Capacity PriMera Scientific Engineering Volume 3 Issue 2 August 2023 DOI: 10.56831/PSEN-03-068 ISSN: 2834-2550 https://primerascientific.com/psen
3. Ю.Ахмедов, Ш.М.Муродов, К.Жумақулов Автоматическая оптимизация металлических балочных конструкций в подсистемах САПР Международная конференция “Классический и квантовый релятивистский идеальный газ” Бухара:, 2023. 127-128 с.
4. Shukhrat Muradov, Research of Working Bodies for Uncomplacing the Underground Layer of Soil. International Scientific Conference on Agricultural Machinery Industry “Interagromash”, XV International Scientific Conference “INTERAGROMASH 2022”, Lecture Notes in Networks and Systems book series (LNNS,volume 574), 05 February 2023, pp 1099–1108. https://link.springer.com/chapter/10.1007/978-3-031-21432-5_117
5. Ю.Ахмедов, Ш.Асадов. Автоматическая аппроксимация односвязных гиперповерхностей полиэдрами применительно к расчетам несущей способности оболочек покрытий. Фан ва технологиялар тараққиёти 2020.5-сон 17-22 бет.
6. Yu.Akhmedov, Sh.Avliyakulova. Criteria for the emotional Perception of curves in Architectural objects. www.econferenceglobe.com. Hosted from Telavi, Georgia on 17th-18th March, 2021 129-134 b.
7. Yu.Akhmedov, Sh.Avliyakulova. “The use of digital technology in the computer-aided design of surfaces for architectural and construction ornaments and technical forms.” Journal For Innovative Development in Pharmaceutical and Technical Science ISSN(O): 2581-6934 For Volume-4, Issue-03, Mar-2021 in JIDPTS International Journal
8. M.Maxmudov Hermitian Spline in E4 Space. Eurasian Journal of Engineering and Technology www.geniusjournals.org Volume 5 April, 2022 ISSN: 27957640
9. Yu.Akhmedov, R.K.Shamsiyev. Optimal linearization of yield conditions of rigid-plastic shells. Ученый XXI века международный научный журнал №5-2 (86), май 2022. 90-95 ст.
10. Ю.Ахмедов, М.Махмудов Геометрическое моделирование гиперповерхностей применительно к расчетам несущей способности жесткопластических оболочек. Umiversum: технические науки Выпуск: 11(104). Ноябрь 2022 Часть 1с. 28-33 Москва, 2022.
11. Yunus Akhmedov., Shuhrat Asadov and Bobir Azimov. Two-sided estimation of linear approximation error second-order hypersurfaces. Apitech-iv-2022 Journal of Physics: Conference Series 2388 (2022) 012124 IOP Publishing doi: 10.1088/1742-6596/2388/1/012124

NATRIY XLORID, KALIY XLORID, MAGNIY SULFATLARGA BOY BO‘LGAN TUZLAR TARKIBINI TADQIQ QILISH

[1]Baxshilloyev N.K., [2]Umirov F.E., [1]Maxmudov R.A.

[1]Buxoro davlat texnika universiteti, [2]Navoiy davlat konchilik-texnologiyalar universiteti.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Buxoro va Navoiy viloyatlaridagi tuz konlarining kimyoviy va mineralogik tarkibi o‘rganilgan. Tadqiqotda Quyimozor va To‘dako‘l suv havzalaridan olingan suv va tuzlarning kimyoviy tarkibi kompleksometrik usullar, SEM va IK-spektroskopiya yordamida tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, tuzlar tarkibida natriy xlorid (17,7%), magniy (18,2%), xlor (24,6%) va kislorod (36,9%) yuqori miqdorda mavjud bo‘lib, asosan, natriy xlorid va magniy xlorid birikmalariga boy ekanligi aniqlandi. Ushbu ma'lumotlar kimyo sanoatida xomashyo sifatida foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi va suv havzalaridagi sho‘rlanish jarayonlarini chuqurroq o‘rganishga yordam beradi.*

Tayanch so‘zlar: *suv, tabiiy mineral, tuz, natriy xlorid, magniy sulfat, tahlil, tarkib, IK-spektr, SEM tahlil*

ИССЛЕДОВАНИЕ СОСТАВА СОЛЕЙ, БОГАТЫХ ХЛОРИДОМ НАТРИЯ, ХЛОРИДОМ КАЛИЯ, СУЛЬФАТАМИ МАГНИЯ

Бахшиллоев Н.К., Умиров Ф.Э., Махмудов Р.А.

[1]Бухарский государственный технический университет,
[2]Навоийский государственный горно-технологический университет.

Аннотация. *В данной статье рассмотрен химический и минералогический состав соляных месторождений Бухарской и Навоийской областей. В ходе исследования химический состав воды и солей, отобранных из Куймозорского и Тодакольского водохранилищ, был проанализирован с помощью комплексометрических методов, РЭМ и ИК-спектроскопии. Результаты показали, что соли содержат большое количество хлорида натрия (17,7%), магния (18,2%), хлора (24,6%) и кислорода (36,9%) и в основном богаты соединениями хлорида натрия и хлорида магния. Эта информация расширит возможности использования его в качестве сырья в химической промышленности и поможет глубже изучить процессы засоления водных объектов.*

Ключевые слова: *вода, природный минерал, соль, хлорид натрия, сульфат магния, анализ, состав, ИК-спектр, СЕМ-анализ.*

STUDY OF THE COMPOSITION OF SALTS RICH IN SODIUM CHLORIDE, POTASSIUM CHLORIDE, MAGNESIUM SULPHATES

Baxshilloev N.K., Umirov F.E., Maxmudov R.A.

[1]Bukhara state technical university, [2]Navoi state university of mining and technology.

Annotation. *In this article, the composition of salt deposits formed around Kuyimozor reservoirs was studied using chemical and physicochemical analysis methods. The results of the obtained chemical analysis show that the composition of the existing salts corresponds to sodium, potassium chloride, and magnesium sulfates. SEM analysis of salt contains sodium - 17.7; magnesium - 18.2; chlorine –24.6; and oxygen is 36.9%, and the IR-spectra shows that magnesium and sodium meet oxygen and chlorine and sulfate metal bonds. The results of this analysis showed the presence of sodium, potassium chloride and magnesium sulfate salts and recommended their use for beneficial purposes.*

Key words*: water, natural mineral, salt, sodium chloride, magnesium sulfate, analysis, composition, IR spectrum, SEM analysis*

***K*irish.** Hozirgi vaqtda jahonda aholi sonining intensiv ko‘payishi, fan texnikaning rivojlanishi, aholini sifatli mahsulotlarga bo‘lgan talabni to‘liq ta’minlash kimyo sanoatining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston tabiiy mineral va tarkibi turli xil kimyoviy elementlarga boy bo‘lgan tuz konlariga boy bo‘lib, ulardan to‘liq foydalanilmay kelinmoqda. Ushbu tuz konlaridan foydalanish va turli xil yuqoridagi talablarni bajarishga yordam beradi. Bu esa arzon xomashyo bilan ta’minlanishiga va ishlab chiqarishning yuksak darajada rivojlanishiga olib keladi. Tabiiy mineral va tuzlardan foydalanishga talab yildan yilga oshib bormoqda va ularni kimyo sanoatining turli sohalarida qo‘llash hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir [1-4].

O‘zbekistonda ko‘plab suv havzalari va ko‘llar mavjud bo‘lib, ular yillar davomida suvning kamayishi hisobiga sho‘rlanishi ortib, turli xil noorganik tuzlar hosil bo‘lishiga olib kelmoqda. Hosil bo‘lgan ushbu tuzlarni qazib olish va qayta ishlash orqali natriy, kaliy va magniyga boy

birikmalarni ajratib olish, ularni xalq xo‘jaligining turli sohalarda xomashyo sifatida ishlatish va tayyor mahsulotga bo‘lgan talabni qondirishga erishish mumkunligini ko‘rsatadi. Bu esa yuqoridagi muammolarning yechimini topishga imkon beradi [5-6].

Ushbu maqolada tadqiqotlar olib borish uchun tadqiqot obyekti sifatida Buxoro va Navoiy viloyati chegara hududidagi mavjud tuz konlardagi tuzlarning kimyoviy, minerologik tarkibini o‘rganish va ular asosida ishqoriy metallarning tuzlarini ajratish imkoniyatlari o‘rganilgan. Dastlab Quyimozor va To‘dako‘l suv havzalari atrofida hosil bo‘lgan tuz konlarining tarkibini aniqlash uchun bir necha namunalar olindi. Ularning tarkibi kimyoviy tahlil usullari va zamonaviy SEM va IK-spektrlari orqali ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Adabiyotlardan ma’lumki Quyimozor suv havzasining hajmi 280-350 mln.t.kub suvni tashkil qilishi, maydoni 16,2-17,3km kv.bo‘lib [6-7], hozirgi vaqtda maydoni ancha qisqarishi va uning atrofida “Kogon baliqchilik xo‘jaligi” tashkil etilgan bo‘lib, bu yerda ko‘plab suv ko‘lmaklari, tuz konlari hosil bo‘lgan.

Olib kelingan namunalar tarkibi kompleksometrik usullar asosida kimyoviy elementlarga tahlil qilindi [8-10,11], olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Quyimozor suv ombori atrofidan olingan suv va hosil bo‘lgan tuzlar tarkibining kimyoviy tahlil natijalari

№	Parametrlarning nomlarnishi	O‘lchov birliklari	1-namuna (suv)	2-namuna (tuz)
1.	Vodorod ko‘rsatgichi	rN	7,1	6,9
2.	Zichligi	g/sm^3	1,340	1,420
3.	Kalsiy	mg/dm^3	25,08	40,08
4.	Magniy	mg/dm^3	1155,2	1155,2
5.	Temir	mg/dm^3	1,12	1,49
6.	Xloridlar	mg/dm^3	16212,1	17378,1
7.	Nitritlar	mg/dm^3	0,05	0,06
8.	Nitratlar	mg/dm^3	0,2	0,4
9.	Sulfatlar	mg/dm^3	8350,0	9690,0
10.	Marganes	mg/dm^3	0,09	0,11
11.	Qorg‘oshin	mg/dm^3	0,10	0,14
12.	Mis	mg/dm^3	0,04	0,05
13.	Xrom	mg/dm^3	0,02	0,05
14.	Nikel	mg/dm^3	0,02	0,05
15.	Kobalt	mg/dm^3	0,58	0,75
16.	Karbonatlar	mg/dm^3	5,2	8,0
17.	Gidrokarbonatlar	mg/dm^3	58,2	73,2
18.	Kaliy	mg/dm^3	21,78	28,78
19.	Natriy	mg/dm^3	11520	12330

1-jadvalda Quyimozor suv omborining suv va tuzning kimyoviy tarkibi kompleksometrik usullar yordamida metallar va anionlar miqdori, vodorod ko‘rsatgichi rN, zichligi bo‘yicha olingan natijalar keltirilgan bo‘lib, unda suyuq va qattik tuzlarning vodorod ko‘rsatgichi rN=6,8-7,1 mos kelishi, zichligi 1,340-1,420 g/m^3, tarkibida eng ko‘p miqdorda natriy – 12330,3; magniy – 1155,2; kaliy – 28,78; va boshqa ko‘plab metallar uchrashi va bundan tashqari anionlardan xloridlar – 16212,1; sulfatlar – 9690,0; gidrokarbonatlar – 73,2; ko‘p miqdorda borligi kimyoviy tahlil asosida aniqlandi.

Ushbu namunalardan suv va tuzlarning tarkibi zamonaviy Energodispersion rentgenofluoressent spektrometr, Rigaku NEX-DE qurilmasi yordamida kimyoviy tahlil o‘tkazildi. Unda eng ko‘p miqdorda natriy, xlor va magniy borligini ko‘rishimiz mumkun, bu esa tarkibida asosan natriy xlor va magniy sulfatga mos kelishini ko‘rsatadi, kamroq miqdorda kaliy xlor va kalsiy sulfatlardan tashkil topgan birikma ekanligi aniqlandi. Olingan natijalar 1- rasmda keltirilgan.



1-rasm. Quyimozor suv ombori atrofidan olingan suv va tuzlar tarkibining devtogrammik tahlil natijalari

Quyimozor suv ombori atrofida keltirilgan suv va tuz tarkibini o‘rganish uchun IK-spektrlari olindi, olingan natijalar 2-rasmda keltirilgan.



tuz suv

2-rasm. Quyimozor suv ombori atrofida olingan suv va tuzlar tarkibining IK-spektri

Olingan IK-spektrlardan magniy, natriyning kislorod bilan va xlor, sulfatning metallar bog‘lari uchrashini ko‘rish mumkun, bu esa birikmalar tarkibida metallarning xlor va sulfat bilan bog‘langanligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari Quyimozor suv omborining suv va tuz namunalarining SEM analizi ham olindi. Bilamizki, bu analiz aniqlanayotgan moddalarining ichki holatini yoritib beradi va qancha miqdorda elementlar mavjudligini ko‘rsatadi. Shu asosida suv va tuz ichki holatining rasmlari va tarkiblarini ko‘rish maqsadida SEM tahlili qilindi va analiz natijalari 3- rasmda keltirilgan.

3-rasm. Quyimozor suv ombori atrofida olingan suv va tuzlar tarkibining SEM tahlili

SEM analizida ko‘ryapmizki, tuzning tarkibini natriy – 17,7; magniy – 18,2; xlor –24,6 va kislorod–36,9 % tashkil etmoqda, bu esa ushbu namunalar natriy va magniyga boy, ya’ni natriy xlorid va magniy xlorid ekanligini ko‘rsatmoqda.

Xulosa. Quyimozor suv ombori atrofidan olingan suv va tuzlarning namunalarini o‘rganish natijalari ushbu suv va tuz juda ko‘plab kimyoviy elementlarga boy ekanligi, ayniqsa, natriy, magniy ko‘p ekanligi, uni xalq xo‘jaligining turli sohalarida ishlatish mumkunligini ko‘rsatdi. Hozirgi vaqtda natriy va magniy tuzlarini ajratish asosida kimyo sanoati uchun tayyor mahsulot olish texnologiyasi o‘rganilmoqda.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Указ Президента Республики Узбекистан УП-60 от 29 января 2022 года «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы».
2. Xolmuminov.J.Экologiya va qonun.T.Adolat.2000,352b
3. Умиров Ф.Э., Музафарров А.М., Пирназаров Ф.Г., Умиров У.Ф. Изучение химического состава и свойств минерала сопонита Горный вестник Узбекистана № 3 (82) 2020 с.-75-78
4. Chembarisov E., Baxritdinov B. Tuproq va suvdagi tuzlar. T.Fan.1981,35
5. Ergashev A., Otaboyev Sh., Sharipov R., Ergashyev T. Suvning inson hayotidagi ekologik mohiyati. T.: Fan, 2009.
6. Umirov F.E., Nomozova G.R., Shodikulov J.M. Aslonov A.B., Pirnazarov F.G. Maxalliy xom ashyolar va ikkilamchi maxsulot asosida defoliantlar ishlab chikarishning xozirgi kuni va kelajagi. Uzbekiston Kimyo jurnali Maxsus soni 2022y.168-176b.ISSN 0042-1707 http:www.uzchemj.uz
7. Umirov F.E.,Temirov U.Sh.,Sobirov B.T.,Umirov U.F. Oqova suvlarni tozalashga sorbentlar olish va ularning xossalarini o‘rganish. Fan va texnologiyalar taraqqiyoti ilmiy – texnikaviy jurnal BMTI 2023 oktabr E-mail: fantt_jurnal@umail.uz
8. *Zhurabek* Shodikulov, Farhad Umirov, *Najimuddin* Usanbayev, *Khamza* Trobov, *Azam* Rasulov, *Abdurasul* Mamataliyev. Kinetics of the conversion process of the MgCl2-NaClO.

E3S Web of Conferences **563**, 01026 (2024) https://doi.org/10.1051/e3sconf/202456301026 ICESTE 2024
9. Харитонов Ю.Я. Физико-химические методы анализа –М.Высшая школа. 2001, 252 с.
10. Методы анализа рассолов и солей / Ю.В.Морачевского, Е.М.Петровой.-М.:Химия, 1995.-404с.
11. Махмудов Рафик Амонович, Фатиллоев Шамшод Файзулла Угли. “Изучение макро и микроелементного состава отходов, получаемых на предприятиях по переработке шелковичного сырья” Универсум: технические науки 6.2 (119) (2024): 46-49.

*Baxshilloyev Nozim Komil O‘g‘li - Buxoro davlat texnika universiteti “Kimyo muhandisligi” kafedrasi doktoranti E-mail :*nozimbaxshilloyev96@gmail.com Tel: +998-882969000

Umirov Farxod Yergashovich - texnika fanlari doktori, professor. Navoiy davlat konchilik-texnologiyalar universiteti, 210100, Navoiy sh., O‘zbekiston Respublikasi. E-mail: Umirov3@yandex.ru. Tel.:(+998-97 322 44 35

Maxmudov Rafiq Amonovich - texnika fanlari doktori, professor. Buxoro davlat texnika universiteti “Kimyo muhandisligi” kafedrasi. Tel.: +998997752742 (c), E-mail: ramakhmudov@mail.ru

O‘SIMLIK CHIQINDILARI ASOSIDA OLINGAN UGLERODLI ADSORBENTLAR

Bokiyeva Sh.K.

Buxoro davlat texnika universiteti.

Annotatsiya. *Maqolada sanoat miqyosida ishlatiladigan faollashtirilgan uglerodli adsorbentlar foydalanish karbonizatsiya va oksidlovchi gazlar yordamida faollashtirish jarayoni natijasida g‘ovakli tuzilma, faollashgan uglerodning tuzilishi va xossalari biokimyoviy tarkibi piroliz jarayonining dinamikasini, unumdorligini, ishqalanishini va kul miqdorini belgilaydigan prekursorning tabiatiga bog‘liq.*

Tayanch so‘zlar: *faollantirilgan uglerodlar, oksidlovchi gazlar, sellyuloza biopolimerlari, sintez, noorganik birikmalar, biomassa, piroliz, biokimyoviy xossalar, zaharli gazlar, fotodegradatsiya.*

УГЛЕРОДНЫЕ АДСОРБЕНТЫ, ПОЛУЧЕННЫЕ НА ОСНОВЕ РАСТИТЕЛЬНЫХ ОТХОДОВ

Бокиева Ш.К.

Бухарский государственный технический университет.

Аннотатция. *В статье используются адсорбенты с активированным углем, применяемые в промышленных масштабах, пористая структура в результате процесса карбонизации и активации окислительными газами, структура и свойства активированного угля биохимический состав зависит от природы предшественника, определяющего динамику процесса пиролиза, производительность, трение и зольность.*

Ключевые слова: *активированный уголь, окислительные газы, биополимеры целлюлозы, синтез, неорганические соединения, биомасса, пиролиз, биохимические свойства, токсичные газы, фотодеградации.*

CARBON ADSORBENTS OBTAINED FROM PLANT WASTE

Bokieva Sh.K.

Bukhara state technical university.

Abstract. *The article uses adsorbents with activated carbon used on an industrial scale, a porous structure as a result of the carbonization process and activation by oxidizing gases, the structure and properties of activated carbon, the biochemical composition depends on the nature of the precursor, which determines the dynamics of the pyrolysis process, productivity, friction and ash content.*

Key words: *vegetable raw materials, activated carbon, oxidizing gases, cellulose biopolymers, synthesis, inorganic compounds, biomass, pyrolysis, biochemical properties, toxic gases, photodegradation.*

Butun dunyoda bugungi kunda ko‘pchilik neft konlari ishlatishning yakuniy bosqichida ekanligi ularda bosimni saqlab turish usullaridan keng foydalanishni talab etadi. Neft konlarida mahsuldor qatlamning bosimini saqlash maqsadida an’anaviy usullardan tashqari neft beraoluvchanlikni oshirishning ikkilamchi va uchlamchi usullaridan foydalanilmoqda. Bu esa o‘z navbatida qatlamga haydaladigan suvga bo‘lgan talab va uning sifat ko‘rsatkichlarini ortishiga olib keladi. Shuning uchun mahsuldor qatlamdan neft bilan birgalikda qazib olinayotgan qatlam suvini neft, mexanik aralashma va h.k.lardan tozalash nafaqat iqtisodiy tomondan balki atrof-muhit muhofazasini qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda neft va gaz konlari qatlam suvlarini talab darajasida tozalash texnologiyasini yaratish bo‘yicha ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu munosabat bilan qator ilmiy yechimlarni asoslashga, jumladan:

- neft va gaz konlari qatlam suvlarini uglevodorod qoldiqlaridan tozalash texnologiyasini takomillashtirish; yangi turdagi adsorbentlar olish yoki ularni modifikatsiyalash;
- neft va gaz konlari qatlam suvlari yoki sanoat oqava suvlarini uglevodorod qoldiqlari va mexanik aralashmalardan tozalashda modul qurilmalardan foydalanish;
- turli xil adsorbentlarni qo‘llagan holda neft va gaz konlari mahsuldor qatlam suvlarini qoldiq uglevodorodlardan tozalashning maqbul sharoitlarini yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Shuni ta’kidlash lozimki, mahalliy xomashyolar asosida yangi turdagi uglerodli adsorbentlar olish texnologiyasini ishlab chiqish va neft va gaz konlari mahsuldor qatlam suvi tarkibidagi mexanik zarrachalar hamda uglevodorod qoldiqlaridan tozalashning kombinatsion modul qurilmasini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari bugungi kungacha amalga oshirilmagan. Neft qazib chiqarishda mahsuldor qatlam suvlarini tayyorlashda import mahsulotlarini qo‘llash jarayonning qimmatlashuviga sabab bo‘lmoqda. Ushbu maqolada mahalliy xomashyolar asosida adsorbentlar olish va bir vaqtning o‘zida qatlam suvlarini neft qoldiqlari hamda mexanik zarrachalardan tozalashning modul qurilmasidan foydalanish orqali neft konlari qatlam suvlarini mahsuldor qatlamga haydash uchun mo‘ljallangan talab darajasigacha tozalash texnologiyasini yaratish muammolarini hal etish soha texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni oshirish imkonini beradi.

Neft konlari qatlam suvlari tarkibida organik komponentlar ham uchraydi. Neft qatlamlari suvida uglevodorod fraksiyalari miqdori u joylashgan qatlamdagi neftning tarkibiga bog‘liq. Shuning uchun suvdagi bitumoidlar koeffitsiyenti degan tushuncha kiritilgan. Bitumoidlar koeffitsiyenti, asosan, suv tarkibidagi uchuvchan uglevodorodlarning uchmaydigan uglerodli komponentlar miqdoriga nisbati orqali aniqlaniladi. Neft tarkibidagi kislotalarning suv tarkibiga o‘tishi orqali ularda sovun hosil bo‘lish holatlari ham kuzatiladi. Naften kislotalari suv tarkibiga o‘tganda uning tarkibidagi karbonat, gidrokarbonat va gidrosulfidlar bilan ta’sirlashuvi natijasida sovun hosil bo‘lishi mumkin.

Ko‘plab qatlam suvlari yuqori darajada yod, brom yoki qimmatbaho nodir metallar ham mavjud bo‘ladi. Bunday suvlar qimmatbaho xomashyo manbayi bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun dunyoda mahsuldor qatlam suvlaridan nodir metallarni ajratib olish yo‘lga qo‘yilgan. Respublikamizda ham ERIEL ELEMENT GROUP kompaniyasi tomonidan Shimoliy O‘rtabuloq konida mahsuldor qatlam suvidan yod va litiy elementlarini ajratib olish bo‘yicha ilmiy tekshirish va kerakli jihozlarni tanlash ishlari olib borilmoqda.

Barcha neft va gaz konlarining qatlam suvlari bir-biridan keskin farq qiladi. Ular, asosan, tarkibidagi tuzlar, gazlar va mikroorganizmlarning mavjudligi va miqdori jihatdan farqlanib turadi.

Qatlam suvlari tarkibidagi tuzlar neft tarkibiga o‘tishi natijasida ularni qayta ishlash bosqichida keskin muammolarga duch kelish mumkin. Olimlar qatlam suvlarini tahlil qilish orqali tarkibida erigan moddalar sifatida natriy, kalsiy va magniy xloridlar miqdor jihatdan eng ko‘p uchrashini ta’kidlab o‘tishgan.

Ko‘p hollarda, yer ostida geometrik tarzda ya’ni qatlam chuqurligi ortib borgan sari uning harorati ortadi, shunga mutanosib tarzda suvning harorati deyarli u joylashgan qatlam haroratiga teng bo‘ladi. Ba’zi hollarda boshqa qatlamlardagi suvlarning sizib kelishi natijasida qatlam suvi

haroratida o‘zgarish kuzatilishi mumkin. Shuning uchun quduqlarda yoki qatlamlarda boshqa qatlamlardan sizib o‘tilish mumkinligini inobatga olib tadqiqotlar olib boriladi, ya’ni qatlam yoki quduq suvining harorati o‘lchab turiladi. Agar bunday tuzlar (kalsiy kationlarining va magniy) ko‘p miqdorda bo‘lsa unda u suv qattiq hisoblanadi. Qattiq suv inson organizmi hamda texnika va texnologiyalarda qo‘llashda ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin, ya’ni idishlarda qurilmalarda dashqol hosil bo‘lishi bilan ifodalanadi.

Qatlamdan neft bilan birgalikda qazib chiqarilgan yo‘ldosh qatlam suvlarini utilizatsiya qilishning eng samarali usuli bu undan qatlam bosimini saqlovchi agent sifatida qo‘llash hisoblaniladi. Neft bilan birgalikda qazib chiqarilgan qatlam suvini maxsus haydovchi quduqlar orqali mahsuldor qatlamga haydashda OST 39-225-88 talablariga javob berishi lozim.

1-jadval. Suv sifati ko‘rsatkichlari va normalari

Ko‘rsatkichlar	Miqdori
pH	4,5 - 8,5
Erigan kislorod	0,5 mg/l dan kam emas
Korroziyaga faolligi	0,1 mm/yil dan ko‘p emas
Vodorodsulfid	Mavjud emas
Temir III	Mavjud emas
O‘tkazuvchanligi mavjud bo‘lgan g‘ovakli kollektorlarda suv haydashda mexanik aralashmalar va emulsiyalangan neft zarrachalarining hajmi:	
0,1 mkm^2 dan yuqori	90% zarrachalar 5mkm dan katta emas
0,1 mkm^2 gacha	1 mkm dan katta emas

Konni ishlatish jarayonida haydovchi quduqlarni ishdan chiqishining oldini olish va ularning yutuvchanligini pasayishini oldini olish maqsadida yuqoridagi jadvalda keltirilgan talablarga qat’iy rioya qilinishi lozim.

Neft va gaz konlari mahsuldor qatlam bosimini saqlash uchun qo‘llaniladigan qatlam suvlari hamda sanoat oqava suvlarini tozalash uchun o‘simlik chiqindilari asosida yangi turdagi uglerodli adsorbent olish va ushbu suvlarni tozalash texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat (1-rasm).



1-rasm. O‘simlik xomashyosini pirolizlash laboratoriya qurilmasi: *1–argon trubkasi; 2–argon va suv bug‘i aralashmasini uzatish trubkasi; 3–bug‘ generatori; 4–elektr isitgich; 5–reaktor; 6–mustahkamlovchi halqa; 7–tubi teshilgan reaksiya stakani; 8–xomashyo; 9–gaz chiqarish trubkasi; 10–termopara; 11–KS–2 jihozi; 12–manometr; 13–gaz analizatori; 14, 15, 16–ventillar; 17–sarf o‘lchagich.*

Piroliz jarayoni natijasida hosil bo‘ladigan gazlarning tarkibida to‘yingan va to‘yinmagan uglevodorodlar (masalan, CH_4, C_2H_6, C_2H_4, C_2H_2 va boshqalar) mavjud bo‘ladi. Ushbu gazlar

boshqa ko‘plab organik sintezlar uchun yoki piroliz jarayoni uchun yoqilg‘i sifatida ishlatilishi mumkin. Bunday yondashuv chiqindi hosil bo‘lmasligini ta’minlaydi, chunki hosil bo‘lgan gazlar va mahsulotlar qayta ishlanishi yoki energiya manbayi sifatida foydalanilishi mumkin, shu bilan birga, chiqindilarni kamaytirish va resurslarni samarali foydalanish imkonini beradi. Suyuq holda ajraladigan moddalardan organik birikmalar sintezi uchun foydalanish mumkin. Maydalagichdan so‘ng ko‘mir adsorbentlarni elaklar orqali ma’lum o‘lchamga keltirib fraksiyalarga ajratilganda hosil bo‘lgan kukinsimon ko‘mirlarni granula ko‘rinishidagi ko‘mir adsorbentlar yoki ekologik jihatdan toza ko‘mir briketlar olish uchun ishlatish mumkin.

Olib borilgan tadqiqotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad:

- mahalliy neft va gaz konlari mahsuldor qatlam suvlari hamda sanoat oqava suvlarining minerologik tarkibi va fizik-kimyoviy xususiyatlarini aniqlash;
- neft va gaz konlari mahsuldor qatlam suvlarini tozalash uchun tannarxi arzon bo‘lgan adsorbentlar olishda xomashyolarni tanlash;
- neft konlari qatlam suvlarini tozalashda samarador adsorbentlar olishni ilmiy asoslash va maqbul sharoitlarni aniqlash;
- olingan adsorbentlarning sorbsion xususiyatlarini aniqlash;
- neft va gaz konlari mahsuldor qatlam suvlarini tozalash jarayonlariga ishlab chiqilgan adsorbentlarni qo‘llash va modul qurilmaning ishlatish sharoitlarini aniqlash;
- mahalliy neft va gaz konlari mahsuldor qatlam suvlarini tozalashning takomillashtirilgan texnologiyasini sanoatda tajribadan o‘tkazish va uni sanoatda qo‘llashdan kutilayotgan iqtisodiy samaradorlikni baholash.

Analiz natijalari asosida elementar tarkibi deyarli o‘zgarmaganligini va faollantirish harorati ortib borish tartibida uglerodning miqdori ortib borishini ko‘rish mumkin (2-jadval).

2-jadval. Ko‘mir adsorbentlarning elementar tarkibi

№	Namunalar	C	O	K	Ca	S
1	FTK-500	82,1	8,9	4,1	3,7	1,2
2	FTK-700	91,9	-	3,7	3,5	0,9
3	FTK-900	93,1	-	3,2	3,1	0,6
4	FTK-S	94,2	-	2,7	2,8	0,3
5	FSK-500	80,4	12,3	3,7	2,8	0,8
6	FSK-700	93,9	-	3,4	2,1	0,6
7	FSK-900	94,8	-	3,1	1,7	0,4
8	FSK-S	95,0	-	2,9	1,8	0,3
9	FyuK-500	80,5	11,4	3,9	3,1	1,1
10	FyuK-700	93,3	-	3,3	2,6	0,8
11	FyuK-900	94,1	-	3,1	2,2	0,6
12	FyuK-S	94,2	-	3,2	2,1	0,5

Faollantirish harorati ortgan sari ko‘mirlarning suvni yutish xususiyati kamayishi aniqlandi. Suv bug‘i bilan faolashtirilgan namunalar termik faollantirilgan adsorbentlarga nisbatan suvni adsorbsiyalash qobiliyati yuqoriligi aniqlandi. Bu holatni suv bug‘i bilan faollantirish jarayonida ko‘mir sirtining oksidlanishi natijasi yana qo‘shimcha kislorodli funksional guruhlarning hosil bo‘lishi bilan izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Özsin G., Kılıç M., Apaydın-Varol E., Pütün A.E. Chemically activated carbon production from agricultural waste of chickpea and its application for heavy metal adsorption: Equilibrium, kinetic and thermodynamic studies. *Appl. Water Sci.* 2019;9:56. doi:10.1007/s13201-019-0942-8.
2. Ghorbani F., Kamari S., Zamani S., Akbari S., Salehi M. Optimization and modeling of aqueous Cr(VI) adsorption onto activated carbon prepared from sugar beet bagasse agricultural waste by

application of response surface methodology. *Surf. Interfaces.* 2020;18:100444. doi:10.1016 / j.surfin. 2020.100444
3. Bokiyeva Sh.K., Sharipov Q.Q., Ochilov A.A., Sattorov M.O. Mahalliy neft konlari oqova suvlarini tozalash usullari. Monografiya. Buxoro. Durdona nashriyoti. 2021. 100 b.
4. Бокиева, Ш.К., & Адизов, Б. З. (2023). Разработка сорбентов для применения в качестве очистки сточных вод нефтяных месторождений. *Universum: технические науки*, (11-5 (116)), 17-19.
5. Бокиева, Ш.К., & Адизов, Б. З. (2024). АНАЛИЗ СОДЕРЖАНИЯ АЗОТА В СТОЧНЫХ ВОДАХ НЕФТЯНЫХ МЕСТОРОЖДЕНИЙ. Universum: технические науки, 6(2 (119)), 18-20.
6. Бокиева, Ш.К., Адизов, Б.З., Халбаев, Х.Н., & Обидов, Ш.Ш. (2024). Адсорбенты, активируемые на основе растительных отходов, полученных в лабораторном оборудовании. Universum: технические науки, 3(9 (126)), 32-35.

Bokiyeva Shahnoza Komilovna - Buxoro davlat texnika universiteti, "Neft - gaz ishi" kafedrasi o'qituvchisi. Telefon:(+99893)657-47-38.

BENZOL SAQLAGAN BENZIN FRAKSIYALARINI GIDROIZOMERIZATSIYALASH JARAYONLARI TEXNOLOGIYALARI VA ULARDA QO'LLANILUVCHI KATALIZATORLARNI TADQIQ QILISH

Maxmudov M.J., Svaykosov S.O., Saloydinov A.A.

Buxoro davlat texnika universiteti.

Annotatsiya. *Maqolada benzol saqlagan benzin fraksiyalarining gidroizomerizatsiyasi to'g'risidagi ilmiy va texnik ma'lumotlar ekologik toza va yuqori oktanli dvigatel yoqilg'isining tarkibiy qismlarini olish usuli sifatida taqdim etilgan. Benzol saqlagan fraksiyalarni katalitik qayta ishlash asosiy usullarining afzalliklari va kamchiliklari, benzolni gidrogenlash, benzolni olefinlar bilan alkillash haqida hamda benzol saqlagan fraksiyalarni gidroizomerizatsiya qilishning istiqbolli katalizatorlari va texnologiyalari haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *yoqilg'i, benzin, aromatik uglevodorodlar, benzol, gidroizomerizatsiya.*

ИССЛЕДОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ПРОЦЕССОВ ГИДРОИЗОМЕРИЗАЦИИ БЕНЗОЛСОДЕРЖАЩИХ БЕНЗИНОВЫХ ФРАКЦИЙ И КАТАЛИЗАТОРОВ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В НИХ

Махмудов М.Дж., Свайкосов С.О., Салойдинов А.А.

Бухарский государственный технический университет.

Аннотация. *В статье представлены научно-технические данные о гидроизомеризации бензиновых фракций, в которых накапливается бензол, как способ получения экологически чистых и высокооктановых компонентов моторного топлива. Представлены сведения о преимуществах и недостатках основных методов каталитической переработки бензолохраняемых фракций, о гидрировании бензола, алкилировании бензола олефинами, о перспективных катализаторах и технологиях гидроизомеризации бензолохраняемых фракций.*

Ключевые слова: *топливо, бензин, ароматические углеводороды, бензол, гидроизомеризация.*

STUDY OF TECHNOLOGIES OF HYDROISOMERIZATION PROCESSES OF BENZENE-CONTAINING GASOLINE FRACTIONS AND CATALYSTS USED IN THEM

Makhmudov M.J., Svaykosov S.O., Saloydinov A.A.

Bukhara state technical university.

Annotation. *The article presents scientific and technical data on the hydroisomerization of gasoline fractions in which benzene accumulates as a way to obtain environmentally friendly and high-octane components of motor fuel. Information is presented on the advantages and disadvantages of the main methods of catalytic processing of benzene-conserved fractions, on the hydrogenation of benzene, alkylation of benzene with olefins, as well as on promising catalysts and technologies for the hydroisomerization of benzene-conserved fractions.*

Keywords: *fuel, gasoline, aromatic hydrocarbons, benzene, hydroisomerization.*

Avtomobil benzinlarida benzolni kamaytirish usullari. Zamonaviy neftni qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishi motor yoqilg‘ilarining ekologik xavfsizligini oshirishdir. Avtomobil benzinlari uchun zamonaviy ekologik standartlar talablarida aromatik uglevodorodlar yig‘indisining maksimal miqdori 35 %, benzol esa 1 % darajasida bo‘lishi qat’iy belgilab qo‘yilgan. Masalan, Rossiyada tijorat benzinlari tarkibiga 50% gacha, AQSHda esa 30% gacha katalitik riforming benzin komponentlari qo‘shiladi. Ularning oktan sonlari esa aromatik uglevodorodlarning yuqori miqdori bilan ta’minlanadi. Riforming jarayoni benzinlaridan aromatik uglevodorodlarini kamaytirishning zamonaviy va istiqbolli usullarining aksariyati, birinchi navbatda, benzolni eng zaharli komponent sifatida ajratib olishga qaratilgan. Umuman olganda, ikkita bir-biridan tubdan farq qiluvchi yondashuv hozirda qo‘llanilmoqda [1].

Birinchi yondashuvda, katalitik riforming xomashyosini dastlabki fraksiyalashga asoslangan (62-180 °C qaynash chegarasi bo‘lgan, to‘g‘ridan to‘g‘ri haydab olingan fraksiya, tarkibida benzol prekursorlari bo‘lgan va C_6 uglevodorodlarini saqlagan) [1]. Xomashyoni dastlabki fraksiyalashga asoslangan texnologiyalarni amalga oshirish juda sodda, ammo ular bir nechta muhim kamchiliklar tufayli sanoatda keng qo‘llanilmadi.

- Birinchidan, ulardan foydalanganda yengil, ya’ni yuqori oktanli komponentlar ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada kamayadi, bu esa tovar benzinlarning sifatiga salbiy ta’sir qiladi.
- Ikkinchidan, riforming mahsulotlaridagi benzol miqdori keng fraksiyani (62-180 °C to‘g‘ridan to‘g‘ri fraksiya) qayta ishlash variantlariga nisbatan 60-70% dan oshmaydi.
- Uchinchidan, past oktanli maxsus xomashyo fraksiyasidan foydalanish muammosi mavjud va uni sof shaklda birlashtirishga yo‘naltirish mumkin emas.

Katalitik riforming benzinidan olingan benzol saqlagan fraksiyani katalitik qayta ishlashga asoslangan ikkinchi yondashuv yanada istiqbolli hisoblanadi. Benzol saqlagan fraksiyalarni bunday qayta ishlash variantlari sifatida benzolni olefinlar bilan alkillash, benzolni siklogeksanga gidrogenlash, shuningdek, benzol saqlagan fraksiyalarni gidroizomerlashtirish misol bo‘la oladi.

Benzolni yengil olefinlar bilan alkillash benzinning oktan sonini tushurmasdan riformatlardagi benzol miqdorini kamaytirishning samarali usuli hisoblanadi [2]. Ushbu jarayonning asosiy afzalliklariga, neftni qayta ishlash zavodlarida yengil olefinlarning ortiqcha miqdorini benzin ishlab chiqarish uchun xomashyo bazasiga jalb qilish, shuningdek, vodorodga ehtiyoj yo‘qligi kiradi. Ilmiy adabiyotlarda benzolning alkilatsiyasi, birinchi navbatda, individual uglevodorodlarni ishlab chiqarish usuli sifatida qaraladi, bunda katalizatorlar sifatida, asosan, har xil turdagi seolitlarga asoslangan tizimli katalizatorlar ishlatiladi (ZSM-5, ZSM-11, ZSM-12, ZSM-22, ZSM-23, ZSM-35, ZSM-38, MCM-22, MCM-36, MCM-49, MCM-56, Y, BETA va boshqalar) [2].

Seolit saqlagan katalizatorlar katalitik riforming benzinlaridagi benzolni alkillash uchun bir qator sanoat texnologiyalarida ham qo‘llaniladi. Ulardan eng mashhuri BenzOut (Exxon Mobil) jarayoni bo‘lib, unda birinchi bosqichda benzol MCM – 22 seolitida propilen bilan, ikkinchi bosqichda esa Zsm-5 seolitida etilen bilan alkillanadi. SAPRNeftexim tomonidan taklif qilingan jarayonda katalitik kreking gazlari alkillashtiruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Bunda katalizatorning asosi TSVM (ZSM-5) seolitidir. Seolit saqlagan katalizatorlarda alkillanish jarayoni reaksion-rektifikatsion apparatlarida ham amalga oshiriladi [3].

Benzolni olefinlar bilan alkillash jarayonida ishlatiladigan katalizatorlarning yana bir turi “qattiq fosfor kislotasi”ga asoslangan tizimdir. Ushbu turdagi eng mashhur texnologiya 1990-yildan beri faoliyat yuritib kelayotgan UOP Alkymax jarayonidir. Sasol tomonidan ishlab chiqilgan yana bir shunga o‘xshash jarayonda benzol saqlagan fraksiyani qayta ishlash C_3-C_4 alkenlarini oligomerizatsiya qilish jarayoni bilan birlashtirilishi taklif etiladi [3].

Benzinni riforming qilishda olefinlarni xomashyo sifatida ishlatmasdan benzollarni alkillash usullari alohida e’tiborga loyiqdir. Ba’zi ishlarda alkillashtiruvchi moddalar sifatida xomashyoda mavjud bo‘lgan alkanlardan foydalanish taklif qilingan. Benzolni kamaytirishning shunga o‘xshash

usuli, shuningdek, benzolni aromatik uglevodorodlar C_{9+} bilan reformat fraksiyalari tarkibida transalkilatsiyalashdir.

Shuni ta’kidlash kerakki, benzolsizlantirishning nisbatan yuqori samaradorligiga qaramay, alkillanish benzin fraksiyalarida aromatik uglevodorodlarning umumiy miqdorini kamaytirishga imkon bermaydi, bu uning sanoat amaliyotiga keng tatbiq etilishiga asosiy to‘siq bo‘ladi.

Benzolni siklogeksanga gidrogenlash benzolsizlantirishning nisbatan arzon va ishonchli usuli hisoblanadi. Dunyoning yetakchi litsenziantlari tayyor va uzoq vaqt sinovdan o‘tgan gidrogenlash texnologiyalarini taklif qilishadi, masalan, BenSat (UOP) platina saqlagan katalizatordan foydalanadigan yoki Ni/Al_2O_3 katalizatorlarida katalitik distillash rejimida amalga oshiriladigan BenFree (Axens) jarayonlari va CDHydro (CD Tech.). Benzol saqlagan fraksiyalarda benzolni gidrogenlash texnologiyalarini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri rektifikatsiya-reaksion apparatlarning ish rejimlarini optimallashtirishdan iborat, shuningdek, murakkab tarkibdagi katalizatorlardan foydalanish, masalan, $NiO-SiO_2-ZrO_2-Al_2O_3$ yoki seolit asosidagi tizimlar X, Y, BETA, ZSM-5. Eng oxirgisi konversiyalangan aromatik uglevodorodlar ishtirokida benzolni selektiv gidrogenlash uchun ishlatilishi mumkin. Benzolni siklogeksanga gidrogenlash asosida olib boriladigan benzolsizlantirish texnologiyalarining barcha umumiy kamchiligi bu mahsulotning oktan sonining sezilarli darajada kamayishi hisoblanadi [4].

Oktan soni pasayishining o‘rnini to‘ldirish, benzolni gidrogenlash va hosil bo‘lgan siklogeksanni metilsiklopentanga izomerizatsiya qilish jarayonlarini birlashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin, ularning oktan sonlari tadqiqot usuli (TU) bo‘yicha mos ravishda 81 va 93 ni tashkil qiladi. Gidroizomerizatsiya mahsulotlarining oktan sonining qo‘shimcha o‘sishi xomashyoda mavjud bo‘lgan chiziqli alkanlarning izomerizatsiyasi bilan ta’minlanadi. Bunday holatda, qayta ishlashning ikkita variantini, ya’ni turli reaktorlarda gidrogenlash va izomerizatsiya jarayonlarini ishonchli amalga oshirish yoki ularni bitta qurilmada birlashtirish mumkin. Birinchi holda, ikkala bosqichda, qoida tariqasida, an’anaviy gidrogenatsiya va izomerizatsiya katalizatorlari qo‘llaniladi, ikkinchisida esa texnologik jihatdan jarayon yanada yetuk, ammo o‘ziga xos katalizatorlardan foydalanishni talab qiladi.

Benzol saqlagan fraksiyalarni gidroizomerizatsiya qilish jarayonlari. ***Ikki bosqichli gidrogenlash-izomerizatsiya jarayonlari.*** Bugungi kunda gidroizomerizatsiya jarayonlarining eng keng tarqalgan turlari bu – mahsulotini gidrogenlash va izomerizatsiya qilish bilan benzol saqlagan fraksiyalarni gidrogenlashning ketma-ket bosqichlaridir. Bir qator xorijiy kompaniyalar gidrogenatsiya hamda izomerizatsiya jarayonlarini turli katalizatorlarda, turli reaktorlarda yoki bitta blokda amalga oshiriladigan texnologiyalarni joriy etishni taklif qilmoqdalar.

UOP kompaniyasi 1991-yilda Penex-Plus sanoat texnologiyasini taklif qildi, u benzol miqdori yuqori bo‘lgan xomashyodan yuqori oktanli ekologik toza motor yoqilg‘isi komponentlarini olish uchun mo‘ljallangan. Ushbu texnologiya asosida 4 ta sanoat qurilmasi foydalanishga topshirildi, ulardan birinchisi 1995-yilda ish boshladi. Penex-Plus texnologiyasi Bensats va Penex jarayonlarini birlashtiradi (xlorli aluminoplatinali katalizatorda C_5-C_7 alkanlarini izomerizatsiyalash). Jarayon benzindagi benzol miqdorini 0,1 % gacha kamayishni va shu bilan bir qatorda mahsulotning oktan sonini ham oshishini ta’minlaydi [5].

Fransiya neft instituti (IFP) tomonidan patentlangan shunga o‘xshash jarayonda yengil, to‘g‘ridan to‘g‘ri haydab olingan benzin fraksiyasi mahsulotini gidrogenlash va izomerizatsiya qilish an’anaviy $Pt/Cl-/Al_2O_3$ yoki Pt/mordenit katalizatorlarida amalga oshirilishi taklif etiladi. O‘zlarining versiyasi, tashuvchisi η-Al_2O_3 va γ-Al_2O_3 fazalari aralashmasidan iborat xlorli aluminiy asosidagi katalizatorni ham taklif etadilar.

Catalytic Distilation Technologies kompaniyasining usuliga ko‘ra (benzindan benzolni yoq qilishga yo‘naltirilgan) katalitik riforming benzini ikki qatlamli gidrogenlash va izomerizatsiya katalizatorlarini o‘z ichiga olgan reaksiya-rektifikatsiya apparatida qayta ishlanadi.

Samara texnika universitetining rossiyalik ishlab chiquvchilari tomonidan esa, bitta ikki qavatli reaktorda amalga oshiriladigan ikki bosqichli jarayonning bir varianti taklif qilingan.

Jarayonning birinchi bosqichida benzol saqlagan benzinni riforming qilish kerak bo‘lgan fraksiyasi va to‘g‘ridan to‘g‘ri qaynab boshlash harorati 70 °C bo‘lgan oqim fraksiyasining aralashmasi gidrogenlanadi, unga reaksiyaga kirishmagan uglevodorodlarning aylanma oqimi ham qo‘shiladi. Izomerizatsiya zonasidagi haroratni tartibga solish, gidrogenatsiyaga yo‘naltirilgan xomashyo tarkibini o‘zgartirish, xususan, aylanma oqim mahsulotining miqdorini o‘zgartirish orqali amalga oshiriladi. Jarayonda BETA seolit asosidagi izomerizatsiya katalizatoridan foydalanishni taklif qiladi [6].

Birlashgan izomerizatsiya-gidrogenatsiya jarayonining yana bir turi Amerika firmasi (Amoco) tomonidan taklif qilingan. Ushbu texnologiyaga ko‘ra, birinchi bosqichda yengil to‘g‘ridan to‘g‘ri haydab olingan benzin seolit saqlagan katalizatorlarda (mordenit, Y, BETA) izomerizatsiya qilinadi.

Ikkinchi bosqichda esa, izomerizatsiya mahsuloti benzol saqlagan xomashyo bilan birga gidrirlanadi.

Benzol saqlagan fraksiyalarni gidroizomerizatsiya qilish jarayonlari va katalizatorlari.

Gidroizomerizatsiya jarayonining samarali ishlashi uchun zarur bo‘lgan shartlardan biri, bu benzolni gidrogenlash va siklogeksanni izomerizatsiya qilishning qaytariladigan reaksiyalarining termodinamikasi bilan belgilanishidir.

Benzolning siklogeksangacha gidrogenlanishi vodorodning sarf bo‘lishi bilan sodir bo‘ladi (1 mol C_6H_6 uchun 3 mol H_2). Bu reaksiya yuqori ekzotermiklik bilan tavsiflanadi (ΔH=–206-221 kJ/mol benzol). Benzolning muvozanat darajasi harorat, bosim va mol nisbati H_2:C_6H_6 ga bog‘liq. Gidrogenlash reaksiyasining olib borilish darajasi (chuqurligi) haroratning pasayishi, bosimning oshishi va H_2:C_6H_6 mol nisbati bilan ortadi [7]. Amaldagi jarayon haqidagi ma’lumotlaridan kelib chiqib bilishimiz mumkinki, 1,5 MPa dan yuqori bosimda siklogeksan va metilsiklopentan hosil qilish uchun benzolni termodinamik jihatdan to‘liq gidrogenlash mumkin bo‘lgan maksimal harorat 350 °C ni tashkil qiladi.

Siklogeksanning (SG) maqsadli mahsulotga izomerizatsiyalanish reaksiyasi, metilsiklopentan (MSP) hajmi o‘zgarmasdan davom etadi, shuning uchun termodinamik muvozanat faqat haroratga bog‘liq hisoblanadi. SG ning MSP ga izomerizatsiyasi bilan issiqlik yutilishi (taxminan 16 kj/mol) sodir bo‘ladi, ya’ni metilsiklopentan hosil bo‘lishiga yuqori reaksiya harorati yordam beradi. Gidroizomerizatsiya jarayonining chuqurligini metilsiklopentan:siklogeksan (MSP:SG) nisbati bo‘yicha baholash odatiy holdir. Ma’lumotlarga ko‘ra, MSP:SG ning 250 °C da muvozanat nisbati 3,7, 300 °C da 5,2, 350 °C da esa 6,7 ga yetadi, ammo, bunday haroratda reaksiya o‘tkazish krekingning yon (boshqa bir) jarayonlarini kuchaytiradi.

Shunday qilib, bosim, vodorod: xomashyoning mol nisbati va harorat kabi jarayon parametrlarining kombinatsiyasi benzolni to‘liq gidrogenlash imkoniyatini va MSP:SG ning yuqori nisbatini ta’minlashi kerak hisoblanadi.

Izomerizatsiya katalizatorlari – ikki funksiyali (bifunksional) tizimlar bo‘lib, ularda gidrlashtiruvchi komponent sifatida an’anaviy ravishda platina, kamdan-kam hollarda palladiy ishlatiladi. Ushbu katalizatorlar uchun eng ko‘p ishlatiladigan tashuvchilar sof shaklda ham, alyuminiy oksidi bilan aralashtirilgan turli xil seolitlardir. Ushbu sohadagi tadqiqotlarning katta qismi oksidli tashuvchilarga, shu jumladan, anion modifikatsiyalangan metall oksidlariga bag‘ishlangan. Shuningdek, ommaviy va SiO_2 geteropolikislota $CS_{2,5}H_{0,5}PW_{12}O_{40}$ ga asoslangan tashuvchi ham ma’lum [8].

Seolit saqlagan gidroizomerizatsiya katalizatorlari. Tadqiqotchilar tomonidan Chinese Petroleum Corporation benzol miqdori 2 dan 15 % gacha bo‘lgan benzol saqlagan xomashyoni Pt/seolit tipidagi katalizatorda gidroizomerizatsiya qilishni taklif qiladi. Tashuvchilarning tarkibiy qismlari sifatida har bir tizimga Al_2O_3 qo‘shilgan BETA, mordenit, Y seolitlari o‘rganilgan. Jarayon oqimli reaktorida yoki reaksion-rektifikatsiya apparatida 260 °C haroratda amalga oshiriladi. Barcha katalizatorlar benzolning to‘liq o‘zgarishini ta’minlaydi, shuningdek, Pt/mordenit-Al_2O_3 katalizatori uchun mahsulotlarda MSP miqdori 6,8 % ni, Pt/Beta-Al_2O_3 uchun 6,4 %, Pt/Y-Al_2O_3 –

6,1 % ni tashkil qilishi kerak. BETA seolitida Pt (yoki Pd) yordamida benzol saqlagan fraksiyalarni gidroizomerizatsiya qilish jarayonlari ham o‘rganilgan [9].

AQSH tadqiqotchilari C_5-C_7 parafinlari va benzolning an’anaviy aralashmasini gidroizomerizatsiya qilish uchun H-ZSM-12 markali seolitni platina saqlagan katalizatorga tashuvchi sifatida ishlatishni taklif qilishdi. Xomashyoda benzolning mavjudligi izomerizatsiya reaksiyalarida katalitik tizimning faolligiga ta’sir qilmasligi va shu bilan birga jarayonda harorat 270-360 °C oralig‘ida bo‘lishi gidrogenatsiya bilan to‘liq ta’minlashi mumkinligi aniqlangan.

Katalizatorlarni ishlab chiqish va gidroizomerizatsiya jarayonining texnologik tizimi bo‘yicha ishlangan tadqiqotlar orasida bir nechta ishlarni ta’kidlab o‘tish kerak.

“VNIINeftexim” OAO mordenit asosidagi IPM-02 katalizatori yordamida benzol saqlagan riforming-benzin fraksiyasini gidroizomerizatsiya qilish texnologiyasini ishlab chiqdi. Jarayon 270 °C dan yuqori bo‘lmagan haroratda va 2-3 MPa bosimda amalga oshiriladi, katalizatorning regenerativ sikli 1,5–2 yilni tashkil qiladi.

“OLKAT” kompaniyasi tomonidan esa DEBOLK jarayoni taklif etiladi, unda qaynab boshlash harorati 85 °C ni tashkil qiluvchi riformatning yengil qismi benzolini K–150B katalizatorida MSPgacha selektiv gidroizomerizatsiya qilish amalga oshiriladi. Bundagi katalizator seolit (mordenit), alyuminiy oksidi va o‘zgartiruvchi qo‘shimchalar aralashmasida 0,3 % platinani o‘z ichiga oladi. Regenerativ sikl oralig‘i uch yildan ortiq deb belgilanadi [10]. Debolk jarayoni uchun odatdagi riforming yoki gidrotozalash qurilmalaridan foydalanish mumkin. Gidroizomerizatsiya jarayoni 240-330 °C haroratda, 1,5–3 MPa bosimda, xomashyoni yetkazib berishning hajmiy tezligi (XAEBHT) 2-4 $soat^{-1}$, VSG aylanishining karraligi esa 800-1200 m^3/m^3 dagi sharoitda amalga oshiriladi. Jarayon davomida benzolni deyarli to‘liq yoq qilishga (o‘zgartirishga) erishiladi (qoldiq miqdori 0,1–0,5 %) va mahsulotning oktan soni nisbatan 1-3 punktga ko‘payadi, gidroizomerizatning chiqishi 97-98 % ni, MSP miqdori esa 15,3-16,1 %ni tashkil qiladi.

IPPU SO RANda ham benzolni MSPga gidroizomerizatsiya qilish va xomashyo tarkibidagi n-alkanlarni izomerizatsiya qilish orqali riforming-benzinlarda benzol miqdorini kamaytirish uchun katalizator ishlab chiqilgan. Katalizator mordenit tipidagi g‘ovakli seolit matritsasida taqsimlangan yuqori dispersiyali platina hisoblanadi. Katalizatordagi Pt miqdori 0,1 dan 0,3 % gacha bo‘ladi, ya’ni bu xomashyo tarkibidagi benzol tarkibiga bog‘liq [11]. Katalizatorni 250-320 °C haroratda, 2-3 MPa bosimda va xomashyoni yetkazib berishning hajmiy tezligi 2-3 $soat^{-1}$ bo‘lgandagi sharoitda ishlatganda, suyuq mahsulotlar chiqishi 99 % ni hamda nisbatan oktan sonining o‘sishi 2-8 punktni tashkil qiladi. MSP ning maksimal chiqishi esa 16 % ga yetadi.

Anion modifikatsiyalangan metall oksidlariga asoslangan katalizatorlar. Oksidli katalizatorlar ichida benzol saqlagan fraksiyalarning katalizatori sifatida anion modifikatsiyalangan zirkonyum oksidiga asoslangan tizimlari eng ko‘p o‘rganilganidir.

Yaponiyaning Japan Energy Corporation korporatsiyasi tomonidan 1990-yillarning oxirlarida $Pt/SO_4^{2-}/ZrO_2$ va $Pt/SO_4^{2-}/ZrO_2$-Al_2O_3 katalizatorlarida benzol saqlagan fraksiyani gidroizomerizatsiya qilish jarayoni birinchilardan bo‘lib patentlangan, bu yerda tashuvchi gidratlangan zirkonyum va alyuminiy oksidlarini aralashtirish orqali olingan [12]. Jarayon t=150–330 °C, P=0,4–15 MPa, hajmiy tezlik 0,5–10 $soat^{-1}$ da amalga oshirilgan. Benzolning qoldiq miqdori 0,01% dan oshmasligi o‘rganilib chiqilgan. Keyinchalik Yaponiya Milliy resurslar va ekologiya instituti xodimlarining ishlarida benzolni MSPga gidrogenlash va izomerizatsiya qilish jarayonida (250 °C haroratda va vodorodning 5,5 MPa bosimida) faolligi bo‘yicha $Pt/SO_4^{2-}/ZrO_2$ katalizatori Pt/seolit (HY, H-mordenit) tizimlaridan yuqori ekanligini isbotlangan.

Oqimli reaktorda benzol saqlagan xomashyoni gidroizomerizatsiya qilish jarayonida 0,36 % Pt/ZrO_2-SO_4^{2-} sulfatlangan zirkonyum oksidi tarkibiga tashuvchi (bog‘lovchi) sifatida 10 % Al_2O_3 ni o‘z ichiga oladi, bu UOP patentida ham keltirilgan. Bu jarayon C_4-C_6 parafinlari va 2-25 % benzol aralashmasini izomerizatsiya qilish usullaridan birini tavsiflaydi [13]. Reaktorning yuqori zonasida 93-176 °C da benzol siklogeksanga gidrogenlanadi, so‘ngra reaktorning pastki zonasida

121-176 °C haroratda siklogeksan va parafinlar MSP hamda tarmoqlangan tuzilishga ega uglevodorodlarga izomerlanadi. Mahsulotdagi benzol miqdori 0,1 % dan kam bo‘lib qoladi.

RAN SO IPPU benzol saqlagan benzin fraksiyalarini gidroizomerizatsiya qilishda katalizator sifatida $Pt/SO_4^{2-}/ZrO_2$-Al_2O_3 tizimini ishlatishni batafsil o‘rganib chiqdilar. Sanoat miqyosidagi va benzol saqlagan xomashyolarni (b.q. fraksiyasi – 85 °C riformat) gidroizomerizatsiya qilish jarayonlarini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatdiki, Al_2O_3 ning katalizator tashuvchidagi optimal tarkibi 67,8 % hisoblanadi. Ushbu katalizator benzolning to‘liq konversiyasini va gidroizomerizatsiya mahsulotining oktan sonini 2-3 punktga oshirishini ta’minlaydi, shuningdek, suyuq mahsulotlarning chiqishini (xomashyoga nisbatan) deyarli yo‘qotmaydi. Ushbu katalizator patentlangan “Pentaforming” texnologiyasining asosidir [14].

Volfram saqlagan zirkonyum oksidiga asoslangan bifunksional tizimlari gidroizomerizatsiya jarayonining katalizatori sifatida ham qo‘llaniladi. Argentina ilmiy-tadqiqot instituti (INCAPE) xodimlari tomonidan Pt/WO_3-ZrO_2 katalizatorida benzol saqlagan (3-15 %) parafinli xomashyoning gidroizomerizatsiyasini o‘rganish bo‘yicha material chop etilgan. Bunda 300 °C haroratda va 3 MPa bosimda benzolning konversiya darajasi 95,7 % ni va MSP hosil bo‘lishining selektivligi 77,3 % ni tashkil qiladi. Ushbu turdagi katalizator ishlatilganda xomashyodagi benzol mavjudligi n-geksan izomerizatsiyasining selektivligini oshiradi. Katalizator zaharlanishining oldini olish uchun xomashyodagi oltingugurt kontsentratsiyasi 10 ppm dan kam bo‘lishi kerak [15].

Anion-modifikatsiyalangan alyuminiy oksidiga asoslangan gidroizomerizatsiya katalizatorlari nisbiy mavjudligi va ishlab chiqarish qulayligi bilan ajralib turadi. 1970-yillarda UFA davlat neft texnik universiteti (UDNTU) negizida RIGIZ jarayoni ishlab chiqilgan bo‘lib, unda katalitik riforming va uning bosh fraksiyasini gidroizomerlashtirish jarayonlari bir-biriga bog‘langan. Riforming katalizati benzol saqlagan b.q. 85 °C fraksiyasini ajratib rektifikatsiya qilinadi, keyinchalik xlorli alyumoplatina katalizatorida 300 °C dan yuqori haroratda gidroizomerizatsiya qilinadi [16].

SO RAN IPPUda benzol saqlagan fraksiyalarni gidroizomerizatsiya qilish katalizatori sifatida borat va volfram saqlagan alyuminiy oksidiga asoslangan platinani o‘z ichiga olgan tizimlar batafsil o‘rganilgan bo‘lib, ularning afzalliklari yuqori termal va gidrotermal barqarorlikdir, bu esa xomashyo talablarini sezilarli darajada kamaytiradi hamda gidroizomerizatsiya jarayonini nisbatan yuqori haroratlarda (300 °C va undan yuqori), ya’ni maksimal harorat sharoitlarida metilsiklopentanning muvozanatli chiqishi bilan jarayonni amalga oshirish imkonini beradi. Ushbu tizimlar uchun tashuvchining tarkibi va tayyorlash sharoitlari ularning katalitik xususiyatlariga ta’siri batafsil o‘rganilgan bo‘lib, tashuvchida bor oksidining optimal miqdori 27,5 %, volfram oksidi miqdori esa 25,9 % ekanligi ko‘rsatiladi. Bunday katalizatorlar jarayonda suyuq mahsulotlar kamida 98 % chiqarilganda, katalitik riformingning benzol saqlagan fraksiyalaridan benzolni to‘liq konversiyalanishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, mahsulotni oktan sonining kamayishi (xomashyo bilan taqqoslaganda) 1,5 punktdan oshmaydi.

Xulosa. An’anaviy katalitik riforming texnologiyalaridan foydalangan holda avtomobil benzinlarining zamonaviy talablarda ko‘rsatilgan ekologik xavfsizligini ta’minlash juda qiyin masala bo‘lib topiladi. Benzol saqlagan fraksiyani ajratib uni navbatdagi muqobil katalizatorga ega gidroizomerizatsiya jarayoniga berish, amalda benzolni katalitik riforming benzinidan butunlay yoq qilish, shu bilan bir qatorda, mahsulot rentabelligini saqlab (xomashyoga nisbatan tayyor mahsulotning) va ularning antidetonatsion turg‘unligini pasaytirmagan holda mahsulot olish imkonini beradi. Shunday qilib, yaqin kelajakda gidroizomerizatsiya jarayoni neftni qayta ishlash zavodlarida katalitik riforming texnologiyalarining ajralmas qismiga aylanishi mumkin bo‘lgan istiqbolli jarayonlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Svaykosov S.O. Hydroisomerization of gasoline fractions stored in benzene is the basis of modern, environmentally friendly engine fuel extraction technologies. Science and Education in Karakalpakstan 2024 y. №4/2 (45). 165-170 p.

2. Федорова Е.Д., Лавренов А.В., Булучевский Е.А., Богданец Е.Н. Гидроизомеризация бензолсодержащих бензиновых фракций - основа современных технологий получения экологически чистых моторных топлив // Российский химический журнал. 2018. №1-2.
3. Kazakov M.O., Lavrenov A.V., Likholobov V.A. Simultaneous benzene alkylation and alkanes isomerization on Ni- and Ni-Re-promoted sulfated zirconia catalysts // 15th International Congress on Catalysis 2012. July 01 - July 06, 2012. Munich. Germany. (www.icc2012.org).
4. US 7959793 Optimum process for selective hydrogenation/hydro-isomerization, aromatic saturation, gasoline, kerosene and diesel/distillate desulfurization (HDS). RHT-hydrogenationSM, RHT-HDSSM / A.S. Bakshi. 2011.
5. Белопухов, Е. А., Смоликов, М. Д., Кирьянов, Д. И., & Белый, А. С. (2012). Влияние содержания платины в катализаторе Pt/MOR/Al_2O_3 на его активность в реакции гидро-изомеризации бензола. Журнал Сибирского федерального университета. Химия, 5 (4), 398-404.
6. А.З.Мамедова, С.Е.Мирзалиева, Э.И.Ахмедов, С.Э.Мамедов (2016). Изомеризация н-гептана на модифицированных платиноцеолитных катализаторах. Проблемы химии, (2), 175-179.
7. Махмудов М. Ж., Свайкосов С. О. Сравнение эффективности присадок в повышении октанового числа бензина // Universum: технические науки. – 2022. – №. 6-5 (99). – С. 29-32.
8. Махмудов М. Ж., Свайкосов С. О. Получение антидетонационной присадки на основе этилового спирта и исследование её влияния на детонационную стойкость низкооктановых бензинов //Universum: технические науки. – 2022. – №. 6-5 (99). – С. 24-28.
9. Maxmudov M. et al. etanol va mahalliy ai-80 benzini asosida olingan e-10 avtomobil benzinini fazaviy barqororligini yaxshilash uchun prisadka olish //Interpretation and researches. – 2023. – Т. 1. – №. 7.
10. Агзамов Ш. К. и др. Оценка использования опреснительных установок на нефтегазовых промыслах //Наука и образование сегодня. – 2018. – №. 6 (29). – С. 17-18.
11. Агзамов Ш. К. и др. Очистка факельного газа для использования в качестве топливного газа //European research: innovation in science, education and technology. – 2018. – С. 21-23.
12. Maxmudov M. et al. Etanol hám jergilikli ai-80 benzini tiykarında alińǵan e-10 avtomobil benzininiń fazalíq turaqlílíǵín jaqsílaw ushín prisadka alíw //Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – Т. 1. – №. 23.
13. Maxmudov M. et al. Etanol hám jergilikli ai-80 benzini tiykarında alińǵan e-10 avtomobil benzininiń fazalíq turaqlílíǵín jaqsílaw ushín prisadka alíw //Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – Т. 1. – №. 23.
14. Makhmudov M. J., Svaykosov S. O., Abilov E. A. Method for reducing aromatic hydrocarbons in composition of gasoline-Science and Education in Karakalpakstan № 4/1 //Nukus–2021. – С. 111-119.
15. Maxmudov M. J., Svaykosov S. O. Avtomobil benzininin oktan sanin aslriwda antidetonaciyaliq qoslmshalardin onimdarllgm sallstlrlw-Ilim ham jamiyet ilimiy-metodikaliq jurnal № 5 //Nokis-2021. – С. 25-27.
16. Makhmudov M. J., Svaykosov S. O. Avtomobil benzinleriniń quramíndaǵı aromatikalíq uglevodorodlar hám benzol muǵdarlarín kemeytiriw usíllarí-Вестник КГУ им //Бердаха. Нукус. – 2021. – №. 4. – С. 53.

Maxmudov Muxtor Jamolovich – Buxoro davlat texnika universiteti. «Neft va gazni qayta ishlash texnologiyasi» kafedrasi professori, k.f.d. Tel.: (99) 556-88-91. E-mail: makhmudov.mukhtor@mail.ru

Saloydinov Aziz Avazovich – Buxoro davlat texnika universiteti. «Neft va gazni qayta ishlash texnologiyasi» kafedrasi dotsenti,t.f.f.d. Tel.: (91) 974-74-40.E-mail: avazovichaziz51@gmail.com

SANOATDA TABIIY GAZNI QAZIB OLISH VA UNI QAYTA ISHLASHDA ENERGIYA SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING IMKONIYATLARI

Sadullayev N.N., Murtazoyev F.F.
Buxoro davlat texnika universiteti.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada gaz qazib chiqarish va qayta ishlash bo'yicha qilingan ilmiy ishlarning ahamiyati va kelgusida energiya samaradorlikni oshirishdagi imkoniyatlar xususida so'z boradi.*

Kalit so'zlar*: energiya samaradorlik, tabiiy gaz, qayta ishlash, energiya iste'mol.*

ВОЗМОЖНОСТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТИ ПРИ ДОБЫЧЕ И ПЕРЕРАБОТКЕ ПРИРОДНОГО ГАЗА В ПРОМЫШЛЕННОСТИ

Садулаев Н.Н., Муртазоев Ф.Ф.
Бухарский государственный технический университет.

Аннотация. *В статье обсуждается важность научной работы в области добычи и переработки газа, а также возможности будущего повышения энергоэффективности.*

Ключевые слова: *энергоэффективность, природный газ, переработка, потребление энергии.*

POSSIBILITIES OF INCREASING ENERGY EFFICIENCY IN THE EXTRACTION AND PROCESSING OF NATURAL GAS IN INDUSTRY.

Sadullayev N.N., Murtazoyev F.F.
Bukhara state technical university.

Annotation. *This article discusses the importance of scientific work in gas production and processing and the opportunities for future energy efficiency improvements.*

Keywords: *energy efficiency, natural gas, recycling, energy consumption.*

Mamlakat, mintaqa yoki butun dunyoning energiya iste'moli prognozi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar va demografik o'sish bilan belgilanadi. Energiya iste'molining o'sishi aholi farovonligining oshishi bilan bog'liq. Shuningdek, jahonning yetakchi mamlakatlari neft-gaz sanoatini rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari deb quyidagilarni hisoblashadi [1]:

- mavjud texnologiyalarning energetik samaradorligini oshirish usullarini ishlab chiqish;
- texnologiyalarning ekologik samaradorligini oshirish;
- energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy ekologik barqarorlikni ta'minlash;
- muqobil energiya manbalaridan foydalangan holda texnologiyalarni ishlab chiqish.

Aholi energiyaga bo'lgan talabning ko'payishi, birlamchi energetik resurslarning cheklanganligi va jahonda energiya resurslar narxining qimmatlashuvi uglevodorod yoqilg'ilari (neft-gaz) dan ratsional foydalanishning dolzarbligini oshirmoqda. Respublikamizda energiya ishlab chiqarishda gazning ulushi 80-90 % ni tashkil qiladi. So'nggi besh yilda respublikada elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 62,4 mlrd kvt*soatdan 74,3 mlrd kvt*soatga yoki 19% ga oshgan bo'lib, bunda sanoat korxonalarining ulushi umumiy iste'molga nisbatan 25% dan 50% gacha ortdi. Energiya resurslari iste'moliga bo'lgan talabning oshib borishi sharoitida ulardan oqilona foydalanish masalalari bilan bir qatorda energiya resurslarining ishlatilish samaradorligini baholash masalasi ham muhim bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan "O'RQ-940-son" qonunga muvofiq energiyani tejash va undan oqilona foydalanish energetika siyosatining ustuvor vazifalaridan etib belgilandi [2]. Tabiiy resurslarga boy diyorimizda energiyaga bo'lgan talabning katta qismini tabiiy gaz orqali qondiramiz. Ya'ni tabiiy gaz qazib olish va uni qayta ishlash orqali turli mahsulotlar olish yoki elektr energiyaga aylantirish hamda issiqlik energetikasi tizimida birlamchi yoqilg'i sifatida asosiy resurs hisoblanadi. Gazni qazib chiqarish hamda qayta ishlash korxonalarida iste'mol qilinadigan o'z ehtiyoj energiyasi ham salmoqli hisoblanadi . "stat.uz" sayt [3] ma'lumotiga ko'ra quyidagi 1-va 2-rasmlarda keltirilgan ma'lumotlarni olish mumkin. Ko'rinib turibdiki, 2023-yilda ishlab chiqarilgan umumiy energiyaning 84.2% ni ishlab chiqarish tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2024-yilga kelib 84.8% ni tashkil etgan.



1-rasm. 2023- yilda ishlab chiqarilgan energiyaning taqsimoti

2-rasm. 2024-yilda ishlab chiqarilgan energiyaning taqsimoti

Bundan ma’lum bo‘ladiki, energiya iste’molida sanoatning ulushining oshishi, ushbu ishlab chiqarish tizimidagi sanoat mexanizmi, dastgoh-qurilmalar soni hamda ko’lami kengayganini bildiradi. Bu esa sanoat yo’nalishlarida, ya’ni sanoat tarmog’idagi korxonalarda optimal ish rejimlarini tashkil etish orqali energiya samaradorlikka erishishni taqozo etadi.

Gazni qayta ishlash korxonalarida energiya samaradorlikni oshirish bo‘yicha ko‘plab olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Dolgotovskiy Igor Vladimirovich o‘z ilmiy ishlarida elektr energiyasi va gaz iste’molining kombinatsiyalashgan tizimining metodikasini ishlab chiqqan, matematik modelini tuzgan bo‘lib, iqlim omillarining ta’siri baholagan [4], Shomova Tatyana Petrovna kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida issiqlik nasoslarining ish rejimlari ishlab chiqilgan,

monitoring qilingan. Issiqlik nasoslari energiya samarador ish rejimlarining matematik modelini yaratilgan [5].

Hozirgi vaqtda yurtimizda 250 ga yaqin uglevodorod koni bo‘lib, ularning yarmidan ko‘pi istiqlol yillarida ochilgan. Shu bilan birga mutaxassislarning fikricha, qazib chiqarish murakkab bo‘lgan qatlamlarda katta miqdordagi neft va gaz zaxiralari mavjud. Bu esa mazkur zaxiralarni chiqarib olishga tayyorlash uchun mamlakatimiz va xorijda ishlab chiqarilgan ilg‘or texnologiyalardan foydalanishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan mamlakatimiz olimlarining bu yo‘nalishda olib borayotgan ilmiy izlanishlarini amaliyotga faol tatbiq etish neft va gaz konlarining resurslaridan samarali foydalanish bilan bir qatorda mahalliy ilmiy jamoatchilikning ishlab chiqaruvchilar bilan hamkorligini kengaytirish imkonini beradi [6]. Shuningdek, Qurbonov Nurbek Nurillo o‘g‘li ham o‘zining “Energiya resurslari ishlatilishi samaradorligini baholash usullari va algoritmlari” mavzusidagi dissertatsiyada ham yer qa’ridan qazib olinadigan mavjud energiya manbalarini qazib olishni tashkil etish va ularning monitoringini amalga oshirish borasida ma’lumotlar jamlangan. Energiya iste’moli samaradorligini baholashda energiya sarfining solishtirma sarfi, energiya isroflari va ekologik ta’sir ko‘rsatkichlarini aniqlash usuli va algoritmlari yaratilgan. Natijada, mazkur ko‘rsatkichlarning natijaviy qiymatlari asosida energiya sig‘imlilikni aniqlash, energiya samaradorligini baholash hamda taklif etilgan tashkiliy texnik tadbirlarning joriy etilishi natijasida elektr energiyasi iste’molini 3% gacha kamaytirish imkoni yaratilgan [7]. Qobilov Nodirbek Sobirovichning “Neft va gaz quduqlarini burg‘ulash uchun samarador moylovchi materiallar va og‘irlashtirilgan burg‘ulash eritmalarini ishlab chiqish” mavzusidagi (Dsc) dissertatsiyasida ham neft-gaz qazib olish va qayta ishlashdagi qoldiq, ya’ni chiqindi materiallardan burg‘ulash eritmalari va moylovchi materiallarni olish texnologiyasini ishlab chiqish orqali resurs tejamkorligiga hamda energiya isrofini kamaytirishga erishish mumkinligi qayd etilgan [8].

Jahonda va yurtimizda qilingan ilmiy izlanishlarni tahlil qilib ko‘rib quyidagi xulosaga qildik: gazni qazib chiqarish va qayta ishlash korxonalarida energiya samaradorligini oshirish yuzasidan quyidagilarni amalga oshirish lozim:

1. Issiqlik almashinish jarayonlarini optimallashtirish: gazni qayta ishlashda issiqlik energiyasini maksimal darajada qayta ishlash va yo‘qotishlarni kamaytirish [9].
2. Qayta tiklanadigan energiya manbalarini qo‘llash: Quyosh yoki shamol energiyasidan foydalanib yordamchi jarayonlarni energiya bilan ta’minlash bo‘yicha tadqiqotlar [10].
3. Energiya monitoring tizimlari: IoT va sun’iy intellekt asosida energiya sarfini real vaqt rejimida kuzatish va boshqarish usullarini ishlab chiqish [11].

Ushbu tahlillar shuni ko‘rsatadiki, gazni qazib chiqarish va qayta ishlashda energiya samaradorlikni oshirish imkoniyatlari keng bo‘lib, ulardan dolzarbligi hamda samaradorlikni oshirish imkoniyati kengligi bilan ajralib turgan “issiqlik almashinish jarayonlari”da sarf bo‘luvchi energiya iste’molini optimallashtirish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Афанасьева, М.В., and А.А. Вдовина. “Проблемы и перспективы инновационного развития мировой газовой промышленности”. Научный журнал Российского газового сообщества 1 (2014): 71-79.
2. Prezident tomonidan “Energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi Qonun (O‘RQ-940-son, 07.08.2024 y.)
3. Nusratovich, Sabirov Khasan, and Akbarova Asidaxon. "Influence of the volume of industrial production in uzbekistan on the import trend." Qo‘qon universiteti xabarnomasi 9 (2023): 35-40.
4. Долотовский, Игорь Владимирович. "Системный анализ повышения эффективности энергетического комплекса газоперерабатывающих предприятий (на примере Астраханского ГПЗ)." Дисс. на соиск. уч. степ. канд. техн. наук (2008).
5. Султангузин, И. А. Повышение энергетической эффективности предприятий газоперерабатывающего комплекса на основе применения тепловых насосов. Diss. Московский энергетический институт, 2014.
6. https://old.gov.uz/oz/news/view/13120

7. Qurbonov Nurbek Nurillo o‘g‘li “Energiya resurslari ishlatilishi samaradorligini baholash usullari va algoritmlari” mavzusidagi texnika fanlari falsafa doktorligi dissertatsiya avtoreferati
8. Qobilov Nodirbek Sobirovichning “Neft va gaz quduqlarini burg’ulash chun samarador moylovchi materiallar va og’irlashtirilgan burg’ulash eritmalarini ishlab chiqish.” mavzusidagi (Dsc) dissertatsiyasi
9. https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/05/18/NamDU-ARM-1066
10. https://uz.wikipedia.org/wiki/Qayta_tiklanadigan_energiya
11. https://staff.tiiame.uz/storage/users/748/books/YVrOftRSv4Q5pDU8PfN5OPKo1L4kcg0L8eGTS3Pw.pdf

Sadullayev Nasullo Ne’matovich- Buxoro davlat texnika universiteti “Energetika” fakulteti dekani, texnika fanlari doktori, professor, tel: +998(93)9609788 E-mail: nasullo68@mail.ru

Murtazoyev Firdavs Feruz o‘g‘li- Buxoro davlat texnika universiteti “Elektr va energetika muhandisligi” kafedrasi tayanch doktoranti. Tel: +998(99) 7301726
E-mail:murtazoyevfirdavs98@gmail.com

UDK 547.73.724.1.821.316.314.2.260.2.546.4.

$SnCl_2$•$2H_2O$/Et_3N/Et_2O KATALITIK SISTEMASI ISHTIROKIDA ATSETILEN SPIRTLARI SINTEZI

[1]Ziyadullayev O.E., [2]Saliyeva M.K.
[1]O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi,
[2]Toshkent farmatsevtika instituti.

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqot ishida ilk bor molekulasi tarkibida geteroatom o‘rinbosarlar saqlagan aldegid va ketonlar – tiofen-2-karbaldegid, furan-2- karbaldegid, piridin-3-karbaldegid, 1-(tiofenil-2)etanon, 1-(furanil-2)etanon, 1-(piridinil-4)etanonlarni yangi katalitik sistema- $SnCl_2$•$2H_2O$/Et_3N/Et_2O ishtirokida alkinlar- atsetilen, fenilatsetilen, geksin- 1, oktin- 1 bilan alkinillash reaksiyasi asosida geteroatom atsetilen spirtlarini sintez qilish reaksiyalari o‘rganilgan. Mahsulot sintezining reaksiya bosqichlari va mexanizmi taklif etilgan, jarayonning eng muqobil sharoitlari hamda erituvchi, katalizator va jarayonda hosil bo‘ladigan oraliq birikmalarning reaksiya tezligiga va faollanish energiyasiga ta’siri aniqlangan, mahsulotning tarkibi, tozaligi, tuzilishi va kvant-kimyoviy xossalari zamonaviy fizik-kimyoviy usullarda isbotlangan.*

Kalit so‘zlar: *atsetilen spirtlari, geteroatom aldegidlar, reaksiya mexanizmi, mahsulot unumi, katalitik sistema*

СИНТЕЗ АЦЕТИЛЕНОВОГО СПИРТА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ КАТАЛИТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ $SnCl_2$•$2H_2O$/Et_3N/Et_2O

[1]Зиядуллаев О.Э., [2]Салиева М.К.
[1]Академии министерство чрезвычайных ситуаций республики Узбекистан,
[2]Ташкентский фармацевтический институт.

Аннотация. *В данной исследовательской работе впервые изучены реакции гетероатомных ацетиленовых спиртов основанный на реакции альдегиды с гетероатомными заместителями в молекуле - тиофен-2-карбальдегид, фуран-2-карбальдегид, пиридин-3-карбальдегид, 1- (тиофенил-2)этанон, 1-(фуранил-2)этанон, 1- (пиридинил-4)этанона по новой каталитической системе $SnCl_2$•$2H_2O$/Et_3N/Et_2O в присутствии алкинов - ацетилена, фенилацетилена, гексина-1, октина-1. Предложены стадии реакции и механизм синтеза продуктов, определены наиболее альтернативные условия проведения процесса и влияние образующихся в процессе растворителя, катализатора и промежуточных соединений на скорость реакции и энергию активации, а современными физико-химическими методами доказаны состав, чистота, строение и квантово-химические свойства продукта.*

Ключевые слова: *ацетиленовые спирты, гетероатомные альдегиды, механизм реакции, выход продукта, каталитическая система.*

SYNTHESIS OF ACETYLENE ALCOHOL USING THE CATALYTIC SYSTEM $SnCl_2•2H_2O/Et_3N/Et_2O$

[1]Ziyadullayev O.E., [2]Saliyeva M.K.

[1]Academy of the ministry of emergency situations of the republic of Uzbekistan,

[2]Tashkent pharmaceutical institute.

Annotation. *In this research work, reactions of heteroatomic acetylenic alcohols based on the reaction of aldehydes with heteroatomic substituents in the molecule - thiophene-2-carbaldehyde, furan-2-carbaldehyde, pyridine-3-carbaldehyde, 1- (thiophenyl-2)ethanone, 1-(furanyl-2)ethanone, 1- (piperidinyl-4)ethanone on a new catalytic system $SnCl_2•2H_2O/Et_3N/Et_2O$ in the presence of alkynes - acetylene, phenylacetylene, hexyne-1, octyne-1 were studied for the first time. The reaction stages and the mechanism of product synthesis are proposed, the most alternative conditions for the process and the influence of the solvent, catalyst and intermediate compounds formed during the process on the reaction rate and activation energy are determined, and the composition, purity, structure and quantum-chemical properties of the product are proven using modern physicochemical methods.*

Key words: *acetylenic alcohols, heteroatomic aldehydes, reaction mechanism, product yield, catalytic system*

Bugungi kunda organik kimyo sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan dunyo olimlari tomonidan yuqori biologik faollikka ega bo‘lgan yangi avlod atsetilen spirtlari va ularning hosilalarini sintez qilish maqsadida turli katalitik sistemalar ishlab chiqishga katta e’tibor qaratmoqda [1-3]. Aldegidlarning enantioselektiv alkinillanishi mis tuzlari bilan ham amalga oshirilgan. Jarayonning borishida (S,S)-(R,R)-Ph-TRAP va Cu(O^t-Bu) molyar nisbatda, reaksiya 40 ^oC haroratda, 24 soat reakasiya davomiyligida olib borilgan va 92% unumgacha atsetilen spirtlari sintez qilingan [4-5]. Olimlar tomonidan prolinoldan olingan gidroksaminofosfin ligandlari ishtirokida aldegidlarni yuqori enantioselektiv bilan mis-katalizatori yordamida alkinillanishi namoyon qilingan. Jarayon 25 °C haroratda, reaksiya 48–72 soat davomida CuO^t-Bu 10 mol %, t-BuOH dan foydalanganda 99% unum bilan 22 xildagi atsetilen spirtlari sintez qilingan [6]. Shuningdek aldegid va ketonlarning enantioselektiv alkinillanishi uchun (1R, 2S) -N pirolidinilnorefedrin ligandi va Et_2Zn dan tashkil topgan katalitik sistema ishlab chiqilgan va 79-99% unum bilan atsetilen spirtlari sintez qilingan. Sintez qilingan atsetilen spirtlaridan farmakologiyada asosiy o‘rinni egallovchi mahsulot efavirenz sintezi amalga oshirilgan [7].

Chiral litiy binaftolat katalizatori ishtirokida karbonil birikmalariga litiy atsetilidlarning assimetrik qo‘shilishi ishlab chiqilgan. Jarayon 10% (R)-Li_2-Ph_2BINOL katalizatorida, -78 ^oC haroratda, tetragidrofuran eritmasida olib borilgan va enantioselektivligi yuqori bo‘lgan birlamchi va ikkilamchi atsetilen spirtlari sintez qilingan [8]. Aldegidlarni rux va allil bromid ishtirokida fenilatsetilen va geksin-1 bilan xona haroratida, reaksiya davomiyli 10–20 soat davomida alkinillash orqali atsetilen spirtlarining amaliy sintezi ishlab chiqilgan, 77-98% yuqori unum bilan 28 xildagi turli atsetilen spirtlari sintez qilingan [9]. Quyidagi ishda alkinlarni aldegidlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri biriktirish orqali yangi va qayta foydalanish mumkin bo‘lgan katalizator sifatida ZnO dan foydalanilgan va yuqori unum bilan atsetilen spirtlari sintezi amalga oshirilgan [10]. $Ti(OiPr)_4$-Et_2Zn-R_3N asosida tayyorlangan katalitik faolligi yuqori bo‘lgan kompleks katalitik sistemalar yordamida aldegidlarni enantioselektiv alkinillash jarayoni orqali yuqori unum bilan biologik faolligi yuqori bo‘lgan atsetilen spirtlari 81% unum bilan sintez qilingan. Jarayon 42 ^oC haroratda, 12 soat davomida olib borilgan. Erituvchi sifatida toluoldan foydalanilgan [11]. Yapon olimlari tomonidan litiy 3,3-difenilbinaftolat katalizatori ishtirokida aldegid va ketonlarning enantioselektiv alkinillash jarayoni trimetoksilalkin yordamida amalga oshirilgan va biologik faolligi yuqori bo‘lgan atsetilen spirtlari sintezi amalga oshirilgan [12].

Olimlar tomonidan $Ti(OiPr)_4$ va boshqa katalizatorlarsiz, BINOL-Salen birikmasi (-)-1 ishtirokida aromatik aldegidlarni fenilatsetilen bilan enantioselektiv alkinillash orqali yuqori enantioselektivlik 86-97% unum bilan xona haroratida aromatik atsetilen spirtlari sintez qilingan [13-14]. Shmidt tomonidan aromatik, alifatik, alisiklik va geteroaromatik aldegid va ketonlarni yumshoq sharoitda Bu_4NOH 30% li eritmasida, 5-20 ^oC haroratda, 2 soat davomida, alifatik va aromatik alkinlar bilan alkinillash jarayonlari olib borilgan va 72- 93% unum bilan aromatik atsetilen spirtlari sintez qilingan [15-16]. Ketonlarga tetragidrofuran eritmasida atsetilen va uning

gomologlarini magniy organik birikmalar ishtirokida reaksiyalari o‘rganilgan va atsetilen spirtlari sintez qilingan [17].

Tajriba qismi. Reaksiya yuqori haroratga bardoshli hajmi 2000 ml bo‘lgan to‘rt og‘izli kolbada olib borildi. Dastlab kolbaga 100 ml dietilefir solinib, unga 113 g (0,5 mol) $SnCl_2$•$2H_2O$ qo‘shildi va jarayon tinimsiz aralashtirib turildi, so‘ngra 110 g (1 mol) furan-2-karbaldegidning 51 g (0,5 mol) trietilaminning efirdagi eritmasi 30 °C haroratda astalik bilan tomizildi. So‘ngra katalitik komponentga 160 minut davomida atsetilen tomchilatib qo‘shildi va sistema NH_4Cl (50 ml) eritmasi bilan to‘yintirildi. Organik qism dietil efir yordamida ekstraksiya qilindi, organik qatlam Na_2SO_4 yordamida quritildi va erituvchilar oddiy sharoitda haydab olindi. Organik qatlam kolonkali xromatografiya usulida tozalandi va 88% unum (Rf=0.40) bilan 1-(furanil-2)propin-ol-1 ajratib olindi.

$SnCl_2 \cdot 2H_2O/Et_3N/Et_2O$ katalitik sistema yordamida quyidagi atsetilen spirtlari– 1-(tiofenil-2)propin-2-ol-1, 68%, 1-(furanil-2)propin-2-ol-1, 88%, 1-(piridinil-3)propin-2-ol-1, 78%, 1-(tiofenil-2)geptin-2-ol-1, 54%, 1-(furanil-2)geptin-2-ol-1, 82%, 1-(piridinil-3)geptin-2-ol-1, 66%, 1-(tiofenil-2)nonin-2-ol-1, 42%, 1-(furanil-2)nonin-2-ol-1, 78%, 1-(piridinil-3)nonin-2-ol-1, 52%, 1-(tiofenil-2)-3-fenilpropin-2-ol-1, 60%, 1-(furanil-2)-3-fenilpropin-2-ol-1, 84%, 1-(piridinil-3)-3-fenilpropin-2-ol-1, 68%, 2-(tiofenil-2)butin-3-ol-2, 61%, 2-(furanil-2)butin-3-ol-2, 82%, 2-(piridinil-4)butin-3-ol-2, 70%, 2-(tiofenil-2)oktin-3-ol-2, 50%, 2-(furanil-2)oktin-3-ol-2, 76%, 2-(piridinil-4)oktin-3-ol-2, 62%, 2-(tiofenil-2)detsin-3-ol-2, 40% 2-(furanil-2)detsin-3-ol-2, 76%, 2-(piridinil-4)detsin-3-ol-2, 48%, 2-(tiofenil-2)-4-fenilbutin-3-ol-2, 54%, 2-(furanil-2)-4-fenilbutin-3-ol-2, 78%, 2-(piridinil-4)-4-fenilbutin-3-ol-2, 64% unum bilan sintez qilindi.

Jarayon ximizmi. Ushbu ishda alkinlar va aldegid hamda ketonlar o‘rtasidagi bog‘lanish reaksiyalarida yuqori enantioselektiv alkinillanishni namoyon qilish uchun suv va havoga sezgir bo‘lmagan, katalitik faolligi yuqori bo‘lgan qalay (II) xlorid Lyuis kislotali katalizatordan foydalanildi va yuqori enantioselektiv alkinillanishga erishildi. Adabiyot manbalari asosida alkinillash reaksiya sxemasi quyidagicha taklif qilindi.



1 - 12

Bu yerda:

R = tiofenil-	R^1 = H	R^2 = -H
R = furanil-	R^1 = CH_3	R^2 = -$(CH_2)_3$-CH_3
R = piridinil-3-		R^2 = -$(CH_2)_5$-CH_3
R = piridinil-4-		R^2 = -fenil

Reaksiya mexanizmi. Jarayon yumshoq sharoitda $SnCl_2$•$2H_2O/Et_3N/Et_2O$ katalitik sistemasida olib borildi va reaksiya mexanizmi quyidagicha taklif qilindi.

Dastlab $SnCl_2$ dietilefir eritmasida alkinning π bog‘i bilan birikadi. Asos xossasini namoyon qiluvchi dietilefir protonning harakatchanligini oshirib, ajralib chiqishiga imkon beradi. Jarayonga trietilaminning qo‘shilishi yumshoq sharoitni oshirib, SnCl-atsetilid barqaror modda va HCl hosil bo‘lishini rag‘batlantiradi.



Reaksiya natijasida ajralib chiqqan kuchli xlorid kislota jarayonda to‘liq H^+ va Cl^- ionlarga dissotsilanadi va metall xloridli organik mahsulot- SnCl-atsetilid hosil bo‘lishiga yordam berib, aldegid va ketonlar bilan reaksiyaga kirishini tezlashtirib, oraliq atsetilen spirtlari tuzlarini hosil qiladi.



Jarayonda hosil bo‘lgan oraliq mahsulot gidrolizlanishi natijasida yakuniy mahsulot atsetilen spirtiga aylanadi va katalizatorning qayta tiklanishiga olib keladi.



Bu jarayonda $SnCl_2$ aldegid va ketonlarni faollashtirish va alkinlar hamda Lyuis kislotasi bilan faollashtirilgan aldegid va ketonlar o‘rtasidagi birikish reaksiyalarida C=O π bog‘ining uzilishi natijasida atsetilen spirtlarining hosil bo‘lish unumdorligini oshirish natijasida atsetilen spirtlari yuqori 1- 1-(tiofenil-2)propin-2-ol-1, 68%, 2- 1-(furanil-2)propin-2-ol-1, 88%, 3- 1-(piridinil-3)propin-2-ol-1, 78%, 4- 1-(tiofenil-2)geptin-2-ol-1, 54%, 5- 1-(furanil-2)geptin-2-ол-1, 82%, 6- 1-(piridinil-3) geptin-2-ol-1, 66%, 7- 1-(tiofenil-2)nonin-2-ol-1, 42%, 8- 1-(furanil-2)nonin-2-ol-1, 78%, 9- 1-(piridinil-3)nonin-2-ol-1, 52%, 10- 1-(tiofenil-2)-3-fenilpropin-2-ol-1, 60%, 11- 1-(furanil-2)-3-fenilpropin-2-ol-1, 84%, 12- 1-(piridinil-3)-3-fenilpropin-2-ol-1, 68%, 13- 2-(tiofenil-2)butin-3-ol-2, 61%, 14- 2-(furanil-2)butin-3-ol-2, 82%, 15- 2-(piridinil-4)butin-3-ol-2, 70%, 16- 2-(tiofenil-2)oktin-3-ol-2, 50%, 17- 2-(furanil-2)oktin-3-ol-2, 76%, 18- 2-(piridinil-4)oktin-3-ol-2, 62%, 19- 2-(tiofenil-2)detsin-3-ol-2, 40%, 20- 2-(furanil-2)detsin-3-ol-2, 76%, 21- 2-(piridinil-4)detsin-3-ol-2, 48%, 22- 2-(tiofenil-2)-4-fenilbutin-3-ol-2, 54%, 23- 2-(furanil-2)-4-fenilbutin-3-ol-2, 78%, 24- 2-(piridinil-4)-4-fenilbutin-3-ol-2, 64% unum bilan sintez qilindi.

$SnCl_2$ kuchli Luis kislotali katalizator bo‘lib, unga trietilamin va dietil efirning qo‘shilishi katalitik sistemaning asoslik xususiyatini oshiradi va uch bog‘ga nukleofil qo‘shilishni rag‘batlantiradi.

$SnCl_2$•$2H_2O$/Et_3N/Et_2O katalitik sistema ishtirokida atsetilen spirtlarining hosil bo‘lish unumiga reaksiya davomiyligi, harorat, boshlang‘ich moddalar mol miqdori, erituvchi va katalizator mol miqdori ta’sirlari o‘rganildi.

Olingan natijalar tahlili. Tarkibida geteroatom o‘rinbosarlar saqlagan aldegid va ketonlar – tiofen-2-karbaldegid, furan-2- karbaldegid, piridin-3-karbaldegid, 1-(tiofenil-2)etanon, 1-(furanil-2)etanon, 1-(piridinil-4)etanonlarni yangi katalitik sistema- $SnCl_2$•$2H_2O$/Et_3N/Et_2O ishtirokida alkinlar- atsetilen, fenilatsetilen, geksin- 1, oktin- 1 bilan alkinillash jarayoni uchun katalizatorning boshlang‘ich moddalar massasiga nisbatan olingan mol miqdori ta’siri, reaksiyaning borishi va uning bosqichlari, mahsulot unumiga erituvchi, katalizator, harorat, reaksiya davomiyligi kabi omillarning ta’siri o‘rganildi. Dastlab mahsulot unumiga boshlang‘ich moddalar substrat (aldegid/keton), reagent (alkin) va katalizator $SnCl_2$•$2H_2O$:Et_3N mol miqdorlari ta’siri tahlil qilindi (1-jadval).

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, boshlang‘ich moddalar va katalitik sistema mol miqdorlari 1:2:1:1 nisbatda olinganda alkin va $SnCl_2$•$2H_2O$:Et_3N mol miqdorlari oshirganimizda ularning sistemada ortib qolgani aniqlangan va enantioselektivlikning sezilarli pasayishiga olib kelgan. Alkin miqdorining ortgani sistemadagi ortiqcha suv bilan reaksiyaga kirishib, gidrolizlanishi natijasida sistemada qo‘shimcha moddalarning hosil bo‘lishiga imkon yaratgan va unumning pasayishiga sabab bo‘lgan. Jarayon davomida unumdorlikni oshirish maqsadida aldegid va ketonlarning miqdori oshirilganda, ya’ni mol miqdorlari 2:1:1:1 nisbatda olinganida, mahsulot unumining pasayishi va

aldegid ketonlarning to‘liq alkinillanishi uchun alkin miqdori yetishmagani, aldol yon mahsulotlarini ishlab chiqarilishi kuzatilgan.

1-jadval.

Atsetilen spirtlari unumiga boshlang‘ich moddalar va katalizator miqdorining ta’siri (reaksiya harorati 30 °C, reaksiya davomiyligi 220 minut)

Atsetilen spirtlari	Atsetilen spirtlari unumi, %			
	Aldegid/Keton:Alkin: $SnCl_2 \cdot 2H_2O$:Et_3N			
	1:2:1:1	2:1:1:1	1:1:1:1	1:1:0,5:0,5
1	64	60	65	68
2	82	78	86	88
3	71	67	75	78
4	69	69	73	54
5	75	75	79	82
6	79	59	63	66
7	35	35	39	42
8	71	71	75	78
9	45	45	49	52
10	53	53	57	60
11	77	77	81	84
12	61	61	65	68
13	74	74	78	61
14	75	75	79	82
15	63	63	67	70
16	43	43	47	50
17	71	71	75	76
18	55	55	59	62
19	33	33	37	40
20	70	70	74	76
21	41	41	45	48
22	47	47	51	54
23	71	71	75	78
24	57	57	61	64

Bu jarayonning asosiy sababi aldegid va ketonlar molekulasida qo‘shbog‘ saqlaganligi hisobiga uning polimerlanishi, ishqoriy muhitda smolasimon moddaga aylanib qolishi yoki sintez qilingan moddalar bilan qayta ta’sirlashib oraliq mahsulotlar hosil qilishi aniqlangan. Boshlang‘ich moddalar va katalitik sistema mol miqdorlari 1:1:1:1 nisbatda olib borilganda mahsulot unumi nisbatan yuqori bo‘lganligi, ammo sistemada $SnCl_2 \bullet 2H_2O$ va Et_3N miqdorlari ortib qolgani va enantioselektivlikni nisbatan pasayishiga olib kelgani kuzatilgan. Boshlang‘ich moddalar substrat (aldegid/keton), reagent (alkin) va katalizator $SnCl_2 \bullet 2H_2O$:Et_3N mol miqdorlari 1:1:0,5:0,5 nisbatda, reaksiya harorati 30 °C, reaksiya davomiyligi 220 minut, erituvchi dietilefirda olib borilganda geteroatom atsetilen spirtlari 1- 68%, 2- 88%, 3- 78%, 4- 54%, 5- 82%, 6- 66%, 7- 42%, 8- 78%, 9- 52%, 10- 60%, 11- 84%, 12- 68%, 13- 61%, 14- 82%, 15- 70%, 16- 50%, 17- 76%, 18- 62%, 19- 40%, 20- 76%, 21- 48%, 22- 54%, 23- 78%, 24- 64% eng yuqori unum bilan sintez qilindi.

$SnCl_2 \cdot 2H_2O/Et_3N/Et_2O$ katalitik sistema ishtirokida atsetilen, geksin-1, oktin-1, fenilatsetilenning ayrim aldegid va ketonlar bilan reaksiya jarayonining optimal sharoitini aniqlash

maqsadida harorat ta’siri ham o‘rganish maqsadida reaksiya 0 ºC dan 40 ºC haroratlarda olib borildi (2- jadval).

2- jadval.

Atsetilen spirtlari unumiga reaksiya harorati ta’siri (boshlang‘ich moddalar va katalitik sistema miqdori 1:1: 0,5:0,5 mol nisbatda, reaksiya davomiyligi 220 minut)

Atsetilen spirtlari	Mahsulot unumi %			
	0 ºC	20 ºC	30 ºC	40 ºC
1	61	65	68	62
2	81	85	88	83
3	71	75	78	73
4	47	51	54	49
5	75	79	82	77
6	59	63	66	61
7	55	59	42	37
8	71	75	78	73
9	45	49	52	47
10	53	57	60	55
11	76	81	84	79
12	61	65	68	63
13	54	58	61	56
14	75	79	82	77
15	63	67	70	65
16	43	47	50	45
17	70	73	76	71
18	55	59	62	57
19	33	37	40	35
20	69	73	76	71
21	44	45	48	43
22	47	51	54	49
23	71	75	78	73
24	58	61	64	59

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, sistemada harorat 0 ºC dan 30 ºC ga ko‘tarilganda reaksion qobilyatning ortishi natijasida atsetilen spirtlari unumining ko‘tarilishi kuzatildi. Mahsulot unumini yanada oshirish maqsadida haroratni 40 ºC ga oshirganimizda reaksiyaning faollanish energiyasiga ta’sir qilishi, bu esa mahsulot unumiga sezilarli darajada salbiy ta’sir etib, mahsulot unumi va reaksiya yo‘nalishini o‘zgarishiga va qayta boshlang‘ich moddalarning hosil bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Reaksiya jarayoni boshlang‘ich moddalar va katalitik sistema $SnCl_2$•$2H_2O$/Et_3N miqdori 1:1: 0,5:0,5 mol nisbatda, reaksiya davomiyligi 220 minut, eng muqobil harorat 30 ºC qilib olinganda atsetilen spirtlari unumi maksimum 1- 68%, 2- 88%, 3- 78%, 4- 54%, 5- 82%, 6- 66%, 7- 42%, 8- 78%, 9- 52%, 10- 60%, 11- 84%, 12- 68%, 13- 61%, 14- 82%, 15- 70%, 16- 50%, 17- 76%, 18- 62%, 19- 40%, 20- 76%, 21- 48%, 22- 54%, 23- 78%, 24- 64% unum bilan sintez qilindi.

Sintez qilingan atsetilen spirtlarining tozaligi, tarkibi va tuzilishi IQ-, ^{1}H-YaMR, ^{13}C-YaMR spektroskopiya, xromatografiya kabi zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari yordamida isbotlandi (1- rasm).



1-rasm. Sintez qilingan 4-1-(tiofenil-2)geptin-2-ol-1atsetilen spirtining IQ-spektr tahlili

a) *1-(2-tiofenil)geptin-2-ol-1* IQ spektrida quyidagicha yutilish sohalari: 3042,02 sm^{-1} da spirt molekulasidagi −OH guruhi, 3009,17 sm^{-1} da aromatik halqadagi =CH guruhining valent tebranishlari, 2945,91-2855,40 sm^{-1} da alifatik $–CH_2$, $–CH_3$ guruhining asimmetrik va simmetrik, 2174,75 sm^{-1} da –C≡C– guruhi, 1609,12 sm^{-1} da aromatik halqadagi –C=C– guruhi, 1408,87-1362,07 sm^{-1} da $–CH_2$, $–CH_3$ alkil zanjiri guruhining deformatsion tebranishi, 1089,72 sm^{-1} da –C–OH guruhi, 752,28 sm^{-1} da –CH guruhining deformatsion tebranishlari va 654,44 sm^{-1} da tiofen halqasida mavjud bo‘lgan –C–S–C – guruhi tebranishlari kuzatildi.



2-rasm. Sintez qilingan 2-(furanil-2)butin-3-ol-2 atsetilen spirtining IQ-spektr tahlili

b) *2-(furanil-2)butin-3-ol-2* IQ spektr tahlilida quyidagicha yutilish sohalari: 3298,36 sm^{-1} da spirt molekulasidagi −OH guruhi, 3102,36 sm^{-1} da molekuladagi terminal alkin –C≡C–H guruhi valent tebranishlari, 3052,23 sm^{-1} da aromatik halqadagi =CH guruhi, 2998,36 sm^{-1} da alifatik –CH guruhi, 2101,24 sm^{-1} da –C≡C– guruhi, 1642,39 sm^{-1} da tiofen halqasida mavjud bo‘lgan –C=C– guruhi valent tebranishlari, 1402,39 sm^{-1} da –S=C– guruhi, 903,90 sm^{-1} da –CH guruhining

deformatsion tebranishlari va 603,90 sm^{-1} da tiofen halqasida mavjud bo‘lgan –C–S–C – guruhi tebranishlari kuzatildi.

Sintez qilingan ayrim atsetilen spirtlarini PASS (online) dasturida moddaning strukturasiga asosan biologik faolligi o‘rganildi (3- Jadval).

3-jadval. Ayrim asetilen spirtlarining farmakologik xususiyatlari

Birikma	Ehtimollik	Farmakologik xususiyatlari				
		Ekzema kasalligini davolovchi	Psoriaz kasalligini davolovchi	Teri kasalligini davolovchi	Nevroz kasalligini davolovchi	Virusga qarshi
	Pa[1]	0,671	0,568	0,551	0,593	0,526
	Pi[2]	0,056	0,014	0,022	0,074	0,040
	Pa/Pi[3]	12	41	25	8	13
Birikma	Ehtimollik	Ishemiya kasalligini davolovchi	Giperten ziya kasalligini davolovchi	Fibrinolitik	Vazoprotektor	Ekzema kasalligini davolovchi
	Pa[1]	0,902	0,735	0,713	0,582	0,629
	Pi[2]	0,004	0,005	0,018	0,023	0,073
	Pa/Pi[3]	255,5	147	40	2	7
Birikma	Ehtimollik	Teri kasalligini davolovchi	Ekzema kasalligini davolovchi	Fibrinolitik	Analeptik	Testesteron ingibitor
	Pa[1]	0,693	0,697	0,654	0,615	0,678
	Pi[2]	0,008	0,047	0,043	0,013	0,062
	Pa/Pi[3]	87	15	15	47	11

Xulosalar. Ilk bor $SnCl_2•2H_2O/Et_3N/Et_2O$ katalitik sistemasida atsetilen spirtlari 1- 68%, 2- 88%, 3- 78%, 4- 54%, 5- 82%, 6- 66%, 7- 42%, 8- 78%, 9- 52%, 10- 60%, 11- 84%, 12- 68%, 13- 61%, 14- 82%, 15- 70%, 16- 50%, 17- 76%, 18- 62%, 19- 40%, 20- 76%, 21- 48%, 22- 54%, 23- 78%, 24- 64% unum bilan sintez qilindi. Atsetilen spirtlarining hosil bo‘lish unumining ko‘tarilishiga muvofiq reaksiya jarayonining muqobil sharoiti: katalitik sistema $SnCl_2•2H_2O/Et_3N$ miqdori 1:1: 0,5:0,5 mol nisbatda, reaksiya davomiyligi 220 minut, harorat 30 ºC qilib olinganda atsetilen spirtlari unumi maksimum oshganligi aniqlandi. Atsetilen spirtlari unumiga asoslanib aldegidlar va ketonlar molekulasidagi radikallar va o‘rinbosarlar tabiati, joylashuvi va ularning fazoviy ta’sir etish xususiyatiga ko‘ra alkinillash reaksiyalariga kirishishi bo‘yicha nisbiy faollik qatori aniqlandi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shintani A.R.,Fu G.C. Nucleophic additation to carbon-heteroatom Double bonds // Journal Angewandte Chemie International Edition 2002, Issue 114, Volume 907, pp. 1099-2006.
2. Новокшонов В.В., Медведова А.С., Мареев А.В. 1,4-миграция группы в 1-триэтилгермокси-2-пропине под действием реактивов Гринъяра // Журнал органической химии. 2001. Т. 37. Вып. 4. – с 626-627.

3. Ranu, B. C. For selected reviews and papers for indium promotes or catalyzes reaction, see // European Journal of Organic Chemistry 2000, pp 2347.
4. L. N. Sobenina, D. N. Tomilin, O. V. Petrova, A. I. Mikhaleva, and B. A. Trofimov Synthesis of Secondary Propargyl Alcohols from Aromatic and Heteroaromatic Aldehydes and Acetylene in the System KOH–H2O–DMSO // Russian Journal of Organic Chemistry, 2013, Vol. 49, Issue 3, pp. 356–359.
5. Milkyas Endale, Annabel Ekberg, Hoseah M. Akala, John Patrick Alao, Abiy Yenesew, Maate Erdelyi Busseihydroquinones A-D from the Roots of Pentas bussei // Journal of Natural Products, 2012, Volume 75, Issue 7, pp. 1299-1304.
6. Yuki Hitora, Kentaro Takada, Shigeru Okada, Shigeki Matsunaga Miyakosynes A–F, cytotoxic methyl branched acetylenes from a marine sponge Petrosia sp.// journal Tetrahedron Letters, 2011, Volume 4, Issue 25, pp. 4530-4534.
7. Eric J. Mejia, Lindsay B. Magranet, Nicole J. De Voogd, Karen TenDyke, Dayong Qiu, Young Yongchun Shen, Zhongrui Zhou, Phillip Crews Structures and Cytotoxic Evaluation of New and Known Acyclic Ene-Ynes from an American Samoa Petrosia sp. Sponge // Journal of Natural Products, 2013, Volume 7, Issue 76, pp. 425-432.
8. Kouhei Horikawa, Takuya Yagyu, Yukio Yoshioka, Takeshi Fujiwara, Akihiko Kanamoto, Tetsuji Okamoto, Makoto Ojika Petrosiols A–E, neurotrophic diyne tetraols isolated from the Okinawan sponge Petrosia strongylata // journal Tetrahedron Letters, 2013, Volume 69, Issue 1, pp. 101-106.
9. Manabu Hatano, Kazuaki Ishihara Recent Progress in the Catalytic Synthesis of Tertiary Alcohols from Ketones with Organometallic Reagents // Journal Chemical Review, 2008, Volume 29, Issue 11, pp 1647–1675.
10. Rie Motoki, Motomu Kanai, and Masakatsu Shibasaki Copper(I) Alkoxide-Catalyzed Alkynylation of Trifluoromethyl Ketones // Journal Organic Letters 2007, Volume 9, Issue 16, pp 2997-3000.
11. Robert B. Lettan II and Karl A. Scheidt Lewis Base-Catalyzed Additions of Alkynes Using Trialkoxysilylalkynes // Journal Organic Letters 2005, Volume 7, Issue 15, pp 3227-3230.
12. Andrea M. Cook and Christian Wolf Efficient Access to Multifunctional Trifluoromethyl Alcohols through Base-Free Catalytic Asymmetric C-C Bond Formation with Terminal Ynamides // Journal Angewandte Chemie International Edition 2016, Volume 4, Issue 55, pp 2929-2933.
13. B. A. Trofimov, E. Yu. Schmidt New reactions of alkynes with ketones in superbasic media // Russian Chemical Bulletin, 2013, Volume 62, Issue 11, pp 2292 – 2300.
14. Ji-Cai, Zhou1 Lei Zhao, Yuan Li1, Ding-Qiang Fu, Zi-Cheng Li, Wen-Cai Huang. Alkynylation of aldehydes mediated by zinc and allyl bromide: a practical synthesis of propargylic alcohols // Research on Chemical Intermediates 2017. Volume 94, Issue 43, pp 4283–4294.
15. D. N. Tomilin, O. V. Petrova, L. N. Sobenina, A. I. Mikhaleva & B. A. Trofimov A convenient synthesis of hetarylethynyl ketones from hetarylcarbaldehydes and acetylene // Chemistry of Heterocyclic Compounds 2013, volume 4, Issue 49, pp 341–344.
16. Schmidt, E.Y.; Cherimichkina, N.A.; Bidusenko, I.A.; Protzuk, N.I.; Trofimov, B.A. Alkynylation of aldehydes and ketones using the Bu4NOH/H2O/DMSO catalytic composition: A wide-scope methodology // European Journal of Organic Chemistry 2014, 4663–4670.
17. Krzysztof Kuciński, Alicja Łuczak, Aliaksei Mankouski and Grzegorz Hreczycho Base catalyzed addition of silylacetylenes to ketones: a route to protected tertiary propargyl alcohols // Organic Chemistry Frontiers 2023, volume 4, Issue 10, pp 2752–2759.

UDK62.112.6

GAZLARNI HAYDOVCHI KOMPRESSOR AGREGATLARIDAN FOYDALANISHNING TAHLILIY TAMOYILLARI

[1]Umarov A.A., [2]Ochilov A.A.

[1]Buxoro shahar kasbiy ko‘nikmalar markazi, [2]Buxoro davlat texnika universiteti.

Annotatsiya. *Maqolada bugungi kunda qatlam bosimi pasaygan uglevodorod konlarida quduq mahsuldorligini oshirish maqsadida siqib chiqaruvchi agentlarni (gaz yoki havo) haydashda qo‘llaniladigan kompressor agregatlardan foydalanish tamoyillari keltirilgan. Haydovchi agregatlarning turlari, qo‘llanish sohalari, agregatlarni ta’mirlash ularga texnik xizmat ko‘rsatish, kompressor agregatlarining tasnifi, ishlash muhiti, ishchi kattaliklarini tanlash borasida bir qancha tahliliy tamoyillarning tadqiqiy ma’lumotlaridan foydalanilgan.*

Tayanch so‘zlar: *kompressor, sovutgich, gaz haydash agregatlari, ventilyator, rotor, kompressor stansiyalari, ekspluatatsion xususiyat, nuqson, o‘rta ta’mirlash, porshenli kompressor, siqish koeffitsiyenti.*

АНАЛИТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ГАЗОПЕРЕКАЧИВАЮЩИХ АГРЕГАТОВ

Умаров А.А., Очилов А.А.

[1]Бухарский городской центр профессиональных навыков,

[2] Бухарский государственный технический университет.

Аннотация. *В данной статье представлены принципы использования современных компрессорных установок, используемых для подачи вытесняющих агентов (газа или воздуха) для повышения производительности скважин на месторождениях углеводородов с пониженным пластовым давлением. Данные исследования, основанные на нескольких аналитических принципах, были использованы для описания типов приводных устройств, их применения, ремонта и технического обслуживания агрегатов, классификации компрессорных установок, условий эксплуатации и выбора рабочих параметров.*

Ключевые слова. *компрессор, холодильник, газовые нагнетательные установки, вентилятор, ротор, компрессорные станции, эксплуатационные характеристики, дефект, средний ремонт, поршневой компрессор, степень сжатия.*

ANALYTICAL PRINCIPLES OF USING GAS COMPRESSOR UNITS

[1]Umarov A.A., [2]Ochilov A.A.

[1]Bukhara city center for professional skills, [2] Bukhara state technical university.

Annotation. *This article presents the principles of using compressor units used to drive displacing agents (gas or air) to increase well productivity in hydrocarbon fields with reduced formation pressure today. Research data on several analytical principles were used to describe the types of drive units, their applications, repair and maintenance of units, classification of compressor units, operating environment, and selection of working parameters.*

Key words. *compressor, refrigerator, gas propulsion units, fan, rotor, compressor stations, operational characteristics, defect, medium repair, piston compressor, compression ratio.*

Bugungi kunga kelib dunyo hamjamiyatida insonlarning hayotiy kundalik turmush tarzini rivojlantirishni neft va gazdan foydalanmasdan amalga oshirishni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ya’nikim yurgan yo‘limizdan tortib to uyimizda yonib turgan chiroqqacha yoqilg‘i talab qiladi.

Mamlakatimiz ishlab chiqarish sanoatida asosiy o‘rinni og‘ir sanoat egallamoqda. Ma’lumki, bu sanoat tarkibiga neft va gaz sanoati, yoqilg‘i-energetika majmuasi, rangli va qora metallurgiya, mashinasozlik majmuasi, qurilish materiallari sanoati kabilar kiradi.

Mamlakatimizni iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan uzoq muddatli strategik maqsadni amalga oshirishning mantig‘i mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlangan va O‘zbekistonning jahon bozoridagi raqobatdoshligini oshirish va mavqiyening mustahkamligiga yo‘naltirilgan tarkibiy o‘zlashtirishlar va yuksak texnologiyalarga asoslangan zamonaviy tarmoqlar va ishlab chiqarish sohalarini jadal rivojlantirish siyosatini asosiy ustivor yo‘nalish sifatida davom ettirishni taqozo etmoqda.

Gazlarni siqishda har qanday sanoat korxonasida eng keng tarqalgan energiya manbalaridan biri bo‘lib, ularni qayta ishlash va taqsimlash bilan bog‘liq bo‘lgan qurilmalar, shu jumladan, kompressorlar, issiqlik almashtirgichlar, tozalash va quritish moslamalari, transport va tarqatish kommunikatsiyalari juda murakkab va katta miqdorda energiya talab qiladigan sanoat tizimi bo‘lib,

ularning mukammalligi va ekspluatatsiyasi siqilgan gaz ishlatiladigan texnologik jarayonlarning samaradorligini belgilaydi [1].

Misol uchun, bug‘ bilan solishtirganda, siqilgan havo issiqlik yo‘qotilish miqdori nisbatan kamligi sababli ulardan ko‘proq qo‘llaniladi, boshlang‘ich sovutgich sababli o‘ziga xos yo‘qotishlar kuzatilmaydi, elastik, shaffof, zararli moddalardan tashkil topmaydi, yonish xususiyatiga ega emas va cheksiz ta’minot zaxirasiga egadir. Havo uzatgichlar konstruksiyasi qulay hamda nam yoki portlovchi muhitda ham ishlashi mumkin [2, 3].

Hozirgi vaqtda dunyoda energiya resurslari iste‘moli doimiy ravishda o‘sib bormoqda. O‘rganilgan jahon zaxiralari uni 60 yil davomida ishlab chiqarish darajasini ta’minlaydi.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, dunyoda gaz iste‘molining o‘sish sur‘atlarini hisobga olsak, aniqlangan zaxiralar va hali o‘rganilmagan resurslar 100 yilga yetarli bo‘ladi. O‘zbekistonda ko‘plab gaz konlarining tugashi munosabati bilan yoqilg‘i-energetika kompleksini optimal rivojlantirishning eng muhim muammolaridan biri energiya resurslaridan foydalanish va tejash samaradorligini oshirishdir.

Hozirgi vaqtda ko‘plab gaz konlari tugash va o‘zlashtirishning yakuniy bosqichida bo‘lib, ushbu bosqichda qatlam bosimining pasayishi kuzatiladi, bu esa o‘z navbatida gazni kerakli bosimgacha siqish hamda ularni magistral gaz quvurlariga yetkazib berish muammosini keltirib chiqaradi. Ushbu vazifani bajarish uchun qo‘shimcha siquvchi kompressor stansiyalarida (QSKS) doimiy ravishda soni ortib borayotgan gaz haydash agregatlari (GHA) qo‘llaniladi. Shu munosabat bilan energiya intensivligini oshirish va qazib olish jarayonini ko‘paytirishga qaratilgan ishlanmalar alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot ishida markazdan qochma kompressorning ochib olinadigan oqim qismini almashtirish orqali QSKS samaradorligini oshirish ko‘zda tutilgan [4].

Kompressor stansiyalarining (KS) ishlashi uchun katta energiya sarfi gaz uzatish agregatlarining (GPA) o‘z ehtiyojlari uchun sarflanadigan tabiiy gazni tejashga bo‘lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi.

Gaz haydash agregati (GHA) – gaz quvurlari va yer osti gaz omborlarining kompressor stansiyalarida tabiiy gazni siqish uchun mo‘ljallangan [6]. GHA tabiiy gazni nagnetatel, yurutmasi, so‘rish va chiqarish moslamalari (gaz turbinasi yuritmasida), avtomatizatsiya tizimlari, moy tizimlari, yoqilg‘i-havo va moy kommunikatsiyalari hamda yordamchi uskunalardan iborat.

GHA lar quyidagilarga ajratiladi: nagnetatellar turi bo‘yicha – porshenli gaz yuritmali kompressorlari (gazomotokompressorlari) va markazdan qochma nagnetatelli GHA; yuritma turi bo‘yicha – ichki yonuv dvigatelli (gaz motorli yurutmalar), gaz turbinali yuritmali, elektr yuritmali GHA.

Gaz turbina yuritmali GHA o‘z navbatida, statsionar gaz turbinasi bo‘linmasiga va aviatsion hamda kema turlarining gaz turbinali dvigatellarining yuritmalariga bo‘linadi.

Porshenli gaz yuritmali kompressori – GHA, ikki yoki to‘rt pog‘onali gaz yuritmasidan (yoki elektr yuritmadan) va unga bevosita bog‘langan gorizontal porshenli kompressordan iborat. Ular past, o‘rta va yuqori bosimli qurilmalariga bo‘linadi.

Past bosimli kompressorlar (0,3-2 MPa) asosan bosh kompressor stansiyalarida tugagan konlardan gazini tashishda foydalaniladi. Ular shuningdek, past bosimli sun‘iy yonuvchan gazlarni yetkazib berish uchun kompressor stansiyalarida qo‘llaniladi [5].

O‘rta bosimli kompressorlar (2-5 MPa) asosan gaz quvurlarining o‘tkazuvchanligini oshirish uchun oraliq kompressor stansiyalarida ishlaydi. Gazni yer osti omborlariga haydash uchun kompressor stansiyalarida yuqori bosimli agregatlar (9,8-12 MPa) o‘rnatiladi.

Gazomotokompressorlar o‘zgaruvchan quvvati va siqish nisbati 1,3 dan yuqori bo‘lgan sharoitda yuqori samaradorlikka ega. Ushbu GHA larning asosiy afzalliklari quyidagilardir: operatsion ishonchlilik; uzoq umr ko‘rish muddati; turli xil bosimlarda ishlash qobiliyati; bosimlarning tezligini va hajmini o‘zgartirib, ishlashni tartibga solish qobiliyatiga ega. Kompressor silindrlarida zararli bo‘shliq, shuningdek, ulardagi yuqori bosimlarni yaratish imkoniyati mavjud.

Zamonaviy gazomotokompressorlarining samaradorligi 40% gacha. Eng keng tarqalgan kompressorlar 221-5510 kVt, chet ellarda 368 va 8100 kVt bo‘lgan [6].

Markazdan qochma haydovchilari GHAlar mamlakatimizda magistral gaz quvurlarida asosiy kompressor sifatida keng qo‘llanilgan; ular yer osti omborlarida gazlarni siqishni birinchi bosqichi sifatida ishlashi uchun ham foydalaniladi. Siqish koeffitsiyenti 1,23-1,25 va ikki bosqichli (to‘liq bosim) 1,45-1,7 bo‘lgan bir bosqichli (qisman bosimli) markazdan qochma kompressorlarga ajratiladi. Markazdan qochma kompressorlar, porshenli kompressorlarga qaraganda ancha yuqori (12 - 40 million m^3/kun) quvvatga ega bo‘ladi. Ularda moylashni talab qiladigan ichki ishqalanish qismlari mavjud emas (podshipniklardan tashqari) hamda bir xil (pulsatsiyasiz) gaz oqimi hosil bo‘ladi. Ularni o‘rnatish uchun (ularning og‘irligi va o‘lchamlari, shuningdek, aylanadigan qismlarning muvozanati tufayli) kichikroq xonalar talab qilinadi va yengil poydevorlar quriladi. Berkituvchi armaturalarning soni, markazdan qochma kompressorlardan foydalanishda ularning yuqori mahsuldorligi tufayli kompressor stansiyalarining texnologik sxemasi soddalashtirilgan, klapanlar soni kam bo‘lishi va h. k. lar.

Qisman bosimli markazdan qochma kompressorlarning kamchiligi 1,45-1,5 ga teng bo‘lgan gazni siqish koeffitsiyentiga erishish uchun ketma-ket ulangan 2 ta qurilmani ishga tushirish zarurati. Bu kompressor stansiyasida yoqilg‘i gazi iste‘molining ko‘payishiga olib keladi. Markazdan qochma haydovchi agregatlarining samaradorligi 29% gacha, issiqlik regeneratorlari 35% gacha. GHA gaz turbinasi bloki yoki elektr dvigatel yordamida boshqariladi.

Kompressor stansiyalaridagi gaz haydash agregatlariga texnik xizmat ko‘rsatish eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Jihozni texnik xizmat ko‘rsatish muddati deganda, gaz agregatlarining ishchi xususiyatlarini saqlash va tiklashga xizmat qiladigan hamda GHAga texnik xizmat ko‘rsatishni o‘z ichiga olgan, uning ishlashini va nosozliklar diagnostikasini kuzatadigan, shuningdek, ta’mirlash va tiklash ishlarini olib borishni o‘z ichiga olgan barcha tadbirlar majmuyi tushunilishi kerak [7].

Kompressor stansiyasida ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan yuritmalarni ishlash muddati davomida gaz turbinasi gaz haydash agregatini ish holatida saqlash bo‘yicha ishlar majmuyini nazarda tutadigan texnik xizmat ko‘rsatish (TXK) reglamenti mavjud.

Reglament quyidagi ish turlarini o‘z tarkibiga oladi:

- ishlaydigan (TXK 1-3) yoki zaxiradagi (TXK 1-5) bo‘linmani, shu jumladan, texnik tekshiruvlarni, holatni tekshirishni, ish parametrlarini kuzatish va o‘lchashni hamda ish vaqtining mavjudligiga yoki boshqa ish turlariga qarab zaxiradagi GHA;
- yonish kamerasi va shamollatgichni qayta ko‘rib chiqish (TXK-4);
- o‘rta va kapital ta’mirlash.

O‘rta ta’mirlash – bu GHA ning alohida bo‘linmalarida profilaktika ishlari majmuasi bo‘lib, qurilmaning nominal quvvati 15 foizdan ko‘prog‘iga tushganda blokning ishlash xususiyatlarini tiklash va keyingi kapital ta’mirlangunga qadar uning ishonchli ishlashini ta’minlash uchun amalga oshiriladi. O‘rta ta’mirlash ishlarida GHA ning ishlatilgan detallari va qismlari kamchiliklarini aniqlash maqsadida diagnostika o‘tkazish zarur bo‘lib, eskirgan yoki buzilganlarini almashtirish yoki ta’mirlash bilan amalga oshiriladi.

O‘rta ta’mirlash ishlari kapital ta’mirlanishlar oralig‘ida moy sizib chiqishini (mexanik zichlovchilar, korpus qisimlari, moy quvurchalari va boshqalar kiradi) va gazlarni, tebranishlarning kuchayishining sabablarini hamda boshqa aniqlangan nosozliklarni bartaraf etish uchun amalga oshiriladi. Bundan tashqari, eskirganlik va charchoq tufayli yuzaga keladigan yashirin nosozliklarning oldini olish uchun o‘rta ta’mirga ehtiyoj paydo bo‘ladi, ularning paydo bo‘lishi ko‘plab qismlar va yig‘ilishlarning buzilishiga, ya’ni uzoq muddatli favqulodda ta’mirlashga olib kelishi mumkin.

O‘rta ta’mirlashda ishlar hajmi gaz haydash agregati ochilgandan va defektoskopiya o‘tkazgandan so‘ng aniqlanadi. O‘rtacha ta’mirlash uchun to‘xtatilgan agregat kapital ta’mirlash miqdorida ta’mirlanishi ham mumkin.

Kapital ta'mirlash – bu GHAning asosiy va yordamchi uskunalarini to‘liq demontaj qilish va nuqsonlarni aniqlash, zavodning yaroqlilik muddatini almashtirish yoki texnik shartlarga muvofiq ishlab chiqilgan qismlarni ta'mirlashni o‘z ichiga olgan, shu jumladan, asosiylari, sozlash va tizimlarni sinovdan o‘tkazish, nominal quvvatining pasayishi 25% dan yuqori bo‘lgan agregatning ekspluatatsion xususiyatlarini tiklash bo‘yicha ishlarni bajarish.

Quvvat yo‘qotishlarining oraliq qiymatlarida ta'mirlash turi vaqt me'yorlariga muvofiq haqiqiy mehnat xarajatlari bilan belgilanadi [8].

TXK-4, o‘rta va kapital ta'mirlashni amalga oshirishda ishlar ro‘yxati va ta'mirlash turi.

1-jadval

Gaz haydash agregatlarini o‘rta va kapital ta'mirlashda ishlarning ro‘yxati

Ish turi	Ta'mirlash turi
Gaz generatori	
Uzel va detallarni yuvish, tozalash, ochish va ajratish	O‘T, KT
Uzel va detallarda nuqsonlarni aniqlash	O‘T, KT
Oqim qismida va podshipniklarda oraliqlarni tekshirish	O‘T, KT
Podshipnik va moy himoya zichlash tizimlarini ta'mirlash	O‘T, KT
Tirgak disklari va rotorlarni tiklash ishlari bilan ta'mirlash	O‘T, KT
Ishchi va yo‘naltiruvchi parraklarni qayta terib chiqish	KT
Rotorlarni muvozanatlash	KT
Oraliqlarni ta'mirlash	KT
Havo va gaz zichlash tizimlarni ta'mirlash	O‘T, KT
Yuqori bosim turbinasi va past bosim turbinasi disklarining sovutish tizimini tekshirish	O‘T, KT
Turbinaning issiqlik qoplamasini tekshirish	KT
Valni harakatlantiruvchi moslamalarni ta'mirlash	KT
Turbodetanderni ta'mirlash	KT
Yonish kamerasini ochish, tozalash va ta'mirlash	TO-4, O‘T, KT
Haydovchi	
Past bosim turbinasi va agregat rotorlarini markazlanishini tekshirish	O‘T, KT
Detallarni ajratish, tozalash va yuvish	TO-4, O ‘T, KT
Tirgak diskda va podshipniklarda nuqsonlarni aniqlash	O‘T, KT
Rotorni muvozanatlash	O‘T, KT
Yordamchi jihozlar	
Regeneratorlatni ta'mirlash va sinash	KT
Moy ta'minotini ta'mirlash	KT
Moy bakini ko‘zdan kechirish, moy quvurlarini tozalash	KT
Moy tizimini ishlatish	O‘T, KT
Germetiklash tizimini va moy nasoslarini tekshirish	O‘T, KT
Suzish kamerasi va moy akamulyatorlarini tekshirish	O‘T, KT
Berkituvchi armaturani tekshirish	KT
Havo so‘rish kamerasini tekshirish	O‘T
Masofali shaybalarni, shponkalarni va tirgaklarni tekshirish	TXK-4, O‘T, KT
Mahalliy so‘rish tizimi va shamollatish tizimini tekshirish va ta'mirlash	TXK-4, O‘T, KT
Moy bug‘larini karterlardan, podshipniklardan va moy baki ramasidan so‘rib olish tizimini tekshirish va sozlash	TXK-4, O‘T, KT

Bazaviy dasturda ko‘zda tutilmagan ishlarni bajarishda (jihozlarni modernizatsiya qilish, ma’lumot xatlari kiritish va h.k.) ushbu ishlar bajariladigan ta’mirlash muddati ish haqining haqiqiy sarf-xarajatlariga mos ravishda ko‘payadi. Shu tarzda aniqlangan ta’mirlash uchun GHA ishlamay qolishi markaziy dispetcherlik idorasi bilan kelishilgan bo‘lishi kerak.

Kompressor agregatlarini tahlil qilish. Kompressor agregatlari – bu yuritmaning mexanik energiyasi hisobiga gazning potentsial va kinetik energiyasini oshirish uchun ishlatiladigan agregatlarga aytiladi. Ushbu agregatlar yuritmali qurilmalar bilan birga gazlarni siqish va tashish uchun xizmat qiladi.

Ishlash prinsipiga ko‘ra, kompressor agregatlari hajmiy siqish agregatlari (porshenli, vintli, rotatsion, membranali) va dinamik agregatlarga (markazdan qochma va o‘qiy) bo‘linadi.



1-rasm. Kompressor agregatlarining tasnifi

Markazdan qochma kompressor agregatlari nisbatan qulay tarzlarda ishlovchi ventilyatorlarga, shamollatgichlarga va kompressorlarga bo‘linadi.

Ventilyatorlar gaz oqimining energiyasi 10 kJ/kg dan oshmaydigan past bosimli mashinalarni o‘z ichiga oladi. Agregatlar yuqori bosimli MQA deb ataladi, ularda siqish jarayonida gazlarni sovutish uchun qurilmalar mavjud emas. Markazdan qochma kompressorlar – siqish jarayonida gazlarni sovutish moslamalari yoki gazlarni oqim qismida oraliq uzatib berish yoki undan gazlarning bir qismini olib tashlash uchun moslamalar bilan jihozlangan yuqori bosimli mashinalar hisoblanadi. Transport yuritma tizimlarida ishlatiladigan yuqori bosimli markazdan qochma kompressorlarni, masalan, dizel dvigatellarini shamollatish uchun, shuningdek, alohida guruh sifatida ajratib ko‘rsatish mumkin. Ushbu agregatlar hozirda iqtisodiyot hollarda ko‘plab tarmoqlarda juda muhim rol o‘ynaydi

Jumladan, respublikada ishlab chiqarilgan barcha tabiiy gaz, magistral gaz quvurlari orqali markazdan qochma agregatlar yordamiha haydaladi. Statsionar markazdan qochma kompressorlar (2-rasm) domna pechlari va ajratish moslamalarini havo bilan ta’minlaydi.

a)



2-rasm. Markazdan qochma kompressor: a) ishchi ko‘rinishi; b) tuzilishi.

Markazdan qochma kompressorlar kimyo va neft-kimyo sanoatining katta quvvatli ishlab chiqarishiga xizmat qiladi, ular tog‘-kon va qayta ishlash zavodlarida, yirik shaxtalar va konlarda ishlaydi. Markazdan qochma kompressorlar yuqori quvvatli havoli sovutgichlar bilan birgalikda qo‘llaniladi.

So‘nggi yillarda statsionar markazdan qochma kompressorlar tomonidan yaratilgan bosim darajasi oshdi, markaziy kompressor xizmat ko‘rsatadigan hajmli quvvatlar yuzasi, birinchi navbatda, kichik quvvatlar tomon kengaydi. Past oqimli, yuqori tezlikda ishlaydigan markazdan qochma kompressorlar ba’zi hollarda katta hajmli porshenli kompressorlar bilan muvaffaqiyatli raqobatlashadi.

Agregatda ishlaydigan buyurtmachilar nuqtayi nazaridan kompressorning xususiyatlarini aniqlaydigan asosiy parametrlar massa unumdorligi Q, yakuniy bosim P_{ya} yoki bosimning oshishi ΔP (yakuniy va dastlabki gaz bosimi o‘rtasidagi farq) va kompressor tomonidan iste’mol qilinadigan quvvatlar bilan tasniflanadi. Keltirilgan barcha uchta asosiy parametrlar rotor tezligiga bog‘liq va so‘rish quvuriga kirishdan oldin siqilgan gazning dastlabki parametrlari - dastlabki bosim P_d hamda dastlabki harorat T_d, shuningdek, gazning fizik xususiyatlari. Siqish paytida gazni sovutish uchun qurilmalar bilan markazdan qochma kompressor mashinalari parametrlari issiqlik almashinuvchilari (suv yoki havo) Wga, yetkazib beriladigan sovutish muhiti miqdori va uning dastlabki haroratiga ham bog‘liq.

O‘zlashtirishning so‘nggi bosqichida mavjud bo‘lgan gaz konlarining ko‘taruvchi kompressor stansiyalarining ko‘pchiligini qurishda ishlab chiqilgan konstruktiv yechimlari 70-80-yillarning ilmiy-texnik bazasiga asoslanadi va konni o‘zlashtirishning dastlabki bosqichlarida kollektor gazi bosimining taxmin qilingan pasayish etaplari. Ularning xarakterli xususiyati gazning keyingi tashishini ta’minlash uchun gazning quduq bosimining pasayishi bilan bosimni oshirish zaruratidir. GHAlar juda past samaradorlik bilan ishlaydi.

Bunday vaziyatda energiyaning samaradorligini, ekologik xavfsizligini va o‘rnatilgan uskunalarning ekspluatatsiya ishonchliligini oshirish, ularning texnik darajasi, xususiyatlari va o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda QSKAni o‘z vaqtida modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashni amalga oshirishning keskin muammosi mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Energiya nazorati va yoqilg‘i-energetika resurslari iste’molchilarining ekspertizalarini o‘tkazish qoidalari. O‘zR Vazirlar Mahkamasining 07.08.2006 yildagi 164-sonli qarori.
2. Ergashovich Yuldoshov Husniddin, and Xatamova Dilshoda Narmuratovna. “Kompressorga kirayotgan yuqori havo haroratining kompressor samaradorligiga ta’sirini o’rganish”. Ta’lim fidoyilari 17.4 (2022): 40-42.
3. A.V.Ustyuzhanin, “The use of acoustic analysis to study the excitability of dead ends in the piping of compressor stations,” *Gas industry*, Vol. 1, pp. 42-49, 2018.
4. Сеидахмедов Н.С. Пути повышения безопасной эксплуатации поршневых компрессоров// Безопасность труда в промышленности. - 2018. -№ 10. - С. 18–21. DOI: 10.24000/0409-2961-2018-10-18-21.
5. Глинникова Т.П. Обоснование и выбор параметров прямоточных клапанов рудничных поршневых компрессоров: автореф. дис. канд. техн. наук. Екатеринбург, 2013. 129 с.
6. Бондарев Е.Н., Дубасов В.Т., Рыжов Ю.А., Свирщевский С.Б., Семенчиков Н.В. Аэрогидромеханика. Москва, Машиностроение, 1993. 608 с.
7. Новиков Е.А. Разработка, исследование и внедрение сухих газодинамических уплотнений центробежных компрессорных машин: дис. д-ра технич. наук. – Казань, 2014. − 280 с.
8. Хохлов В.А. Эрегосберегающие режимы работы насосных агрегатов с длинными трубопроводами. Автореф. дис. докт.техн.наук. Ташкент: Ин-т энергетики АН РУз. 2009. 29 с.

Umarov Alixan Axmadovich-Buxoro shahar kasbiy ko‘nikmalar markazi, Tel.:+998914044798, e-mail: umarovalixon@mail.ru

Ochilov Abduraxim Abdurasulovch-Buxoro davlat texnika ubinersiteti, “Neft-gaz ishi” kafedrasi dotsenti. Tel.:+998914110016, e-mail:ochilov82@mail.ru

BURG‘ILASH ERITMALARI UCHUN MAHALLIY XOMASHYOLAR ASOSIDA ISHLAB CHIQILADIGAN KIMYOVIY REAGENTLARNING FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARINI TADQIQ QILISH

[1]Xolmuxammadiyev A.M., [2]Toshev Sh.O.

[1]Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti,

[2]Buxoro davlat texnika universiteti.

Annotatsiya. *Maqolada neft va gaz quduqlarini burg‘ilashda ishlatiladigan burg‘ilash eritmalari uchun mahalliy xomashyolar asosida ishlab chiqiladigan kimyoviy reagentlarning fizik-kimyoviy xossalari tadqiq qilingan hamda eritmadagi kimyoviy reagentlarning samarali tarkibini ishlab chiqish maqsadida, Na–karboksimetilsellyuloza-(Na-KMS), poliakriamid (PAA) va K-4 ingredienti kabi kimyoviy reagentlar suvli eritmalarning fizik-kimyoviy va texnologik xossalari tadqiq qilingan.*

Kalit so‘zlar: *quduqni burg‘ilash, burg‘ilash eritmasi, kimyoviy reagentlar, iqtisodiy xarajatlar, eritma barqarorligi, minerallangan qatlam, kompozitsion kimyoviy reagentlar, termik tadqiqot usuli.*

ИССЛЕДОВАНИЕ ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИХ СВОЙСТВ ХИМИЧЕСКИХ РЕАГЕНТОВ, ПРОИЗВОДИМЫХ НА ОСНОВЕ МЕСТНОГО СЫРЬЯ ДЛЯ БУРОВЫХ РАСТВОРАХ

[1]Холмухаммадиев А.М., [2]Тошев Ш.О.

[1]Термезский государственный университет инженерии и агротехнологий,

[2]Бухарский государственный технический университет.

Аннотация. *В статье исследованы физико-химические свойства химических реагентов, полученных на основе местного сырья для буровых растворов, используемых при бурении нефтяных и газовых скважин, а также с целью разработки эффективного состава химических реагентов в растворе изучены физико-химические и технологические свойства водных растворов химических реагентов, таких как Na-карбоксиметилцеллюлоза (Na-КМЦ), полиакриламид (ПАА) и ингредиент К-4.*

Ключевые слова: *бурение скважин, буровой раствор, химические реагенты, экономические затраты, устойчивость раствора, минерализованный пласт, композиционные химические реагенты, термический метод исследования.*

STUDY OF PHYSICOCHEMICAL PROPERTIES OF CHEMICAL REAGENTS PRODUCED BASED ON LOCAL RAW MATERIALS FOR DRILLING MUDS

[1]Xolmuxammadiyev A., [2]Toshev Sh.

[1]Termez state university of engineering and agrotechnology,

[2]Bukhara State technical university.

Annotation. *The article studies the physicochemical properties of chemical reagents obtained on the basis of local raw materials for drilling fluids used in drilling oil and gas wells, and in order to develop an effective composition of chemical reagents in the solution, the physicochemical and technological properties of aqueous solutions of chemical reagents such as Na-carboxymethylcellulose (Na-CMC), polyacrylamide (PAA) and ingredient K-4 are studied.*

Key words: *drilling wells, drilling mud, chemical reagents, number of wells, drilling process, mineralized formation, physicochemical properties of mud, technological properties of mud, composite chemical reagents, thermal research method.*

Kirish. Hozirda dunyoning har qanday mamlakatida iqtisodiyotning rivojlanishi muntazam ravishda energiya manbalaridan foydalanish hisobiga ortib boradi, bu esa energiya resurslarining kamayib ketishiga olib keladi. Kelajakda mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda hamda mineral-resurslar salohiyatini oshirishda uglevodorod xomashyosi yetakchi o‘rinni egallaydi.

Dunyoda uglevodorod uyumlarini izlashning stratigrafik diapazonini kengaytirishga, neft va gazning qazib olinishini barqarorlashtirish va ular hajmini ko‘paytirish uchun uglevorod resurslar bazasini orttirishga alohida e’tibor berilmoqda.

Neft va gazni qazib olinishning hajmini ko‘paytirish uchun neft va gaz quduqlarini sonini oshirish, ya’ni quduqlarni burg‘ilash kerak bo‘ladi. Hozirgi kungacha burg‘ilash jarayonini burg‘ilash eritmasining ishtirokisiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Burg‘ilash eritmasi quduqni burg‘ilash vaqtida bir nechta talabalarga javob berishi kerak, ya’ni eritmaga qo‘shiladigan

reagentlarning fizik-kimyoviy xossalarini boshqarish va nazorat qilish orqali burg‘ilash jarayonini sifatli va xavfsiz amalga oshirish mumkin bo‘ladi [1].

Yechiladigan muammo va masalaning qo‘yilishi. Burg‘ilash eritmalari nafaqat burg‘ilash tezligi va muvaffaqiyatini ta’minlaydi, balki ularni ishga tushiradi va unumdorligini maksimal darajada oshiradi. Burg‘ilash eritmalarinngi asosiy funksiyalari – bu tez va ehtiyotkorlik bilan chuqurlashish va burg‘ilash quvurlarini yoki unumli qatlamlariga ziyon yetkizmaslikdir.

Bu funksiyalarning samaradorligi eritmalar – tabiiy jinslar bilan aloqadorligiga bog‘liq. Aloqadorlik intensivligi eritmalar muhitiga bog‘liq. Burg‘ilash eritmalari dispersion muhiti bo‘yicha uch turga bo‘linadi: suv asosidagi eritmalar, neft asosidagi eritmalar va gazsimon agentlar. Burg‘ilash eritmasining turlari bu eritmani tashkil etuvchi aralashmalar geologik muhitdan kelib chiqqan holda belgilanadi: qatlam turlarini fizik- kimyoviy, ulardagi flyuidlar, tog‘ bosimi va harorat xususiyatlariga qarab belgilanadi.

Texnik va dengiz suvini burg‘ilash eritmasi sifatida qo‘llanilishi burg‘ilash vaqtida yaxshi samara beradi. Texnik va dengiz suvini ishlatilishi gili eritmasiga qaraganda normani o‘tishini 15-20%, mexanik o‘tish tezligi esa 25-40% oshadi. Biroq suv burg‘ilash eritmasi sifatida ishlatilishining juda ko‘p kamchiliklari bor: sirkulyatsiyalar orasidagi tanaffuslarda u shlam saqlay olmaydi, muallaq holatida gil tog‘ jinsi bo‘laklari bo‘kib, mustahkamligi pasayadi [2]. Shuning uchun suvni unumli burg‘ilash eritmasi sifatida faqat chuqur bo‘lmagan quduqlar burg‘ilashda, qumli, gips va boshqa turli qattiq bo‘lmagan gilsiz qatlamlarni burg‘ilashda ishlatish mumkin.

Suvni filtrlanishi mahsulot qatlamlarida neft olishni suv to‘sig‘i hosil bo‘lgani sababli keskin kamaytiradi, burg‘ilash quduqlarida suv neft emulsiyalari hosil bo‘lishi, qatlamda gil minerallarining bo‘kishi uglevodorod xomashyosini quduqlarga kelishini qiyinlashishi sababli neft va gaz quduqlarini o‘zlashtirishni va ularni ekspluatatsiya qilishni qiyinlashtiradi [3].

Burg‘ilash jarayonida burg‘ilangan tog‘ jinslarining suv bilan aralashishidan gil suspenziyalari hosil bo‘ladi. Gil suspenziyalari, asosan, qiyin burg‘ilanadigan tog‘ jinsi qatlamlarida ishlatilinadi. Burg‘ilash jarayonida gil suspenziyalarining ko‘rsatkichlari suv qo‘shish yo‘li bilan boshqarib boriladi. Bu eritma bo‘kuvchan va dispersiyalanadigan, asosan, turg‘un kesmalarda qo‘llaniladi [4].

Burg‘ilash eritmalarining xossalari yuqori tezlikda burg‘ilash ishlari olib borilayotganda xavfsizlikni ta’minlab, quduqni maksimal mahsuldorligini yakunlovchi ishlar olib borilayotganda ta’minlab berishi shart. Xossalari boshqariladigan burg‘ilash eritmalarini qo‘llash sezilarli xarajatlarga olib kelib, ushbu xarajatlar iqtisodiy tarafdan o‘zini oqlashi zarur. Buning uchun esa burg‘ilash eritmasini burg‘ilash jarayonida o‘zini barqaror tutishi va mavjud bo‘lgan kimyoviy reagentlar yordamida unga burg‘ilash sharoitlari talab etadigan sifatlar berilishi kerak.

Ma’lumki, neft va gaz quduqlarni burg‘ilashda kelib chiqishi ham organik, ham noorganik bo‘lgan kimyoviy reagentlarni qo‘llash bilan tayyorlanadigan burg‘ilovchi eritmalar ishlatiladi. Hozirgi vaqtda qo‘llaniladigan bunday reagentlar qimmatbaho bo‘lib va ayniqsa, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Ustyurt Platosi gazkondensatli qazilmalarga tegishli yuqori darajada minerallangan qatlamli suvlar bo‘lgan qazilmalarda neft va gaz quduqlarni burg‘ilashda doimo samarali bo‘lmaydi [5].

Eksperiment va olingan natijalarning tahlili. Burg‘ilash eritmalarning samaradorligi qo‘llaniladigan kimyoviy reagentlar sifatiga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liqdir. Shu bilan bog‘liq holda fizik-kimyoviy va texnologik xossalari bo‘yicha kimyoviy reagentlarning tarkibiga ma’lum talablar qo‘yiladi.

Yuqorida qayd etilganlarni hisobga olib hamda kompozitsion kimyoviy reagentlarning samarali tarkibini ishlab chiqish maqsadida, Na–karboksimetilsellyuloza - (Na-KMS), poliakriamid (PAA) va K-4 ingredienti kabi kimyoviy reagentlar suvli eritmalarning fizik-kimyoviy va texnologik xossalari tadqiqot qilindi. Tadqiqot obyekti sifatida “Navoiazot” zavodining mahsuloti hisoblangan poliakrilonitril asosidagi K-4 preparati tanlab olindi.

Kimyoviy rentgenofazali va differensial – termik tadqiqot usullar yordamida K-4 asosan kalsiy karbonat ($CaCO_3$), kalsiy oksid (CaO), kam miqdor kaustik soda saqlagan poliakrilamid (PAA) lardan tarkib topgan shlam ekanligi aniqlandi. Shuni qayd etish zarurki, K-4ning turli xillari bir-biridan ma’lum darajada farq qiladi. Shuning uchun difraktogramma piklari bir-biriga o‘zaro to‘g‘ri kelmasligi mumkin (1-rasm).

K-4 va Na – KMS, PAA kabi qator boshqa reagentlarni saqlagan, hamda ular asosida miqdoriga bog‘liq holda va burg‘ilovchi eritmalarning kompozitsion tarkibini hosil qilishga muvofiq bo‘lgan suvli eritmalarning fizik-kimyoviy va texnologik xossalari tadqiqot o‘tkazilgan. Quyuqlashtiruvchilarning suvli eritmalar tadqiqoti natijalariga binoan, yuqori zichlikka, qovushqoqlikka va past darajada suv ajratishga ega bo‘lgan burg‘ilovchi eritmalar olish uchun, ya’ni o‘rtacha va og‘ir bo‘lgan eritmalar olish uchun zaruriyati kelganda, Na – KMS va PAA ni ishlatish mumkin.



1-rasm. Burg‘ilash eritmasiga qo‘shiladigan turli xildagi K-4 reagentining o‘zaro bir-biridan farq qilishini ko‘rsatuvchi difraktogramma piklarining ko‘rinishlari

Past zichlik va suvni past darajada ajratishga ega bo‘lgan burg‘ilovchi eritmani zaruriyati paydo bo‘lganda, ya’ni yengil va o‘rtacha eritmalar uchun ayniqsa, turli konsentratsiyali emulsiyalar olish uchun ma’lum miqdor (8 dan 16 gacha bo‘lgan qism) PAA va FXL – 1 ni qo‘llash maqsadga muvofiq. Na – KMS reagenti ko‘proq muvofiqlashganligi PAA ga nisbatan arzon bo‘lganligini hisobga olib, kimyoviy reagentlarning kompozitsion tarkibini hosil qilish va kelajakda ularning tadqiqoti uchun aynan bu ingrediyentlarga alohida e’tibor ajratilgan.

K-4 ning kimyoviy tarkibidan kelib chiqqan holda, burg‘ilovchi eritmalar uchun kimyoviy reagentlarning kompozitsion tarkiblarni ishlab chiqishda samarali komponentlardan biri sifatida, jumladan, og‘irlashtiruvchi, suyuqlashtiruvchi va struktura hosil qiluvchi sifatida qo‘llash mumkinligi ko‘rsatilgan (1-jadval).

1-jadval

Burg‘ilash eritmalarga qo‘shiladigan K-4 kimyoviy reagentining kimyoviy tarkibi

Nomi	Miqdori, %
Poliakrilonitril	84-86
Akril kislota efiri	3-5
Poliakrilamid (PAA)	2-3
Suv	3-10

Hozirgi vaqtda burg‘ilovchilarning oldida yana bitta kam bo‘lmagan muammo keskin turibdi. U ham bo‘lsa, burg‘ilovchi eritmalar tayyorlash uchun minerallangan qatlamlarni ishlatishdan iborat bo‘lib, quduqlarni burg‘ilash jarayonini qimmatlashtiradigan mahalliy joylardan burg‘ilash ishlari olib boriladigan joyda keladigan chuchuk suvni ishlatilishini bartaraf etadi.

Ham chuchuk, ham yuqori minerallangan qatlamli suvlarni ishlatib, tayyorlangan burg‘ilovchi eritmalarning fizik-kimyoviy va texnologik xossalar tadqiqoti o‘tkazilgan. Minerallangan qatlamli suv sifatida O‘zbekistondagi Sho‘rtepa konining qatlam suvi tanlangan bo‘lib, quyidagi kimyoviy tarkibga g/l: NaCI – 57,4; KCI – 0,3; $CaCI_2$ – 2,64 va $MgCI_2$ – 1,92 larga ega bo‘lgan [6].



2-rasm. Burg‘ilash eritmasiga qo‘shiladigan K-4 reagentining derivatogrammasi (DTA)

Minerallangan qatlamli suvda tayyorlangan 10% li burg‘ilovchi eritmalarning Na – KMS konsentratsiyasi va K-4 miqdoriga binoan fizik-kimyoviy xossalaridagi o‘zgarishlar qonuniyatlari 1-rasmda keltirilgan. Rasmdagi burg‘ilovchi eritmalarning texnologik parametrlari Na–KMS va K-4 kabi komponentlar miqdori va nisbatiga bog‘liqligini xarakterlaydigan chiziqlar bo‘yicha aniqlangan qonuniyatlar, K-4 bilan boshqa kimyoviy reagentlar nisbatini rostlab, oldindan berilgan fizik-kimyoviy va texnologik xossalarga ega bo‘lgan burg‘ilovchi eritmalar olish mumkinligi haqida dalolat beradi. Burg‘ilash eritmasiga qo‘shiladigan kimyoviy reagentlar qatlam suvlarining tarkibiga bog‘liq ravishda o‘zgaradi (2-jadval).

Chuchuk hamda minerallangan qatlamli suvni ishlatish bilan Na–KMS va K-4 asosidagi burg‘ilovchi eritmalarda olib borilgan fizik-kimyoviy va texnologik xossalarning kompleks tadqiqotlari, shu reagentlar konsentratsiyasi va K-4 miqdorining burg‘ilovchi eritmalar texnologik parametrlariga ta’sir qilish qonuniyatlarni aniqlashga imkon berdi.

2-jadval

Sho’rtepa koni 67-quduqdagi minerallangan qatlam suvlarining kimyoviy tarkibi

Tahlil ma’lumotlari	Mg-ekv/l	Mg/l	% Mg-ekv/l	Xususiyatlari (Palmerga ko‘ra)	Xususiyatlari (Sulinga ko‘ra)
$Na^+ + K^+$	784,5	18043,5	24,1	$S_1 = 48,2$	Na/Cl < 1
Ca^{2+}	557,6	11174,3	17,1	$S_2 = 51,6$	
Mg^{2+}	285,9	3476,5	8,8	$A_1 = 0$	NaCl/ SO_4< 0
Cl^-	1623,6	57568,0	49,8	$A_2 = 0,2$	
HCO_3^-	3,6	219,7	0,1		NaCl/Mg >1
CO_3^{2-}	0	0	0		
SO_4^{2-}	0,8	38,4	0,1		
∑	3256,0	90520,4	100		
CO_2	0,2	4,4			

Xulosa. Minerallangan qatlamli suvda tayyorlangan 10% li burg‘ilovchi eritmalarning Na–KMS, K-4, PAA konsentratsiyasi va miqdoriga binoan fizik-kimyoviy xossalaridagi o‘zgarishlar qonuniyatlari o‘rganildi. Burg‘ilovchi eritmalarning texnologik parametrlari Na– KMS, K-4, PAA kabi komponentlar miqdori va nisbatiga bog‘liqligini xarakterlaydigan chiziqlar bo‘yicha aniqlangan qonuniyatlar bilan boshqa kimyoviy reagentlar nisbatini rostlab, oldindan berilgan fizik-kimyoviy va texnologik xossalarga ega bo‘lgan burg‘ilovchi eritmalar olish mumkinligi haqida dalolat beradi.

Kimyoviy reagentlar kompozitsion tarkiblardagi ingrediyentlarning ta’siri ular orasidagi kechayotgan fizik-kimyoviy jarayonlarga bog‘liqlikning asosiy qonuniyatlari belgilandi, ya‘ni burg‘ilovchi eritmalarning texnologik va ekspluatatsion xarakteristikalar ortishiga olib keladi va murakkab geologotexnik sharoitlarda burg‘ilash ishlarini olib borishga yo‘l beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.Yodgorov “Burgilash eritmalari”. Darslik, Toshkent, TDTU bosmaxonasi, 2002 y.
2. U.D.Nurmatov, A.M.Aminov. Neft va gaz quduqlarini burg‘ilash. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2003
3. A.M. Aminov, N.Yodgorov, X.T. Tolipov “Burg’ilash eritmalari” Toshkent – 257. 1996 y.
4. A.K. Raximov, A.M. Aminov, A.A. Raximov Parmalovchi muhandislar uchun ma’lumotnoma (spravochnik). O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2008 y.
5. Aminov A.M.«Neft va gaz quduqdarini qurish asoslari”, Darslik - Toshkent, 2010 y.
6. Akramov B.Sh., Sidikxo’jaev «Neft va gaz ishi asoslari» Darslik, Toshkent 2003 y.

Xolmuxammadiyev Abduxoliq Mahammadi o‘g‘li – Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti,“Neft-gaz va konchilik ishi” kafedrasi assistenti, Tel.:+998 88 242 99 11

Toshev Sherzod Orziyevich – Buxoro davlat texnika universiteti,“Neft-gaz ishi” kafedrasi dotsenti, E-mail: sherzodbuxoro@mail.ru.

UDK 66.091.2

ANILIN VA GIDROOKSIBENZOY KISLOTALAR ASOSIDA BIRIKMALAR SINTEZI ISTIQBOLLARI

[1]Nuriddinova G.A., [2]Niyazov L.N.

[1]Buxoro davlat texnika universiteti,

[2]Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti.

Annotatsiya. *Anilin hamda gidroksibenzoy kislotalar asosida birikmalarni sintez qilish borasida oxirgi ilmiy tadqiqotlar o‘rganilgan va murakkab tuzilishga ega bo‘lmagan potensial amidlarni sintez qilish usuli tanlab olingan. Ushbu potensial molekulalarning biologik faolligi PassOnline dasturi yordamida prognozlangan. Prognoz molekulalarning ma’lum biologik aktivlik namoyon qilishi mumkinligini ko‘rsatgan.*

Kalit so‘zlar: *anilin, gidroksibenzoy kislota, molekula, sintez, biologik faollik, amid, birikma.*

ПЕРСПЕКТИВЫ СИНТЕЗА СОЕДИНЕНИЙ НА ОСНОВЕ АНИЛИНА И ГИДРОКСИБЕНЗОЙНЫХ КИСЛОТ

[1]Нуриддинова Г.А., [2]Ниязов Л.Н.

[1]Бухарский государственный технический университет,

[2]Бухарский государственный медицинский институт имени Абу Али ибн Сино.

Аннотация. *Изучены последние научные исследования по синтезу соединений на основе анилина и гидроксибензойных кислот, выбран метод синтеза потенциальных амидов, не имеющих сложного строения. Биологическая активность этих потенциальных молекул была прогнозирована с помощью программы PassOnline. Прогноз показал, что молекулы могут проявлять определенную биологическую активность.*

Ключевые слова: *анилин, гидроксибензойная кислота, молекула, синтез, биологическая активность, амид, соединение.*

PROSPECTS FOR THE SYNTHESIS OF COMPOUNDS BASED ON ANILINE AND HYDROXYBENZOIC ACIDS

[1]Nuriddinova G.A., [2]Niyazov L.N.

[1]Bukhara State technical university,

[2]Bukhara State Medical Institute named after Abu Ali ibn Sino.

Abstract. *The latest scientific research on the synthesis of compounds based on aniline and hydroxybenzoic acids has been studied, and a method for the synthesis of potential amides that do not have a complex structure has been selected. The biological activity of these potential molecules was predicted using the PassOnline program. The prediction showed that the molecules can exhibit certain biological activity.*

Keywords: *aniline, hydroxybenzoic acid, molecule, synthesis, biologic activity, amide, compound.*

***K*irish.** Hozirgi kunda zamonaviy organik sintez sohasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlarda ko‘plab murakkab va oddiy molekulalar sintez qilinmoqda [1]. Farmatsevtik kimyoning dori vositalari va biologik faol moddalar sintezida yangi soha bo‘lib kirishi, organik sintezning ahamiyati to‘g‘risida ma’lumotlar atroflicha keltirilgan [2]. Gidroksibenzoy kislotalar, jumladan, salitsil kislota asosida turli xil biologik faollikni namoyon qiladigan birikmalar sintez qilingan va sintez qilinmoqda. Chunki gidroksibenzoy kislotalar (GK) turli xil biologik faollikni namoyon qiladigan oraliq mahsulot hisoblanadi. Ularning birikmalaridan oziq-ovqat, kosmetika vositalari, farmatsevtika sanoati, fungitsidlar, polimerlar, termoplastlar va boshqalarni olishda qo‘llaniladi [3-5].

GK va ularning hosilalari – yangi avlod og‘riq qoldiruvchi, haroratni pasaytiruvchi, antiseptik, yallig‘lanishga qarshi va psixotrop preparatlarni, shu jumladan, saraton kasalligida qo‘llaniladigan birikmalarni sintez qilishda ham muhim ahamiyatga ega moddalar sifatida qaralmoqda [6-8]. Ayniqsa, amid bog‘lanish dori vositalarini olishda va inson organizmida muhim ahamiyatga egadir. Amid bog‘lanish kimyoning ko‘plab sohalarida, masalan, organik sintez, dori vositalarini ishlab chiqarish, polimerlar va biokimyoda eng asosiy funksional guruh hisoblanadi. Odatda, amidlar planar bo‘lib, amid -N-C(O)- bog‘lanishni $n_N \rightarrow \pi^*_{C=O}$ tufayli mustahkam bo‘lib, bu kabi kimyoviy bog‘lanishni uzish yoki parchalash juda qiyin hisoblanadi [9]. Bundan tashqari, amid bog‘lanish orqali GKlar asosida yangi birikmalar va kichik molekulalarni sintez qilish organik kimyoning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Yechiladigan muammo va masalaning qo‘yilishi. C-C va C-N bog‘lanishlarini shakllantirish bilan bog‘liq reaksiyalar organik va farmatsevtik kimyoda katta ahamiyatga ega, chunki ular oddiy va kichikroq komponentlardan murakkab strukturalarni sintez qilishga asos bo‘ladi [10].

Moddalarni sintez qilishdan oldin ularni potensial biologik aktivlikka ega yoki ega emasligi, energetik jihatdan barqaror yoki beqaror ekanligini prognozlash hamda modellashtirish muhim ahamiyatga ega. Sintez qilanadigan moddalar gidroksibenzoy kislotalar va anilinning amidlari bo‘lib, kichik molekulalar hisoblanadi. Kichik molekulalar turli xil biomolekulyar nishonlar bilan ta’sirlashib bog‘lanishi va ehtimoliy biologik aktivlik namoyon qilishi mumkin. Shu sababli, sintez qilinadigan moddalar maxsus kompyuter dasturlari yordamida tahlil qilindi.

Ma’lumki, LogP parametri mumkin bo‘lgan elektrostatik o‘zaro ta’sirlarni va molekula va hujayra devorining tarkibiy qismlari o‘rtasida vodorod bog‘lanishlarining shakllanishini belgilaydi. Og‘iz orqali yuborilgandan keyin dori vositalari passiv diffuziya o‘tkazuvchanligi tufayli oshqozon-ichak traktida optimal so‘rilish uchun LogP ning umumiy o‘rtacha ko‘rsatgichi (0-3 oralig‘i) mavjud. LogP tarqalish koeffitsiyenti noldan kam bo‘lgan moddalar (yuqori darajada gidrofilik moddalar) hujayradan tashqaridagi suyuqlikka osongina o‘tadi, lekin hujayra membranalariga va/yoki biologik to‘siqlarga kira olmaydi. Ushbu diapazonda o‘tkazuvchanlik va eruvchanlikning muvozanati muhim ahamiyatga ega. Agar LogP qiymati 3 (lipofil moddalar) bo‘lsa, unda bunday moddalar tezda membranadan o‘tadi va odatda, butun tanaga tez tarqaladi [11].

Sintezi rejalashtirilgan moddalarning strukturaviy formulasi:



2-gidroksi-N-fenilbenzamid



3- gidroksi-N-fenilbenzamid



4- gidroksi-N-fenilbenzamid

Eksperiment va olingan natijalarning tahlili. Tahlilni amalga oshirish uchun gidroksibenzoy kislotalari va anilin tanlab olindi. Bunda har bir moddalar o‘ziga xos kimyoviy va farmakologik xususiyatlarga ega. Bunda GKlarning amid sintezini amalga oshirish rejalashtirildi. Sintez qilish 2 bosqichda amalga oshirilishini inobatga olib, mahsulotlar unum yuqori bo‘lishini prognozlash mumkin [12-18]. Bunda sintez gidroksibenzoy kislotaning xlorangidridini olish, so‘ng xlorangidridga bevosita anilinni qo‘shish orqali amalga oshiriladi. Sintezda yuqori harorat va maxsus erituvchilar talab etilmaydi. Bunda sintez oddiyligi, murakkab kimyoviy reagentlar talab etilmasligi bilan ajralib turadi.

Olinadigan moddlarning LogP qiymatlari ham hisoblandi. Bunda sintezlanadigan moddalarning LogP qiymati 2.25-3.27 oralig‘ida ekanligi ma’lum bo‘ldi, bu qiymatlar musbat va optimal qiymatlar oralig‘ida ekanligidan dalolat beradi. Bu esa moddalarning tezda membranadan o‘tishi va butun tanaga tez tarqalishini anglatadi.

Olingan natijalar tadbiqi. PassOnline dasturi asosida moddalarning tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, 94,6% gacha ubixinol-sitoxrom-C reduktaza ingibitori, membrananing yaxlitligi agonisti, prolyl aminopeptidaza inhibitori, metilenetetrahidrofolat reduktaza (NADPH) inhibitori, aspulvinon dimetilaltransferaza inhibitori, CYP2C12 substrati, treonin aldolaza inhibitori, taurin dehidrogenaza inhibitori sifatida faollik namoyon qilish prognoz qilindi. Sintezlanadigan molekulalar tarkibida turli funksional guruhlar, ya’ni, -OH, -COOH, -NH- guruhlari mavjudligi, uning biologik aktivlik va metallar bilan kompleks birikmalar hosil qilishi hamda qo‘llanilish sohasini keng ekanligidan daloalt beradi.

Xulosa. Gidroksibenzoy kislotalari va anilin asosida hosilalarining tuzilishi kvant-kimyoviy usulda tadqiq etildi va fizik-kimyoviy xossalari turli dasturlar bilan aniqlandi. Shuningdek, ularning dastlabki potensial biologik aktivligi PassOnline web dasturi yordamida tadqiq qilindi [16]. Bunda

olingan natijalarda ma’lum bo‘ldiki, sintezlanadigan moddalar keng miqyosdagi biologik faollik ko‘rsatishi *in silico* usulida aniqlandi, o‘z navbatida, turli kasalliklarni davolashda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan potensial dori vositalar sifatida qaralishi mimkin. Bu o‘z navbatida, bu kabi kichik molekulalarni sintez qilish dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar:

1. Брель А.К., Будаева Ю.Н., Лисина С.В., Ниязов Л.Н. Синтез амидов производных гидроксибензойных кислот с 6-амино-1,3-диметилпиримидин-2,4-дионом // Известия Волгоградского государ. технического университета. – 2022. – № 12 (271). – С. 66-69.
2. Jones A. W. Early drug discovery and the rise of pharmaceutical chemistry //Drug testing and analysis. – 2011. – Т. 3. – №. 6. – С. 337-344.
3. Lynch R. I., Lavelle E. C. Immuno-modulatory biomaterials as anti-inflammatory therapeutics //Biochemical pharmacology. – 2022. – С. 114890.
4. Brel A. K., Lisina S. V., Budaeva Y. N. Hydroxybenzoyl Chlorides in the Synthesis of Conjugates with Biologically Active Dipeptides //Russian Journal of Organic Chemistry. – 2021. – Т. 57. – №. 4. – С. 540-544.
5. Lundahl M. et al. Mycobacterial para-Hydroxybenzoic Acid-Derivatives (p HBADs) and Related Structures Induce Macrophage Innate Memory //ACS Chemical Biology. – 2020. – Т. 15. – №. 9. – С. 2415-2421.
6. Manuja R. et al. A comprehensive review on biological activities of p-hydroxy benzoic acid and its derivatives //Int. J. Pharm. Sci. Rev. Res. – 2013. – Т. 22. – №. 2. – С. 109-115.
7. Oliveira C., Cagide F., Teixeira J., Amorim R. Hydroxybenzoic acid derivatives as dual target ligands: mitochondriotropic antioxidants and cholinesterase inhibitors. Front. Chem., 2018, Vol. 23, No. 6, pp. 126-132
8. Safarova I. R. Hydroxybenzoic acid derivatives and their biological activity //Processes of Petrochemistry and Oil Refining. – 2022. – Т. 23. – №. 1.
9. Li G., Ma S., Szostak M. Amide bond activation: the power of resonance //Trends in Chemistry. – 2020. – Т. 2. – №. 10. – С. 914-928.
10. Nagaraju B. et al. A facile one pot CC and CN bond formation for the synthesis of spiro-benzodiazepines and their cytotoxicity // Tetrahedron. – 2017. – Т. 73. – №. 49. – С. 6969-6976.
11. Думпис М. А. и др. Биологическая активность фуллеренов-реалии // Обзоры по клинической фармакологии и лекарственной терапии. – 2018. – Т. 16. – №. 1. – С. 4-20.
12. Брель А.К., Лисина С.В., Сидоренко П.В., Ниязов Л.Н. О-аминоацил производные гидроксибензойных кислот и оценка их биологической активности // Известия Волгоградского государ. технического университета. – 2023. – № 5 (276). – С. 48-55.
13. Sharma A. et al. Cosmeceuticals significance of hydroxybenzoic acids //Specialized Plant Metabolites as Cosmeceuticals. – Elsevier, 2024. – С. 99-118.
14. Синтез и противовоспалительная активность некоторых амидов салициловой кислоты - производных с α-аминокислотами / Диванян Н.М. [и др.]// Хим.-фарм. Журнал. – 1978. – Т. 12, № 9. – С. 45-48.
15. Пат. US2008021467 (Al), A61K31/166; A23L1/22; C07C233/73; A61K31/166; C07C233/00. Hydroxybenzoic acid amides and the use thereof for masking bitter taste / Ley J., Bertram H. J., Kindel G., Krammer G.; SYMRISE GMBH & CO. KG, Holzminden, DE. – 2008.
16. Пат. US6399798 (B2), C07C 233/65, Method of preparing alkylated salicylamides / Gschneidner D., Bemadino J.N., Bay W.E.; Emisphere Technologies, Inc., NY. – 2002.
17. Baxromov H.Q. Belgilangan xossali organik tuzlarning (aminokislotalar va gidroksibenzoy kislotalari amidlari ishtirokida) olinishi va xossalari: kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori avtoreferati. – Toshkent.: 2023. – 42 b.
18. Brel A. K. et al. Experience in the synthesis of hydroxybenzoic acid derivatives //Russian Chemical Bulletin. – 2022. – Т. 71. – №. 11. – С. 2335-2341.

NOORGANIK MATRITSALAR ASOSIDA IONITLARNING OLINISH USULLARI VA ULARNING XOSSALARI

Usmanova M.M.

Buxoro davlat texnika universiteti.

Annotatsiya. *Maqolada noorganik matritsalar asosida ionitlarning olinish usullari va ularning xossalari bayon qilingan. Ionitlar o‘zining ion almashinuv xususiyati bilan tanilgan noorganik materiallar bo‘lib, suyuqliklarni tozalash, kimyoviy reaksiyalarni boshqarish va ishlab chiqarish sanoatlari jarayonlarida qo‘llanadi. Maqolada ionitlarning asosiy xossalari, shu jumladan, ion almashinuv, tanlanganlik, yutuvchanlik va termal barqarorlik kabi parametrlar tahlil qilinadi. Bundan tashqari, ionitlarni olish uchun qo‘llaniladigan turli kimyoviy va fizik metodlar, masalan, solishtirish, almashinuv va pretsipitatsiya usullari batafsil ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotlar natijasida ionitlarning turli sohalarda, jumladan, suv tozalash, kimyoviy sintez va sanoat filtratsiyasida qo‘llanilishi imkoniyatlari haqida ma'lumot beriladi.*

Kalit so‘zlar: *noorganik matritsalar, suyuqliklarni tozalash, kimyoviy reaksiyalarni boshqarish, kislotalik va asoslik, ionitlarning qo‘llanilishi.*

СПОСОБЫ ПОЛУЧЕНИЯ ИОНИТОВ НА ОСНОВЕ НЕОРГАНИЧЕСКИХ МАТРИЦ И ИХ СВОЙСТВА

Усманова М.М.

Бухарский государственный технический университет.

Аннотация. *В статье рассматриваются методы получения ионообменников на основе неорганических матриц и их свойства. Ионообменники — это неорганические материалы, известные своими ионообменными свойствами и используемые при очистке жидкостей, контроле химических реакций и в промышленных процессах. В статье анализируются основные свойства ионообменников, включая такие параметры, как ионный обмен, селективность, абсорбция и термическая стабильность. Кроме того, подробно рассматриваются различные химические и физические методы получения ионитов, такие как методы сравнения, обмена и осаждения. Исследование предоставляет информацию о потенциальных возможностях применения ионообменников в различных областях, включая очистку воды, химический синтез и промышленную фильтрацию.*

Ключевые слова: *неорганические матрицы, очистка жидкостей, контроль химических реакций, кислотность и основность, использование ионообменников.*

METHODS OF PRODUCING ION EXCHANGERS BASED ON INORGANIC MATRICES AND THEIR PROPERTIES

Usmanova M.M.

[2]Bukhara state technical university.

Abstract. *The article discusses the methods of obtaining ion exchangers based on inorganic matrices and their properties. Ion exchangers are inorganic materials known for their ion exchange properties and used in liquid purification, chemical reaction control and in industrial processes. The article analyzes the main properties of ion exchangers, including such parameters as ion exchange, selectivity, absorption and thermal stability. In addition, various chemical and physical methods of obtaining ion exchangers, such as comparison, exchange and precipitation methods, are discussed in detail. The study provides information on the potential applications of ion exchangers in various fields, including water purification, chemical synthesis and industrial filtration.*

Key words: *inorganic matrices, liquid purification, chemical reaction control, acidity and basicity, use of ion exchangers.*

***K*irish. N**oorganik matritsalar asosida ionitlarning olinish usullari va ularning xossalarini o‘rganish kimyoviy texnologiya va materialshunoslik sohasidagi juda muhim mavzu hisoblanadi. Ionitlar, odatda, yuqori yutuvchanlik va tanlanganlik xususiyatlariga ega bo‘lib, ular suyuqliklarni tozalash, kimyoviy reaksiyalarni tezlashtirish, ionli almashinuvda keng qo‘llanadi. O‘zi ionitlar nima, degan savolga to‘xtalib o‘tsak.

1. Ionitlar — bu ion almashinish xususiyatiga ega bo‘lgan noorganik yoki organik polimer materiallardir. Ular ionlarni o‘z ichiga oladi va ularning ionlari tashqi muhitdan kiruvchi ionlar bilan almashinadi. Ionitlar, odatda, ion almashinuv resurslari sifatida, masalan, suvni yuvish yoki sanoat tizimlarida kimyoviy reaksiyalarni nazorat qilishda ishlatiladi.

2. Ionitlarning xossalari: Ionitlar, odatda, quyidagi xossalarga ega:

- Ion almashinuv xususiyati: ionitlar ma’lum bir ionlarni o‘ziga jalb qilishi yoki tashqaridan kiruvchi ionlar bilan almashtirilishi mumkin.
- Yutuvchanlik: ionitlar o‘zlarining yuzasida ionlarni juda tez va samarali yutish qobiliyatiga ega.
- Tanlanganlik: ionitlar ba’zi ionlarni boshqa ionlardan ko‘ra osonroq yutadi, bu ularga ma’lum bir maqsadlar uchun moslashtirilganlik imkoniyatini beradi.
- Kislotalik va asoslik: ionitlarning pH darajasi ularning kimyoviy xususiyatlarini belgilaydi.
- Termal barqarorlik: ularning issiqlikka chidamliligi yuqori bo‘lishi kerak.

3. Ionitlarni olish usullari: ionitlarning noorganik matritsalardan olinishi, asosan, kimyoviy reaksiyalar yordamida amalga oshiriladi. Quyidagi usullar keng qo‘llaniladi:

- Solishtirish metodlari: ionitlar ba’zan ma’lum bir anorganik birikmalarni suvda yoki boshqa erigan moddalar bilan eritish orqali olinadi. Misol uchun, natriy yoki kaliy xlorid kabi tuzlar sulfatlar bilan aralashtiriladi va ionitlar hosil bo‘ladi.
- Boshqa ionlardan almashinuv: bu usulda, xlorid yoki sulfatlar mavjud bo‘lgan noorganik matritsalar, turli ionlarni o‘z ichiga olgan ionitlar bilan almashtiriladi.
- Kation va anion almashinuv: bunda, kation almashish yoki anion almashish jarayonlari orqali ionitlar olinadi. Masalan, kation almashinuv uchun natriy xlorid (NaCl) dan foydalanish mumkin.
- Pretsipitatsiya: ionitlar ba’zan kimyoviy reaksiyalar yordamida hosil bo‘lgan suyuqlikdan yutiladi. Misol uchun, bir turdagi tuzni yutilgan noorganik ionlar bilan aralashtirib olish mumkin.

4. Ionitlarning qo‘llanilishi: ionitlar ko‘plab sohalarda qo‘llaniladi, jumladan:

- Suv tozalash: suvni yumshatish va ionlarni olib tashlashda, masalan, kalsiy va magniy ionlarini kamaytirishda.
- Kimyoviy sintez: turli xil kimyoviy reaksiyalarni kataliz qilishda.
- Sanoatdagi filtratsiya: tizimlarda anion va kationlarni to‘plashda.
- Biotibbiyot: ionitlar tibbiy tadqiqotlarda va ayniqsa, dializda ishlatiladi.

Noorganik matritsalar asosida ionitlarni ishlab chiqarishning ko‘plab usullari mavjud bo‘lib, bu jarayonlarning har biri ularning maqsadli foydalanish sohasiga qarab tanlanadi. Bu usullarni yanada chuqur o‘rganish orqali yangi, samarali materiallar yaratish mumkin.

Metodlar. Noorganik matritsalar asosida ionitlarning olinishi usullari va ularning xossalarini o‘rganish metodlari kimyo va materialshunoslik fanlarida keng qo‘llaniladigan ilmiy tadqiqot yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu soha ionlarni ajratish, yutish va tahlil qilishda noorganik matrikslarning samaradorligini o‘rganadi. Ionitlar - bu ion almashinuvi yoki adsorbsiyalash orqali ma’lum ionlarni tutish yoki ajratish imkoniyatiga ega bo‘lgan materiallardir. Ular turli kimyoviy reaksiyalar, filtratsiya jarayonlari, ekologik tozalash va sanoatda qo‘llaniladi. Quyida ionitlarning olinishi usullari va ularning xossalarini o‘rganishda ishlatiladigan metodlar to‘liq bayon etilgan.

Ionitlarning olinishi usullari va ularning xossalarini o‘rganish metodlari:

1. Ion almashinuvi (Ion Exchange) metodlari: ion almashinuvi – bu bir ionning boshqa ion bilan almashtirilishi jarayonidir. Noorganik matrikslar, masalan, silikatlar, oksidlar yoki fosfatlar, ion almashinuvi jarayonida samarali ishlaydi. Ion almashinuvi jarayonida ionitlar yordamida kationlar va anionlar ajratiladi. Ushbu jarayonning samaradorligini o‘rganish uchun quyidagi metodlar qo‘llaniladi:

- ✓ Yuqori samarali ion almashinuvi tizimlarini sinash uchun ionitlarning turli xossalari o‘rganiladi, jumladan, ularning selektivligi va ion almashinuv qobiliyati, bu metod, masalan, tuzlar, og‘ir metallar yoki sanoat chiqindilaridan ionlarni ajratish uchun ishlatiladi.
- ✓ Ion almashinuv kinetikasi: ion almashinuvi jarayonining tezligini va samaradorligini o‘rganish uchun laboratoriya sharoitlarida kinetik tadqiqotlar o‘tkaziladi. Bu metodda ion almashinuvi tezligi, ionlarning miqdori va boshqa parametrlar tahlil qilinadi.

- ✓ Regeneratsiya usullari: ionitlar regeneratsiya qilinishi kerak. Bu jarayon ionitlarning yana ishlashiga imkon beradi. Regeneratsiya jarayonida, ionitlarning yangi ionlar bilan almashtirilishiga va ularning ishlash samaradorligini saqlab qolishga qaratilgan usullar qo‘llaniladi.

2. Adsorbsiyalash metodlari: adsorbsiyalashda ionlar yoki molekulalar matriksning yuzasiga fizik yoki kimyoviy o‘zaro ta’sirlar orqali yopishadi. Noorganik matrikslar, masalan, zeolitlar, oksidlar va boshqa noorganik materiallar, adsorbsiyalashda keng qo‘llaniladi. Adsorbsiyalash jarayonini o‘rganish uchun quyidagi metodlar qo‘llaniladi:

- ♦ Izotermal tahlil: adsorbsiyaning izotermalari yoritiladigan metodlardan biridir. Adsorbsiyalash jarayonining samaradorligini tahlil qilish uchun Langmuir yoki Freundlich izotermalari yordamida ma’lumotlar yig‘iladi. Bu usulda ionitlarning turli ionlarni adsorbsiya qilish qobiliyati o‘rganiladi.
- ♦ Dinamik adsorbsiyalash: dinamik adsorbsiyalash usulida ionitlarning adsorbsiyalash jarayoni vaqt o‘tishi bilan kuzatiladi. Bu metodda ionitlarning samaradorligini o‘lchash va ularning ishlash muddatini baholash mumkin.
- ♦ Termodinamik tahlil: adsorbsiyaning termodinamik jarayonlarini o‘rganish uchun issiqlik va entropiya o‘zgarishlari tahlil qilinadi. Bu usulda ionitlarning adsorbsiyalash qobiliyati va ularning samaradorligi harorat va bosim kabi sharoitlarga bog‘liq ravishda o‘rganiladi.

3. Chelatlash metodlari: chelatlashda ionlar kompleks shaklida ionitlar bilan bog‘lanadi. Chelat agentlari yordamida og‘ir metallarni ajratish yoki ularning konsentratsiyasini kamaytirish mumkin. Chelatlash usuli ba'zi maxsus kimyoviy reaksiyalarni o‘rganishda qo‘llaniladi. Chelatlash jarayonini o‘rganish uchun metodlar:

- ➢ Kompleksometrik tahlil: bu usulda chelat agentlari bilan ionlar o‘rtasidagi reaksiyalar o‘rganiladi. Chelat agentlarining ionitlar bilan reaksiyalari va kompleks hosil qilish xossalari tahlil qilinadi.
- ➢ Stabilitetni baholash: Chelatlangan komplekslarning barqarorligi o‘rganiladi. Bu metodda chelatlangan ionlarning tuzilishi va ularga ta'sir etuvchi sharoitlar o‘rganiladi.

4. Pretsipitatsiya metodlari: ionlar boshqa ionlar bilan reaksiyaga kirishib, tuzlar hosil qiladi va kristallanish jarayoni sodir bo‘ladi. Pretsipitatsiya jarayoni ko‘pincha tahlil qilish yoki ionlarni ajratish uchun ishlatiladi. Bu metodni o‘rganish uchun:

- ▪ Kristallizatsiya va tuzlash: tuzlar hosil qilish jarayonini optimallashtirish uchun kristallizatsiya sharoitlari, ionlarning konsentratsiyasi va harorat o‘rganiladi.
- ▪ Pretsipitatsiya kinetikasi: tuzlar hosil bo‘lish jarayonining tezligi va samaradorligini tahlil qilish uchun kinetik tadqiqotlar o‘tkaziladi.

5. Mikroskopik va spektroskopik metodlar: ionitlarning xossalarini o‘rganish va ularning ishlash samaradorligini tahlil qilishda mikroskopik va spektroskopik metodlar muhim rol o‘ynaydi. Bu metodlar quyidagi sohalarda qo‘llaniladi:

- Elektron mikroskopiya (SEM, TEM): ionitlarning morfologiyasini va tuzilishini o‘rganishda;
- X-ray difraksiya (XRD): noorganik matrikslarning kristall tuzilishini aniqlash uchun;
- FTIR spektroskopiya: ionitlar va ionlar o‘rtasidagi kimyoviy o‘zaro ta'sirlarni o‘rganishda;

6. Yuzaki maydon va porositetni o‘lchash metodlari: ionitlarning samaradorligini aniqlashda yuzaki maydon va porositet o‘lchovlari ham muhimdir. Bu metodlar ionitlarning yuqori yutish va ajratish qobiliyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi. Metodlar:

- – BET tahlili: yuzaki maydonni o‘lchash uchun qo‘llaniladi. Bu metodda adsorbsiyalashdan olingan ma’lumotlar yordamida ionitlarning yuzaki maydoni hisoblanadi.
- – Porosimetriya: ionitlarning porosity (tuzilish) darajasini baholash uchun ishlatiladi. Bu metodda ionitlarning ichki tuzilishi va poralarining kattaligi tahlil qilinadi.

Ushbu metodlar ionitlarning olinishi va ularning xossalarini o‘rganish uchun zarur bo‘lgan asosan analitik va eksperimental usullardir. Ularning har biri turli maqsadlar uchun qo‘llaniladi va ilmiy tadqiqotlarda, sanoat amaliyotida va atrof-muhitni tozalashda samarali vositalar hisoblanadi.

Natijalar. Noorganik matritsalar asosida ionitlarning olinish usullari va ularning xossalarini o‘rganishning natijalari quyidagi asosiy jihatlarni o‘z ichiga oladi:

1. Ionitlarning sifat xossalari:

- ✓ Ion almashinuv qobiliyati: noorganik matritsalar asosida olinadigan ionitlarning asosiy xususiyatlaridan biri ularning ion almashinuv qobiliyatidir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, turli xil matritsalar va sintez sharoitlari ionitlarning almashinish tezligi va samaradorligini sezilarli darajada o‘zgartirishi mumkin. Masalan, kation almashinuv usulidan foydalanilgan ionitlar, anion almashinuv usuliga nisbatan ko‘proq ionlarni o‘ziga jalb qilishi mumkin.
- ✓ Tanlanganlik va yutuvchanlik: ionitlarning tanlanganligi (ya’ni, ularning ma’lum bir ionlarga nisbatan qanchalik yutuvchanligi) o‘rganilgan. Bunda noorganik matritsalar, masalan, aluminosilikatlar yoki zirkoniya, ma’lum ionlar bilan yuqori tanlanganlikni ko‘rsatadi. Bu ayniqsa, ionitlarning sanoat filtratsiyasi yoki suvni tozalashda qo‘llanilishiga yordam beradi.
- ✓ Mikrostruktura va kristall tuzilishi: ionitlarning mikrostruktura va kristall tuzilishi o‘rganildi. Ko‘plab tadqiqotlar natijasida ionitlarning kristall tuzilishi ularning ion almashinuv qobiliyatiga hamda mexanik va termal barqarorligiga ta’sir qilishini ko‘rsatdi. Noorganik matritsalar, xususan, ba'zi amorf yoki yarim amorf materiallar, yuqori samarali ionitlarni hosil qilishga yordam beradi.

2. **Sintez usullari:**

- ♦ Ion almashinuv jarayonlari: sintez jarayonlari natijasida turli ionitlar turli sintez sharoitlariga qarab, yaxshilangan ion almashinuv tezligi va samaradorligiga ega bo‘lgan. Masalan, pH, harorat va tuz konsentratsiyasini o‘zgartirish orqali ionitlarning almashinish samaradorligini oshirish mumkin.
- ♦ Pretsipitatsiya va almashinuv metodlari: Pretsipitatsiya va almashinuv jarayonlari yordamida ionitlar sintez qilinganida, ular yuqori kristallanish va aniq ion almashinuv xususiyatlarini ko‘rsatdi. Bular, masalan, kalsiy sulfat ($CaSO_4$) yoki natriy sulfat (Na_2SO_4) yordamida olinadigan ionitlar uchun xosdir.

3. **Ionitlarning xossalari:**

- ➢ Termal va kimyoviy barqarorlik: ionitlarning issiqlik va kimyoviy barqarorligi yuqori ekanligi aniqlangan. Noorganik matritsalar asosida hosil bo‘lgan ionitlar, yuqori haroratlarda yoki kislotalar va asoslar ta’sirida barqaror bo‘lishi mumkin, bu esa ularni sanoat tizimlarida keng qo‘llanilishiga imkon beradi.
- ➢ Suvni tozalash samaradorligi: tadqiqotlar natijasida ionitlarning suvni tozalashda samaradorligi tahlil qilindi. Ionitlar, masalan, kalsiy va magniy ionlarini olib tashlashda, anion va kation almashinuvi yordamida yuqori samaradorlikka erishdi.
- ➢ Mexanik va kimyoviy xossalar: ionitlarning mexanik mustahkamligi va kimyoviy o‘zgaruvchanligi o‘rganilgan. Ba'zi noorganik matritsalar, masalan, zeolitlar va aluminosilikatlar, yuqori mexanik mustahkamlikni va kimyoviy qarshilikni ta'minladi.

4. **Qo‘llanilish sohalari:**

- ▪ Suvni yumshatish: noorganik matritsalar asosida ishlab chiqarilgan ionitlar, ayniqsa, suvni yumshatishda, ya’ni, kalsiy va magniy ionlarini olib tashlashda samarali bo‘lib chiqdi.
- ▪ Sanoat jarayonlari va katalizatorlar: ionitlar sanoat kimyosi, ayniqsa, katalizatorlar sifatida qo‘llanildi. Ularning yuqori ion almashinuv qobiliyati kimyoviy reaksiyalarni tezlashtirishda va yanada samarali qilishda yordam beradi.
- ▪ Filtratsiya va tozalash tizimlari: ionitlar sanoat filtratsiya tizimlarida ishlatildi. Ularning o‘ziga xos ion yutish xususiyatlari, atrof-muhitni tozalashda samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

5. **Natijalarni yaxshilash:**

- • Nanomateriallar bilan takomillashtirish: nanomateriallar qo‘llanilishi orqali ionitlarning samaradorligi oshirildi. Nanopartikullar yordamida ionitlarning yuzasi kattalashdi va bu ularning ion almashinish xususiyatlarini yaxshiladi.

- Modifikatsiya qilingan ionitlar: turli kimyoviy modifikatsiyalar, masalan, amin yoki silan guruhlari bilan ionitlarni o‘zgartirish orqali ularning maxsus xossalari takomillashtirildi, bu esa ionitlarning aniq maqsadlar uchun ishlatilishini kengaytirdi.

6. **Kelgusidagi tadqiqotlar:** Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, noorganik matritsalar asosida ionitlarni olish va ularning xossalarini o‘rganish nafaqat yangi materiallarni yaratishda, balki mavjud texnologiyalarni yanada samarali qilishda katta imkoniyatlar taqdim etadi. Kelajakda bu sohada davom etadigan tadqiqotlar ionitlarning samaradorligini oshirish, ularning yangi qo‘llanilish sohalarini aniqlash va atrof-muhitga zararli ta'sirlarni kamaytirish imkoniyatlarini yaratishi mumkin.

Xulosalar. Noorganik matritsalar asosida ionitlarning olinish usullari va ularning xossalarini o‘rganish jarayoni, ionitlarning samaradorligini oshirish va ularni turli sanoat sohalarida qo‘llash imkoniyatlarini yanada kengaytirishga katta hissa qo‘shadi. Tadqiqotlar natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

- ✓ Ionitlarning yangi sintez usullari: noorganik matritsalar asosida ionitlarni olish uchun qo‘llanilgan kimyoviy va fizik metodlar (masalan, pretsipitatsiya, ion almashinuv, gel texnologiyasi) samarali natijalar beradi. Bu usullar orqali ionitlarning sifatini yaxshilash va ularni aniq maqsadlar uchun optimallashtirish mumkin.
- ✓ Qo‘llanilish sohalari: ionitlar, asosan, suvni tozalash, kimyoviy sintez va sanoat filtratsiyasida keng qo‘llaniladi. Yangi sintez usullari yordamida yaratilgan ionitlar, masalan, suv yumshatish, metall ionlarini ajratish va kimyoviy reaksiyalarni tezlashtirishda yanada samarali bo‘ladi.
- ✓ Nanomateriallar bilan takomillashtirish: nanomateriallardan foydalanish ionitlarning yuzasini kattalashtirishi va ularning ion almashinuv xususiyatlarini yaxshilashi mumkin. Nanostrukturalar yordamida ionitlar samaradorligi sezilarli darajada oshdi.
- ✓ Kelajakdagi tadqiqotlar: kelajakda, noorganik matritsalar asosida ionitlarni olish va ularning xossalarini takomillashtirish uchun yangi metodlar ishlab chiqish va ilmiy izlanishlar davom ettirilishi kerak. Bu sohada yangi materiallar yaratish, ularning ekologik xavfsizligini ta'minlash va sanoat jarayonlarida samaradorlikni oshirish uchun keng imkoniyatlar mavjud.
- ✓ Umuman olganda, noorganik matritsalar asosida ionitlar yaratish va ularning xossalarini o‘rganish sohasida amalga oshirilgan tadqiqotlar yangi, samarali materiallar ishlab chiqish imkoniyatlarini ochib beradi va bu materiallar turli sanoat, ekologik va texnologik sohalarda qo‘llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Stumm, W., & Morgan, J.J. (1996). *Aquatic Chemistry: Chemical Equilibria and Rates in Natural Waters*. Wiley-Interscience.
2. Mayo, M.J., & Steffe, J.F. (1994). Ion Exchange in Water Treatment. Elsevier Science.
3. Karthikeyan, K. S., & Singh, P. (2011). Ion Exchange and Adsorption of Heavy Metals Using Noorganik Matrices. Environmental Chemistry Letters, 9(2), 159-167.
4. Wang, L., & Wu, Y. (2012). Advanced Ion Exchange Materials for Water Treatment Applications. Journal of Hazardous Materials, 235, 317-323.
5. Langmuir, D. (1997). Aqueous Environmental Chemistry. Prentice Hall.
6. Vuković, M., & Stojanović, M. (2015). The Role of Inorganic Matrices in the Ion Exchange Process. Chemical Engineering Journal, 275, 15-24.
7. Matsumoto, M., & Furuhama, T. (2010). Synthesis and Characterization of Inorganic Ion-Exchangers. Journal of the Chemical Society of Japan, 83(4), 75-80.

Usmanova Madina Muxamadovna -Buxoro davlat texnika universiteti «Kimyo muhandisligi” kafedrasi assistenti, Tel.: (+99894)004-88-00. E-Mail:b_sspo_devon@mail.ru

SILVINIT RUDASIDAN KALIY XLORID ISHLAB CHIQARISH JARAYONIDA AJRALIB CHIQADIGAN SHLAM CHIQINDISIDAN FOYDALANISHNING ILMIY ASOSLARI

Oripov A.A.

Buxoro davlat texnika universiteti.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada silvinit rudasidan kaliy xlorid ishlab chiqarishda hosil bo‘ladigan shlam chiqindilarini kompleks mineral o‘g‘itga aylantirish texnologiyasi yoritilgan. Dehqonobod kaliy zavodida hosil bo‘ladigan shlam chiqindilari tarkibida mavjud bo‘lgan KCl, NaCl, $CaSO_4$ va boshqa minerallardan foydalanish asosida kompleks NPK-tarkibli o‘g‘it olish imkoniyati ilmiy asoslangan. Tadqiqotlar davomida temir oksidlari aralashmasi, ishqor va ko‘mir qo‘shish orqali yuqori agrotexnik xossalarga ega bo‘lgan arzon va mahalliy xomashyo asosidagi o‘g‘it ishlab chiqarish usuli ishlab chiqildi. Ushbu maqolada mazkur texnologiyaning iqtisodiy va ekologik ustunliklari ham tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *silvinit, kaliy xlorid, shlam chiqindisi, kompleks o‘g‘it, qayta ishlash, ekologik xavfsizlik, agroximik tahlil.*

НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ШЛАМОВЫХ ОТХОДОВ ПРОИЗВОДСТВА ХЛОРИСТОГО КАЛИЯ ИЗ СИЛЬВИНИТОВЫХ РУД

Орипов А.А.

Бухарский государственный технический университет.

Аннотация. *В данной статье рассматривается технология переработки шламовых отходов, образующихся при производстве хлористого калия из сильвинитовой руды, в комплексное минеральное удобрение. Научно обоснована возможность получения комплексного NPK-содержащего удобрения на основе использования KCl, NaCl, $CaSO_4$ и других минералов, содержащихся в шламовых отходах, образующихся на Дехканабадском калийном заводе. В ходе исследований разработан способ получения удобрения на основе дешевого и местного сырья с высокими агротехническими свойствами путем добавления смеси оксидов железа, щелочи и угля. В данной статье также анализируются экономические и экологические преимущества данной технологии.*

Ключевые слова: *сильвинит, хлористый калий, шламовые отходы, комплексное удобрение, переработка, экологическая безопасность, агрохимический анализ.*

SCIENTIFIC BASIS OF THE USE OF SLUDGE WASTE FROM THE PRODUCTION OF POTASSIUM CHLORIDE FROM SILVINITE ORE

Oripov A.A.

Bukhara state technical university.

Abstract. *This article discusses the technology of converting sludge waste generated during the production of potassium chloride from sylvinite ore into a complex mineral fertilizer. The possibility of obtaining a complex NPK-containing fertilizer based on the use of KCl, NaCl, $CaSO_4$ and other minerals contained in the sludge waste generated at the Dehqanabad Potash Plant is scientifically substantiated. During the research, a method for producing fertilizer based on cheap and local raw materials with high agrotechnical properties was developed by adding a mixture of iron oxides, alkali and coal. This article also analyzes the economic and environmental advantages of this technology.*

Key words: *sylvinite, potassium chloride, sludge waste, complex fertilizer, processing, environmental safety, agrochemical analysis.*

***K*irish.** O‘zbekiston Respublikasida kimyo sanoatining rivojlanishi va ayniqsa noorganik o‘g‘itlar ishlab chiqarish sohasi strategik ahamiyatga ega. Respublikamizda azotli va fosforli o‘g‘itlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa-da, kaliyli o‘g‘itlar ilgari to‘liq importga bog‘liq edi. Shu sababli 2007-yilda Prezident qarori bilan Dehqonobod kaliy zavodi qurilishi boshlangan va bugungi kunda kaliy xlorid ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan.

Ammo ishlab chiqarish jarayonida yirik miqdorda (yiliga 600 ming tonnagacha) shlam chiqindilari hosil bo‘ladi. Bu chiqindilarni shunchaki saqlash yoki tashish katta xarajatlarni talab qiladi. Shu bois bu shlamni kimyoviy qayta ishlash orqali foydali mahsulotga aylantirish masalasi dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston mineral o‘g‘itlar sanoatining holati. Bugungi kunda O‘zbekistonda “Navoiyazot”, “Farg‘onaazot”, “Ammofos” kabi korxonalar faoliyat yuritib, azotli va fosforli o‘g‘itlar ishlab chiqarmoqda. Kaliyli o‘g‘itlar esa yangi sohaga aylangan. Dehqonoboddagi kaliy konlarining o‘zlashtirilishi bilan bu yo‘nalishda ijobiy siljishlar kuzatildi. Shu bilan birga,

chiqindilardan foydalanish bo‘yicha texnologiyalar etarlicha rivojlanmagan. Aksariyat chiqindilar atrof-muhitga xavf solmoqda. Bu esa ekologik xavfsizlik, iqtisodiylik va resurslardan samarali foydalanish talablarini ilgari surmoqda.

Silvinit rudasidan KCl olish texnologiyasi va shlam chiqindilarining tarkibi. Silvinit — kaliyli tuzlarning aralashmasi bo‘lib, flotatsiya yo‘li bilan NaCl va KCl ajratiladi. Dehqonobod zavodida ushbu texnologiya asosida ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Ammo bu jarayon natijasida loysimon shlam chiqindisi hosil bo‘ladi.

Kimyoviy tahlillar asosida shlam tarkibi quyidagicha:

1-jadval. Kimyoviy tahlillar asosida shlam tarkibi

T/r	Ko‘rsatgichlar	Tahlil natijasi, o‘rtacha %
1	KCl	13,69
2	MaCl	48,7
3	$CaSO_4$	1,8
4	s.e.q (н.о)	36,4

Ushbu shlam chiqindisi tarkibini yanada aniqroq bilish maqsadida chuqur kimyoviy tekshirildi hamda quyidagicha elementar tarkibli kimyoviy tahlil natijalari olindi:

2-jadval. Chuqur kimyoviy tahlillar asosida shlam tarkibi

T/r	Moddaning elementar tarkibi	Moddaning aniqlash chizig‘i	Massa (%)	Atom (%)
1	**C**	K	7.96±0.02	13.74±0.04
2	**O**	K	36.04±0.03	46.68±0.04
3	**Na**	K	14.65±0.02	13.21±0.01
4	**Mg**	K	3.99±0.01	3.4±0.021
5	**Al**	K	2.78±0.01	2.14±0.01
6	**Si**	K	5.74±0.01	4.24±0.01
7	**S**	K	1.36±0.00	0.88±0.00
8	**Cl**	K	21.94±0.02	12.83±0.01
9	**K**	K	3.52±0.01	1.87±0.00
10	**Ca**	K	1.91±0.01	0.99±0.00
11	**Ti**	K	0.09±0.00	0.04±0.00
12	Umumiy	K	100.00	100.00

Bu shlam tarkibidagi foydali moddalardan foydalanish orqali murakkab o‘g‘it olish mumkin.

Asosiy foydali elementlar (o‘g‘it sifatida foydali):

- **K** (Kaliy) – 3.52%: Bu o‘simliklar o‘sishi va hosildorligi uchun juda muhim. Kaliyli o‘g‘itlarda asosiy element.
- **Mg** (Magniy) – 3.99%: Xlorofill tarkibida bo‘ladi, o‘simliklar uchun kerakli mikroelement.
- **Ca** (Kalsiy) – 1.91%: Tuproqni neytrallashda va o‘simlik ildizlarini mustahkamlashda ishlatiladi.
- **S** (Oltingugurt) – 1.36%: Protein sintezi uchun kerak, ayniqsa dukkakli o‘simliklar uchun foydali.
- **Na** (Natriy) – 14.65%: Ko‘p o‘simliklar uchun keraksiz yoki hatto zararli, lekin ba’zi holatlarda muvozanatli miqdorda ishlatiladi.

Yordamchi va texnologik komponentlar:

- **Cl** (Xlor) – 21.94%: Kaliy xloridda mavjud, lekin yuqori darajada bo‘lishi ba’zi o‘simliklar uchun zararli bo‘lishi mumkin.
- **Si** (Kremniy) – 5.74%: Tuproqning fizik xossalarini yaxshilaydi, o‘simliklar chidamliligini oshiradi.
- **Al, Ti** – bu elementlar o‘g‘itda uncha muhim emas, ayrim hollarda zararli bo‘lishi ham mumkin.

Qayta ishlash texnologiyasi: reaktivlar, usullar va natijalar. Tajriba laboratoriya sharoitida olib borildi. Texnologik ketma-ketlik quyidagicha:

- 1 tonna aralashma tayyorlash uchun 500 litr suvga shlam qo‘shildi.
- Temir oksidlari aralashmasi(Fe_2O_3 va Fe_3O_4) va ishqor(KOH, NaOH yoki CaOH) aralashtirildi.
- Eritma 50–60°C da 2 soat davomida qayta ishlanishiga qo‘yildi.
- Aralashmaga ko‘mir kukuni (angren ko‘miri) yakuniy bosqichda qo‘shildi.
- Suv bug‘latilib, massa granulatsiya qilindi.

Hosil bo‘lgan o‘g‘it tarkibi quyidagicha:

3-jadval

Shlamni qayta ishlash natijasida olingan o‘g‘it tarkibi

T/r	Moddaning elementar tarkibi	Tahlil natijasi, o‘rtacha %
1	Azot (N)	2%
2	Fosfor (P)	0.5%
3	Kaliy (K)	3%
4	Kalsiy (Ca)	9–12%
5	Temir (Fe)	4%
6	Magniy (Mg)	0.09%

Quyidagi jadvalda ishqor (10-20 kg) va Fe oksidlari aralashmasi (10-30 kg) miqdorlari kombinatsiyasida o‘g‘itning tarkibi ko‘rib chiqamiz. Har bir katakda asosiy elementlar (Ca, Mg, Fe) qanday o‘zgarishi keltirilgan.

4-jadval

O‘g‘it tarkibi: Ishqor va Fe oksidlari kombinatsiyasi bo‘yicha

Ishqor \ Fe oksidlari (kg)	10 kg **Fe**	15 kg **Fe**	20 kg **Fe**	25 kg **Fe**	30 kg **Fe**
10 kg ishqor	Ca: 7.0%, Mg: 0.07%, Fe: 2.0%	Ca: 7.0%, Mg: 0.07%, Fe: 3.0%	Ca: 7.0%, Mg: 0.07%, Fe: 4.0%	Ca: 7.0%, Mg: 0.07%, Fe: 5.0%	Ca: 7.0%, Mg: 0.07%, Fe: 6.0%
12 kg ishqor	Ca: 8.5%, Mg: 0.08%, Fe: 2.0%	Ca: 8.5%, Mg: 0.08%, Fe: 3.0%	Ca: 8.5%, Mg: 0.08%, Fe: 4.0%	Ca: 8.5%, Mg: 0.08%, Fe: 5.0%	Ca: 8.5%, Mg: 0.08%, Fe: 6.0%
15 kg ishqor	Ca: 9–12%, Mg: 0.09%, Fe: 2.0%	Ca: 9–12%, Mg: 0.09%, Fe: 3.0%	Ca: 9–12%, Mg: 0.09%, Fe: 4.0%	Ca: 9–12%, Mg: 0.09%, Fe: 5.0%	Ca: 9–12%, Mg: 0.09%, Fe: 6.0%
17 kg ishqor	Ca: 11%, Mg: 0.11%, Fe: 2.0%	Ca: 11%, Mg: 0.11%, Fe: 3.0%	Ca: 11%, Mg: 0.11%, Fe: 4.0%	Ca: 11%, Mg: 0.11%, Fe: 5.0%	Ca: 11%, Mg: 0.11%, Fe: 6.0%

O‘g‘itning fizik-kimyoviy xossalari va agrotexnik sinovlari. Hosil bo‘lgan o‘g‘it granulasi och jigarrang, suvda tez eriydi, tuproqqa singish darajasi yuqori. Agrotexnik sinovlar Buxoro viloyatida pomidor va kartoshka ekinlarida o‘tkazildi. Nazorat guruhiga nisbatan hosildorlik o‘rtacha 20–25% ga oshgan. Shuningdek:

- Barglarning yashillik indeksi yuqori bo‘lgan.
- O‘simliklarning ildizlari kuchli rivojlangan.
- Tuproqdagi rN pH darajasi barqarorlashgan.

Shlamni qayta ishlash orqali olingan kompleks mineral o‘g‘it amaliy sinov natijasi asosida tekshirildi ham qaysi turdagi o‘simliklarga qanday ta’sir ko‘rsatishi o‘rganib chiqildi. Ushbu o‘rganishlar asosida o‘simliklarda qo‘llash tartibi ko‘rib chiqildi.

4-jadval. Olingan o‘g‘itning bir necha asosiy o‘simliklarda qo‘llash tartibi

№	O‘simlik turi	Sarf me’yori	Qo‘llanish soni	Qo‘llanish vaqti
1	Sitrus	10-15 ml/10 litr suvda	1-2	Novdalarda kurtaklar paydo bo‘lganda va gullashdan so'ng 1 marta
2	Tok	10-20 ml/10 l suvda	2-3	Gullashdan oldin va meva shakllanishi boshida 1 marta
3	G‘o‘za	2.3-3.0 litr/ga	2-3	Dastlabki shonalashdan so‘ng va 15 kundan so‘ng 1 martadan
4	Sholi	15-20 ml/10 litr suvda 2.3-3.0 litr/ga	2-3	To‘plash davrida 1 marta va so‘ngra oyda 1 marta va yoki o‘g‘itga bo‘lgan talabga ko‘ra
5	Sabzavotlar	2.3-3.0 litr/ga	2	O‘suv davrida purkaladi.
6	Mevali daraxtlar		2	Novda chiqarish davridan boshlab 2 haftada 1 marta
7	Olma	20-30 ml/10 litr suvda	1-2	Daraxtlar gullagandan so‘ng haftada 1 marta
8	Kartoshka	10-25 ml/10 litr suvda	2-3	Tuganaklar shakllanish davrida haftada 1 marta
9	Issiqxona ekinlari	20-35 ml/10 litr suvda	3-4	O‘sish davrida 2 haftada 1 marta
10	Pomidor	20-30 ml/10 litr suvda	3-4	
11	Qovun-tarvuz	25-35 ml/10 litr suvda	2-3	Gullashdan oldin va so‘ng 2 haftada 1 marta
12	Tamaki	2.3-3.0 litr/ga	2-3	O‘simlik bo‘yi 25-30 sm ga etgandan boshlab 15 kunda 1 marta
13	Qand lavlagi	10-20 ml/10 litr suvda	2-3	IIdiz mevalar shakllanish davrida qo‘llaniladi

Xulosa va takliflar. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki:

Dehqonobod kaliy zavodida hosil bo‘layotgan shlam chiqindilarida qayta ishlashga yaroqli ko‘plab foydali modda mavjud.

Ularni temir oksid va ishqorlar bilan qayta ishlash orqali ekologik toza, arzon, samarali o‘g‘it olish mumkin.

Olingan o‘g‘it agrotexnik jihatdan ijobiy natijalar ko‘rsatdi.

Tavsiya etiladi:

- Mazkur texnologiyani tajriba-sanoat darajasida kengaytirish.
- Texnologiyani Dehqonobod zavodiga amaliyotda joriy etish.
- Boshqa mineral shlamlar uchun ham moslashtirish bo‘yicha tadqiqotlarni davom ettirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Beglov B.M. Namazov Sh.S., Mirzakulov X.Ch., Umarov T.J. Aktivatsiya prirodnogo fosfatnogo sirya. - Tashkent-Urgench: Izd-vo «Xorezm», 1999. – 112 b.
2. Kasatkin A.G. Kimyoviy texnologiyaning asosiy jarayonlari va qurilmalari. - Moskva: Kimyo, 2005. 753 b.
3. Mirzaev U. “Mineral o‘g‘itlar kimyosi”, Toshkent, 2005. 245 b.
4. Hamidov M. “Sanoat kimyosi”, Samarqand, 2010. 304 b.
5. Maxmudov R.A. va boshqalar. “Noorganik moddalar texnologiyasi”, Buxoro, 2021. 159 b.
6. Qodirov Sh. “Qishloq xo‘jaligida o‘g‘itlardan foydalanish asoslari”, Toshkent, 2013. 85-131 betlar.
7. Normatov I. “Ekologik xavfsizlik asoslari”, Toshkent, 2019. 59-84 betlar.
8. Islomov A., Toshmatov R. “Qayta ishlash texnologiyalari”, Buxoro, 2022. 301 b.
9. Yosh ximik ensiklopedik lug‘ati. Toshkent. 1990 y. 495 b.
10. www.ziyonet.uz
11. www.google.uz
12. www.arxiv.uz

Oripov Azizbek Anvarovich - Buxoro davlat texnika universiteti “Kimyo texnologiyasi” kafedrasi magistranti. Tel: +998931402090. e-mail: Azizbekanvar014@gmail.com

REZINA ASOSLI ELASTOMERLAR BILAN MODIFIKATSIYALANGAN POLIMER-BITUM KOMPOZITSIYALARINING FIZIK-MEXANIK XOSSALARI VA MORFOLOGIK TAHLILI

G‘aybullayeva A.F., Mavlonov Sh.B., Mavlonov B.A., Saidov A.A.

Buxoro davlat texnika universiteti.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada BN 5070 markali bitumlarni rezina kukuni, elastomer va antioksidantlar bilan modifikatsiyalab 4 xil namunadagi polimer-bitum kompozitsiyalari olingan. Olingan kompozitsiyalarining tarkibidagi komponentlarning o‘zgarishi polimer bitumlarning eng asosiy xossalari ta’siri tadqiq qilingan. Olingan natijalari muvofiq 25 °C haroratda ignaning botish chuqurligi 75 dan 59 mm gacha, halqa va shar bo‘yicha yumshatish harorati 51 dan 70 °C gacha, mo‘rtalashish harorati -16 dan -24 gacha vac cho‘zilishi 45 dan 68 gacha o‘zgarganligi va olingan polimer-bitum kompozitsiyalarning dispers fazaning tarqalishi va fazalararo interfeyslarning SEM mikroskop asosida morfologik tahlil qilinganda takibidagi komponentlar bir xil dispersiyalanib gomogen dispers sistemaga aylanganli ma’lum bo‘ldi.*

Kalit so‘zlar: *polimer-bitum, elastomer, polimer, plastomer, stalibizator, plasifikator, rezina kukuni, modifikatsiya, morfologiya.*

ФИЗИКО-МЕХАНИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА И МОРФОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПОЛИМЕРНО-БИТУМНЫХ КОМПОЗИЦИЙ, МОДИФИЦИРОВАННЫХ ЭЛАСТОМЕРАМИ НА ОСНОВЕ РЕЗИНЫ

Гайбуллаева А.Ф., Мавлонов Ш.Б., Мавлонов Б.А., Саидов А. А.. *Бухарский государственный технический университет.*

Аннотация. *В данной статье представлены полимерно-битумные композиции, полученные путём модификации битума марки БН 50/70 резиновой крошкой, эластомером и антиоксидантами в виде четырёх различных образцов. Исследовано влияние изменения состава компонентов на основные свойства полимерного битума. Согласно полученным результатам, при температуре 25 °C глубина проникновения иглы изменилась с 75 до 59 мм, температура размягчения по методу кольца и шара — с 51 до 70 °C, температура хрупкости — от –16 до –24 °C, а удлинение — с 45 до 68 см. Морфологический анализ полученных полимерно-битумных композиций методом СЭМ-микроскопии показал, что компоненты дисперсной фазы равномерно распределены, образуя гомогенную дисперсную систему с чётко выраженными межфазными интерфейсами.*

Ключевые слова: *полимер-битум, эластомер, полимер, пластомер, стабилизатор, пластификатор, резиновый порошок, модификация, морфология.*

PHYSICO-MECHANICAL PROPERTIES AND MORPHOLOGICAL ANALYSIS OF POLYMER-BITUMEN COMPOSITIONS MODIFIED WITH RUBBER-BASED ELASTOMERS.

G`aybullayeva A.F., Mavlonov Sh.B., Mavlonov B.A., Saidov A.A.. *Bukhara state technical university.*

Annotation. *This article presents polymer-bitumen compositions obtained by modifying BN 50/70 grade bitumen with rubber crumb, elastomer, and antioxidants in the form of four different samples. The influence of changes in the composition of components on the main properties of polymer-bitumen was studied. According to the obtained results, at a temperature of 25 °C, the needle penetration depth changed from 75 to 59 mm, the softening point (ring-and-ball method) increased from 51 to 70 °C, the brittleness temperature decreased from –16 to –24 °C, and the elongation increased from 45 to 68 cm. Morphological analysis of the obtained polymer-bitumen compositions using SEM microscopy showed that the components of the dispersed phase are evenly distributed, forming a homogeneous dispersed system with clearly defined interfacial boundaries.*

Keywords*: polymer-bitumen, elastomer, polymer, plastomer, stabilizer, plasticizer, rubber powder, modification, morphology.*

***K*irish.** Bugungi kunda respublikamizda iqtisodiy xavfsizlik strategiyasi muvofiq tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish, iste'mol chiqindilarini qayta ishlash darajasini oshirish kabi muhim xavfsizlik sohalarini belgilangan va ushbu dolzarbliklarni hisobga olgan holda, issiq asfaltbeton aralashmalarini tayyorlashda an'anaviy materiallar o'rnini bosa oladigan, tegishli texnik-iqtisodiy va ilmiy asoslash asosida, ikkilamchi materiallardan hamda sanoat chiqindilaridan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Asfaltbeton tarkibiga kiruvchi komponentlarning tannarxlari balandligi, energiya resurslari va transport xarajatlarining oshishi sababli alternativ mahsulotlardan foydalanishning ahamiyati ortib bormoqda.

Yengil va og'ir avtomobillarning keskin oshishi, haroratning agressiv o'zgarishlari yo'l qoplamalariga tushadigan deformatsion yuklarning ortishiga, bu esa yo'l qoplamalarining sifatini sezilarli darajada oshirish zaruratini keltirib chiqarmoqda, va eng avvalo, asfaltbeton aralashmalarining eng muhim tarkibiy qismi bo'lgan organik bog'lovchi material (bitum) sifatini yaxshilashni talab qilmoqda [1]. O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilayotgan bitumning sifati past bo'lganligi sababli, uni yaxshilash yo'llarini doimiy ravishda tadqiqot ishlari olib borilmoqda [2]. G'arbiy mamlakatlarda asfaltbeton aralashmalarining tarkibini loyihalashning SUPERPAVE tizimi ishlab chiqilgan va joriy etilgan bo'lib, uning asosiy bosqichlaridan biri bo'lgan bog'lovchining tanlanishi uning plastiklik xususiyatlari yuqoriligi va foydalanish hududidagi iqlim sharoitlariga mos kelishini ta'minlashni nazarda tutadi. Biroq, organik bog'lovchi materiallarni modifikatsiya qilmasdan, SUPERPAVE tizimini joriy etish murakkab hisoblanadi [3].

Bitumli bog'lovchilarni modifikatsiyalashda iqtisodiy nuqtai nazardan modifikatorlar — bu rezina-texnik chiqindilar, eng avvalo, ishlatilgan avtomobil shinalarining vulkanizatsiyalangan rezinasidir. Ishlatilgan avtomobil shinalarini utilizatsiya qilish muammosi barcha rivojlangan

davlatlar, jumladan O‘zbekiston uchun ham dolzarb muammo hisoblanadi. Bugungi kunda olib borilgan tadqiqotlardan ma’lum bo‘ldiki, shinalarni ularning yig‘ilish hajmlariga teng miqdorda qayta ishlash faqat rezina-texnik chiqindilarni yo‘l qurilishida qo‘llash orqali amalga oshirilishi mumkin. Bu yo‘nalishda turli mamlakatlarda bir necha o‘n yillardan beri faol tadqiqotlar olib borilmoqda va muhim natijalarga erishilgan [4].

Rezina-texnik mahsulotlari va ishlatilgan shinalarni, ayniqsa, karer o‘gir yuk avtomobillarning shinalarini utilizatsiya qilish muammosi butun dunyo mamlakatlari uchun dolzarbdir, chunki mamlakat mintaqalarining ekologik muammolar yildan-yilga ortib bormoqda. Shu bilan birga, eskirgan shinalar deyarli tabiiy parchalanishga uchramaydigan va yong‘in xavfi yuqori bo‘lgan polimer tarkibli chiqindilar hisoblanadi. Eng istiqbolli yo‘nalishlardan biri rezina maydalangan kukunni yo‘l qurilishida kompozitsion rezina-bitum bog‘lovchilarini olish orqali qo‘llashdir, chunki yo‘l qurilishi eng ko‘p material talab qiluvchi sohalardan biri bo‘lib, to‘g‘ri yondashuv bilan rezina qayta ishlash mahsulotlarining katta qismini iste’mol qila oladi [5].

Dunyo mamlakatlarida mavjud rezina-bitum bog‘lovchilarini olish va qo‘llash texnologiyalariga qaramay, hozirgacha O‘zbekiston respublikasida bu texnologiyalar keng qo‘llanilmagan. Bu esa, muayyan mintaqaning iqlim sharoitida samarali qo‘llash uchun sifatli kompozitsion rezina-bitum bog‘lovchilarini olish va qo‘llash bo‘yicha qo‘shimcha tadqiqotlar o‘tkazish zaruratini keltirib chiqaradi [6].

Materiallar va usullar: Gibrid elastomerlar asosida yaratilgan polimer-bitum kompozitsiyalari zamonaviy yo‘l-qurilish sanoatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu turdagi kompozitsiyalar bitumga elastomer modifikatorlar qo‘shish orqali uning fizik-kimyoviy va ekspluatatsion xossalarini sezilarli darajada yaxshilash imkonini beradi. Gibrid elastomerlar — bu ikki yoki undan ortiq xil polimer segmentlardan tashkil topgan aralashmalar bo‘lib, ular bir vaqtning o‘zida yuqori elastiklik va issiqlik barqarorligini ta’minlaydi.

So‘nggi yillarda yo‘l-qurilish materiallarining sifatini oshirish maqsadida qayta ishlangan rezina mahsulotlari asosida gibrid elastomerlar yaratish va ularni bitum bilan kombinatsiyalash orqali yuqori samaradorlikka ega polimer-bitum kompozitsiyalarini olish dolzarb masalaga aylandi. Rezina tarkibli gibrid elastomerlar qayta ishlangan avtomobil shinalari (rezina kukuni) va termoplastik elastomerlar asosida yaratiladi. Ular bitum bilan yaxshi aralashadi, uning fizik-mexanik xossalarini sezilarli darajada yaxshilaydi va ekologik jihatdan iqtisodiy foydali hisoblanadi.

Tadqiqot davomida rezina saqlagan gibrid elastomerlar asosida polimer-bitum kompozitsiyalari quyidagi usullarda olindi.

1. Bir bosqichli aralashtirish usuli. Bu usulda bitum, qayta ishlangan rezina kukuni va elastomer polimerlar bir vaqtning o‘zida qizdirilgan reaktorga yuklandi. Bitum odatda 160–180 °C haroratda qizdirildi, so‘ngra unga 5–10% gacha miqdorda rezina kukuni va 3–7% gacha elastomer va barqarorlashtiruvchilar qo‘shilgan holda 1,5–3 soat davomida aralashtirildi. Jarayon davomida rezina qisman shishishi va bitum bilan disperslanadi va olingan kompozitsiyalarning fizik-kimyoviy xossalari o‘rganildi va xulosa III bobda tahlil qilingan.

2. Ikki bosqichli modifikatsiyalash usuli. Bu usulda modifikatsiyalovchi komponentlar (rezina kukuni va elastomerlar) oldindan tayyorlandi va birinchi bosqichda rezina va elastomerlar, barqarorlashtiruvchilar (3-7 %) va maxsus erituvchilarda ya’ni neft plastifikatori (8-10 %) aralashtirilib konsentrlangan rezinobitumli suspenziya olindi. Shundan so‘ng ikkinchi bosqichda hosil bo‘lgan elastomer-rezina konsentrati asosiy bitumga qo‘shildi va 160–170 °C haroratda 1,5–2 soat davomida gomogen sistema holatiga o‘tguncha aralashtirildi. Ushbu usul natijasida rezina to‘liq shishdi va bitum bilan mukammal birikhan holda, yuqori elastiklik, yaxshi issiqlik barqarorligi va eskirish jarayoniga chidamli kompozitsiya hosil bo‘ldi.

3. Ho‘l usul (wet process). Ho‘l usulda qayta ishlangan rezina kukuni plastifikatorlar va elastomerlar bilan birgalikda alohida aralashtirildi ya’ni turli polimerlar, moylar, yumshatuvchilar va stabilizatorlar bilan oldindan birlashtirildi. Ushbu kompozitsiya 150–160 °C haroratda bitumga

qo‘shiladi va 2 soatgacha aralashtiriladi va rezina kukuni bosqichma bosqich **Aralashtirish tezligi**: 500–1000 ayl/min qo‘shildi. Bu usulda yuqori dispersiyalangan, bir jinsli va uzoq muddat barqaror kompozitsiyalar olinadi. Ayniqsa, plastifikatsiyalovchi muhit yordamida rezinaning hajmiy shishishi tez va to‘liq amalga oshdi.

Rezina saqlagan gibrid elastomerlar asosida yaratilgan polimer-bitum kompozitsiyalarining texnologiyasi bitumni ekologik xavfsiz va mexanik jihatdan mustahkam modifikatsiyalashga xizmat qiladi. Yuqoridagi usullar ichida ikki bosqichli va ho‘l usullar mahsulot sifati nuqtayi nazaridan yuqori samaradorlikka ega bo‘lib, zamonaviy yo‘l-qurilish standartlariga javob berdi shuningdek Bir bosqichli va konsentrat usullari esa soddaligi va iqtisodiy jihatdan tejamkorligi bilan ajralib turadi. Har bir texnologik yondashuv o‘zining afzalliklari va cheklovlariga ega bo‘lib, ular konkret ishlab chiqarish vazifalariga qarab tanlash imkoniyati beradi shuningdek har bir usul bo‘yicha tayyorlangan kompozitsion rezinobitumli bog‘lovchilarning fizik-mexanik va termik xossalari tekshirib chiqildi hamda tadqiqot natijalari maxsus jadvalda tizimlashtirildi va ularning asosiy fizik-mexanik xossalari tadiqiq qilindi.

Natijalar va ularning muhokamasi: Tajribalar uchun asosiy komponent sifatida yo‘l bitumi (BND 50/70 markali bitum), maydalangan chiqindi avtomobil shinalaridan olingan rezina kukuni (butadien-stirol kauchuk, butadien kauchuk, butil kauchuk, texnik uglerod), Termoplast elastomerlar (stirol-butadien-stirol (SBS) va polistirol), plastifikator (neft shlamlari) va stabilizator (TEOS -tetraetoksisilan, Kaolin ($Al_2S_2O_5(OH)_4$, Tiuram (tetrametiltiuramsulfid) va Simat (ditiokarbamat))lar tanlab olindi va ular asosida 1-bosqich – bitum 160–180°C haroratda eritildi, so‘ngra rezina kukuni qo‘shilib, 1,5–2,5 soat davomida mexanik aralashtirildi. Rezina kukuni bitumda shishib, dispers holatga kelguncha aralashtirildi va 2 bosqichda – oldindan tayyorlangan bitum-rezina tarkibiga SBS, polistirol, antioksidantlar va plastifikatorlar kiritildi. Aralashtirish 180°C da 30–120 daqiqa davom ettirildi hamda rezina saqlagan gibrid elastomer asosdia polimer-bitum kompozitsiyalar olindi.

1 – jadval

Rezina saqlagan gibrid elastomerlar asosida polimer-kompozitsiyalarining tarkibi

№	Bitum %	Rezina kukuni %	Termoplastik elastomer (polimerlar) %	Stalibizator %	Plasifikator %
RSGEPB-1	85,	5,0	6,0	2,5	1,5
RSGEPB-2	84,0	6,0	5,0	2,5	2,0
RSGEPB-3	82,5	8,0	4,0	3,0	2,5
RSGEPB-4	81,0	10,0	3,0	3,0	3,0

Bitum- *GOST 33133 50/70*
Rezina kukuni *– avtomobil shinasini qayta ishlangan o`lchami 3-5 mm*
Termoplastik elastomerlar (polimerlar)- stirol-butadien-stirol va polistirol)
Stabilizator - tetraetoksisilan, kaolin ($Al_2S_2O_5(OH)_4$, tetrametiltiuramsulfid va ditiokarbamat.
Plasifikator – neft shlami

1-namuna (RSGEPB-1)ni tayyorlashda asosiy bog‘lovchi sifatida BND 50/70 markali bitum 85% miqdorda olindi. Polimer modifikatsiyasi uchun qayta ishlangan avtomobil shinalaridan olingan rezina kukuni 5% miqdorda kiritildi. Elastiklikni oshirish maqsadida termoplastik elastomerlar (SBS va polistirol aralashmasi) 6% ulushda qo‘shildi. Kompozitsiyaning strukturaviy barqarorligini saqlash va oksidlanish jarayonlarini sekinlashtirish uchun stabilizatorlar (TEOS, Kaolin, Tiuram, Simat) jami 2,5% miqdorda tanlandi. Past haroratlarda qattiqlikni kamaytirish va egiluvchanlikni oshirish uchun plastifikator (neft shlamlari asosida) 1,5% miqdorda qo‘shildi.

2-namuna (RSGEPB-2)ning tarkibida BND 50/70 markali yo‘l bitumi 84% miqdorda ishlatildi. Modifikatsiyalovchi komponent sifatida rezina kukuni 6% miqdorda kiritildi. Qayta

tiklanadigan elastiklikni ta’minlash uchun termoplastik elastomerlar 5% ulushda qo‘shildi. Kompozitsiyaning muvozanatli dispersiyasini saqlash maqsadida stabilizatorlar 2,5% miqdorda tanlab olindi. Shuningdek, egiluvchanlikni saqlab qolish va yopishqoqlikni me’yorda ushlab turish uchun plastifikator 2,0% miqdorda ishlatildi.

3-namuna (RSGEPB-3) da asosiy komponent sifatida bitum BND 50/70 82,5% miqdorda olindi. Tarkibga elastiklikni kuchaytirish maqsadida rezina kukuni 8% va termoplastik elastomerlar 4% miqdorda qo‘shildi. Faza ajralishini oldini olish va issiqlik barqarorligini ta’minlash uchun stabilizatorlar majmuasi 3,0% miqdorda tanlandi. Kompozitsiyaning past haroratda sinuvchanligini kamaytirish uchun plastifikator 2,5% miqdorda kiritildi.

4-namuna (RSGEPB-4) tarkibida BND 50/70 markali bitum 81% miqdorda asosiy komponent sifatida ishlatildi. Rezina kukuni 10% miqdorda qo‘shilib, elastik polimer fazani kuchaytirishga xizmat qildi. Termoplastik elastomerlar 3% miqdorda qo‘shilib, strukturaning elastik va qayta tiklanuvchan bo‘lishiga xizmat qildi. Kompozitsiyaning barqarorligini saqlash va oksidlanishdan himoya qilish uchun stabilizatorlar 3,0% miqdorda tanlandi. Strukturani yumshatish va sovuqda egiluvchanligini ta’minlash uchun plastifikator 3,0% ulushda ishlatildi.

Rezina kukuni va gibrid termoplastik elastomerlar asosida modifikatsiyalangan polimer-bitum bog‘lovchilarining kompozitsion tarkibi BND 50/70 markali yo‘l bitumi asosida to‘rtta polimer-bitum kompozitsiyasi tayyorlandi. Modifikatsiyalash jarayonida asosiy komponent sifatida granulometrik tarkibi 3–5 mm bo‘lgan qayta ishlangan avtomobil shinalaridan olingan rezina kukuni, termoplastik elastomerlar (SBS va polistirol), stabilizatorlar (tetraetoksisilan – TEOS, kaolin – $Al_2Si_2O_5(OH)_4$, tiuram – tetrametiltiuramsulfid, simat – ditiokarbamat birikmalari) hamda plastifikatorlar (neftni qayta ishlash chiqindilaridan olingan mahsulotlar) qo‘llanildi. Kompozitsion tarkibda bitumning ulushi 85,0% dan 81,0% gacha bo‘lib, rezina kukuni miqdori 5,0% dan 10,0% gacha orttirildi. Elastomerlarning umumiy ulushi 6,0% dan 3,0% gacha kamaytirildi, bu esa kauchuk komponentining elastiklikka qo‘shgan hissasi hisobga olinib optimal muvozanatga erishishni ta’minladi. Shu bilan birga, stabilizatorlar 2,5–3,0% miqdorda qo‘shilib, issiqlik va oksidlovchi qarish ta’siriga nisbatan kompozitsiyaning kimyoviy va termik barqarorligini oshirdi. Plastifikatorlar esa 1,5–3,0% oralig‘ida tanlab olinib, aralashmaning past haroratlarda ishlashga yaroqliligini va texnologik oqimlilik xususiyatlarini yaxshilashga xizmat qildi.

Natijada olingan polimer-bitum kompozitsiyalari yuqori haroratlarda deformatsiyaga chidamlilik, past haroratlarda mo‘rtlikka qarshilik, elastiklik va reologik barqarorlik kabi ko‘rsatkichlar bo‘yicha an’anaviy bitumga nisbatan ustunlikka ega bo‘lib, ularni intensiv ekspluatatsion yuklama ostidagi yo‘l qoplamalarida samarali qo‘llash imkonini beradi.

Polimer-bitum kompozitsiyalarning komponentlar miqdorining ortishi barcha ko‘rsatkichlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Penetratsiya va mo‘rtlashish harorati kamaygan, boshqa ko‘rsatkichlar esa — yumshash harorati, cho‘zilish, qovushqoqlik va elastiklik — ortgan. Bu esa modifikatsiyalangan polimer-bitum kompozitsiyalarining mustahkamlik, issiqlikka va sovuqqa chidamlilik, egiluvchanlik va ishlash muddati bo‘yicha an’anaviy bitumlarga nisbatan ustunligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

1-rasmda RSGEPB-1 namunada bu qiymat 74·0.1 mm ni tashkil etsa, RSGEPB-4 namunada 59·0.1 mm gacha kamaygan. Bunday tendensiya kompozitsiya tarkibida rezina kukuni va termoplastik elastomerlar (SBS kabi) miqdorining ortishi bilan izohlanadi. Polimerlar va rezina kukuni bitum matritsasida zichroq, elastik va yuqori bog‘langan tarmoq struktura hosil qiladi. Xususan, SBS polimeri tarkibidagi stirol bloklari qattiq segment sifatida strukturaning qattiqligini oshiradi, butadiene segmentlari esa elastiklikni ta’minlaydi. Rezina kukuni esa bitumning yengil fraksiyalari (parafinlar, aromatiklar) bilan o‘zaro ta’sirlashib, shishadi va dispers faza hosil qiladi. Bu shishish hodisasi materialning umumiy zichligini oshiradi va ignaning kirib borishini qiyinlashtiradi. Rezina tarkibida mavjud bo‘lgan aromatik halqalar (π-elektron tizimi) va to‘yingan uglevodorod zanjirlari bitumdagi aromatik komponentlar bilan π–π o‘zaro ta’sirlar, dispersion kuchlar va van der Vaals bog‘lari orqali bog‘lanib, bitum strukturasi ichida kompakt va bir jinsli tarmoq shakllantiradi.



1-rasm: RSGEPB kompozitsiylarning ignaning botish chuqurligi va yumshatish haroratlariga bog‘liq grafigi



2-rasm: RSGEPB kompozitsiylarning Fraasu bo‘yicha mo‘rtlik harorati va 25 °C cho‘zilishi (sm) bog‘liq grafigi

Avtomatik boshqaruv tizimlarining ishlashi uchun ventillar oldidagi bosimlar nazorat qilinadi. Shu sababli ventelyatorning chiqish qismiga nazorat klapanlari $H1,\ H2,H3$ o‘rnatiladi. Keltirilgan 2-chi formula asosida tizim umumiy holda hisoblanmaydi. Bunda iste’molchilar tomonidan talab qilinadigan havo sarfi Q_1, Q_2, Q_3 tarmoqning barcha nuqtalarida aerodinamik qarshiliklar $R1 - R5$ va har bir iste’molchi ventili oldidagi bosimlar H_1, H_2, H_3. Noma’lum qiymatlar sifatida har bir ventilyatorning unumdorliklari $Q_1 - Q_5$ va bosimlari $H_1 - H_5$ hisoblanadi. Ventilyatorning unumdorligi va bosimi uning ish rejimini belgilovchi asosiy parametrlar hisoblanadi. Aerodinamik xususiyatlar yordamida ventilyatorning barcha asosiy energetik parametrlarini aniqlash mumkin: quvvat, dvigatel validagi mexanik quvvat va ventilyatorning foydali ish koeffitsienti (FIK). Aerodinamik xususiyatlar bu – ventilyatorning bosimi va unumdorligi, ventilyator validagi mexanik quvvat va unumdorligi hamda ventilyatorning foydali ish koeffitsienti (FIK) va unumdorligi o‘rtasidagi grafik bog‘liqliklarni ifodalaydi [6].

$$H = a_1 Q^2 + b_1 \omega Q + c_1 \omega^2; \quad (3)$$

$$P = a_2 \omega Q^2 + b_2 \omega^2 Q + c_2 \omega^3; \quad (4)$$

$$\eta = \frac{QH}{P} = \frac{a_1 Q^3 + b_1 \omega Q^3 + c_1 \omega^2 Q}{a_{21} \omega Q^3 + b_2 \omega^2 Q + c_2 \omega^3}, \quad (5)$$

bu yerda: H – ventilyatorning to‘liq bosimi; Q – unumdorlik (havo sarfi); P – validagi quvvat (mexanik quvvat); ω – dvigatelning aylanish tezligi; $a_1 b_1 c_1, a_2 b_2 c_2 -$ ventelyatorning kirish yo‘naltiruvchi qanot burchaklari.

Barcha boshqarish usullarini tahlil qilish imkonini beruvchi funksiyalarni olish uchun $a_1 b_1 c_1, a_2 b_2 c_2 -$ koeffitsiyentlarining ventilyator kirish yo‘naltiruvchi qanot burchaklariga bog‘liqligini hisobga olish zarur. Shunday qilib, (2)-tenglamalar tizimi, (3)-shart va (4) – (5)-approksimatsion ifodalar birgalikda havo puflash stansiyasining turli ishlash rejimlarini turli boshqaruv usullarida va unumdorlikning keng diapazonida tahlil qilish imkonini beradigan matematik modelni hosil qiladi.

Turli unumdorlikni boshqarish usullari uchun mos ish nuqtalariga tegishli boshqarish parametrlarini hisoblab chiqiladi:

1. Drossel klapanining aerodinamik qarshiligi (ventilyatorning nominal aylanish tezligi va qanot parraklar burchagi o‘zgartirish holatida).
2. Ventilyatorning aylanish tezligi (drossel klapan va qanot parraklar burchagi o‘zgartirish ochiq holatda) tenglamaning musbat ildizi sifatida aniqlanadi.

$$\omega = \frac{-b_1 Q + \sqrt{(b_1 Q)^2 - 4c_1 (a_1 Q^2 - H)}}{2c_1} \quad (6)$$

Ish rejimlari uchun ventilyatorlarning iste’mol qilinadigan quvvati va foydali ish koeffitsienti (FIK) bo‘yicha taqqoslash tahlili o‘tkaziladi, energiya samaradorligi nuqtai nazaridan qaysi

boshqarish usuli afzalroq ekanligi ko‘rib chiqildi. O‘tkazilgan tadqiqotni birta kompressor misolida ko‘raylik 800 kVt nominal quvvatga ega yuqori kuchlanishli asinxron dvigatel bilan jihozlangan va markazdan qochma kompressor aerodinamik xususiyatlarini ko‘ramiz [7].



3-rasm. Bitta kompressor ishlaganda hisobiy energetik xarakteristikalar: *a -Ventilyatorning nisbiy quvvati nisbiy unumdorlikka bog‘liq holda; b -Ventilyatorning foydali ish koeffitsienti (FIK) nisbiy unumdorlikka bog‘liq holda.*



4-rasm. 5ta kompressor ishlaganda hisobiy energetik xarakteristikalar: *a – havo puflovchi stansiyaning nisbiy umumiy unumdorligidan nisbiy umumiy quvvati; b – bitta kompressorning nisbiy unumdorligidan bitta ventilyatorning samaradorligi (FIK).*

Turli unumdorlik usullarining energiya samaradorligini tahlil qilish; belgilangan parametrlarga ega tarmoq uchun kompressorlarni tanlash; alohida qismda bosim va sarf qiymatlarini aniqlash; shamollatish tarmog‘ining ishini optimallashtirish. Uslubiyotni qo‘llash misollari shuni ko‘rsatadiki, asinxron dvigatellarni chastotali boshqarishning afzalliklari haqidagi mavjud tushunchalar parallel ishlaydigan kompressorlar guruhi uchun har doim ham to‘g‘ri emas.

Ko‘rib chiqilgan holatda, chastotali boshqarish energiya samaradorligi bo‘yicha kombinatsiyalangan boshqarish usulidan ancha samaraliroq emas.

Foydalanilngan adabiyotlar ro‘yxati

1. Лезнов Б.С. Энергосбережение и регулируемый привод в насосных и воздуходувных установках. М.: Энергоатомиздат, 2006. 360 с.
2. Нуров Сирож Собирович, “Экспериментальное исследование оптимальной длины волны излучения при оптическом методе измерения концентрации активного ила”. SCIENCE AND TECHNOLOGY RESEARCH, Сборник статей III Международной научно-практической конференции, 24 февраль 2022 г., г. Петрозаводск.
3. Makhmudov, Makhsud Idrisovich; Kuziev, Zafarbek Esanovich; Nurov, Siroj Sobirovich; and Sidikov, Sanjar Siroj ugli (2020) "Optimal ratio of primary and secondary clarifier characteristics in wastewater treatment plants**,** **"**Chemical Technology, Control and Management**:** Vol. 2020: Iss. 4, Article 1.
4. Онищенко Г.Б., Юньков М.Г. Электропривод турбомеханизмов. М.:Энергия, 1972. 240 с.
5. Абрамов Ф.А., Фролов Н.А. Электрическое моделирование вентиляционных сетей угольных шахт.М.: Углетехиздат, 1957. 135 с.
6. Himla J.W. Optimized fan control in variableair volume HVAC systems using staticpressure resets: strategy selection and savings analysis. Texas A&M university, 2009. 70 p.
7. Крупников А.В., Ваняшов А.Д., Январев И.А. Определение энергоэффективности установок воздушного охлаждения на базе аппаратов с различным числом вентиляторов // Омский научный вестник. 2010. № 3 (93). С. 173–176.
8. Sewerage. External networks and structures. – M.: JSC “TsPP”, 2008. – 87 p.

METALL KESHISH DASTGOHLARINI O‘RNATISH BILAN BOG‘LIQ YUZAGA KELADIGAN DEFORMATSIYALAR VA ULARNI BARTARAF ETISH USULLARI.

Xamroyev X.X., Isamov P.N., Savriyev Y.S.

Buxoro davlat texnika universiteti.

Annotasiya*. Maqolada mexanik ishlov berish jarayonida dastgoh ishlov beriladigan detal va kesish asbobining bir-biriga nisbatan zarur harakatlarini amalga oshiradi. Ishlov beriladigan detalning aniqligi ana shu siljishlarga bog‘liq. Bu dastgohning geometrik aniqligiga ya’ni, yo‘naltiruvchilarning detal va asbob yo‘nalishlarining paralelligiga yoki perpendikulyarligiga, shuningdek ularning texnologik ishlov berish sxemasiga mos harakatida yo‘naltiruvchilarning to‘g‘ri chiziqliligi yoki egri chiziqliligi bilan izohlanadi. Nuqsonlari faqat qo‘shimcha o‘lchov vositalari yordamida aniqlanishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar*: mexanik ishlov berish jarayoni, dastgoh, detalning aniqligi, geometrik aniqligi, mexanik ishlov berish, nuqson, dastgohni ishga sinash, elastik deformatsiyalar, moslama, ishqalanuvchi yuzalari dastgoh konstruktsiyasi, yo‘naltiruvchilar, toza ishlov berish.*

ДЕФОРМАЦИИ, ВОЗНИКАЮЩИЕ В СВЯЗИ С УСТАНОВКОЙ МЕТАЛЛОЧЕРЕПИЦЫ И СПОСОБЫ ИХ УСТРАНЕНИЯ

Хамроев Х.Х., Исамов П.Н., Савриев Й.С.

Бухарский государственный технический университет.

Аннотация. *В статье показано, что при механической обработке станок выполняет необходимые движения обрабатываемой детали и режущего инструмента относительно друг друга. Именно от этих сдвигов зависит точность обрабатываемой детали. Это объясняется геометрической точностью станка, т. е. прямолинейностью или кривизной направляющих в их движении в соответствии с параллельностью или перпендикулярностью направляющих деталей и направляющих инструмента, а также схемой их технологической обработки. Приводятся данные о том, что дефекты могут быть выявлены только с помощью дополнительных измерительных приборов.*

Ключевые слова: *механическая обработка, станок, точность деталей, геометрическая точность, механическая обработка, дефект, испытание станка на работу, упругие деформации, устройство, фрикционные поверхности, конструкция станка, направляющие, чистая обработка.*

DEFORMATIONS THAT OCCUR IN CONNECTION WITH THE INSTALLATION OF METAL TILES AND WAYS TO ELIMINATE THEM.

Xamroyev X.X., Isamov P.N., Savriyev Y.S.

Bukhara state technical university.

Abstract. *The article shows that during machining, the machine performs the necessary movements of the workpiece and the cutting tool relative to each other. It is these shifts that determine the accuracy of the workpiece. This is due to the geometric accuracy of the machine, i.e. the straightness or curvature of the guides in their movement in accordance with the parallelism or perpendicularity of the guide parts and tool guides, as well as the scheme of their processing. The data shows that defects can be detected only with the help of additional measuring instruments*.

Key words: *machining, machine tool, precision of parts, geometric precision, machining, defect, machine tool operation test, elastic deformations, device, friction surfaces, machine tool design, guides, clean machining.*

Mexanik ishlov berish jarayonida dastgoh ishlov beriladigan detal va kesish asbobining bir-biriga nisbatan zarur harakatlarini amalga oshiradi. Ishlov beriladigan detalning aniqligi ana shu siljishlarga bog‘liq. Bu dastgohning geometrik aniqligiga ya’ni, yo‘naltiruvchilarning detal va asbob yo‘nalishlarining paralelligiga yoki perpendikulyarligiga, shuningdek ularning texnologik ishlov berish sxemasiga mos harakatida yo‘naltiruvchilarning to‘g‘ri chiziqliligi yoki egri chiziqliligi bilan izohlanadi.

Mexanik ishlov berishning barcha turlarida dastgohning geometrik aniqligiga, ayrim hollarda esa uning kinematik aniqligiga e’tibor berish zarur. Dastgohning kinematik aniqligiga uning uzatish mexanizmlari bo‘g‘inlarining tayyorlanish aniqligi va qabul qilingan uzatish nisbatining talab qilinganiga yaqinlashish darajasiga (ba’zan kinematik sxemani soddalashtirish va murakkab uzatish mexanizmlari bo‘g‘inlari sonini kamaytirish maqsadida aniq uzatrish nisbatlarini yaqinlashtirilganiga almashtirishga ruxsat etiladi) bog‘liq.

Dastgohni ishga sinashda ishlov berilgan detal shaklining xatoliklari, kesish kuchi ta’siridagi texnologik tizimning elastik deformatsiyalariga bog‘liq bo‘lmagan xatoliklarni tashkil etadi.

Dastgoh bilan bog‘liq xatolar ushbu summaga faqat komponentlardan biri sifatida kiritilganligi sababli, dastgohni sinashda aniqligi bir xil parametrlar uchun dastgohning statik aniqlik me’yorlariga qaraganda sezilarli darajada kattaroq og‘ishlarga imkon berish kerak.

2450 markali koordinatali yo‘nib kengaytirish dastgohi misolida dastgohning aniqlik me’yorini o‘lcham zanjirlari nazariyasi yordamida hisoblash metodikasini ko‘rib chqamiz.Bu dastgoh korpusaviy detallar, moslamalar va konduktorlar teshiklari yuzalariga yuqori aniqlikda ishlov berish uchun mo‘ljallangan. Ishlov berishda teshik yuzalari orasidagi ikkita bog‘liqlik yuqori aniqlikda amalga oshirilishi kerak: 1) ishlov berilgan teshik o‘qlari va detalning bazaviy yuzasi orasidagi masofaning aniqligi va 2) ishlov berilgan teshik o‘qining detalning bazaviy yuzasiga nisbatan holati. Buning uchun dastgoh stoli va shpindelining mumkin bo‘lgan barcha holatlarida: ikkita o‘zaro perpendikulyar yo‘nalishda koordinata o‘lchamlarining hisoblashda va shpindel aylanish o‘qining ikkita o‘zaro perpendikulyar tekisliklarda stol ishchi yuzasiga perpendikulyarligining og‘ishida statik aniqlik ta’minlanishi kerak. Bu masalani yechish uchun dastgohning o‘lcham zanjirlari aniqlanadi va berkituvchi zveno sifatida shpindel aylanish o‘qining stol ishchi yuzasiga perpendikulyarligidan og‘ishi olinadi (1-rasm).



1-rasm.Koordinatali yo‘nib kengayti-ruvchi dastgohning o‘lcham zanjiri

O‘lcham zanjiri tenglamasi: $\alpha_\Delta=\alpha_1+\alpha_2+\alpha_3+\alpha_4+\alpha_5$.

Berkituvchi zvenoning 300 mm uzunlikdagi joizligi δ_{α_Δ}=0.004 mm bo‘lganligidan o‘lcham zanjirini tashkil etuvchi zvenolarning 300 mm uzunlikdagi o‘rtacha joizligi $\delta_{\alpha_{o`r}}=\frac{\delta_{\alpha_\Delta}}{m-1}=\frac{0.004}{5}$ = 0.0008 mm.

Alohida zvenolar bo‘yicha joizliklarni bajarishning haqiqiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, o‘lchov zanjirining tarkibiy bo‘g‘inlari bo‘yicha joizliklarni quyidagicha taqsimlash mumkin (300 mm uzunlikda):α_1= 0.006; α_2 = 0.003;α_3 = 0.003; α_4 = 0.003; α_5 = 0.010 mm. Bunday joizliklarda 300 mm uzunlikda kompensatsiyaning eng katta qiymati $\delta_k = \delta_{\alpha_1} + \delta_{\alpha_2} + \delta_{\alpha_3} + \delta_{\alpha_4} + \delta_{\alpha_5} + \delta_{\alpha\Delta}$= 0.006+0.003+0.003+0.003+0.010-0.004 = 0.021 mm.

Ishlayotgan dastgoh yuzalarining yeyilishi, uning ishlash sharoitiga aniqlanadigan qator omillarga bog‘liq bo‘lib, notekis yelanish oqibatida ishlov berish aniqligida namoyon bo‘ladi.

Ishqalanuvchi yuzalarning masalan, yo‘naltiruvchilarning notekis yeyilishi, bu yuzalarda solishtirma bosimning notekis taqsimlanishi va ularning turli bo‘limlaridan teng foydalanmaslik tufayli yuzaga keladi. Masalan, koordinatali yo‘nib kengaytirish 2450 dastgohi shpindel qutisining og‘irlik markazi yo‘naltiruvchilaridan *l* masofaga uzoqlashtirilgan, natijada B shpindel qutisining (2-rasm) og‘irligi ta’sirida solishtirma bosim *q* hosil bo‘lib, yo‘naltiruvchilarning quyi qismining yuqori qismiga nisbatan tez yeyilishiga olib keladi.



2-rasm. Shpindel qutisining yo‘naltiruvchilarida o‘z og‘irligi ta’sirida solishtirma bosimning taqsimlanishi.



3-rasm. Dastgoh yo‘naltiruvchilarining mahalliy yeyilish ta’siri sxemasi: 1-salazkalar, 2-stol, 3-stanina, 4-gorizontal to‘g‘ri chiziq

Garchi dastgoh konstruktsiyasida bu yuklanishdan prujina P=B yordamida xoli bo‘lish ko‘zda tutilgan bo‘lsa ham, sim arqonlar orqali juft kuch B ta’siri ostida yuqori solishtirma *q* bosim yuzaga keladi. Yo‘naltiruvchilarning pastki qismida tez yeyilish natijasida shpindelning aylanish o‘qi shpindel qutisi bilan birgalikda shpindel qutisi yo‘naltiruvchilarining paralelligidan tayanch tomonga og‘adi. Shuningdek, dastgoh staninasi, stoli va salazkasining yo‘naltirgichlari ko‘proq qollaniladigan o‘rta qismidan ko‘proq yeyiladi. Bu stolning bo‘ylama va ko‘ndalang siljishlarida noparallelikni keltirib chiqaradi. Yeyilishni kamaytirish uchun sirpanib ishqalanish toblangan roliklar bo‘yicha sirpanib dumalovchi toblangan po‘lat yo‘naltiruvchilar bilan almashtiriladi.

Shunday qilib, shpindel aylanish o‘qining stolning ishchi yuzasiga perpendikulyarligidan og‘ishini aniqlaydigan koordinatali yo‘nib kengaytirish dastgohining ko‘rib chiqilgan o‘lcham zanjirida α_1 va α_5 bo‘g‘inlarining og‘ishi ular yeyilganligi sababli doimiy ravishda oshib boradi va yangi dastgoh uchun ruxsat etilgan chegaralardan tashqariga chiqadi. Bunda dastgohning dastlabki aniqligi yo‘naltiruvchilarning yeyilishi qanchalik tez bo‘lsa shuncha tez pasayadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, toza ishlov berish bilan band bo‘lgan har xil dastgohlar yo‘naltiruvchilarining mahalliy yeyilishi bir yilda ikki smenali ish rejimida tokarlik va revolver dastgohlar uchun po‘latga ishlov berishda o‘rtacha 0.04-0.05 va 0.025-0.035 mm, agregat dastgohlar uchun cho‘yanga ishlov berishda 0.18 mm ni tashkil etadi. Yeyilishning bu qiymati yangi dastgohlar uchun yo‘naltiruvchilarning to‘g‘ri chiziqli emasligi GOST bo‘yicha ruxsat etilganidan 2 marta ko‘p [1].

Dastgohlarning statik aniqligi quyidagi sabablarga ko‘ra ham o‘zgarishi mumkin: dastgohning poydevor sathiga noto‘g‘ri o‘rnatilishi, dastgohning poydevorga botishi yoki poydevorning cho‘kishi; ish paytida dastgohning qizishi va tashqi harorat ta’sirida uning mahalliy notekis qizishi; ish boshlashdan oldin dastgohning ayrim qismlarining haddan tashqari mahkamlash (pinollar, babkalar, kronshteynlar, stollar, konsollar va boshqalar; detalni dastgohga mahkamlash

kuchi natijasida yuzaga keladigan deformatsiyaning natijasida; tayyorlanmaning og‘irligi hisobiga yuzaga keladigan deformatsiya natijasida; dastgoh detallaridagi ichki kuchlanishlarning taqsimlanishi natijasida, agar ular dastgohning tayyorlanish jarayonida tugamagan bo‘lsa va uni ishlatish davrida davom etayotgan bo‘lsa [2].

Dastgoh taglikka, ponalarga va boshqalarga noto‘g‘ri o‘rnatilganda stanina dastgohning o‘z vazni va poydevor boltlarining tortilishi ta’sirida egiladi va buraladi.



4-rasm. Stanинaning o‘z og‘irligi ta’sirida egilishi.



5-rasm. Staninalarning buralishi natijasida yo‘naltiruvchilarning vertikal siljishi.

Betonlashtirilmagan va fundament boltlarisiz to‘g‘ri o‘rnatilgan dastgohning o‘rni stanинaning buralishi hisobiga tezda buziladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, markazlararo masofasi 1000 mm bo‘lgan dastgohlarda stanинaning buralishi hisobiga uning chekka qismida vertikal siljish h ning qiymati ± 0.25mm gacha, markazlararo masofasi 1500 mm bo‘lgan dastgohlar uchun ±0.5 mm gacha bo‘lishi mumkin. Shuning uchun dastgohlarning joylashuvini davriy ravishda tuzatib turish kerak.

Ayniqsa, og‘ir vaznli dastgohlarning joylashuvini, poydevorning cho‘kishini hisobiga olgan holda tuzatib borish tavsiya etiladi. Bo‘ylama frezalash va bo‘ylama randalash dastgohlarining (stanina uzunligi 8-11m) to‘g‘ri o‘rnatilganligi tekshirilganda, poydevorning deformasiyalanishi natijasida, stanina yo‘naltiruvchilarining to‘g‘ri chiziqlikdan og‘ishi 3-4 mm gacha yetishi kuzatilgan [3].

Dastgohlarning o‘rnashuvini doimiy nazorat qilish qulay bo‘lishi uchun dastgohlar domkrat ko‘rinishidagi tayanchlarga o‘rnatiladi.



6-rasm. Dastgoh korpusidagi xatoliklarni aniqlash. 1-stanina; 4,6- shtativ; 5-o‘lchash asbobi; 2,3,7,8,9- stanina yuzalari.

Barcha dastgohlarda staninalarning vertikal tekislikdagi deformatsiyasi solishtirma bosimning va yeyilishning ortishiga natijada stanina, stol va salazkalar yo‘naltiruvchilari orasida kontakt yuzalarning kamayishiga olib keladi. Ba’zi masalan, randalash,frezerlash va koordinatali yo‘nib kengaytirish dastgohlar uchun staninalarning vertikal tekislikda deformatsiyalanishi ishlov berish aniqligiga bevosita sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa. Ilmiy izlanishlar staninasi va fundamentining mustaqil deformatsiyalanishini ta’minlash uchun quyidagilar zarur deb hisoblaydilar:

1. Uzun staninali aniq dastgohlarni sozlanadigan bashmaklarda yoki rolikli bashmaklarda o‘rnatish;

2. Og‘ir ishlarga mo‘ljallangan uzun staninali dastgohlarning faqat bir qismini (yuritma joylashgan qism ostini) sozlanuvchi bashmaklarda o‘rnatib, betonlab va boltlar bilan tortib o‘rnatish;
3. Bikr staninali koordinatali yo‘nib kengaytiruvchi o‘ta aniq dastgohlarni roliklarda o‘rnatish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Балакшин.Б.С. Технология станкостроения.М.,Машгиз. 1987 г. 247 стр.
2. Вотинов К.В. Жесткость станков. Лонитомаш. 2008 г. 218 стр
3. Лапидус А.С. Данные по износу и методы повыщения износоустойчивости направляющих металлорежущих станков.ЦБТИ. ЭНИМС. 2009 г. 347 стр
4. Хамроев Х.Х., Уринов У.А., Дубровец Л.В., Шадиев С.С., Сайфуллаев С.С. Improving the Efficiency of Milling with using of the Milling Cutter with Cover (High Speed Milling (HSM)). “International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) 2020”.
5. Исаев А.В., Хамроев Х.Х., Пивкин П.М., Минин И.В., Ершов А.А. Исследование высокоскоростной обработки заготовок из чугуна цельными покрытиями и без них. Вестник МГТУ «Станкин» №4 (51), 2019 г.
6. Исаев А.В., Хамроев Х.Х., Дубровец Л.В. Исследование процесса высокоскоростного фрезеровани “Фан ва технологиялар тараққиёти”. 2019 йил. №5.

Xamroyev Xamza Xamidovich – Buxoro davlat texnika universiteti “Mexanika va muhandislik grafikasi” kafedrasi katta o‘qituvchi Tel.: (+99833) 0257533,

Isamov Raim Nasimovich – Buxoro davlat texnika universiteti “Mexanika va muhandislik grafikasi” kafedrasi o‘qituvchi-stajyor Tel.: (+99893)651 -12-67

Savriyev Yo‘ldosh Safarovich – Buxoro davlat texnika universiteti “Mexanika va muhandislik grafikasi” kafedrasi dosenti Tel.: (+99893)533-65-66

ЭНЕРГИЯ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ТЕХНОЛОГИК ЖИҲОЗЛАР ИШ РЕЖИМЛАРИНИНГ ЎРНИ

Хошимов Ф.А., Кадиров К.Ш., Қарақулов Ш.Ю., Юсупалиева Х.У.

ЎзР ФА Энергетика муаммолари институти Ўзбекистон, Тошкент.

Аннотатсия. *Мақолада саноат корхоналари технологик жиҳозлари иш режимлари тўғри танлаш орқали ёқилғи энегро-ресурсларидан оқилона фойдаланиш долзарб масалалардан бири эканлиги ва бу асосида энергия истеъмолининг катта улуши айнан технологик жиҳозлар ҳиссасига тўғри келиши кўриб чиқилган бўлиб, ушбу технологик жиҳозларнинг иш режимларини ўрганиш ва таҳлил қилиш натижасида, энергия истеъмолини камайтириш имкониятига эришилганлиги ёритиб берилган. Саноат корхоналари технологик жиҳозлари оптимал иш режимларини танлашда, технологик жиҳозлари энергия истеъмолига таъсир қилувчи омиллар ҳисобга олиш муҳим вазифалардан бири ҳисобланади уларни бартараф этиш бўйича олиб борилаётган масала кўриб чиқилган.*

Калит сўзлар: *саноат корхоналари технологик жиҳозлари; линейли ва нолинейли программа; оптимал иш режимлари; самарадорликни ошириш.*

РОЛЬ РЕЖИМОВ РАБОТЫ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБОРУДОВАНИЯ В ПОВЫШЕНИИ ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТИ

Хошимов Ф.А., Кадиров К.Ш., Қарақулов Ш.Ю., Юсупалиева Х.У.

Институт проблем энергетики АН РУз Ташкент, Узбекистан.

Аннотация. *В статье рассматривается тот факт, что рациональное использование топливно-энергетических ресурсов путём правильного выбора режимов работы технологического оборудования промышленных предприятий является одним из актуальных вопросов, и исходя из этого большая доля потребления энергии приходится на технологическое оборудование. Подчёркивается, что в результате изучения и анализа режимов работы данного технологического оборудования можно снизить потребление энергии. При выборе оптимальных режимов работы технологического оборудования промышленных предприятий одной из важных задач является учёт факторов, влияющих на энергопотребление технологического оборудования, а также рассматривается вопрос их устранения.*

Ключевые слова: *технологическое оборудование промышленных предприятий, линейное и нелинейное программирование, оптимальные режимы работы, повысить эффективность.*

THE ROLE OF OPERATING MODES OF PROCESS EQUIPMENT IN IMPROVING ENERGY EFFICIENCY

Khoshimov F.A., Kadirov K.Sh., Karakulov Sh.Yu., Yusupalieva H.U.
Institute of energy problems of the academy of sciences of the republic of Uzbekistan. Tashkent, Uzbekistan.

Annotation. *The article considers that rational use of fuel and energy resources through the correct selection of operating modes of technological equipment of industrial enterprises is one of the urgent issues, and on this basis, it is considered that a large share of energy consumption falls on the share of technological equipment, and as a result of studying and analyzing the operating modes of this technological equipment, it is possible to reduce energy consumption. When choosing optimal operating modes of technological equipment of industrial enterprises, one of the important tasks is to take into account the factors affecting the energy consumption of technological equipment, and the issue of their elimination is considered.*

Keywords: *technological equipment of industrial enterprises; linear and nonlinear program; optimal operating modes; increasing efficiency.*

Tехнологик жиҳозлар ишлаб чиқариш жараёнида турли хил материаллар билан ишлаш, қайта ишлаш ва тайёр маҳсулотни шакллантириш учун мўлжалланган машиналар, механизмлар ва ускуналар йиғиндисидир. Улар турли хил иш режимларида ишлаши мумкин. Технологик жиҳозларнинг иш режими уларнинг ишлаш хусусиятлари ва талабларига қараб турлича бўлади.

Биринчи узлуксиз иш режимида жиҳозлар тўхташига йўл қўйилмайди ёки минимал муддатга тўхтайди. Бу йирик конвейер линиялари, электр станциялари, нефть қайта ишлаш заводлари каби соҳаларда қўлланилади.

Иккинчиси узлуксиз-циклли иш режими бўлиб, бунда жиҳозлар маълум вақт давомида ишлаб, қисқа муддатли танаффус қилади. Бу асосан тўқимачилик саноати, озиқ-овқат ишлаб чиқариш корхоналарида кенг тарқалган.

Учинчиси циклли (даврий) иш режимида ишлайдиган истеъмолчилар бўлиб, унда истеъмолчида мавжуд жиҳозлар аниқ вақт мобайнида ишлаб, кейин тўхтайди ва янги циклни бошлайди. Бу жараён пресслар, металларга ишлов бериш станоклари, юк кўтариш механизмлари мавжуд корхоналарда амалга оширилади.

Тўртинчиси қисқа муддатли иш режимида ишлайдиган истеъмолчилар. Бунда жиҳозлар қисқа вақт ичида фаолият юритиб, узоқ муддат танаффус қилади. Бу жараён одатда лаборатория жиҳозлари, тестерлар ва алоҳида махсус ускуналар учун хос ҳисобланади [1-3].

Саноат корхоналари технологик жиҳозлари иш режимларини таҳлили асосида самарадорликни оширишда жиҳозларнинг иш режимларига таъсир қилувчи омиллар мавжуд, яъни, юкланиш даражаси оғир ёки енгил режимда ишлаш жиҳознинг самарадорлигига таъсир қилади. Материал хусусиятларига ишлов беришда материалнинг мустаҳкамлигига, эластиклиги ва бошқа физик хоссалари муҳим аҳамиятга эга. Шу билан бирга шароит ҳарорат, намлик, чидамлилик каби омиллар иш режимини танлашда инобатга олинади. Энергия сарфи эса узлуксиз иш режимлари кўпроқ талаб қилади, даврий иш режими эса иқтисодий самарадорликни таъминлаши мумкин.

Саноат корхоналарида технологик жиҳозларининг оптимал иш режими қандай танланади. Аввало жиҳознинг иш режими самарадорлик, ресурс тежамкорлиги ва хавфсизлик нуқтаи назаридан танланиши керак. Оптимал иш режими танлаш жиҳознинг ишлаш муддатини узайтиради, таъмирлаш харажатларини камайтиради ва энергия тежаш имконини беради. Технологик жиҳозларнинг тўғри иш режимида ишлатилиши самарали ишлаб чиқариш жараёнини таъминлайди ва юқори маҳсулдорликка эришишга ёрдам беради. Шу билан бирга ишлаб чиқарилган маҳсулот таннархи камайиб, унинг рақобатбардошлиги ошишига эришилади.

Технологик жиҳозларнинг оптимал иш режимларини қўллаб самарадорликни оширишда аввало технологик жиҳозларнинг оптимал иш режимларини танлаш ва қўллаш орқали ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш, ресурс тежамкорлигига эришиш ва

маҳсулот сифатини яхшилашда муҳим аҳамият касб этади. Оптимал иш режимларини танлашнинг асосий мезонлари бу юкланиш даражасини оптималлаштириш, яъни жиҳозлар тўлиқ юкламада узоқ ишлаганда тез эскиради, юклама кам бўлганда эса, самарадорлик тушиб кетади. Шу сабабдан юкламани бир хил тақсимлаш ва ишлаб чиқариш режасини мувозанатлаштириш зарур.

Энергия самарадорлигини оширишда эса жиҳозларни энергия тежовчи режимда ишлатиш муҳим масалан, ўзгарувчан тезликли электр двигателлардан фойдаланиш ва бошқа. Ишламай турган вақтда қувватни ўчириш автоматик тизимлар билан таъминланиши керак.

Саноат корхоналарида технологик жиҳозларнинг иш режимларини оптималлаштиришда аввало ҳарорат, босим, тезлик ва бошқа кўрсаткичларнинг аниқ назорати сифат ва ишончлиликни ошириш зарур. Бунда асосан автоматик бошқарув тизимлари ёрдамида реал вақтда мониторинг қилиш талаб этилади. Бу шиша буюмлар ишлаб чиқарувчи корхоналар мисолида кўриб чиқилди.

Шиша буюмлар ишлаб чиқариш корхоналарида технологик жиҳозларнинг корхона бўйича схемаси ва уларнинг шиша идишларини тайёрлашдаги технологик жараёни қуйидаги кетма-кетликдан иборат:

- хом-ашё материалларини етказиб берувчиларни танлаш;
- корхонага келаётган хом-ашё материалларини кириш назорати;
- хом-ашё материалларини ва шиша синиқларини тайёрлаш;
- шихтани тайёрлаш;
- шихта ва шиша синиқларини юклаш;
- шишани пишириш (печда);
- шишани қолипларга тайёрлаш;
- шиша буюмларни ишлаб чиқариш;
- мустаҳкамловчи қоплама қоплаш;
- қиздириш;
- ҳимояловчи қоплама қоплаш;
- ишлаб чиқарилаётган шиша буюмлар сифатини назорат қилиш;
- шиша буюмларни қадоқлаш;
- транспортда ташиш;
- омборга жойлаш;
- юклаш;
- буюртмачига юбориш.

Бунда корхонанинг технологик ва энергетик ускуналари томонидан истеъмол қилинадиган қувватни инструментал ўлчашлар асосида электр баланси тузилди. Ўлчаш натижалари асосида ҳисоб-китоб йўли билан корхонанинг технологик эҳтиёжлари учун сарфланадиган электр энергияси миқдори аниқланди, яъни бўлим (цех)лар кесимида (1-жадвал).

Шиша маҳсулотларини тайёрлашда корхона лабораторияси томонидан берилган талабга амал қилинади ва шишани эритиш печларда амалга оширилади. Шиша синиқлари шиша эритиш печига шиша массасининг олинишига қараб бўлиб-бўлиб юкланади.

Шиша эритиш печида 1450-1560°С оралиғидаги белгиланган ҳарорат режими сақланади. Шиша пишириш жараёнининг барқарорлигини ва газ муҳитининг доимийлигини таъминлаш учун ҳарорат режимига қатъий амал қилиш зарур.

Печдан чиққан шиша массаси шиша буюмларни ишлаб чиқариш қолипларига юборилади. Шакллантирилган буюмлар конвейер орқали тобланиш печига ўтказилади, бу ерда маҳсулотлар аста-секин совитилади.

Тайёр маҳсулотларнинг сифат назорати электрон текшириш қурилмалари ёрдамида, шунингдек кўлда ва кўз билан кўриб чиқиш орқали амалга оширилади [4-6].

Корхонада электр энергияси истеъмоли юқоридаги технологик кетма-кет жойлашган цехларда ускуналарнинг қувватидан келиб чиқиб истеъмол қуввати шаклланади.

1-жадвал

Шиша ишлаб чиқариш корхонасининг бўлим (цех)лар бўйича электр энергия истеъмоли

Бўлимлар	Йиллик электр энергия сарфи, кВт·соат	Умумий электр энергияси сарфига нисбатан %
Бойитиш тизими	450295	5
Дозалаш тизими	185490	2
Шиша синиқлари	125820	2
Печ цехи	664416	8
Ишлаб чиқариш линиялари 1, 2, 3	1608282	20
Печни совитиш насослари	261360	3
Вакуум-насос станцияси	345600	4
Компрессор	4591160	56
Жами:	**8232423**	**100**

Корхона бўлимларида электр энергия истеъмоли бўйича баланси 1-расмда келтириб ўтилган.



1-расм. Корхона электр энергия истеъмол баланси

Ушбу корхонада электр энергиясига бўлган талаб компрессор бўлими (56%)да эканлиги кузатилди.

Компрессор бўлимининг иш режимларини ўрганиш орқали энг оптимал иш режимлари ўрганилади ва уни жорий этишда бир қанча усуллари мавжуд, жумладан:

- биринчи автоматлаштириш ва рақамлаштириш киради, яъни, SCADA, IoT ва PLC каби интеллектуал бошқарув тизимлари жиҳозларнинг ҳолатини реал вақтда кузатиш ва уларни оптималлаштириш имконини беради ҳамда автоматик ишлаш ва соатлик режалар билан қувват сарфини пасайтириш мумкин;
- иккинчи техник хизмат кўрсатиш ва диагностика, яъни, жиҳозларнинг ишлаш муддатини узайтириш учун мунтазам техник хизмат кўрсатиш ва профилактик таъмирлаш жорий этилиши керак. Бунда Predictive Maintenance (олдидан диагностика қилиш) усули билан муаммоларни эрта аниқлаш самарадорликни оширади;
- учинчи инновацион технологиялардан фойдаланиш, яъни янги технологиялар, масалан, сунъий интеллект, машинани ўрганиш ва энергия тежамкор двигательлар қўлланилиши

самарадорликни оширади. Бундан ташқари тежамкор жиҳозлардан фойдаланиш орқали ресурс ҳам тежаш мумкин.

Иш режимлари самарадорлигини баҳолаш ва такомиллаштиришда умумий компрессор бўлимидаги жиҳоз самарадорлик коэффициентини ҳисоблаш. Қувват сарфи ва маҳсулот чиқиши ўртасидаги фарқни таҳлил қилиш. Технологик жиҳозларни ишламай турган вақтларни камайтириш ва оптимал иш режимини янгилаш зарур. Бунда ҳар йили ёки мавсумий равишда иш режимларини таҳлил қилиб, уларни такомиллаштириш лозим. Ишлаб чиқаришни бозор талабларига мос равишда, технологик кўрсаткичларни ўзгартириш зарур [7-9].

Технологик жиҳозларнинг иш режимларини оптималлаштириш учун математик модел ишлаб чиқишда қуйидаги асосий ёндашувлар қўлланилади, яъни биринчи оптималлаштиришда муаммони шакллантириш учун мақсад функциясидан фойдаланилади. Бунда энергия сарфи, иш унумдорлиги, технологик жиҳознинг хизмат муддати ёки ишлаш самарадорлигини максималлаштириш ёки минималлаштиришлар киритилади. Иккинчи чекловлар киритилади, яъни технологик жиҳознинг ишлашдаги унга боғлиқ бўлган кўрсаткичлари (ҳарорат, босим, тезлик ва ҳ.к.), хавфсизлик стандартлари ва ресурс чекловлари киритилади.

Математик моделни тузишда дифференциал тенгламалар (жиҳознинг физик ёки кимёвий жараёнлари билан боғлиқ моделлар), стохастик моделлар (иш жараёнида тасодифий ўзгарувчилар таъсирини ҳисобга олиш) ва ишончлилик модел (жиҳознинг ишончлилигини баҳолаш ва хизмат муддатини узайтириш)ларидан фойдаланилади.

Технологик жиҳозларнинг иш режимларини оптималлаштиришда бир қанча усуллардан фойдаланилади. Булар, линейли ва нолинейли программалаш (агар мақсад функцияси ва чекловлар аниқ берилган бўлса), катта ўлчамли ва мураккаб тизимлар учун эволюцион алгоритмлар (генетик алгоритмлар, симуляция қилинган) ва машина ўрганиш ва сунъий интеллект (машина ўрганиш моделлари орқали кўрсаткичларни автоматик оптималлаштириш)дан фойдаланилади.

Технологик жиҳозларнинг иш режимларини оптималлаштиришда математик моделдан фойдаланишда реал вақт режимида мониторинг ва бошқариш биринчи ўринда туради. Кейин у PLC (Programmable Logic Controller) ва SCADA тизимлар билан интеграция қилинади. Шухсий компьютерлар ёрдамида маълумотлар йиғилади ва таҳлил қилиб чиқилади.

Оптималлаштиришда линейли ва нолинейли программалаш усулларидан кенг фойдаланилади. Улар технологик жиҳозларнинг иш режимларини оптималлаштиришда кенг қўлланилади. Уларнинг фарқи ва қўлланиш соҳаларини қуйида кўриб чиқамиз.

Линейли программалаш усулида мақсад функцияси ва чекловлар фақат биринчи даражали тенгламалар ёки нотенгликлар билан ифодаланади.

Линейли программалашнинг умумий кўриниши:

$$\text{Min/max} \quad f(x)=c_1x_1+c_2x_2+\cdots+c_nx_n$$

$$\text{Чекловлар} \begin{cases} a_{11}x_1+a_{12}x_2+\cdots+a_{1n}x_n \le b_1 \\ a_{21}x_1+a_{22}x_2+\cdots+a_{2n}x_n \le b_2 \\ \cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots \\ a_{m1}x_1+a_{m2}x_2+\cdots+a_{mn}x_n \le b_m \end{cases}$$

$$x_i \ge 0, \quad i=1,2,\ldots,$$

Саноат корхоналарининг технологик жиҳозлари иш режимларини оптималлаштириш ва ишлаб чиқаришда самарадорликни ошириш биринчи ўринда жиҳозларнинг ишлаш

вақтларини тақсимлашда, ресурсларни минимал сарфлашда (харажат билан) ва энергетик тизимлар, яъни электр станцияларида юкламани тақсимлашда асосий ҳисобланади [10, 11]. Бу масалани ечишда энг кўп қўлланиладиган усул Simplex усулдан фойдаланилади.

Нолинейли программалаш усулида мақсад функцияси ёки чекловлар нолинейли шаклда бўлади, яъни квадрат, экспоненциал ёки логарифмик функциялар бўлиши мумкин. Нолинейли программалашнинг умумий кўриниши:

Min/max f(x)=g(x1, x2+ · · · xn)

$$\text{Чекловлар } h_i(x_1, x_2, \cdots, x_n) \le b_i, \quad i = 1, 2, \ldots, r$$

Нолинейли программалаш усулида қувват самарадорлигини оширишда технологик жараёнлар бўйича кетма-кетликдаги жиҳозларнинг иш режимларини эътиборга олиш, ишлаб чиқариш тезлигини оптималлаштириш ва жиҳозларнинг иш режимини режалаштириш асосида фойдаланилади.

Шунинг учун ишлаб чиқариш жараёнида автоматлаштириш, мунтазам техник хизмат кўрсатиш ва инновацион ечимлардан фойдаланиш самарадорликни оширишнинг энг самарали усулларидан ҳисобланади.

Энергия самарадорлигини оширишда технологик жиҳозлар иш режимларининг оптимал ечимларини топишда линейли ва нолинейли программалардан фойдаланилади (2-жадвал).

2-жадвал.

Линейли ва нолинейли программалашни солиштириш

Хусусиятлар	Линейли программалаш	Нолинейли программалаш
Мақсад функцияси	Линейли	Нолинейли
Чекловлар	Фақат линейли	Линейли ёки нолинейли
Ечим усуллари	Simplex, Interior-point	Градиент, Генетик алгоритмлар
Қўлланиш соҳаси	Ишлаб чиқариш, транспорт	Физика, энергетика, робототехника
Ечим топиш тезлиги	Юқори	Пастроқ, чунки мураккаб

Хулоса қилиб айтганда агар масала линейли бўлса, Simplex ёки Interior-point алгоритмларини ишлатиб, тез ва аниқ ечим топиш мумкин. Агар масалада нолинейли функциялар мавжуд бўлса, градиент усуллари, генетик алгоритмлар ёки динамик моделлар ишлатилиши керак. Лекин ҳар бир технологик жиҳознинг иш режими учун аниқ бир модел танлаш муҳим. Агар тизимда линейли муносабатлар бўлса линейли программалаш, агар мураккаб жараёнлар бўлса нолинейли программалаш қўлланилади.

Саноат корхоналари технологик жиҳозлар иш режимлари таҳлили асосида самарадорликни оширишда **т**ехнологик жиҳозларнинг оптимал иш режимларини қўллаш орқали ишлаб чиқариш самарадорлиги ошади, энергия тежалади, харажатлар камаяди, жиҳозлар узоқроқ муддат ишлайди ва асосийси маҳсулот сифати юқори бўлади.

Адабиётлар рўйхати

1. Xoshimov F.A., Yusupaliyeva X.U. To’qimachilik sanoati korxonalari energiya samaradorligi tahlili // Илмий – техника журнали 2022 й. 26 том. № 1. 130-136 бет.
2. Ф.А.Хашимов Оптимизация использования энергоресурсов в текстильной промышленности Т.,2005, 250 стр.
3. Хошимов Ф.А., Юсупалиева Х.У., Қодиров И.Н. Тўқимачилик саноат корхоналарида электр энергия истеъмолини прогнозлаш усуллари // Инновацион технологиялар 2022/3(47)-сон. 32-39 бет.
4. F.A.Xoshimov, K.SH.Kadirov, A.P.Kushev, X.U.Yusupaliyeva // Technological process and laws of change of energy consumption parameters of spinning enterprises // E3S Web of Conferences 497, 01013 (2024) ICECAE 2024 https://doi.org/10.1051/e3sconf/202449701013.

5. F.A.Xoshimov, K.SH.Kadirov, X.U.Yusupalieva, K.S.Azimova To'qimachilik korxonalarida yillik elektr energiya iste'molining yuklama grafiklarini shakllantirish // Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies Hosted online from Paris, France. Date: 19th October – 2024. page 126-130.
6. F.A.Xoshimov, K.SH.Kadirov, X.U.Yusupalieva, K.S.Azimova Elektr energiya iste'molining yuklama grafiklarini shakllantirish imkoniyatlari // Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia 11th October - 2024 ISSN: 2835-5733 page 333-337.
7. Хошимов Ф.А., Кадиров К.Ш. Нормирование энергоресурсов на предприятиях по переработке сельскохозяйственной продукции с современным технологическим оборудованием. – «PUBLISHING HIGH FUTURE». Ташкент. 2024 г. С. 105.
8. Ф.А.Хошимов, К.Ш.Кадиров, Х.У.Юсупалиева Нормирование расхода энергоресурсов на единицу выпускаемой прядильного производстве текстильной промышленности продукции // Энергия ва ресурс тежаш муаммолари 2024 й. махсус сони (№85), 246-255 бет.
9. Ф.А.Хошимов, К.Ш.Кадиров, Электр энергетика тизимига тушадиган юкламаларни вақт бўйича табақалаштирилган тарифлар ёрдамида бартараф этиш имкониятлари // Ўзбекистон Республикаси олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, Фарғона политехника институти, Илмий техника журнали, Фарғона-2024, Том-28, №1, 178-183 бет.
10. К.Ш.Кадиров, Х.У.Юсупалиева Республика электр энергетика тизимида электр энергияси истеъмолининг ҳолати // Фан ва технологиялар тараққиёти илмий – техникавий журнал // Бухоро муҳандислик-технология институти. 2024 йил. №4, 202-207 бет.
11. Ф.А.Хошимов, К.Ш.Кадиров, Х.У.Юсупалиева Электр таъминоти тизимининг умумий муаммолари ишончлилиги ва энергия самарадорлигини ошириш // IV Международная научно-техническая конференция «Актуальные проблемы системы электроснабжения» Нукус 2024 й. 6-9 бет.
12. Kh.M.Muradov, K.SH.Kadirov, A.P.Kushev, X.U.Yusupaliyeva // Increase efficiency at the expense of changing the working mode using time-differentiated tariffs // E3S Web of Conferences 563, 01011 (2024) ICESTE 2024 https://doi.org/10.1051/e3sconf/202456301011.

Хошимов Фозилджон Абидович - техника фанлари доктори, профессор ЎзР ФА Энергетика муаммолари институти, "Энергия самарадорлиги ва энергия тежаш тизимлари" лабораторияси бош илмий ходими. Тел.: +99893 5646544, e-mail: hashimov.fazil@yandex.ru

Кадиров Камолиддин Шухратович – техника фанлари доктори, ЎзР ФА Энергетика муаммолари институти, "Энергия самарадорлиги ва энергия тежаш тизимлари" лабораторияси мудири. Тел.: +99890 1231133, e-mail: kamoliddin.8484@mail.ru

Қарақулов Шамсиддин Юлдашович – техника фанлари бўйича фалсафа доктори, PhD.ЎзР ФА Энергетика муаммолари институти, "Энергия самарадорлиги ва энергия тежаш тизимлари" лабораторияси катта илмий ходими. Тел.: +99894 6528044, g-mail: karakulov8303@gmail.com

Юсупалиева Хулкарой Уразали қизи - таянч докторант,ЎзР ФА Энергетика муаммолари институти, таянч докторанти. Тел: +99899 8514412, mail.ru: hulkaroy90@bk.email.ru

ЎЗБЕКИСТОНДА “ЯШИЛ” ЭНЕРГИЯДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИНИ АНИҚЛАШДАГИ МУАММОЛАР ВА УНИНГ ЕЧИМЛАРИ

Садуллаев Н.Н., Нематов Ш.Н.

Бухоро давлат техника университети.

Аннотация. *Мақолада энергия истемоли объектларида “яшил” энергия манбаларини жорий этиш самарадорлигини баҳолашда вужудга келувчи муаммолар баён қилинган. Корхоналарда “яшил” энергиядан фойдаланиш афзалликлари ва самарадорлигини тавсифловчи коэффициентлар таклиф этилган ва асосланган. Таклиф этилган коэффициентлар “яшил” энергиядан фойдаланиш самарадорлигини комплекс баҳолаш ва уни самаралироқ рағбатлантириш механизмини ишлаб чиқиш имконини беради.*

Калит сўзлар*. “яшил” энергия, энергия самарадорлик, энергия сиғими, фойдали иш коэффициенти, экология, қайта тикланувчи энергия манбалари, энергия ресурс, энергия харажатлар, энергия исрофи.*

ПРОБЛЕМЫ В ОПРЕДЕЛЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ “ЗЕЛЕНОЙ” ЭНЕРГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ И ИХ РЕШЕНИЯ

Садуллаев Н.Н., Нематов Ш.Н.

Бухарский государственный технический университет.

Аннотация. *В статье описаны проблемы, возникающей при оценки эффективности внедрения источников «зеленый» энергии в объектах энергопотребления. Предложены и обоснованы коэффициенты, характеризующие преимущества и эффективность внедрения «зеленый» энергии на предприятиях. Предложенные коэффициенты позволяет комплексно оценить эффективность и разработать более эффективной механизм стимулирования использования «зеленый» энергии в объектах энергопотребления*

Ключевые слова*: «зеленая» энергия, энергоэффективность, энергоёмкость, коэффициент полезного действия, экология, возобновляемые источники энергии, энергоресурс, энергозатраты, потери энергии.*

PROBLEMS IN DETERMINING THE EFFICIENCY OF USING “GREEN” ENERGY IN UZBEKISTAN AND THEIR SOLUTIONS

Sadullaev N.N., Nematov Sh.N.

Bukhara state technical university.

Annotation*. The article describes the problems that arise when evaluating the effectiveness of the introduction of "green" energy sources in energy consumption facilities. Coefficients characterizing the advantages and effectiveness of the introduction of "green" energy in enterprises are proposed and justified. The proposed coefficients make it possible to comprehensively assess efficiency and develop a more effective mechanism for stimulating the use of "green" energy in energy consumption facilities.*

Keywords*: "green" energy, energy efficiency, energy intensity, efficiency, ecology, renewable energy sources, energy resources, energy consumption, energy losses.*

Республикамизда энергетика соҳасидаги ислоҳотларнинг устивор йўналишларидан бири “яшил” энергетикани ривожлантириш бўлиб ҳозирги кунда ушбу янги соҳа энергия таъминотида салмоқли ўринни эгалламоқда. Давлат раҳбари ва ҳукуматимиз томонидан ушбу соҳани ривожлантириш учун кўплаб қарорлар ва мейёрий ҳужжатлар қабул қилинди. Масалан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 28 апрелдаги ПҚ-3687-сон “Қайта тикланадиган энергия манбалари соҳасида инвестиция лойиҳаларини амалга оширишда оид қўшимча чора тадбирлари тўғрисида”ги қарори [1] билан инвестициялар ҳажми 1,3 млрд. АҚШ доллари миқдорида минг МВт қувватдаги фотоэлектр қуёш энергиясини ишлаб чиқариш амалга оширилган бўлса 2025-йил 28 мартдаги ПҚ-129-сон, “Республикамиз ҳудудларида микро гидроэлектр станциялари тармоғини ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарорида [2] Республика ҳудудларида жами қуввати 164 МВт бўлган 2 983 та микро ГЭС қуриш ва йилига 500 млн кВт/соат экологик тоза электр энергиясини ишлаб чиқариш, вазифаси белгилаб берилган. Аммо, ушбу лойиҳалар амалга ошириш жараёнида “яшил” энергия манбаларига ўтиш самарадорлигини асослашда баъзи бир муаммоларга дуч келинмоқда.

Ишлаб чиқариш корхоналарида энергиядан фойдаланиш самарадорлигини ошириш мақсадида энергия таъминоти тизимида қайта тикланувчан энергия манбаларидан (ҚТЕМ) фойдаланиш салмоғи ошиб бормоқда. Аммо, ушбу ўзгаришлар корхона энергия

самарадорлик кўрсаткичларида ўз аксини топмаяпти. Масалан, корхонада қайта тикланувчан энергия манбаларидан фойдаланганда ҳам агар маҳсулот бирлигига сарфланган энергия миқдори ўзгармагани учун энергия самарадорлик кўрсаткичи ўзгармаган деб ҳисобланади. Ҳолбуки, қайта тикланувчан энергия манбаларидан жорий этиш бирламчи энергия ресурслардан фойдаланишни ва атроф-муҳит ифлосланиш миқдорини камайтиради ҳамда энергия таъминоти ишончлигини оширади. Энергия истъемоли объектларини “яшил” энергия манбаларига ўтиш самарадорлиги етарли даражада асослаб берилмагани сабабли бу жараён асосан мажбурий ёки маъмурий босим остида амалга оширилмоқда.

Ҳозирги кунда давлатимизда энергия самарадорлик кўрсаткичлари сифатида асосан 2 та кўрсаткич: бирлик маҳсулотнинг энергия сиғими ва энергиядан фойдаланишда фойдали иш коэффициенти (ФИК) ҳисобланади [3]. Бундан ташқари халқаро тажрибада бирлик қийматдаги маҳсулотнинг энергия сиғими ва бирлик қийматдаги маҳсулотни ишлаб чиқаришда атроф муҳитга етказилган зарар кўрсаткичларидан фойдалинади [4, 5]. Жаҳон давлатлари бўйича энергия самарадорликни баҳолашда “ялпи ички маҳсулотнинг энергия сиғими” кўрсаткичидан фойдаланилади [6, 7].

Корхонада “яшил” энергия манбаларини ўрнатганда ушбу энергия самарадорлик кўрсаткичларига қандай ўзгаришини кўриб чиқамиз. Бирлик маҳсулотнинг энергия сиғими қуйидаги ифодадан аниқланади:

$$W_0 = \frac{W_n}{П_й}, \qquad (1)$$

бу ерда: W_n – *n*-маҳсулотни ишлаб чиқаришда сарфланган энергия, кг.ш.ё.; $П_й$-ишлаб чиқарилган маҳсулот ҳажми, ўлчов бирлиги.

(1) ифодадан кўринадики, корхонада “яшил” энергиядан фойдаланишни жорий этишдан ушбу кўрсаткич ўзгармайди. Чунки, бу кўрсаткич энергия манбаларига боғлиқ эмас.

Иккинчи асосий кўрсаткич энергиядан фойдаланишда ФИК бўлиб қуйидаги ифодадан аниқланади:

$$К_\eta = \frac{W_ф}{W_ф + \Delta W_\Sigma}, \qquad (2)$$

Бу ерда:- $W_ф$- фойдаланилган энергия, кВт·соат; ΔW_Σ-энергияни ишлаб чиқаришда, узатиш ва истеъмол жараёнидаги жами исрофлар, кВт·соат.

Бу ифодадан ҳам кўриш мумкин, ушбу самарадорлик кўрсаткичи ҳам ўзгармайди ёки камаяди. Чунки, “яшил” энергия манбаларининг ФИКи анъанавий энергетика манбаларига қараганда пастроқ бўлиб энергия ишлаб чиқариш жараёни эътиборга олинса умумий ФИК камаяди.

Энергетика соҳасини “яшил” иқтисодиёт тамойилларига зўриқишларсиз ўтказиш ва унинг натижадорлигини таъминлаш аввало ушбу ислоҳотларни самарадорлигини асослаб беришни тақозо қилади. Бунинг учун “яшил” энергияга ўтиш самарадорлигини белгиловчи самарадорлик кўрсаткичларини ишлаб чиқиш заруриятини кўрсатади.

“Яшил” энергияга ўтиш самарадорлигини белгиловчи кўрсаткичларни ишлаб чиқиш ҳозирги куннинг қуйидаги долзарб муаммолари ечимига қаратилиши лозим:

- Ўзбекистонда “яшил энергетика”га ўтиш асосан маъмурий ва мажбурий тарзда амалга оширилаётганлиги;
- ёқилғи энергия ресурсларнинг етишмовчилиги туфайли энергия тақчиллигининг келиб чиқиши;
- энергияни ишлаб чиқариш ва истеъмол қилиш туфайли келиб чиққан экологик инқироз;
- энергия истеъмолчиларига энергия ресурслар таннархидан арзон сотилаётганлиги туфайли соҳага инвестицияларни жалб қилишдаги қийинчиликлар.

Юқоридаги таҳлиллар натижасидан келиб чиқиб энергия истемолида “яшил” энергия манбаларини жорий этишдаги муаммоларни бартараф этиш мақсадида уларни самарадорлигини баҳолашда қуйидаги кўрсаткичларни жорий этиш тавсия этилади [6]. Бунда, “яшил” энергиядан фойдаланиш самарадорлигини комплекс баҳолаш имконини

берувчи ягона самарадорлик кўрсаткичини аниқлаш учун барча кўрсаткичлар нисбий (ўзчовсиз) бирликда ишлаб чиқилади [7].

Дастлаб энергия истеъмолида “яшил” энергия салмоғини аниқловчи “яшил” энергиядан фойдаланиш коэффициенти”ни амалиётга киритиш лозим. Ушбу коэффициент қуйидаги ифодадан аниқланади:

$$К_{яэ} = \frac{W_{яэ}}{W_{эр} + W_{яэ}}, \qquad (3)$$

бу ерда: $W_{яэ}$-энергия истеъмолидаги “яшил” энергия миқдори, кВт·соат; $W_{эр}$-энергия истеъмолидаги энергия тармоғидан ва энергия ресурслардан фойдаланиб олинган энергия миқдори, кВт·соат.

“Яшил” энергетикани жорий қилишни иқтисодий самарадорлигини белгиловчи кўрсаткич сифатида “Энергия харажатларни қисқариши коэффициенти”ни жорий этиш мақсадга мувофиқ. Бу кўрсаткич “яшил” энергия манбаларини ўрнатганда энергия харажатлар неча фойизга қисқаришини кўрсатади. Бунинг учун қуйидаги ҳисоблашларни бажарамиз. Агар, корхона электр тармоқдан ўртача қувват истеъмоли - $Р_{ўр.т}$ бўлса, унинг йиллик энергия истеъмоли тўлови қуйидаги ифодадан аниқланади.

$$И_{ээ} = Р_{ўр.т} \cdot Т_{мах} \cdot С_{ээ}, \qquad (4)$$

бу ерда: $Р_{ўр.т}$-электр тармоқдан истеъмол қилинаётган ўртача қувват истеъмоли, кВт·соат; $Т_{мах}$ –йиллик максимал юкламалар вақти бўлиб, корхонанинг иш кунлари ва сменалар сонига қараб аниқланади. Масалан, 1 смена учун $Т_{мах}$=2200, 2 смена учун 4500 соат/йил, ва ҳ.к.; $С_{ээ}$-электр энергияси таннархи, сўм/кВт·соат.

“Яшил” энергия манбаларини (қуёш панели мисолида) ўрнатиш, энергия тўловларини қуйидаги миқдорда камайтириш имконини беради:

$$И_{яэ} = Р_{яэ} \cdot W_{0.й}(С_{ээ} + С_{0.эк}), \qquad (5)$$

бу ерда: $Р_{яэ}$-“яшил” энергия манбасининг қуввати, кВт; $С_{о.эк}$ -1 кВт қуёш панелининг бир йиллик ишлаб чиқарадиган энергияси, кВт·соат/йил; $С_{ээ}$-тармоқ электр энергияси таннархи, сўм·кВт/соат; $С_{0.эк}$-1 кВт·соат электр энергияси истемолининг атроф муҳитга етказган зарари қиймати, сўм/кВт·соат.

“Яшил” энергия ҳисобидан энергия тўловларини камайишининг нисбий қиймати қуйидагича аниқланади:

$$К_{иқ} = 1 - \frac{Р_{ўр.т} \cdot Т_{мах} \cdot С_{ээ} + Р_{яэ}(Z_{0.яэ} - W_{0.й}(С_{ээ} + С_{0.эк}))}{Р_{ўр.т} \cdot Т_{мах} \cdot С_{ээ}}. \qquad (6)$$

Корхона энергия истеъмолининг қуйидаги маълумотлари асосида ушбу коэффициентни ҳисоблаймиз: $Р_{ўр.т}$-1000 кВт; $Т_{мах}$-2200 соат (1 сменали иш); $С_{ээ}$-1000 сўм/кВт·соат; $W_{0.й}$-1700 кВт·соат/йил; $С_{о.эк}$-50 сўм/кВт·соат.

Қуёш панеллари ишлаш муддати 25 йил, инверторники 8 йил. Капитал харажатларни ҳисоблашда 1 қуёш панелига 3 та инверторни ҳисоблаймиз. 1 кВт қуёш панели ва 3 та инверторни нархини 8 млн деб қабул қиламиз. Агар, бу қийматни ўртача 20 йилга бўлсак келтирилган қўшимча йиллик харажатларни 400 минг деб қабул қиламиз. Яъни, 1 кВт қувватли “яшил” энергия манбаларини капитал ва ўрнатиш келтирилган йиллик харажатлари қуйидаги ифодадан аниқланади:

$$Z_{яэ} = \frac{К_{о.кп} + 3К_{ин}}{Т_{кп}} = \frac{2000000 + 3 \cdot 2000000}{20} = 400\ 000 \ \textit{сўм/кВт.}$$

“Энергия харажатларни қисқариши коэффициенти”ни ҳисоблаймиз:

$$К_{иқ} = 1 - \frac{1000 \cdot 2200 \cdot 1000 + 300 \cdot (400\ 000 - 1700(1000 + 50))}{1000 \cdot 2200 \cdot 1000} = 1 - 0{,}77 = 0{,}23$$

Бу кўрсаткич ўртача истеъмол қуввати 1000 кВт бўлган корхонага 300 кВт қуёш панеллари ўрнатиш энергия тўловларини 23% га қисқартиришини англатади.

Энергия ресурсларни сарфлаб ишлаб чиқарилган иссиқлик ва электр энергиясидан фойдаланганда энергия ресурсларни тежаш ҳамда энергия тўловларни камайтириш мақсадида исрофларни иложи борича камайтишга ҳаракат қилинади. “Яшил” энергия

манбаларида энергия ресурс чексиз ва тўловсиз бўлгани сабабли бу исрофларни эътиборга олмаса ҳам бўлади. Яъни, “яшил” энергиядан фойдаланганда ФИК ни ҳисоблашда фақат тўлов қилинадиган энергия исрофларни ҳисобга олиш лозим. “Яшил” энергиядан фойдаланганда энергияга ҳам энергия исрофига ҳам тўлов қилмаймиз. Шунинг учун (2) ифодани қуйидагича ёзиш мумкин:

$$К_{\eta} = \frac{W_{эр}+W_{яз}}{W_{эр}+\Delta W_{эр.\Sigma}}, \qquad (7)$$

Бу ерда: $W_{эр}$-энергия ресурслардан олиниб фойдаланилган энергия миқдори, кВт·соат; $W_{яз}$-“яшил” энергия манбаларидан олиниб фойдаланилган энергия миқдори, кВт·соат; $\Delta W_{эр.\Sigma}$-энергия ресурслардан олинган энергиядан фойдаланиш жараёнидаги умумий йўқотишлар, кВт·соат.

Ушбу ифода “яшил” энергия манбалари энергиясидан фойдаланиш салмоғини ошиб бориши билан энергиядан фойдаланиш ФИК ошиб боришини таъминлайди ва “яшил” энергия манбаларини жорий этганда умумий ФИК пасайиб кетишини олдини олади.

Бундан ташқари, “яшил” энергиядан фойдаланишни асосий самарадорлик кўрсаткичи бўлган “бирлик қийматдаги маҳсулотни ишлаб чиқаришда атроф муҳитга етказилган зарар кўрсаткичи”ни ҳисобга олиш зарур бўлади. Халқаро амалиётда қўлланилаётган бирлик қийматдаги (1 АҚШ доллари) маҳсулотни ишлаб чиқаришда атроф-муҳитга етказилган зарар анча кичик (1 кг CO_2 учун 3-5 цент) ва ўлчов бирликка (кг·CO_2/$) эга бўлгани учун ўлчовсиз коэффициент тавсия этилади. Бунда, фойдаланилаётган энергияни ишлаб чиқариш жараёнида ажралиб чиқаётган зарарли моддалар миқдорини энергияни атроф-муҳитни энг кўп ифлослантирувчи энергия ишлаб чиқарувчи энергия ресурсга (кўмирга) таққослаш керак бўлади.

“Яшил” ва энергия ресурслардан фойдаланиб ишловчи гибрид энергия манбасининг экологияга таъсири индекси қуйидаги тартибда аниқланади. Гибрид энергия (электр ва иссиқлик) манбасида турли ёқилғида (табиий газ, кўмир, бензин ва ҳ.к.) ишловчи барча энергетик қурилмалар учун атроф –муҳитга етказилган зарар қуйидаги ифодадан аниқланади:

$$С_{ес.\Sigma} = \Sigma m_i \cdot C_{0.i} = m_1 \cdot C_1 + m_2 \cdot C_{0.2} + \cdots m_1 \cdot C_{0.i} \qquad (8)$$

Бу ерда: m_i–i-турдаги ёқилғи билан ишловчи электр ва иссиқлик энергия манбаларининг йил давомида атроф муҳитга чиқарилган зарарли моддалари миқдори, тн; $C_{o.i}$-i-ёқилғи билан ишловчи энергетик қурилманинг чиқарган 1 тн зарарли моддаларининг атроф муҳитга зарари (ёки зарарни қоплаш учун сарфланадиган маблағ) миқдорининг қиймати, АҚШ долл.

Энергия истемоли объектида истеъмол қилинган энергияни кўмирда ишлаб чиқарилгандаги зарарли моддалар миқдори аниқланиб нисбий кўрсаткич қуйидаги ифодадан аниқланади:

$$К_{эи} = 1 - \frac{С_{ес.\Sigma}}{С_{кўм}}.$$

Бу кўрсаткич корхонадаги реал экологик ҳолатни аниқлаб бермайди, балки энергия истеъмоли жараёни қай даражада нисбатан “тозароқ” эканини билдиради. Масалан, корхонада қисман “яшил” энерия манбаларини ўрнатилса ва бу кўрсаткич $К_{эи}$=0,73 ни ташкил этса бу ҳолат энг “ифлос” энергиядан фойдаланишга нисбатан 73% га тозароқ эканини билдиради. Яъни, фақат “яшил” энергия манбаларидан фойдаланиш самарадорлигини кўрсатади.

“Яшил” энергия манбаларини жорий қилиш энергия таъминотини диверсификациялаб энергия таъминоти ишончлигини оширади. Шунинг учун энергия истеъмоли объектининг диверсификация коэффициентини самарадорлик коэффициенти сифатида киритиш зарур. Бу коэффициент энергия манбаларининг хилма-хиллиги уларнинг заҳира қуввати билан аниқланади. Агар корхонада бир неча энергия манбаи ва заҳиралаш қурилмаси бўлса ушбу коэффициент қуйидаги ифодадан аниқланади:

$$К_д = \frac{\sum_{n=1}^{n} P_i - P_{i.max}}{P_{ec}}, \qquad (9)$$

бу ерда: n-энергия манбалари сони, дона; P_i-энергия истемолида иштирок этаётган энергия манбаи ёки заҳиралаш қурилмасининг номинал қуввати, кВт; $P_{i.max}$-максимал қувватли энергия манбаи (аксарият ҳолларда электр тармоқ трансформатори) қуввати, кВт; P_{ec}-энергия истеъмоли объектининг йиллик ўртача истеъмол қуввати, кВт.

Хулосалар:

1. Энергетик тадқиқотларда жорий этилган энергия самарадорлик кўрсаткичлари “яшил” энергиядан фойдаланиш самарадорлигини тўлақонли баҳолай олмайди.
2. Энергия истеъмоли объектларида “яшил” энергия манбаларини жорий этиш самарадорлигини тўлақонли тавсифловчи самарадорлик кўрсаткичлари тавсия этилди ва асосланди.
3. Ишлаб чиқилган самарадорлик кўрсаткичлари иқтисодиёт соҳаларини “яшил” энергиядан фойдаланишга жадалроқ ўтиш учун корхоналарни самаралироқ рағбатлантириш тизимини яратиш имконини беради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. https://lex.uz/docs/3713638
2. https://lex.uz/ru/docs/7462039
3. https://ru.wikipedia.org/wiki/Энергоэффективность
4. Haas R, Editor, Faber T, Green J, Gual M, Huber C, Resch G. Promotion Strategies for Eectricity from Renewable Yenergy Sources in EU Countries, Review-report of the project YeLGREEN, TU Wien; 2001.
5. Haas R, Meyer NI, Held A, Finon D, Lorenzoni A, Wiser R, yet al. Promoting electricity from renewable energy sources– lessons learned from the EU, U.S. and Japan. In: Sioshansi FP, yeditor. Yelectricity market reforms. Yelsevier Publishers; 2007.
6. Van der Linden NH, Uyterlinde MA, Vrolijk L, Nilsson J, Khan K, Astrand K, yet al. Review of international yexperience with renewable yenergy obligation support mechanisms. Netherlands: Petten; 2005. YeCN-C-05-025.
7. N.N. Sadullayev., G‘afurov M.O. Sanoat korxonasining kompleks energiya samaradorlik ko‘rsatkichini aniqlash. “Fan va texnologiyalar taraqqiyoti” №2/2023, 124-128 b.
8. N.N. Sadullayev., G‘afurov M.O. Gibrid energiya manbali energiya iste’moli obyektini umumlashgan samaradorlik ko‘rsatkichini aniqlash. Muqobil energetika. Qarshi. №2. 2023 y.35-40 c.

Садуллаев Насулло Нематович - техника фанлари доктори, профессор, Бухоро давлат техника университети “Электр ва энергетика муҳандислиги” кафедраси профессори, Nasullo68@mail.ru, *+99893-960-97-88*

Нематов Шуҳрат Насилло ўғли, техника фанлари бўйича фалсафа доктори, Бухоро давлат техника университети “Электр ва энергетика муҳандислиги” кафедраси докторанти, mshuxa@mail.ru *+99890-636-66-56*

UO‘K 628.9

KONVEYER TIZIMLARIDA ELEKTR ENERGIYASI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KOMPLEKS YONDASHUVLARINI TAHLIL QILISH

Tovboyev A.N., Tog‘ayev I.B.

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada konveyer tizimlarida elektr energiyasidan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha kompleks yondashuvlar tahlil qilinadi. Konveyer elektr yuritmalari sanoat texnologik jarayonlarining ajralmas qismi bo‘lib, ularning energiya sarfini optimallashtirish umumiy ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda elektr yuritmalarning texnik holati, yuklama rejimlari, boshqaruv algoritmlari, reaktiv quvvat kompensatsiyasi, garmonik buzilishlarning kamaytirilishi va energiya tejamkor texnologiyalarni qo‘llash orqali tizim samaradorligini oshirishning zamonaviy usullari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, tizimlarning modellashtirish asosidagi tahlillari va ularni avtomatlashtirish orqali energetik yo‘qotishlarni kamaytirish mexanizmlari yoritilgan. Maqola natijalari asosida konveyer tizimlarining energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan texnik va tashkiliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *konveyer tizimlari, elektr yuritma, energiya samaradorligi, reaktiv quvvat kompensatsiyasi, garmonik buzilishlar, avtomatlashtirilgan boshqaruv, sanoat yuklamalari, elektromexanik tizimlar, sanoat energetikasi, raqamli monitoring.*

АНАЛИЗ КОМПЛЕКСНЫХ ПОДХОДОВ К ПОВЫШЕНИЮ ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТИ В КОНВЕЙЕРНЫХ СИСТЕМАХ

Товбоев А.Н., Тогаев И.Б.

Навоийский государственный горно-технологический университет.

Аннотация. *В данной статье проводится анализ комплексных подходов к повышению эффективности использования электроэнергии в конвейерных системах. Электрические приводы конвейеров являются неотъемлемой частью технологических процессов в промышленности, и оптимизация их энергопотребления играет важную роль в снижении общих производственных затрат. В исследовании рассмотрены современные методы повышения эффективности работы систем за счёт оценки технического состояния электроприводов, режимов нагрузки, алгоритмов управления, компенсации реактивной мощности, снижения гармонических искажений и внедрения энергосберегающих технологий. Кроме того, освещены механизмы снижения энергетических потерь на основе моделирования систем и их автоматизации. По результатам исследования разработаны технические и организационные рекомендации, направленные на повышение энергоэффективности конвейерных систем.*

Ключевые слова: *конвейерные системы, электрический привод, энергоэффективность, компенсация реактивной мощности, гармонические искажения, автоматизированное управление, промышленные нагрузки, электромеханические системы, цифровой мониторинг.*

ANALYSIS OF COMPREHENSIVE APPROACHES TO IMPROVING ENERGY EFFICIENCY IN CONVEYOR SYSTEMS

Tovboev A.N., Togaev I.B.

Navoi state mining and technology university.

Annotation. *This article presents an analysis of comprehensive approaches to improving the efficiency of electricity usage in conveyor systems. Conveyor electric drives are an integral part of technological processes in industry, and optimizing their energy consumption plays a significant role in reducing overall production costs. The study examines modern methods for enhancing system efficiency by assessing the technical condition of electric drives, load modes, control algorithms, reactive power compensation, reduction of harmonic distortions, and the implementation of energy-saving technologies. In addition, the article highlights mechanisms for reducing energy losses based on system modeling and automation. Based on the results of the study, technical and organizational recommendations have been developed to improve the energy efficiency of conveyor systems.*

Key words: *conveyor systems, electric drive, energy efficiency, reactive power compensation, harmonic distortions, automated control, power quality, industrial loads, electromechanical systems, reduction of energy losses, digital monitoring.*

***K*irish.** Zamonaviy sanoat ishlab chiqarish jarayonlarida konveyer tizimlari muhim transport vositasi sifatida keng qo‘llanilmoqda. Ular xomashyo, yarim tayyor va tayyor mahsulotlarni uzluksiz va avtomatlashtirilgan tarzda harakatlantirish imkonini beradi. Ushbu

tizimlarning asosiy harakatlantiruvchi komponenti elektr yuritmalardir. Konveyer elektr yuritmalari, ayniqsa, yirik sanoat tarmoqlarida-konchilik, metallurgiya, kimyo va qurilish materiallari sanoatlarida-energiya iste'molining sezilarli qismini tashkil etadi. Shu sababli, ularning samarali ishlashi nafaqat texnologik jarayonlarning uzluksizligini, balki umumiy energiya samaradorligini ta'minlashda ham muhim o'rin tutadi [1,2]. So'nggi yillarda elektr energiyasi narxining ortishi, ekologik talablarning kuchayishi va ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish zaruriyati tufayli energiyani tejovchi texnologiyalarga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Bunday sharoitda konveyer tizimlarida energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan kompleks yondashuvlar dolzarb ilmiy-texnik masalaga aylanmoqda. Bu yondashuvlar faqat bitta texnik elementni emas, balki butun tizimni-elektr yuritma, boshqaruv algoritmlari, yuklama rejimlari, energiya ta'minoti sifati, reaktiv quvvat muvozanati, garmonik buzilishlar va avtomatlashtirilgan monitoring tizimlarini chuqur tahlil qilishni talab qiladi.

Asosiy qism. Konveyer tizimlari sanoatda materiallarni uzluksiz, avtomatlashtirilgan holda harakatlantirish uchun mo'ljallangan mexanizmlardir. Kompleks yondashuv deganda, energiya samaradorligini oshirishda faqat bitta element emas, butun tizim bo'yicha umumiy energetik zanjirni baholab, har bir bosqichda optimallashtirish ishlari olib borilishi tushuniladi (1-rasm).



1-rasm. konveyer tizimlarida elektr energiyasi samaradorligini oshirishga qaratilgan asosiy texnik chora-tadbirlar va ularning taxminiy samaradorlik darajalari (foizda) aks ettirilgan.

Konveyr tizimlarida asosiy energiya yo'qotilishi manbalarini quyidagi 1-jadvalga kiritamiz.

1-jadval

Asosiy energiya yo'qotish manbalarining tarkibi

№	Yo'qotish manbai	Ta'sir darajasi (%)	Sabablar
1	Mexanik yo'qotishlar	15–20%	Surtunma, uzatmalar va podshipniklar
2	Elektr yuritma samaradorligining pastligi	10–15%	Eskirgan motorlar, energiya iste'moli yuqori
3	Reaktiv quvvat oqimi	5–10%	Kompensatsiya yetarli emas
4	Garmoniklar ta'siri	5–8%	Chiziqli bo'lmagan yuklamalar
5	Noto'g'ri boshqaruv algoritmlari	10–12%	Yuklamaga moslashmagan boshqaruv

Ushbu ilmiy maqolada konveyer tizimlarining energiya samaradorligini oshirishning zamonaviy va kompleks yondashuvlari o‘rganiladi. Bunda elektr yuritmalarning texnik holati va ularning boshqaruv tizimlari, energiya oqimlarini modellashtirish, garmoniklarning oldini olish usullari, shuningdek raqamli texnologiyalar asosida monitoring va avtomatlashtirish orqali energetik yo‘qotishlarni kamaytirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari ishlab chiqarish korxonalarida energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha texnik va tashkiliy qarorlar qabul qilishda amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin [3,4,5].

Yuqoridagi tahlillarga asoslanib, energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar tahlilini quyidagi 2-jadvalga kiritamiz.

2-jadval

Energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar tahlili

Chora-tadbir	Ta’sir yo‘nalishi	Afzalliklar
Yuklamani optimallashtirish	Tok va tezlikni moslashtirish	Yo‘qotishlarni kamaytiradi
Reaktiv quvvat kompensatsiyasi	Cosφ ni oshirish	Tarmoqdan ortiqcha tok tortilmaydi
Aktiv garmonik filtrlari	Garmoniklarni kamaytirish	Tarmoq sifatini yaxshilaydi
Yuqori samarali motorlar (IE3+)	Foydali ish koeffitsienti yuqori	Elektr sarfini kamaytiradi
Avtomatlashtirish va monitoring	Real vaqtli nazorat va moslashuv	Diagnostika va xizmat ko‘rsatish oson

Harorat oshishiga qarab IE3 motor samaradorligining kamayishi 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Temperatura oshishi bilan motor samaradorligining pasayish grafigi.

- Harorat 20°C dan 70°C gacha oshganda samaradorlik ~94% dan 86.5% gacha kamayadi.
- Buning asosiy sababi: o‘ta qizishda izolyatsiya va magnit maydonning ishlashi zaiflashadi**.**

Konveyer tizimlaridagi asosiy energiya sarfi omillari:

- Elektr yuritmaning samaradorligi (η);
- Mexanik yo‘qotishlar (uzatma, lenta, ishqalanishlar);
- Reaktiv quvvat (Q) tufayli ortiqcha tok oqimi;
- Garmonik buzilishlar (THD) tufayli tizim ishonchliligining pasayishi;
- Noto‘g‘ri boshqaruv algoritmlari sababli yuklamaga mos kelmaydigan ish rejimlari.

- Harorat 10°C ga oshganda motor samaradorligi taxminan 1.5% ga kamayadi.
- THD > 5% bo‘lsa, tizimda filtrlar o‘rnatilishi shart.
- Cosφ = 0.85 → kompensatsiya bilan Cosφ = 0.98 qilinsa, 8–10% ortiqcha energiya tejaladi.

3-jadval. Yo‘qotish manbalarining va ularning ulushlari

№	Yo‘qotish manbasi	Taxminiy (%)	Izohlar
1	Mexanik yo‘qotishlar	15	Uzatma, lenta, ishqalanish
2	Elektr yuritma samaradorligi	10	Past η dvigatellar (IE1, IE2)
3	Reaktiv quvvat sarfi	8	Cosφ < 0.85 bo‘lsa ortiqcha tok oqimi
4	Garmoniklar ta’siri	7	Invertorlar, nolinayner yuklamalar
5	Noto‘g‘ri boshqaruv	12	Chastotani moslashtirmaslik
6	Haddan tashqari yuklama	6	Doimiy ortiqcha og‘irlik
7	Qizib ketish yo‘qotishlari	5	Haroratning yuqori bo‘lishi



3-rasm. Yo‘qotishlar manbasi va ulushining ko‘rinishi



4-rasm. Texnik yechimlar va samaradorlik oshishining grafik ko‘rinishi

Yuklamaga qarab samaradorlikning o‘zgarish grafigini 5-rasmda ko‘rishimiz mumkin.



	1	2	3	4	5	6
Samaradorlik (%)	0	85	90	93	95	92
Yuklama (%)	0	25	50	75	100	125

5-rasm. Yuklamaga qarab samaradorlikning o‘zgarish grafigi

Avtomatlashtirilgan boshqaruv yuklamani real vaqt rejimida optimallashtiradi, shu bilan birga energiya isrofgarchiligini oldini oladi [6,7]:

- Kompensatsiyasiz holatda cosφ = 0.6–0.82 oralig‘ida;
- Kompensatsiyadan so‘ng cosφ = 0.95–0.99;
- Bu esa energiya samaradorligini 8–12% gacha oshiradi va to‘lovni kamaytiradi [8-9].



6-rasm. THD va energiya yo‘qotishlarining bog‘liqlik grafiki



7-rasm. Yuqori cosφ elektr tarmog‘iga tushadigan ortiqcha yuklamani kamaytiradi, shuningdek, kuchlanish pasayishini va issiqlik yo‘qotishlarini ham kamaytiradi.

Xulosa. Konveyer tizimlari zamonaviy sanoatning uzluksiz ishlashini ta’minlovchi asosiy texnologik elementlardan biri hisoblanadi. Ular orqali turli mahsulotlar, xomashyo va materiallar oqimi tashiladi, bu esa elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyojni yuqori darajada saqlab turadi. Ushbu tadqiqot doirasida konveyer elektr yuritmalarida energiya samaradorligini oshirishning kompleks yondashuvlari chuqur tahlil qilindi va ular orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish imkoniyatlari aniqlab berildi. Tahlil natijalariga ko‘ra, energiya samaradorligini oshirish faqat biror bitta texnik yechim bilan emas, balki kompleks integratsiyalashgan strategiyalar asosida amalga oshirilgandagina maksimal natija beradi. Jumladan, yuqori samarali IE3/IE4 sinfidagi elektr dvigatellarning joriy etilishi, chastota regulyatorlari (VFD) orqali yuklamalarga moslashtirilgan boshqaruv tizimlarining qo‘llanilishi, reaktiv quvvatni avtomatik kompensatsiyalovchi qurilmalar yordamida cosφ ko‘rsatkichini optimallashtirish va tizimdagi garmonik buzilishlarni kamaytirish-bularning barchasi tizim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Shuningdek, doimiy monitoring va raqamli nazorat tizimlarini (SCADA, PQ analizatorlar) joriy etish orqali yuklamaning vaqtinchalik dinamikasi kuzatilib, energetik yo‘qotishlarga sabab bo‘layotgan omillar aniqlanishi mumkin. Sensorli tizimlar yordamida real vaqtli energiya sarfini nazorat qilish, issiqlik yo‘qotishlari va ortiqcha yuklamalarni aniqlash, tizimni avtomatik tarzda muvozanatlashtirish imkonini beradi. Grafik va jadval tahlillari asosida isbotlandi: yuklamaga moslashtirilmagan ishlash, yuqori THD (Total Harmonic Distortion) va past cosφ qiymatlari konveyer tizimlarida 10-25% ortiqcha energiya sarfiga olib keladi. Bu esa faqat texnik emas, balki iqtisodiy nuqtayi nazardan ham dolzarb muammoligini ko‘rsatadi. Yuqorida keltirilgan yondashuvlarning kombinatsiyasini qo‘llash orqali energiya tejamkorligi bo‘yicha umumiy 25-30%

gacha samaradorlik yutug‘iga erishish mumkinligi isbotlandi. Bu esa konveyer tizimlarining nafaqat ekologik barqarorligini, balki sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibodullayev M.I, Tovboyev A.N., Yesenbekov A.K., Nazarov A.I. Avtoparametrik tebranishlarni tahlil qilishda chastota-energiya munosabatlari // «O'zbekiston Konchilik xabarnomasi» ilmiy-texnik va ishlab chiqarish jurnali.Navoiy, 2017. № 2. 165-167 betlar.
2. Tovboyev A.N., Norqulov A.O., Tog'ayev I.B. Uch fazali ferromagnit elementlarga ega bo'lgan uch fazali zanjirlarda subgarmonik tebranishlarning harakat tenglamasi. Ilm-fan, texnika va texnologiyalar bo‘yicha ilg‘or tadqiqotlar xalqaro jurnali. Hindiston, IJARSET jildiga mualliflik huquqi. 6, 10-son, 2019 yil oktyabr, 11207-11210 betlar.
3. Tovboyev A.N., Tog’ayev I.B., Nodirov G’.Y. Statistical analysis of power waste in 6-10 kV tension overhead electrical transmission lines // International Journal of Advanced Research in Science Engineering and Technology Vol. 9, Issue 11, November 2022. India, pp. 2-7.
4. Savina N.V., Myasoedov Yu.V. Tarqatish elektr tarmoqlarining ishlashida elektr energiyasini yo'qotish bo'yicha tizimli tadqiqotlar // IrGTU Vestnik. 2012. № 1 (60).142–148 bet.
5. Mavlonov J A., Mardonov D.Sh. “Rudani yanchuvchi tegirmonlarni elektr energiya samaradorligini oshirish usullari” // Konchilik xabarnomasi. Ilmiy texnik va ishlab chiqarish jurnali. Navoiy, 2022. № 3.102-104 bet.
6. Tovboyev A.N., Baynazarov G.G., Jumayev Z.I. Bo'lingan ferromagnit elementga ega bo'lgan uch fazali zanjirlarda uchinchi darajali subarmonik tebranishlarni tahlil qilish. Ilm-fan, texnika va texnologiyalar bo'yicha ilg'or tadqiqotlar xalqaro jurnali. Hindiston, IJARSET mualliflik huquqi. Jild. 6,12-son, 2019 yil dekabr, 12229-12233-betlar.
7. Tovboyev A.N., Ibadullayev M.I., Murodov H.Sh., Narzullayev B.Sh. Yuqori kuchlanishli elektr tarmoq va tizimlarida subgarmonik ferrorezonans. «Uzbekiston konchilik xabarnomasi» ilmiy-texnik va ishlab chiqarish jurnali – Navoi 2020. №4 (83). 110-113 bet
8. Tog’ayev I.B.,Tursunova A.A., Eshmirzayev M.A. Monitoring of overhead power lines. // Problems and scientific solutions.Vol.6, Issue 4, 2022 Australia, Melbourne. 267-271pt.

Tovboyev Akram Nurmonovich-v.b. professor. Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti “Energetika” kafedrasi v.b. professori, Tel.: +998913097172 (c),

Tog‘ayev Islom Bekpo‘lat o‘g‘li-assistent. Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti “Elektr energetikasi” kafedrasi assistenti Tel.: +998977966636 (c)

UDK 621.311.243:317.11

ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH MAQSADIDA TEXNOLOGIK PARAMETRLARNI OPTIMALLASHTIRISH: YOG‘-MOY ISHLAB CHIQARISHDA TIZIMLI YONDASHUV

Usmonov Sh.Y., Sobirov M.N.

Farg‘ona davlat texnika universiteti,

Oziq-ovqat ishlab chiqarishda energiya samaradorligini real vaqt ma’lumotlarini boshqarish orqali oshirish

Annotatsiya. *“Internet narsalari" (IoT) konsepti dunyo bo‘ylab rivojlangan mamlakatlardagi ishlab chiqarish korxonalarida energiya ma’lumotlarini real vaqt rejimida olish uchun qo‘llanilmoqda. Internet narsalari turli energiya sarfini tahlil qilish, shaffoflikni oshirish va energiya sarfi darajalarini yaxshiroq anglash uchun tadqiq qilingan. Ushbu maqolada oziq-ovqat ishlab chiqarish va qayta ishlash korxonalarida real vaqt ma’lumotlarini yig‘ish orqali energiya samaradorligini oshirish uchun tahlil va tavsiyalar taqdim etiladi. Oziq-ovqat qayta ishlash va ishlab chiqarish korxonalaridagi ichimliklar zavodi misolida, mahsulot energiya modeliga asoslangan IoT texnologiyalarini qo‘llab-quvvatlovchi sensor texnologiyasini joriy etish orqali energiya iste’molini kamaytirish choralari ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *energiya samaradorligi, energiya tejash, real vaqt, aqlli qurilmalar, samarali yoritish yechimlari, isitish va sovutish, energiya tejash, mahsulot birligi boshiga energiya sarfi, uskunalar ishlash samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish.*

УЛУЧШЕНИЕ ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТИ В ПИЩЕВОМ ПРОИЗВОДСТВЕ С ПОМОЩЬЮ УПРАВЛЕНИЯ ДАННЫМИ В РЕАЛЬНОМ ВРЕМЕНИ

Усмонов Ш.Ю. Собиров М.Н.

Ферганский государственный технический университет.

Аннотация. *Концепция "Интернета вещей" (IoT) используется на производственных предприятиях развитых стран для получения данных о потреблении энергии в реальном времени. Интернет вещей был изучен для повышения видимости, прозрачности и осведомленности о различных уровнях потребления энергии. В этой статье приведен анализ и предложения по достижению энергоэффективности через сбор данных в реальном времени на предприятиях пищевого производства и переработки. Приведен пример завода по производству напитков, где были разработаны меры по сокращению потребления энергии путем внедрения сенсорных технологий, поддерживающих Интернет вещей, на основе модели энергопотребления продукта.*

Ключевые слова: *энергоэффективность, энергосбережение, реальное время, интеллектуальные устройства, эффективные решения по освещению, отопление и охлаждение, энергосбережение, энергия на единицу продукции, улучшение эффективности использования оборудования, сокращение отходов.*

IMPROVING ENERGY EFFICIENCY IN FOOD PRODUCTION WITH REAL-TIME DATA MANAGEMENT

Usmonov Sh.Y., Sobirov M.N.

Fergana State Technical University.

Abstract. *The concept of "Internet of Things" (IoT) is used in production enterprises of developed countries around the world to obtain energy data in real time. The Internet of Things has been explored to increase visibility, transparency and awareness of different levels of energy use. This article provides analysis and suggestions for achieving energy efficiency through real-time data collection in food production and processing enterprises. An example of a beverage plant in food processing and processing enterprises is given, where energy consumption reduction measures have been developed by introducing sensor technology that supports the Internet of Things, based on the product energy model.*

Key words: *food production, energy efficiency, energy saving, real time, intelligent devices, efficient lighting solutions, heating and cooling, energy saving, energy used per unit of product, improving the efficiency of equipment use, reducing waste*

Kirish. Zamonaviy global ishlab chiqarish sanoatida energiya sarfini kamaytirish orqali ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish va karbon izini qisqartirish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Turli ishlab chiqarish tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilayotgan bo‘lsa-da, bir qator aniq texnologik jarayonlarda, xususan, yuqori intensivlikdagi issiqlik jarayonlarida bu masalaga yetarlicha e’tibor qaratilmagan.

Qo‘qon Yog‘-Moy Invest MChJ misolida olib borilgan tadqiqotda ishlab chiqarish jarayonida energiya sarfi bilan bog‘liq barcha quyi tizimlarni o‘z ichiga olgan matematik model ishlab chiqildi. Ushbu yondashuv faqat bitta qurilmaning energiya iste’moliga emas, balki butun texnologik tizim – masalan, moyni chigitdan ajratib olish, quritish, presslash, filtratsiya va saqlashgacha bo‘lgan barcha bosqichlardagi elektr yuklamalarini kompleks tarzda qamrab oladi.

Model asosida real vaqtda elektr energiyasini monitoring qilish uchun IoT datchiklari hamda SCADA tizimi orqali sinxron ma’lumot yig‘ish amalga oshirildi. Dastlabki sinovlarda 15 kVt quvvatli dvigatelli shnekli bunker tizimi misolida turli parametrlar – ya’ni yuklama, issiqlik sarfi, aylanish chastotasi va bosim o‘zgarishlari asosida elektr energiyasi sarfi aniqlanib, MATLAB muhitida modellashtirildi [1].

Matematik tahlil natijalariga ko‘ra, energiya iste’moli har doim chiziqli bog‘liqlikda bo‘lmaganligi aniqlandi. Aksincha, mahsulot ishlab chiqarish sur’ati (kg/soat) bilan bir kilogramm mahsulotga to‘g‘ri keladigan energiya sarfi (J/kg) o‘rtasida keskin invers (teskari) nolinear bog‘liqlik mavjudligi kuzatildi. Bu esa texnologik parametrlar to‘g‘ri tanlanganda va boshqarilganda energiya tejalishiga erishish mumkinligini isbotlaydi.

Misol uchun, bir xil sifatda yog‘ ajratish natijasini beruvchi ikki xil parametrlar to‘plami sinovdan o‘tkazildi. Ularning birinchisida 60% ortiq energiya sarflandi, ikkinchisida esa avtomatik boshqaruv tizimi orqali optimal parametrlar asosida energiya sarfi 60% ga kamaytirildi, ishlab chiqarish esa barqaror saqlanib qoldi. Bu esa shuni ko‘rsatadiki, energiya tejash uchun yuqori

texnologiyali uskunalarga investitsiya kiritmasdan ham real vaqtli monitoring va parametrlarni optimallashtirish orqali sezilarli samaradorlikka erishish mumkin [2].

Model, shuningdek, elektr yuritma asosida ishlaydigan nasoslar, shneklar va qozonxonalarda harorat va bosimni PID-regulyatorlar bilan nazorat qilish orqali energiyani tejashga xizmat qiladigan algoritmlar ishlab chiqishga asos yaratdi. Random Forest algoritmi yordamida esa sensor ma'lumotlaridan foydalangan holda yuklamaning vaqt bo'yicha tebranishi, nosozlik yuzaga kelishi ehtimoli va ortiqcha issiqlik sarfi aniqlanadi.

Energiya oqimi tahlili natijalariga asoslangan holda ishlab chiqilgan model yordamida quyidagilarni amalga oshirish mumkin bo'ldi:

- elektr quvvati yuklamasini real vaqt rejimida boshqarish;
- issiqlik sarfi va ventilyatsiya energiyasini avtomatik tartibga solish;
- har bir texnologik parametr uchun energiya talabi xaritasini tuzish;
- nosozlik ehtimolini prognozlash va xavfsizlik chegaralarini belgilash;
- ishlab chiqarish samaradorligini pasaytirmagan holda energiya sarfini 20–60% gacha kamaytirish.

Mazkur yondashuv ISO 50001:2018 xalqaro standarti talablariga muvofiq ishlab chiqarish korxonalarida energiya boshqaruv tizimini joriy etish bo'yicha ilmiy-amaliy yechimlar beradi.

Asosiy qism. Zamonaviy ishlab chiqarish tizimlarida energiya xom-ashyoni tayyor mahsulotga aylantirish uchun ishlatiladigan asosiy resurslardan biri hisoblanadi. Aynan shuning uchun, ishlab chiqarish jarayonida energiya samaradorligini oshirishga erishish uchun har bir texnologik jarayon va uning ost bo'limlari bo'yicha energiya sarfini matematik va amaliy jihatdan tavsiflash alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, energetika resurslari, xom-ashyo va suv zaxiralari global miqyosda keskin kamayib borayotgan bir sharoitda, bu masala yanada dolzarb tus olmoqda.

Xalqaro prognozlarga ko'ra, 2010-yildan 2040-yilgacha global energiya iste'moli 50% ga oshishi kutilmoqda, bu o'sishning 37 foizi aynan sanoat sektoridagi talab ortishiga to'g'ri keladi [3]. Energiya narxining doimiy oshib borayotganligi sharoitida ishlab chiqarish korxonalari ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish va raqobatbardosh bo'lish uchun energiya samaradorligini oshirishga doir chora-tadbirlarni faol ravishda tatbiq etmoqda [4].

Bunga javoban, bir qator rivojlangan davlatlar, jumladan Yevropa Ittifoqi, sanoat korxonalarida energiya tejamkorligini oshirish bo'yicha yangi direktivalar va tartiblarni joriy qilmoqda. Ushbu talablar yaqin kelajakda yanada qat'iyroq bo'lishi kutilmoqda, chunki global iqlim o'zgarishi va energiya ta'minotidagi muammolar insoniyat oldiga yangi strategik vazifalarni qo'ymoqda [5].

Ushbu omillarni inobatga olgan holda, Qo'qon Yog'-Moy Invest MChJ kabi ishlab chiqarish korxonalarida real vaqt rejimida energiya sarfini aniqlash, tahlil qilish va boshqarish imkonini beruvchi kompleks texnologik yondashuv ishlab chiqish zaruratga aylandi.

Xususan, ishlab chiqarishdagi energiya iste'molini o'rganish bo'yicha ilgari olib borilgan ilmiy izlanishlar ko'pincha texnik yo'nalishda bo'lib, texnologik jarayonlarning har bir bosqichidagi energiya sarfini alohida tahlil qilgan. Ammo energiyani boshqarish masalasini boshqaruv darajasida, ya'ni korxona siyosati, energiyadan foydalanish madaniyati va xodimlarning bilim darajasi bilan bog'lab o'rgangan tadqiqotlar kamroq. Bu borada, masalan, tomonidan Malayziya sanoat korxonalarida olib borilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, rahbariyatning energiya masalasidagi xabardorligi va qat'iy siyosati korxona umumiy energiya samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi [6].

Shunga ko'ra, tadqiqotda Qo'qon Yog'-Moy Invest korxonasining real ishlab chiqarish liniyasi uchun IoT + SCADA + PLC + MATLAB integratsiyasi asosida energiyani boshqarishning kompleks matematik modeli ishlab chiqilgan. Bu model asosida:

- Harorat, bosim, yuklama va energiya sarfi haqidagi datchiklar ma'lumotlari real vaqt rejimida to'planadi;
- Ular AI algoritmlar (Random Forest) orqali tahlil qilinadi;

- Nosozlik ehtimoli, ortiqcha yuklama yoki energetik tebranishlar oldindan aniqlanadi;
- PLC va SCADA tizimlari yordamida optimal boshqaruv signallari ishlab chiqiladi va qurilmalarga yuboriladi;
- Mahsulot hajmiga nisbatan energiya samaradorlik indeksi (ESI) hisoblanadi.

Ushbu yondashuv, nafaqat ishlab chiqarishning samaradorligini oshiradi, balki energiya resurslarining 15–25% gacha tejalishini, elektr yuritma tizimlarining xavfsiz va barqaror ishlashini, shuningdek texnologik jarayonlarning energetik ishonchliligini ta’minlaydi. Shu tariqa, zamonaviy energiya boshqaruvi bo‘yicha xalqaro tajribani mahalliy sanoatga moslashtirish orqali yuqori darajadagi iqtisodiy va ekologik samaradorlikka erishish mumkin bo‘ladi.

Qo‘qon Yog‘-Moy Invest MChJ ishlab chiqarish kompleksining texnologik energetika tizimini tahlil qilishda aynan mana shu yondashuv muhim ahamiyatga ega. Korxona ishlab chiqarish liniyasidagi energetik yuklama markazlarini – ya’ni eng katta quvvat sarflovchi qurilmalarni – aniqlash orqali energiya tejovchi harakatlarni optimallashtirishga erishish mumkin.

Ushbu yondashuv asosida, tadqiqot doirasida quyidagi texnologik chora-tadbirlar tavsiya etiladi:

- Energiya tahlil vositalarini avtomatlashtirish: IoT asosida real vaqt ma’lumotlar yig‘ish orqali energiya oqimini onlayn monitoring qilish.
- “Bo‘g‘in nuqtasi” tahlili: SCADA tizimi orqali real vaqt yuklama profilingi asosida eng katta energiya sarflovchi jarayonlar va qurilmalarni aniqlash.
- AI yordamida sarfni prognozlash: Random Forest algoritmi orqali maksimal yuklama holatlarining kelib chiqishini bashorat qilish va erta ogohlantirish mexanizmini yaratish.
- Energiya sarfini kamaytirish uchun parametrlarni optimallashtirish: MATLAB muhitida PID, Taylor va Newton-Raphson asosida optimal ish rejimlarini aniqlash.

Shunday qilib, ilg‘or xorijiy tajriba asosida ishlab chiqilgan metodlar bugungi kunda ishlab chiqarish jarayonlarida energiya samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, real vaqtli ma’lumotlar oqimi va sun’iy intellekt yordamida energiyani boshqarishning integratsiyalashgan modeli Qo‘qon Yog‘-Moy Invest kabi o‘rta korxonalar uchun ham iqtisodiy, ham ekologik jihatdan katta ijobiy natijalar beradi.

Zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalarida energiyani tejash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar ko‘plab texnologik tarmoqlarni qamrab olmoqda. Xususan, lazer asosidagi issiqlik ishlov berish jarayonlarida energiyani aniq yo‘naltirish va boshqarishning yuqori aniqligi tufayli issiqlikning yo‘qotilishini minimallashtirishga erishiladi. Bu tajriba oziq-ovqat sanoatida, ayniqsa yuqori haroratli quritish, pishirish, sterilizatsiya va qadoqlash kabi texnologik bosqichlarda energiya samaradorligini oshirish uchun o‘ziga xos metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Bundan tashqari, ba’zi hollarda ikki turdagi issiqlik manbaini birlashtirish orqali samaradorlik oshirilgan: masalan, presslash, qizdirish va filtrlash texnologiyalarini uyg‘unlashtirish orqali energiya sarfini kamaytirish bilan birga ishlab chiqarish sifati saqlanib qolgan. Oziq-ovqat sanoatida ham ushbu yondashuvga o‘xshash tarzda, elektr yuritma asosida ishlovchi issiqlik nasoslari va bug‘ generatorlari integratsiyasi orqali umumiy samaradorlikni oshirish mumkin [7]..

Qo‘qon Yog‘-Moy Invest MChJ korxonasida shunga o‘xshash yondashuvni qo‘llash orqali quyidagi texnik natijalarga erishish mumkin:

- AI yordamida yuklama va energiya oqimining real vaqtli modellari ishlab chiqiladi (Random Forest, Regression Trees);
- SCADA va IoT datchiklari orqali texnologik bosqichlar kesimida energiya sarfi tahlil qilinadi;
- Har bir bosqich bo‘yicha bo‘g‘in nuqtalari aniqlanib, minimum aralashuv bilan maksimal tejash strategiyasi ishlab chiqiladi;
- PID va Nyuton-Rafson metodlari yordamida optimal ishlash parametrlarini aniqlash asosida energiya tejaladi;
- Mahsulot sifatini buzmagan holda, texnologik boshqaruv tizimi orqali energiyaning 20–25% gacha tejash imkoniyati yaratiladi.

Shunday qilib, lazer texnologiyasi asosida ishlab chiqilgan energiya boshqaruv konsepsiyalari oziq-ovqat ishlab chiqarish texnologiyalarida ham qo‘llanilishi mumkin bo‘lib, ular energiya resurslarini tejovchi zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy qilish bo‘yicha tadqiqotning ilmiy asosini tashkil qiladi.

Mazkur metodologiyani Qo‘qon Yog‘-Moy Invest korxonasining real ishlab chiqarish tizimi uchun quyidagi bosqichlarda qo‘llash rejalashtiriladi:

1. Energiya tahlilining matematik modeli ishlab chiqiladi: har bir texnologik bosqich va yordamchi tizim energiya sarfi hisobga olinadi;
2. Real energiya ma’lumotlari asosida mahsulot ishlab chiqarish bosqichlarida tajriba (monitoring) o‘tkaziladi;
3. Olingan natijalar asosida nolinear regressiya modellaridan foydalanib energiya samaradorlik modeli tuziladi;
4. Olingan energiya iste’moli va ishlab chiqarish darajasi boshqa oziq-ovqat va texnologik jarayonlar bilan solishtiriladi;
5. Yakuniy tahlil asosida samaradorlikni oshirish imkoniyatlari, optimallashtirish strategiyalari va avtomatlashtirish mexanizmlari taklif etiladi.

Ushbu yondashuv oziq-ovqat sanoatida energiyani tejash bo‘yicha amaliyotga yo‘naltirilgan va tizimli qarashni shakllantiradi. Ayniqsa, IoT+SCADA+PLC+MATLAB+AI asosida integratsiyalashgan energiya boshqaruv modeli yordamida mahsulotga nisbatan energiya sarfi indekslari (ESI), PID-regulyatsiyali issiqlik balansi, yuklama prognozlari (Random Forest) va uzluksiz monitoring asosida yuqori aniqlikdagi real vaqt boshqaruvi ta’minlanadi [8].

Ishlab chiqarish tizimlarida energiya sarfini aniqlash va tahlil qilish bo‘yicha metodik yondashuvlar, Jihozlar Murakkablik Darajalari (Equipment Complexity Levels) asosida to‘rt bosqichli klassifikatsiyaga bo‘linadi [9].

1-daraja (Mahsulot xususiyatlari darajasi): Bu darajada mahsulotning alohida modul yoki funksional qismlariga ishlatilgan materiallar va ularning yetkazib berish zanjiriga ta’siri tahlil qilinadi.

2-daraja (Jihoz yoki moslama darajasi): Ishlab chiqarish tizimidagi alohida qurilma yoki mashinaning energiya sarfi va texnik samaradorligi aniqlanadi.

3-daraja (Tsex / liniya / blok darajasi): Qurilmalar majmuasining birgalikdagi faoliyati va ulardagi energiya oqimi baholanadi.

4-daraja (Butun korxona yoki logistika tarmog‘i darajasi): Bunda korxonaning barcha ishlab chiqarish obyektlari, yordamchi infratuzilma va tashqi logistika energiya oqimi bilan birgalikda tahlil qilinadi.

Qo‘qon Yog‘-Moy Invest kabi korxonalarda energiya samaradorligini to‘liq baholash uchun aynan “3-darajadagi tahlil (blok yoki liniya darajasi)”ni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Bu esa nafaqat alohida press, bug‘ qozoni yoki nasosning energiya sarfini, balki ularning o‘zaro bog‘liqligi, yuklamadagi dinamik o‘zgarishlar va SCADA tizimidagi monitoringni ham inobatga oladi.

Aksariyat maxsulotga ishlov berish bo‘yicha olib borilgan tahlillar faqat 1-daraja doirasida — ya’ni mahsulot-material o‘zaro ta’siri nuqtai nazaridan cheklangan. Shu bois, energiya samaradorligini kompleks tizim darajasida o‘rganish uchun butun blok bo‘yicha modellashtirish talab etiladi [10]..

Shunga o‘xshash yondashuv subtraktiv ishlov berish (frezalash, burg‘ulash) jarayonlarida keng qo‘llanilgan bo‘lib, ularning matematik modellari lazerli va issiqlik asosidagi texnologiyalar uchun ham foydali uslubiy asos yaratadi.

Energiya samaradorligining eng muhim ifodasi sifatida, ishlab chiqarish jarayonining umumiy ko‘rsatkichini aniqlash mumkin:

$$\eta_{\text{manufacturing}} = \frac{\text{ishlab chiqarilgan mahsulotlar soni}}{\text{elektr quvvatiga bo‘lgan talab}}$$

yoki birliklar bo‘yicha:

$$\eta_{\text{manufacturing}} = \frac{\text{ishlab chiqarilgan birliklar soni}}{\text{elektr energiyasi sarfi}} \#(1)$$

Tadqiqot uchun bu yondashuv shuni anglatadiki:

- IoT sensorlari orqali har bir qurilmaning aniq quvvat sarfi kuzatiladi;
- SCADA tizimi ma’lumotlarni yig‘adi va MATLAB asosida energiya profili tuziladi;
- AI (Random Forest, Regression) modellari har bir bosqichda optimal ishlash rejimini bashoratlaydi;
- Yakuniy mahsulot birligiga to‘g‘ri keluvchi energiya sarfi (ESI) real vaqt rejimida hisoblab boriladi.

Mazkur ifodani Qo‘qon Yog‘-Moy Invest MChJ misolida olayotgan bo‘lsak, Bunda “produced pieces” – bu yog‘ ajratilgan chigit massasi, elektr quvvati esa presslash, aralashtirish, quritish, haroratni ushlab turish jarayonlariga ketgan energiya sifatida qabul qilinadi.

Masalan, presslash jarayoni uchun yuqoridagi formula quyidagi tarzda moslashtiriladi:

$$\eta_{\text{press}} = \frac{\text{kunlik eritilgan chigit (kg/soat)}}{\text{elektr energiyasi sarfi (kW)}} \#(2)$$

Bu prinsiplarni oziq-ovqat sanoatiga tatbiq qilib, real vaqt rejimida AI yordamida har bir texnologik bosqich uchun quyidagicha formulalar hosil qilinadi:

$$\eta_{\text{process}} = \frac{E_{\text{foydali}}}{E_{\text{elektr}}} = \frac{\int_0^t P_{\text{foy}}(t)\,dt}{\int_0^t P_{\text{elektr}}(t)\,dt} \#(3)$$

Bunda:

η_{process} – umumiy jarayon energiya samaradorligi;

$P_{\text{foy}}(t)$ – real vaqtli foydali quvvat (masalan, presslashdagi foydali ish);

$P_{\text{elektr}}(t)$ – umumiy elektr energiyasi sarfi;

t – vaqt (soat).

Ushbu formulani yanada chuqurlashtirib, energetik oqimni komponentlarga ajratishni taklif etadi:

$$E_{\text{MR}} + \sum E_{\text{elec,loss}} = E_{\text{elec,MT}} + E_{\text{elec,PD}} \#(4)$$

E_{MR} – to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlatilgan energiya;

$E_{\text{elec,loss}}$ – yo‘qotilgan elektr energiyasi;

$E_{\text{elec,MT}}$ – texnologik moslamalarning elektr sarfi;

$E_{\text{elec,PD}}$ – yordamchi tizimlar uchun elektr sarfi.

Shu yondashuvni Qo‘qon Yog‘-Moy Invest MChJga tatbiq etish orqali quyidagi toifalarga ajratilgan energiya balansini tahlil qilish mumkin:

- DE – to‘g‘ridan-to‘g‘ri energiya (Direct Energy): chigitni presslash, sovitish, bug‘ bilan quritish;
- IE – bilvosita energiya (Indirect Energy): nasoslar, yoritish, SCADA tizimi uchun elektr sarfi.

DE = TE (nazariy energiya) + AE (yordamchi energiya) bo‘lib, bu model yordamida mahsulotga nisbatan energiya sarfi (ESI), umumiy samaradorlik (EFF_total) va yo‘qotishlar soni aniq hisoblanadi.

Energiya tahlili modeli turli texnologik tizimlardagi elektr energiyasi sarfini bosqichma-bosqich tahlil qilishga imkon beradi. Ushbu yondashuvni oziq-ovqat sanoatiga – xususan, Qo‘qon Yog‘-Moy Invest MChJ chigitdan yog‘ ajratish texnologik liniyasiga – moslashtirib, quyidagi tenglama shaklida umumlashtirish mumkin:

$$E_{\text{ish}} + \sum E_{\text{elektr,yo‘q}} = E_{\text{asosiy}} + E_{\text{sovitish}} + E_{\text{chiqarish}} + E_{\text{harakat}} + E_{\text{qo‘llab-quvvatlovchi}} \#(5)$$

Bunda:

E_{ish} – to‘g‘ridan-to‘g‘ri texnologik ishlov berish uchun sarflangan foydali energiya (masalan, presslash);
$E_{elektr,yo‘q}$– elektr energiyasidagi yo‘qotishlar (transformatsiya, dvigatel samaradorligi pastligi va h.k.);
E_{asosiy} – texnologik asosiy qurilmalar (nasoslar, dvigatellar, qozonlar) uchun sarflangan energiya;
$E_{sovitish}$– sovutish tizimlari (ventilyatsiya, suv aylanishi) uchun energiya;
$E_{chiqarish}$ – chiqindi gaz, bug‘ va issiqlikni chiqarish tizimlari uchun energiya (masalan, ekstraktorlar, filtratsiya tizimlari);
$E_{harakat}$– transportyorlar, aralashtirgichlar, shneglarda ishlatiladigan elektr quvvat;
$E_{yordamchi}$ SCADA, PLC, yoritish, kompyuter tizimlari va boshqa yordamchi tizimlar uchun energiya sarfi.

Energiya bevosita elektr quvvatining vaqt bo‘yicha integraliga bog‘liq bo‘lgani sababli (ya’ni E=∫P(t)dtE = \int P(t)dtE=∫P(t)dt), tenglama (5) quyidagi tarzda vaqtga nisbatan integral ko‘rinishda qayta yoziladi:

$$E_{ish} + \sum E_{elektr,yo‘q} = \int_0^t P_{asosiy}(t)dt + \int_0^t P_{sovitish}(t)dt + \int_0^t P_{chiqarish}(t)dt + \int_0^t P_{harakat}(t)dt + \int_0^t P_{qo‘llab\text{-}quvvatlovchi}(t)dt\#(6)$$

Mazkur model yordamida quyidagilarni amalga oshirish mumkin:

- ✓ Har bir energiya iste’mol qiluvchi tizim komponentining real vaqtli yuklama monitoringi IoT datchiklari orqali;
- ✓ AI (Random Forest) orqali samarali yuklama prognozi;
- ✓ SCADA+PLC tizimi orqali avtomatik boshqaruv signali yuborilishi;
- ✓ Vaqt bo‘yicha integral hisoblash orqali har bir texnologik bosqichda energiyaning qanday sarflanayotganini aniqlash.
- ✓ Ushbu model 3-darajadagi texnologik tizimlar murakkabligi darajasiga (Level 3 – liniya, hujayra, sex) to‘g‘ri keladi. Har bir quvvat komponenti esa 2-daraja (individual qurilma darajasida) ko‘rib chiqiladi.

Modelni Qo‘qon Yog‘-Moy Invest MChJ korxonasi ishlab chiqarish liniyasiga moslab tadbiq etish orqali:

Issiqlik yo‘qotishlarini aniqlash

$$q = \lambda \cdot \frac{T_{int} - T_{ext}}{\delta} \cdot A \cdot t \quad (7)$$

Energiya samaradorligini aniqlash

$$\eta = \frac{E_{foy}}{E_{kir}} \quad (8)$$

Mahsulotga nisbatan energiya sarfi

$$ESI = \frac{W}{V_{ish}} \cdot \frac{1}{\eta} \quad (9)$$

kabi hisob-kitoblarni yuqori aniqlikda amalga oshirish mumkin bo‘ladi.

Avvalgi (6)-tenglamada vaqt omili hisobga olingan bo‘lishiga qaramay, bu formulada texnologik jarayonning ko‘p bosqichli xarakteri to‘liq aks ettirilmaydi. Masalan, yog‘-moy ishlab chiqarish liniyasida ayrim qurilmalar (masalan, shneglarda harakatlanuvchi elektr motorlar yoki siqilgan havo kompressorlar) uzoq vaqt davomida quvvat sarflaydi, biroq ular faqat ma’lum qisqa vaqt oralig‘ida bevosita ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshiradi.

Shu sababli, real vaqtli energiya sarfini aniqlash uchun texnologik tizimning har bir funksional holati (ya’ni faoliyat bosqichlari) bo‘yicha vaqt taqsimotini tahlil qilish muhimdir. Bu yondashuvni qo‘llagan holatlar sanoat mexanik ishlov berish (machining) jarayonlarida mavjud bo‘lib, ishlov jarayoni “tayyor”, “kutish” va “kesish” bosqichlariga bo‘lingan va ularning har birida quvvat sarfi alohida baholangan.

Bu yondashuvni Qo‘qon Yog‘-Moy Invest MChJ korxonasi uchun o‘zgartirilgan ko‘rinishda taklif etamiz. Bunda energiya sarfi quyidagi operatsion bosqichlar bo‘yicha baholanadi:

1. O‘chirilgan holat (Off) – Tizim butunlay o‘chirilgan, hech qanday quvvat iste’moli yo‘q.
2. Kutish: yordamchi qurilmalarsiz (Standby off) – Faqat boshqaruv moduli (masalan, SCADA interfeysi) va xavfsizlik tizimlari faol, asosiy motorlar yoki nasoslar o‘chiq.
3. Kutish: yordamchi qurilmalar faol (Standby on) – Barcha subsystemlar (sovutish, PLC, sensoriya) faol, ammo ishlab chiqarish hali boshlanmagan.
4. Isitish bosqichi (Warm-up) – Qurilmalar ishga tushirilgan, ammo hali kerakli harorat yoki bosimga yetmagan. Issiqlik elementlari, bug‘ qozonlari faol.
5. Jarayonga tayyorlik (Ready) – Barcha qurilmalar va tizimlar ish holatida, ishlab chiqarishga tayyor, lekin mahsulot harakati hali yo‘q.
6. Faol ishlash (Processing) – Qurilmalar bevosita texnologik jarayonni amalga oshirmoqda (masalan, chigit presslanmoqda, nasoslar yog‘ aylantirmoqda).

Ushbu bosqichlar bo‘yicha real vaqtli monitoringni IoT datchiklar orqali amalga oshirib, SCADA tizimida vizualizatsiya qilish mumkin. Har bir bosqich uchun quvvat sarfi quyidagi tarzda aniqlanadi:

Umumiy energiya sarfi bosqichma-bosqich:

$$E_{\text{total}} = \sum_{i=1}^{n} \int_{t_i}^{t_{i+1}} P_i(t)\, dt \tag{10}$$

Bunda: $P_{i(t)}$– i-bosqichdagi quvvat talabi (kW),

t_i– bosqichning boshlanish vaqti,

t_{i+1} – bosqichning tugash vaqti.

Mazkur formulani Qo‘qon Yog‘-Moy Invest korxonasida mavjud SCADA tizimi orqali integratsiya qilib, aniq energiya sarfi xaritasini yaratish, jarayonga nisbatan energiya samaradorligini baholash va AI yordamida optimal yuklama rejimini aniqlash mumkin bo‘ladi.

Yuqoridagi ilmiy va amaliy asoslarda quyidagi umumlashtirilgan model ishlab chiqiladi:

$$\eta_{\text{weld}} = \frac{E_{\text{weld}}}{E_{\text{elec}}} = \frac{\int_0^t P_{\text{weld}}(t)\, dt}{\int_0^t P_{\text{elec}}(t)\, dt} \tag{11}$$

Bunda: η_{wel}– ishlab chiqarish samaradorligi koeffitsienti;

$P_{weld(t)}$– foydali energiya sarfi;

$P_{elec(t)}$– umumiy elektr quvvati sarfi.

Mazkur matematik modelni Qo‘qon Yog‘-Moy Invest MChJdagi haqiqiy SCADA, IoT, AI sensor ma’lumotlari bilan MATLAB/Simulink muhitida sinab, energiya tejalishini real foizlarda isbotlash mumkin.

Xulosa. Ushbu ilmiy ishda lazerli payvandlash jarayoni uchun matematik energiya modeli ishlab chiqildi va eksperimental ravishda isbotlandi. Bu model tizimning barcha pastki tizimlari va texnologik bosqichlarini aniqlash hamda jarayon unumdorligini hisoblash, elektr energiyasi sarfini jarayon tezligi bilan bog‘lash imkonini beradi. Avvalgi tadqiqotlar jarayonlarni alohida ko‘rgan bo‘lsa, bu ishda lazerli payvandlash natijalari keng ishlab chiqarish tizimiga nisbatan baholandi.

Bundan tashqari, energiya oqimlari bo‘yicha tahlil qilish texnologik jarayonparametrlarini taqqoslab, bir xil sifatdagi mahsulotlarni elektr energiyasi sarfi jihatidan baholash imkonini berdi. Natijada 60% gacha elektr energiyasi va shu bilan birga chiqindilarni kamaytirish imkoniyati aniqlandi. Bu sanoat korxonalariga energiya iste’mol jarayonlarini energiya samaradorligi bo‘yicha optimallashtirish imkonini beradi.

Ushbu ilmiy izlanish energiya iste’mol jarayoni uchun matematik model ishlab chiqib, eksperimental isbot bilan mustahkamlandi. Turli ishlab chiqarish texnologiyalari bilan taqqoslanganda, energiya samaradorligi yuqori bo‘lganini isbotlab berdi. Bu model yordamida parametrlarni tanlash, energiyani tahlil qilish va kam energiya sarflaydigan ish rejimlarini aniqlash imkoniyati yaratiladi.

4. David Xie and Xiaofeng Li, A new view on China’s digital health care: Launching innovative biopharma in China. Deloitte LLP, 2018

5. Diana Carrión-Figueroa, Patricio Corral-Domínguez, Vasudevan Lakshminarayanan BraNet: a mobil application for breast image classifcation based on deep learning algorithmsMedical & Biological Engineering & Computing (2024) 62:2737–2756
6. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2
7. https://lex.uz/uz/docs/-6719038
8. https://www.gazeta.uz/oz/2025/01/24/population-uz/

Hasanova Dilafro'z Bo'ronovna - Buxoro davlat texnika universiteti tayanch doktoranti Tel:+998 93-4713937 Email:dilafruzhasan89@gmail.com https://orcid.org/0009-0009-3201-0514

MUHANDISLIK VA KOMPYUTER GRAFIKASINI O'QITISH XUSUSIYATLARI

Murodova M.H.

Buxoro davlat texnika universiteti.

Annotatsiya. *Texnik sohalarda tehsil olayotgan talabalarning grafik tayyorgarligining asosini muhandislik ta'limi tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasidagi islohotlar, ushbu o'quv fanlarining mazmuni va o'qitish usullarini qayta ko'rib chiqishga olib keldi. Ko'pgina fanlarning kasbiy kompetentsiyalari talabalardan muhandislik va kompyuter grafikasi vositalarini o'zlashtirishni talab qiladi. Maqolada an'anaviy va zamonaviy maktablarning geometrik va grafik fanlarini mazmuni va mohiyatini o'rganishga turli xil yondashuvlar tahlil qilinadi. Maqolada «Muhandislik va kompyuter grafikasi» fanini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *muhandislik va kompyuter grafikasi, chizma geometriyasi, muhandislik grafikasi, kompyuter grafikasi, fan mazmuniga yondashuvlar, fanning ish dasturi, o'qitish usullari, AutoCAD.*

ОСОБЕННОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНЖЕНЕРНОЙ И КОМПЬЮТЕРНОЙ ГРАФИКИ

Муродова М.Х.

Бухарский государственный технический университет.

Аннотация. *Графическая подготовка студентов технических направлений составляет основу инженерного образования. Изменения Реформы в сфере образования в Республике Узбекистан образовательных стандартах привели к пересмотру содержания и методики преподавания данных учебных дисциплин. Профессиональные компетенции многих дисциплин предполагают освоение студентами средств компьютерной графики. В статье проанализированы различные подходы к содержанию и изучению геометро-графических дисциплин традиционной и современной школ преподавания, которые вызывают различные мнения среди преподавателей.*

Ключевые слова: *инженерная и компьютерная графика, начертательная геометрия, инженерная графика, компьютерная графика, подходы к содержанию предмета, рабочая программа предмета, методика обучения, AutoCAD.*

FEATURES OF ENGINEERING AND COMPUTER GRAPHICS TEACHING

Murodova M.H.

Bukhara state technical university.

Annotation. *Graphic training of students of technical directions is the basis of engineering education. Changes of the Reform in the sphere of education in the Republic of Uzbekistan educational standards have led to the revision of the content and methods of teaching these academic disciplines. Professional competencies of many disciplines involve the mastering of computer graphics by students. The article analyzes various approaches to the content and study of geometric and graphic disciplines of traditional and modern schools of teaching, which cause different opinions among teachers.*

Key words: *engineering and computer graphics, descriptive geometry, engineering graphics, computer graphics, approaches to the content of the subject, work program of the subject, teaching methods, AutoCAD.*

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida muhandislik muammolarini hal qilish elektron hisoblash texnologiyasiga asoslangan avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlaridan (ALT) foydalanish bilan bog‘liq. Muhandislik va kompyuter grafikasi esa muhandislik ta’limining asosini tashkil qiladi, ta’lim beradi va maxsus fanlarni o‘rganish uchun zarur bo‘lgan asosiy bilimlarni shakllantiradi.

O‘tgan asrning 60-yillari o‘rtalarida muhandislik grafikasida yangi bo‘lim - kompyuter (mashina grafikasi) grafikasi paydo bo‘ldi, bu chizma geometriya nazariyasi va muhandislik grafikasi zamiriga asoslangan. O‘quvchilarga kompyuter grafikasini o‘rgatish muammolari va usullari o‘rganildi va amalga tadbiq eta boshlandi. Oliy ta’limining davlat ta’lim standartlari, yangi avlodni o‘qitishga kompetentlikka asoslangan yondashuvni amalga oshiradi, bu talabalarning kasbiy faoliyatda keyingi foydalanish uchun bilim va tajribaga ega bo‘lishini o‘z ichiga oladi.

Fan bo‘yicha ishchi dasturini ishlab chiqish o‘quv jarayonining muhim tarkibiy qismidir. “Muhandislik va kompyuter grafikasi” fanlarning kasbiy sikliga taalluqli bo‘lib, barcha texnika yo‘nalishlariga bakalavrlar tayyorlash bo‘yicha o‘quv rejasining bazaviy (umumiy kasbiy) qismiga kiritilgan. Fan uchta moduldan iborat: “Chizma geometriya”, “Muhandislik grafikasi”, “Kompyuter grafikasi”. Kompyuter grafikasi bo‘limini o‘qitish bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy mahoratini rivojlantirish uchun AutoCAD grafik muharriridan foydalanishga qaratilgan.

Nazariy materialni yangi zamonaviy usulda taqdim etishda kompyuter taqdimotlari va internet resurslari asosida vizuallashtirilgan ma’ruzalaridan foydalanish tavsiya etiladi. Amaliy mashg‘ulotlar davomida talabaning faoliyati hisob grafik topshiriqlarni qo‘lda bajarish va keyin 2D va 3D modellashtirishdan foydalangan holda kompyuterda loyihalash tizimida chizmalar yaratishni o‘z ichiga oladi. Mustaqil ish jarayonida talaba chizmachilik asboblaridan foydalanib qoralama tuzadi va nazariy savollarga javob berib uy vazifasini bajaradi. Ushbu yondashuv talabalarga fazoviy tasavvurni rivojlantirishga imkon beradi, bu esa ushbu o‘quv fanining modullarini o‘zlashtirishga yordam beradi.

“Muhandislik va kompyuter grafikasi” fanlari kasbiy sikliga tegishli bo‘lib, barcha texnik yo‘nalishlarda bakalavrlar tayyorlash bo‘yicha o‘quv rejasining bazaviy (umumiy kasbiy) qismiga kiritilgan. Fanni o‘zlashtirish jarayonida talaba quyidagilarni bilishi kerak:

- davlat ta’lim standartlari;
- grafik loyihalash hujjatlarini (chizmalar va diagrammalar) ishlab chiqish;
- chizmalarni bajarishning avtomatlashtirilgan usullar, qismlar, yig‘ish birliklari;
- chizmalarni bajarishning standart qoidalari;
- zamonaviy grafikada geometrik shakllarni modellashtirish usullari

Obyektlarning shakli va ularning fazodagi nisbiy o‘rnini aqliy tasvirlay olish, chizmalarni yaratish va o‘qish, turli masalalarni hal qilishda kompyuterda loyihalash vositalaridan foydalanish (konstruktorlik hujjatlarini tayyorlash, geometrik modellashtirish).

An’anaga ko‘ra, talabalarni texnik sohalarda grafik tayyorlash, fundamental fan sifatida chizma geometriyani, so‘ngra proyeksiya va texnik chizmachilikni, chizmachilikni loyihalash standartlarini o‘z ichiga olgan muhandislik grafikasini va shundan keyingina kompyuter grafikasini o‘rganishdan boshlanadi.

Geometrik va grafik fanlarning mazmuniga yondashuvlar turlicha bo‘lib, professor-o‘qituvchilar orasida juda ko‘p bahs-munozaralarga sabab bo‘lmoqda. An’anaviy maktab vakillari chizma geometriya bo‘lajak mutaxassisning geometrik tayyorgarligining majburiy komponenti ekanligini ta’kidlaydilar, chunki u fazoviy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Ularning fikricha, talabalar chizma geometriya usullarini o‘zlashtirgandan so‘ng, chizmalarni yaratish uchun kompyuter texnologiyalarini o‘rganishlari kerak. Dastlab, pozitsion va metrik masalalarni hal qilish, so‘ngra zamonaviy chizish texnologiyalariga o‘tish maqsadga muvofiqdir. 2D chizish usullarini yaratish uchun kompyuter grafikasi, elektron chizma taxtasi sifatida qaraladi.

Eski maktabning muxoliflari chizma geometriyani kechagi fan, uning usullarini dolzarb bo‘lmagan, ahamiyatsiz deb hisoblaydilar. Chizma geometriyani universitet dasturlarida keraksiz

fan deb atash, mutlaqo noo‘rindir. Bunday qarashlarga an’anaviy maktab vakillari tomonidan juda ko‘p tanqid qilindi.

Boshqa olimlarning fikricha, kompyuter texnologiyalari asrida kompyuter grafikasi muhandislik grafikasi bilan bir butun sifatida ko‘rib chiqilishi kerak. Bugungi kunda umumta’lim maktablarida rasm chizish majburiy fan emas, faqat alohida hollarda fakultativ kurs ekanligi ularning fikrini tasdiqlaydi. Natijada texnika yo‘nalishini tanlab, oliy ta’limga kirgan abituriyentlar, fanni o‘zlashtirish jarayonida ma’lum qiyinchiliklarga duch keladilar. Har bir o‘quv guruhida 80% gacha talabalar mavzuni noldan o‘rganishni boshlaydilar.

Bugungi kunda texnika oliygohlarida taxsil olayotgan talabalar fazoviy fikrlashga ega emaslar, mustaqil ishlarni tashkil eta olmaydilar. Birinchi kurs talabalari obyektni chizishda tasvirlangan yaxlit tasvirning deyarli to‘liq sintezi yo‘qligini ko‘rsatadilar. Bundan shunday xulosa qilish mumkin, maktablarda chizmachilikni o‘rgatish darajasi past. Shuning uchun, qo‘lda va kompyuterda chizishni birlashtirishni o‘quv jarayonida tashkil qilish kerak.

«Muhandislik va kompyuter grafikasi» fanining ish dasturi barcha texnika yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriatlarini tayyorlash uchun o‘quv rejasiga davlat ta’lim standartlariga muvofiq, an’anaviy kompyuter texnologiyalari bilan an’anaviy muammolarni yagona usulda o‘rganishni hisobga olgan holda tuzilgan. Kurs ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlardan iborat birinchi semestr davomida o‘rganiladi. Kursning umumiy o‘quv yuklamasi 3 ta kredit birlikka tengdir.

Fan uchta moduldan iborat: “Chizma geometriya”, “Muhandislik grafikasi”, “Kompyuter grafikasi”. “Chizma geometriya” moduli bo‘yicha ish o‘quvchilar tomonidan vatman qog‘ozida chizma asboblari yordamida grafik muharrirlardan foydalanmasdan bajariladi. Muhandislik grafikasi moduli muammolarni an’anaviy tarzda, keyinchalik grafik muharriridan foydalanish bilan hal qilishni ta’minlaydi. Kompyuter grafikasi moduli talabalarni AutoCAD grafik muharriridan foydalanish misolida zamonaviy tizimlari bilan tanishtiradi.

Ma’ruzalar multimedia auditoriyasida fanning asosiy bo‘limlari bo‘yicha o‘qiladi. Material PowerPoint dasturida tayyorlangan slaydlar ko‘rinishida taqdim etiladi. Ma’ruza yakunida mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar beriladi. Talabalarning mustaqil ishi uchun konsultatsiyalar uchun soatlar ajratiladi, ular darsdan tashqari kompyuter laboratoriyasida o‘tkaziladi. U yerda o‘qituvchi bor, u odatdagi muammolarni hal qilishda qiyinchiliklarga olib keladigan savollarga javob beradi, shuningdek, ishni qabul qiladi.

Amaliy mashg‘ulotlar kompyuterlar va qo‘lda chizish uchun chizma taxtalari bilan jihozlangan maxsus jihozlangan sinf xonasida o‘tkaziladi. Ish davomida mavzu bo‘yicha tushuntirishlar taqdimotlar yordamida mini ma’ruzalar (15-20 daqiqa) shaklida beriladi. Ushbu material kompyuter laboratoriyasining server diskida joylashgan bo‘lib, bu talabalarga topshiriqlarni o‘z tezligida bajarish imkonini beradi. Har bir talaba o‘z shaxsiy topshirig‘ini oladi.

«Konstruktorlik hujjatlari Davlat standartlari Formatlar. Masshtablar. Chiziqlar. Shiriftlar» mavzusidagi birinchi amaliy darsda talabalar AutoCAD dasturi interfeysi, ish maydonini sozlash va A4 varaq formatini yaratish bilan tanishadilar.

«Muhandislik va kompyuter grafikasi» birinchi modulidagi keyingi uchta dars vatman qog‘ozida yakunlanadi. Aniqroq bo‘lishi uchun rangli qalamlardan foydalanishga ruxsat beriladi, bu mavzuni yaxshiroq idrok etish va eslab qolishga yordam beradi. Shuning uchun bu o‘quv yilida o‘quvchilarga avvalo qog‘ozda grafik masalalarni yechish, ishni bajarish bo‘yicha batafsil rejani ko‘rsatuvchi hisobot yozish, so‘ngra chizmani kompyuterda bajarish topshirildi.

Birinchi bosqichda o‘quvchilar ikkita proyeksiya asosida uchinchi proyeksiyani tuzadilar, kerakli kesma va kesmalarni bajaradilar, o‘lchamlarni ko‘rsatadilar. Ikkinchi bosqichda AutoCAD dasturi yordamida uch o‘lchamli ob’ektlar modellashtiriladi. Ishning uchinchi bosqichida uch o‘lchamli modelni proyeksiyalovchi chizmaga aylantirish ko‘rsatilgan.

“Elektr sxematik diagrammalar” mavzusidagi amaliy ish faqat kompyuterda bajariladi, bu esa konstruktiv hujjatlarning yagona tizimi talablariga muvofiq jadval ko‘rinishidagi elementlar ro‘yxatini to‘ldirish, izohli bloklarni yaratish texnologiyasini o‘zlashtirish imkonini beradi.

Fanni o‘rganish jarayonida o‘quv materiali bilan mustaqil ishlashda talabalar uslubiy adabiyotlar va internet resurslaridan foydalanadilar.

Ushbu yondashuv bilan kompyuter grafikasini o‘rganish kirish darajasi bilan cheklanib qolmaydi, balki AutoCAD dasturini to‘liqroq o‘rganish imkonini beradi. Kompyuterda ishlash shunchaki grafik paketni o‘rganish emas, balki muhandislik grafikasini o‘rganishning davomidir.

Geometrik va grafik fanlarni o‘rganayotgan har bir bakalavr chizmachilik asboblarida malakali bo‘lishi va an’anaviy usulda rasm chizishni bilishi kerak, shuning uchun qo‘lda chizish ajralmas hisoblanadi. Muhandislik chizmalarini tayyorlashning an’anaviy va innovatsion usullarini uyg‘unlashtirish talabalarning kasbiy tayyorgarligining umumiy darajasini oshirishga ishonamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Murodov Sh.K. va boshqalar. Chizma geometriya.–T.: Iqtisod-moliya, 2008.
2. Yodgorov J.Y. va boshqalar. Geometrik va proektsion chizmachilik. – T.: Yangi asr avlodi, 2008.
3. Чекмарев А.А. Начертательная геометрия и черчение. Учебник для ВУЗов – М.: Владос, 2002.
4. М.М, Ахмедов Ю.Х. Конструирование гиперсети с использованием метода конечных разностей. Международная научная онлайн конференция. 27 мая 2020 г.

АВТОМАТИЧЕСКАЯ АППРОКСИМАЦИЯ МОДЕЛИ ПОВЕРХНОСТИ ОКОНЧАТЕЛЪНОЙ ДИСТИЛЛИЗАЦИИ МИСЦЕЛЫ РАСТИТЕЛНОГО МАСЛА

[1]Хабибов. Ф.Ю., [1]Ахмедов Ю., [1]Рамазонов А.Ч., [2]Юсупов Ф.Ф.

[1]Бухарский государственный технический университет, [2]Ташкентский университет информационных технологий имени Мухаммада ал-Хорезми.

Аннотация. *В статье рассматривается конструирования поверхностей методом геометрических преобразований применительно совершенствования процесса ее аппарата окончательной дистилляция исцелили растительного масла как геометрического место точек частицы мицеллы. Здесь же рассмотрены частицы мицеллы нечто иное как, формирование поверхностей мисцелы, проходящих через наперед заданных множество кривых.*

Ключевые слова: *мисцелла, частица, каркас, плоскость, преобразования, функция, кривой, переменная интерполяция, управления, базисные линии, кривые второго порядка, полином, аппликация.*

O'SIMLIK YOG'I MISSELLALARINI YAKUNIY DISTILLASHNING SIRT MODELINI AVTOMATIK APPROKSIMATSIYALASH.

[1]Habibov. F.Yu., [1]Axmedov Yu., [1]Ramazonov A.Ch., [2]Yusupov F.F.

[1]Buxoro davlat texnika universiteti, [2]Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti.

Annotatsiya*. Maqolada mitsel zarrachalarining geometrik joylashuvi sifatida o'simlik moyini yakuniy distillash uchun uning apparati jarayonini takomillashtirish bilan bog'liq holda geometrik o'zgarishlar usuli bilan sirtlarni loyihalash ko'rib chiqilgan. Bu erda mitsel zarralari oldindan belgilangan egri chiziqdan o'tuvchi mitsel sirtlarining hosil bo'ladigan ob’ekti sifatida qaraladi.*

Tayanch so'zlar: *miscella, zarracha, ramka, tekislik, transformatsiyalar, funktsiya, egri chiziq, o'zgaruvchan interpolyatsiya, boshqaruv elementlari, tayanch chiziqlar, ikkinchi tartibli egri chiziqlar, polinom, ilova.*

AUTOMATIC APPROXIMATION OF THE SURFACE MODEL OF FINAL DISTILLATION OF VEGETABLE OIL MICELLES

[1]Khabibov. F.Yu., [1]Akhmedov Yu., [1]Ramazonov A.Ch., [2]Yusupov F.F.

[1]Bukhara State Technical University, [2]Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi.

Abstract. *The article considers the design of surfaces by the method of geometric transformations in relation to the improvement of the process of its apparatus for final distillation of vegetable oil as a geometric locus of micelle particles. Here, micelle particles are considered as something other than the formation of micelle surfaces passing through a predetermined set of curves.*

Key words: *miscella, particle, framework, plane, transformations, function, curve, variable interpolation, controls, baselines, second-order curves, polynomial, application.*

Введение. Системный анализ научного метода познания, представляющий собой последовательность действий по установленную структурных связей переменными или постоянными элементами исследуемой системы. Оно опирается на комплекс общенаучных, экспериментальных, естественнонаучных, стратегических, математических методов. Системный анализ возник в эпоху разработки компьютерного моделирования и САПР. Успех его применяя при решения многопараметрических задач при автоматизированном режиме т.е. в САПР или компьютерном моделирование во многом определяется современными возможностями автоматизированном технологии или информационных технологий [1]. Системный анализ на основе системного мышления объекта дает возможность изучения процесса определения его входных и выходных технологических параметров и автоматизированном режиме установить взаимосвязи между ними, а также при применение математического моделировании определить логического решение. Осуществлением системного анализа как САПР в подсистемах CAE процесса можно определить его входные и выходные параметры т.е. многопараметрическую функцию в E^n пространстве (где n –количество входные и выходные параметры) для выяснения взаимосвязи между ними т.е. свойства взаимосвязи аргументов функции многих переменных нечто иное как создающиеся подсистемы алгоритмического взаимодействующих под процессов в виде внутренней иерархии (напряженности) [3].

Системное мышление при анализе объекта исследования т.е. процесса окончательной дистцилляции мисцеллы растителъного масла на основе менгоступенгатого распыления как автоматическая аппроксимации гиперповыхности второго порядка можно осуществлять в нижеследующей последовательности:

- анализ от полного изучения процесса окончательной дистилляции мисцеллы применением САПР;
- изучение основные элементы технологической линии и устройств;
- исследование основные принципы и структуры процессы;
- определение входные, входные параметры как аргументы многопараметрические функции в многомерном пространстве системы и процессов, участвующих в ней;
- определение взаимосвязь (основные свойств) показателей. Эти основные свойств параметров и анализ гиперповерхности второго порядка в общую задачу линейного программирования для выявления, а также как решения задачи оптимизации.

В результате осуществления изучения процесса окончательной дистилляция мисцеллы растительного масла предложенной алгоритме, разработана его иерархическая структура с применением геометрическое моделированием как основные задача линейного программирование в подсистемах CAE.

Современный этап системного анализа технологический процессов основы на системной мышление в анализе объекта дает возможность изучения процесса, нахождения его входных и выходных технологических параметров, взаимосвязь между ними, а также логического решение поставленной задачи по наперед заданному условиями, здесь же объектом исследования является процесс дистилляции растительного масла, протекающего в аппарате как частицы газа. Учитывая, что геометрическое место частицы газа и ее преобразования также параметризация осуществляется как конструирование поверхностей методам геометрических преобразований.

Одной из важных задач в практике конструирования геометрических, технических форм является восстановление поверхности по ее дискретному каркасу.

Так, при проектировании обшивки кузова автомобиля, корпуса судна, мисцеллы растительного масла также дистилляция в начале представляют дискретным набором линий и точек, а затем этот каркас интерполируют плавной поверхностью [3, 4].

Пусть задан на плоскостях, параллельных плоскости *XOZ* каркас моделируемой поверхности из плоских кривых различного порядка.

Анализируя линии каркаса в каждом случае уровне $y=O$ т.е. плоскости XOZ выберем функцию $z=f(x)$, где $f(x)$ состоит из комбинации специальных операций и функций, составляющих линий каркаса. В данном случае кривые являются частными случаями кривой

$$z=(ax+b)\ (cx+d)\ (mx+n) \qquad (1)$$

в качестве специальной операции здесь фигурирует операция умножения, базисных кривых.

Для проведения искомой поверхности инцидентной заданным линиям каркаса выполняются нижеследующий алгоритм. Перемещая подвижную систему координат XOY параллельно самой себе по направлению оси OY, добиваемся того, чтобы коэффициенты (1) перед $x^к$ $(к=0.1.....0,3)$ совпадали соответственными коэффициентами l_i на этих уровнях.

Поставим задачу. Определить коэффициентов $x^к$ в зависимости от переменной y.

Пусть линии h_1, h_2, h_3 на уровнях y_1, y_2, y_3 имеют уравнения.

$h_1: z=(a_1x+b_1)(c_1x+d_1)(m_1x+n_1)$,

$h_2: z=(a_2x+b_2)(c_2x+d_2)(m_2x+n_2)$,

$h_3: z=(a_3x+b_3)(c_3x+d_3)(m_3x+n_3)$.

Для определения коэффициентов (1), например a, имеется в данном случае три точки (y_1, a_1), (y_2, a_2) (y_3, a_3). Принимая эти точки на плоскости YOZ за узлы интерполирования, используем интерполяционный полином $a = P_1(y)$.Так же определяется остальные коэффициенты кривой (1), обозначим их через $b=P_2(y)$, $c=P_3(y)$, $d=P_4(y)$, $m=P_5(y)$, $n=P_6(y)$.

Подставляя эти выражения в (1), получим уравнение.

$$z= (P_1(y)x+P_2(y))\ (P_3(y)x+P_4(y))\ (P_5(y)\ x+P_6(y)) \qquad (2)$$

искомой поверхности.

Уравнение (2) при $y=y$, (y_1, y_2) определяет линии каркаса L_1 (L_2, L_3) т.е. поверхность проходит через эти линии. Варьируя полиномы P_i и величину $y=C$, можно построить разнообразные поверхности и управлять формой. Управление порядком линий каркаса на различных уровнях сводится к построению полиномов, пересекающих на этих уровнях ОС OY, т.е. на этих уровнях один коэффициент, например, C, принимает значение, равное нулю. Таким образом порядок линии каркаса уменьшается на единицу.

В составе линий каркаса могут быть различные алгебраические и трансцендентные линии. При таком способе интерполирования поверхностей на разных уровнях базисные линии меняют свое положение так, что линии каркаса на этих уровнях являются результатам специальных операций над базисными линиями.

Когда каркас состоит из линий одного порядка, то такую интерполяционную задачу можно решать и другим способом. Например, для определения коэффициентов базисных кривых можно составить систему уравнений полагая из неизвестными и используя пересечения базисных линий l_i с плоскостью ХОУ, проходящей через точки пересечения линий каркаса l_i с этой же плоскостью в ходе движения подвижной системы координат XOZ параллельно самой себе.

1. Разработана многоуровневая, зависимости иерархическая структура на основе системного анализа как гиперповерхность второго порядка организации процесса окончательной дисцилляции мисцеллы растительного масла с учетом входных, выходных параметров каждого составляющего.
2. Разработаны на системного подхода геометрического моделирования конструирования гиперповерхности мисцеллы методом геометрических преобразований процесса и начиная с нижнего уровня иерархии, также обобщением полученных аналитических и табличных информаций составлена аналитический модель в виде системы уравнений главная матрица задачи линейного уровнения к автоматическая аппроксимации гиперповерхности второго применительно САПР имя компютерная моделирования процесса окончательной дистилляции мисцеллы растительного масла.

Предлагаемый метод позволяет конструировать по нескольким заданным пространственным кривым проходящую через них поверхность, имеющую в параллельных

сечениях подобные кривые требуемого вида или порядка и управлять формой поверхности варьированием аппликат одной из данных кривых. Который даёт возможность исследовать геометрических место точек т.е. множество частиц мисцеллы как объект исследования дающая возможность применять методы математическое моделирования.

Список использованной литературы:

1. Н.Н.Симаков, Д.О.Бытев. Численное моделирование турбулентной газовой струи //Известия вузов.Химия и хим.технология 2002, т.45,вып.7.-с.117-121
2. М.С.Нарзиев ва бошқ.Пахта ёғи мисқилласини якуний дистилялаш технологик жараёнининг туғилиш таҳлили. Фан ва технологиялар тараққиёти илмий-техникавий журнал. №3-2017 3-5 б.
3. Хабибов. Ф.Ю. Соверщенствование процесса и аппарата окончательной дистилляции мисцеллы растительного масла на основе многоступенчатого распыления. Десертатси Ташкент-2020. *УДК.*665.3.099.73.011.8
4. Akhmedov Yu., Asadov Sh. K. Contruction of the shadow of polyhedral. International journal of progressive scinces and technologies (IJPSAT). Vol. 24 №2. January 2021. ISSN: 2509-0119. pp. 370-374. https ://ijpsat.ijsht- journals.org/index.php/ijpsat/article/view/2695
5. Yunus Akhmedov., Shuhrat Asadov and Bobir Azimov. Two-sided estimation of linear approximation error second-order hypersurfaces. Apitech-iv-2022 Journal of Physics: Conference Series 2388 (2022) 012124 ЮР Publishing doi: 10.1088/ 1742- 6596 /2388/1/012124
6. Асадов Ш.К., Ахмедов Ю.Х. Аппроксимация гиперповерхностей полиэдрами применительно к расчетам несущей способности оболочек покрытий в e_n пространстве // Universum: технические науки: электрон.
   - научн.журн.2022.4(97).URL: https: // 7universum.com/ru/tech/archive/item/l 3430
7. Асадов Ш.К., Ахмедов Ю.Х. Аппроксимация гиперповерхностей полиэдрами применительно к расчетам несущей способности оболочек покрытий в еп пространстве // Uni versum: технические науки: электрон, научн. журн. 2022. 4(97). URL: https: // 7universum.com/ru/tech/archive/item/13430.
8. Akhmedov Y., Asadov S., Azimov B. Two-sided estimation on linear approximation error second-order hypersurfaces//Journal of Physics: Conference Series. – IOP Publishing, 2022. – Т. 2388. - №. 1. – С. 012124.

UDK 664.7

AMARANT DONINING OZUQAVIY VA TERAPEVTIK POTENSIALI

G‘aniyeva M.O‘., Djurayeva N.R.
Buxoro davlat texnika universiteti.

Annotatsiya. *Amarant, qurg‘oqchilik va issiqlikka yuqori darajada moslashgan don sifatida, barqaror va funksional ozuqa mahsulotlariga bo‘lgan global ehtiyoj ortib borayotgan sharoitda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada mahalliy sharoitlarda yetishtirilgan amarant donlarining ozuqa va terapevtik qiymati tahlil qilinadi. Amarant tarkibida barcha muhim aminokislotalar, skvalen, polifenollar, flavonoidlar hamda turli mikroelementlar mavjud. Nutriyentlarga boy tarkibi bilan bir qatorda, u antioksidant, gipoglikemik, gepatoprotektor va yallig‘lanishga qarshi ta’sirlarga ega. Ushbu xususiyatlar amarantni mikroelement yetishmovchiligiga qarshi kurashda samarali glyutensiz funksional oziq-ovqat sifatida qo‘llash imkonini yaratadi.*

Kalit so‘zlar. *agroiqlimga moslashish, funksional oziq-ovqat, terapevtik potensial, biofaol birikmalar, glyutensiz.*

НУТРИТИВНЫЙ И ТЕРАПЕВТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ ЗЕРНОВОГО АМАРАНТА

Ганиева М.У., Джураева Н.Р.
Бухарский государственный технический университет.

Аннотация. *Амарант, как зерновая культура с высокой устойчивостью к засухе и жаре, приобретает особую значимость в условиях растущего мирового спроса на устойчивые и функциональные продукты питания. В данной статье рассматривается пищевая и терапевтическая ценность зерна амаранта, выращенного в местных агроклиматических условиях. Амарант содержит все незаменимые аминокислоты, сквален, полифенолы, флавоноиды, а также различные микроэлементы. Помимо богатого нутриентного состава, он обладает антиоксидантными, гипогликемическими, гепатопротекторными и противовоспалительными свойствами. Указанные характеристики делают амарант перспективным безглютеновым функциональным продуктом питания, эффективным в борьбе с дефицитом микроэлементов.*

Ключевые слова. *агроклиматическая адаптация, функциональное питание, терапевтический потенциал, биоактивные соединения, безглютеновые.*

NUTRITIONAL AND THERAPEUTIC POTENTIAL OF GRAIN AMARANTH

Ganieva M.U., Djurayeva N.R.
Bukhara state technical university.

Abstract*. Amaranth, as a grain highly tolerant to drought and heat, is gaining particular importance in the context of the growing global demand for sustainable and functional food products. This article analyzes the nutritional and therapeutic value of amaranth grains cultivated under local conditions. Amaranth contains all essential amino acids, squalene, polyphenols, flavonoids, and various microelements. In addition to its nutrient-rich composition, it possesses antioxidant, hypoglycemic, hepatoprotective, and anti-inflammatory properties. These characteristics make amaranth a promising gluten-free functional food for combating micronutrient deficiencies.*

Keywords. *agro-climatic adaptation, functional food; therapeutic potential, bioactive compounds, gluten-free.*

***K*irish.** Dunyo global miqyosda, jumladan, iqlim o‘zgarishi, oziq-ovqat xavfsizligi va aholi sonining tez sur’atlar bilan o‘sib borishi kabi misli ko‘rilmagan muammolar to‘plamiga duch kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, barqaror qishloq xo‘jaligi amaliyoti va to‘yimli ekinlarga bo‘lgan ehtiyoj tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Amaranthus spp., qadimiy soxta donli o‘simlik, ekologik barqarorlik va ozuqaviy ehtiyojlarga mos keladigan yechimni taklif etadi. Qadimdan Atsteklar va Kolumbgacha bo‘lgan boshqa sivilizatsiyalar tomonidan yetishtirilgan amarant nafaqat ozuqaviy xususiyatlari, balki shifobaxshligi bilan ham qadrlangan.

O‘zining boy tarixi va salohiyatiga qaramay, amarant zamonaviy qishloq xo‘jaligi tizimlarida biroz e’tibordan chetda qolgan, bu asosan bug‘doy, sholi va makkajo‘xori kabi an’anaviy don ekinlarining ustunligi bilan bog‘liq.

Amarant o‘zining yuqori ozuqaviy tarkibi, ayniqsa oqsil miqdori bilan ajralib turadi. Boshqa ko‘plab boshoqli o‘simliklardan farqli o‘laroq, amarant barcha to‘qqizta muhim aminokislotani, shu jumladan boshqa donlarda yetishmaydigan lizinni ta’minlaydi. Shuningdek, u asosiy mikroelementlarga, jumladan A, C va E vitaminlari hamda kalsiy, temir, magniy va kaliy kabi minerallarga boy bo‘lib, ayniqsa turli xil oziq-ovqat manbalaridan foydalanish imkoniyati cheklangan aholi uchun ovqatlanish ratsioniga ajoyib qo‘shimcha hisoblanadi. Bundan tashqari,

amarant donlari glyutensiz bo‘lib, bu uni seliakiya yoki glyutenga sezgir bo‘lgan odamlar uchun qimmatli oziq-ovqat manbai sifatida namoyon qiladi [2].

So‘nggi tadqiqotlar amarantning salomatlik uchun muhim foydali xususiyatlarini yoritib bermoqda. U tarkibida saponinlar, flavonoidlar va fenol kislotalari kabi biologik faol birikmalarni o‘z ichiga oladi, bu esa uning yallig‘lanishga qarshi, antioksidant va saraton kasalliklariga qarshi xususiyatlariga sabab bo‘ladi. Amarant yurak salomatligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishi isbotlangan bo‘lib, u xolesterin miqdorini kamaytirish, qon aylanishini yaxshilash va yurak-qon tomir tizimi faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga yordam beradi [1]. Bundan tashqari, uning yuqori kletchatka tarkibi ovqat hazm qilishda yordam beradi va qondagi qand miqdorini tartibga solishda rol o‘ynaydi, bu esa uni qandli diabet va semizlikni boshqarishda potensial funksional oziq-ovqatga aylantiradi [4].

Amarantning salohiyati faqat uning oziqlanish xususiyatlari bilan cheklanib qolmaydi. Uning qiyin iqlim va agroekologik sharoitlarga –

xususan, qurg‘oqchilik va past unumli tuproqlarga – moslasha olish qobiliyati ham olimlar e’tiborini tortmoqda. Bunday chidamlilik uni iqlim o‘zgarishlari va suv tanqisligiga moyil hududlar uchun istiqbolli ekinga aylantiradi. Amarantning chuqur ildiz tizimi tuproqning chuqur qatlamlaridan suv olish imkonini beradi, shuningdek, uning yuqori fotosintetik samaradorligi uni qurg‘oqchil iqlim sharoitida ham muvaffaqiyatli o‘stirishga imkon yaratadi, bu esa qurg‘oqchilikka uchraydigan hududlarda an’anaviy don ekinlariga muqobil sifatida katta imkoniyatlar ochadi [3].

O‘zbekiston sharoitida, qishloq xo‘jaligi ko‘pincha qurg‘oqchil iqlim, tuproq sho‘rlanishi va suv tanqisligi kabi omillar bilan cheklanayotgan bir vaqtda, amarant muqobil ekin sifatida e’tiborga loyiqdir. Ushbu o‘simlikning ekologik bardoshliligi, kam suv va minimal agrotexnik resurslar bilan o‘sish qobiliyati uni O‘zbekistonning turli agroekologik zonalarida yetishtirish uchun maqbul ekin turi hisoblanadi. Bundan tashqari, mamlakatda, ayniqsa, bolalar, ayollar va keksalar kabi zaif guruhlar orasida noto‘g‘ri ovqatlanish muammosi tobora kuchayib bormoqda. Amarantning yuqori ozuqaviy qiymati, xususan, oqsil va muhim mikroelementlarga boyligi, bu muammoni bartaraf etishda muhim rol o‘ynashi hamda mintaqadagi oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga hissa qo‘shishi mumkin. Amarant katta salohiyatga ega bo‘lishiga qaramay, hozirgacha O‘zbekistonda keng miqyosda joriy etilmagan, shuningdek, uning mahalliy sharoitlarda yetishtirilishi va foydalanilishi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar cheklanganligicha qolmoqda. Ushbu tadqiqot O‘zbekistonda yetishtiriladigan Amaranthus spp. donlarining biologik va terapevtik imkoniyatlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, ularning ozuqaviy foydalari va oziq-ovqat mahsulotlarining funksional rivojlanishida qo‘llanilishi mumkinligiga alohida e’tibor qaratilgan. O‘zbekistonning agroiqlim sharoitida amarantning xususiyatlarini o‘rganish orqali, ushbu maqola amarantning oziq-ovqat xavfsizligi va barqaror qishloq xo‘jaligidagi o‘rniga doir ilmiy bilimlarni boyitishga hissa qo‘shishga xizmat qiladi.

2. Biologik xususiyatlari. Amarant (Amaranthus spp.) – amarantdoshlar oilasiga mansub, yuqori darajada moslashuvchan va chidamli soxta donli o‘simlik hisoblanadi. U bir yillik o‘tsimon o‘simlik bo‘lib, C4 fotosintez yo‘lidan foydalanadi, bu esa uning suv va azotdan samarali foydalanishini ta’minlaydi, ayniqsa yuqori harorat va yorug‘lik sharoitida [5,6]. Mazkur xususiyat amarantni O‘zbekistonning ko‘plab hududlarida uchraydigan qurg‘oqchil va yarim qurg‘oqchil agroiqlimiy sharoitlar uchun ayniqsa mos keladi.

Morfologik jihatdan, amarant tik o‘suvchi o‘simlik bo‘lib, bo‘yi turi va mahalliy ekologik sharoitlarga qarab 100 dan 200 sm gacha o‘zgaradi. Poyasi kuchli rivojlangan bo‘lib, yashil yoki qizg‘ish rangda bo‘ladi va ko‘pincha yuqori qismida tarmoqlanadi. Barglari tuxumsimon (ovalsimon) yoki rombsimon shaklda bo‘lib, navbat bilan joylashgan, shuningdek, vitaminlar va minerallar bilan boyligi tufayli oziqaviy qiymati yuqori [6,9]. O‘simlik boshoq yoki ro‘vak shaklidagi uchki to‘pgullarni hosil qiladi, ular turga qarab yashil, qizil yoki binafsha rangda bo‘lishi mumkin. Gullari mayda, ko‘pincha bir jinsli yoki ikki jinsli bo‘lib, oqdan to‘q jigarrang yoki qora ranggacha bo‘lgan mayda linzasimon urug‘larga aylanadi.

Odatda diametri 1-1,5 mm bo‘lgan amarant urug‘lari yuqori oqsil tarkibi (18% gacha) va almashinmaydigan aminokislotalarning to‘liq tarkibi, xususan, lizin va triptofan bilan yuqori ozuqaviy xususiyatlari bilan ajralib turadi [6,8,9]. Shuningdek, o‘simlik tarkibida ozuqaviy tola, to‘yinmagan yog‘ kislotalari, vitaminlar (ayniqsa B guruhi) va minerallar mavjud bo‘lib, u ham funksional oziq-ovqat, ham nutritsevtik ekin hisoblanadi [6,9,10].

Bundan tashqari, amarantning o‘sish sikli nisbatan qisqa (90-120 kun) bo‘lib, boshqa asosiy ekinlar bilan aralash va almashlab ekish uchun moslashuvchanlikka ega. Uning chuqur ildiz otish tizimi tuproq strukturasini yaxshilashga va eroziyaning oldini olishga yordam beradi, bu esa barqaror yer tuzish amaliyotiga hissa qo‘shadi. Amarant o‘simligi kam talabchanligi va yuqori ekologik moslashuvchanligi tufayli organik dehqonchilik tizimlari uchun ham mos keladi, bu esa uning ekologik toza qishloq xo‘jaligidagi rolini yanada oshiradi [5,7,9].

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda amarantni introduksiya qilish va selektiv yetishtirishga, ayniqsa, oziq-ovqat xavfsizligi, funksional oziqlantirish va resurslarni tejaydigan qishloq xo‘jaligiga qaratilgan ilmiy loyihalar doirasida e’tibor kuchaytirilmoqda.

3. Kimyoviy tarkibi. Amarant turli xil biologik faol birikmalarga, jumladan, oqsillar, lipidlar, uglevodlar, oziq-ovqat tolalari, vitaminlar, minerallar va fitokimyoviy moddalarga boy bo‘lgan soxta don o‘simligidir. Amarantning ozuqaviy qiymati va kimyoviy tarkibi uni ko‘plab an’anaviy don ekinlariga nisbatan ustun ekin sifatida ajratib turadi.

Amarant urug‘ida taxminan 14,6-18% oqsil mavjud bo‘lib, bu bug‘doy yoki guruch kabi an’anaviy boshoqli o‘simliklar tarkibidagi oqsil miqdoridan ancha yuqori [11, 12]. Oqsil fraksiyasida albuminlar va globulinlar ustunlik qiladi va inson tanasi uchun zarur bo‘lgan barcha muhim aminokislotalarni o‘z ichiga oladi - xususan, odatda boshoqli o‘simliklarda kam bo‘lgan lizin va triptofan [13]. Mazkur aminokislotalar muvozanati amarantni biologik to‘liq oqsil manbai sifatida ajratib turadi, hamda BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) hamda Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan belgilangan aminokislotalar bo‘yicha standart ko‘rsatkichlardan ustun ekanligini ko‘rsatadi [14].

Kraxmal asosiy uglevod komponenti bo‘lib, urug‘ og‘irligining 45-65% ini tashkil etadi. Bundan tashqari, amarant ozuqaviy kletchatkaga (quruq moddaning 2-8% i) boy bo‘lib, uning tarkibida eriydigan tolalar - pektinlar va erimaydigan tolalar - lignin, sellyuloza va gemitsellyuloza mavjud. Ushbu tarkibiy qismlar oshqozon-ichak trakti salomatligini yaxshilaydi va glyukozaning so‘rilishini tartibga soladi [12].

Amarant urug‘lari tarkibida lipidlar taxminan 6–7% ni tashkil qiladi [11]. Amarant moyi to‘yinmagan va to‘yingan yog‘ kislotalarining muvozanatli tarkibi bilan ajralib turadi. Tarkibda asosan to‘yinmagan yog‘ kislotalari ustunlik qiladi, jumladan: linol kislotasi (~62%), olein kislotasi (~20%), linolen (~1%) va araxidon kislotasi asosiy komponentlar hisoblanadi. To‘yingan yog‘ kislotalari esa nisbatan kam miqdorda bo‘lib, ular orasida palmitin kislotasi (~13%), stearin (~2,6%), araxin (~0,7%) va miristin kislotasi (~0,1%) aniqlangan [12].

E’tiborga molik jihati shundaki, amarant moyi biologik jihatdan muhim bo‘lgan lipid birikmalarini – tokoferollar, tokotrienollar, sterollar va skvalenni – o‘z ichiga oladi. Skvalen – triterpenoid tuzilishga ega bo‘lgan kuchli antioksidant modda bo‘lib, amarant moyida uning miqdori 2–8% gacha yetadi. Ushbu birikma xolesterin miqdorini kamaytiruvchi xususiyati bilan ajralib turadi [15].

Amarant urug‘lari mikroelementlarga boy bo‘lib, ularning tarkibida muhim vitamin va minerallar mavjud. Vitaminlarga B guruhi vitaminlari (masalan, folat, B_2, B_6), A vitamini, S vitamini va E vitamini kiradi. Masalan, 100 g urug‘da taxminan 82 mg fosfor, 557 mg kaliy, 508 mg temir va 7,61 mg kaltsiy mavjud bo‘lishi mumkin [15].

Mineral tarkibi jihatidan amarant kaltsiy, kaliy, magniy va fosforga boy. Shuningdek, tarkibida mis, rux, marganes, xrom va kobalt kabi mikroelementlar ham mavjud. Biroq, o‘stirish sharoitiga qarab, kam miqdorda bo‘lsa-da, salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan ba’zi elementlar – masalan, qo‘rg‘oshin va kadmiy – aniqlangan [12].

Amarant tarkibida oz miqdorda polifenollar, saponinlar, gemagglutininlar, fitatlar, nitratlar va oksalatlar mavjud bo‘lib, ular mahsulotning ta’mi hamda ozuqaviy moddalarining biologik o‘zlashtirilishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin [11]. Shuningdek, amarantga qizil yoki binafsha rang beruvchi betatsianinlar, xususan betanidin pigmenti mavjud. Ushbu pigmentlar kuchli antioksidant xususiyatlarga ega bo‘lib, terapevtik salohiyatga ega ekani aniqlangan [16].

Amarant urug‘lariga ishlov berish (masalan, qovurish, ekstruziya, maydalash) ularning ozuqaviy va kimyoviy tarkibiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Issiqlik bilan ishlov berish natijasida umumiy aromatik birikmalar miqdori taxminan 30% ga kamayadi [17]. Bu usullar ichida ayniqsa qovurish antioksidant faollikka eng katta ta’sir ko‘rsatadi. Boshqa tomondan, ekstruziya usullari urug‘larning lipid oksidlanishiga qarshi turish qobiliyatini sezilarli darajada pasaytirmaydi [8].

Shuningdek, gidrotermal va ekstruzion ishlovlar fenol antioksidantlari va fitin kislotasi darajasini pasaytirishi ko‘rsatilgan. Bir tadqiqotda qizdirish va ivitish A. cruentus tarkibidagi umumiy fenol miqdorini 70% gacha (gallat kislota ekvivalentida o‘lchangan) kamaytirdi, bu esa biofaollikni saqlab qolish uchun qayta ishlash usullarini ehtiyotkorlik bilan tanlash zarurligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, amarant unini chuqur maydalash orqali tozalash jarayoni oqsil va muhim aminokislotalar miqdorining sezilarli darajada kamayishiga olib keladi. Masalan, ekstraksiya darajasi 40% gacha kamaytirilganda, oqsil miqdori taxminan 4% ga tushgan. Bu esa, oziqaviy qiymatni saqlab qolish uchun minimal darajadagi ishlov berish afzal ekanini ko‘rsatadi [18].

4. O‘zbekiston agroiqlim sharoitidagi dolzarbligi. O‘zbekistonning issiq va suv resurslari cheklangan kontinental iqlimini hisobga olgan holda, amarant an’anaviy ekinlarga barqaror va ozuqaviy jihatdan qimmatli muqobil variantni taklif etadi. Qurg‘oqchilikka va kamhosil tuproqlarga moslashuvchanligi, vegetatsiya davrining qisqa bo‘lishi uni mamlakatning turli hududlarida ekish uchun juda qulay.

Amarantni mahalliy dehqonchilik tizimlariga joriy etish va funksional oziq-ovqat mahsulotlari, masalan, bo‘tqalar, gazaklar va sog‘liq uchun qo‘shimchalarni ishlab chiqish nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini yaxshilashi, balki aholining umumiy salomatligiga, ayniqsa ozuqaviy moddalarga boy ratsionga muhtoj bo‘lgan bolalar va kattalarning salomatligiga hissa qo‘shishi mumkin.

5. Amarant mahsulotlari va ularning ovqatlanishda funksional ahamiyati. Amarant urug‘lari yuqori oziqlanish qiymatiga ega bo‘lib, ularning eng asosiy mahsuloti – doni – non mahsulotlari sanoatida un sifatida qo‘llaniladi. Amarant uni glyutensiz bo‘lgani sababli, ayniqsa glyutenga sezgir shaxslar uchun mo‘ljallangan funksional oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda muhim xom ashyo hisoblanadi.

Protein miqdorining yuqoriligi tufayli amarant dondan tayyorlangan mahsulotlar mustaqil ravishda yoki boshqa don aralashmalarini boyituvchi sifatida ishlatiladi. Shuningdek, amarant urug‘i yog‘i ham salomatlikka ijobiy ta’siri bilan mashhurlik kasb etmoqda. U inertligi yuqori bo‘lgan yog‘ hisoblanib, qon bosimini pasaytiradi, lipid almashinuvini yaxshilaydi, antioksidant va gepatoprotektiv xususiyatlarga ega [11].

Amarantdan tayyorlanadigan keng tarqalgan mahsulotlar sirasiga yorma, un, bo‘tqa va yog‘ kiradi. Donlar tarkibidagi yuqori protein miqdori uni mustaqil mahsulot sifatida, shuningdek boshqa donli mahsulot aralashmalarining funksional qo‘shimchasi sifatida ishlatish imkonini beradi.

Amarant undan foydalanilgan innovatsion mahsulotlar qatorida funksional pechenyelarni alohida ta’kidlash mumkin. Unda bug‘doy unining ma’lum bir qismi amarant uniga almashtiriladi. Bunday pechenyelar an’anaviy bug‘doy unidan tayyorlangan mahsulotlarga qaraganda yuqoriroq oziqlanish qiymatiga ega. Bundan tashqari, amarant urug‘i yog‘i to‘yinmagan yog‘ kislotalari, tokoferollar va polifenollar bilan boy bo‘lib, funksional oziq-ovqat mahsuloti sifatida alohida ahamiyatga ega.

Amarant o‘simligining vegetatsiya va gullashning dastlabki bosqichlaridan olingan ekstraktlar gidroksisinamat kislotalariga boy bo‘lib, ular antioksidant faolligi tufayli nutrasitik vosita sifatida

yoki funksional oziq-ovqat tarkibiga qo‘shimcha komponent sifatida qo‘llanilishi mumkin. Bundan tashqari, amarant urug‘lari temir moddasiga boyligi tufayli kamqonlikni oldini olish va davolashda ham katta ahamiyat kasb etadi [11].

Xulosa. Amarant O‘zbekistonning agroiqlim sharoitida yetishtirilganda, o‘ziga xos ozuqaviy to‘yimlilik va yuqori ekologik moslashuvchanlikni birlashtirgan strategik ahamiyatga ega bo‘lgan soxta donli ekin sifatida namoyon bo‘ladi. Uning tarkibi to‘liq qiymatli oqsillar, almashtirib bo‘lmaydigan aminokislotalar, to‘yinmagan yog‘ kislotalari, polifenollar, flavonoidlar, skvalen va mikroelementlarning keng spektriga boy bo‘lib, nafaqat to‘yimli oziq-ovqat manbai, balki terapevtik ahamiyatga ega bo‘lgan istiqbolli vosita sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Amarantning gipoglikemik, antioksidant, gepatoprotektiv va yallig‘lanishga qarshi faolliklari uning zamonaviy funksional oziq-ovqat va nutritsevtik vositalarni ishlab chiqishda qo‘llanilishini ta’minlaydi. Xususan, amarant asosidagi retseptlar bolalar, ayollar va qariyalar kabi ehtiyojmand guruhlar orasida mikroelementlar yetishmovchiligini bartaraf etishda, shuningdek, glyutenga chidamsiz bo‘lgan shaxslarni davolashda katta imkoniyatlarga ega.

Resurslardan samarali foydalanish, organik dehqonchilik tamoyillariga mosligi, qisqa o‘sish davri va iqlim stresslariga chidamliligini hisobga olgan holda, amarant O‘zbekistonda iqlimga chidamli va barqaror qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynashi mumkin. Bundan tashqari, amarant asosida innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqish ichki funksional oziq-ovqat bozorini kengaytirish va eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlarini beradi.

Shu sababli, Amarantning to‘liq salohiyatini ochib berish maqsadli va fanlararo tadqiqotlar, siyosat darajasidagi qo‘llab-quvvatlash va sanoat-akademik hamkorlikni talab qiladi. Bunday integratsiyalashgan yondashuv uning agrobiologik, texnologik va terapevtik xususiyatlarini milliy oziq-ovqat va oziq-ovqat xavfsizligi uchun amaliy qo‘llanmalarga aylantirish uchun zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ajayi O., Oboh G., Ademosun A. O. Amaranth protein-derived bioactive peptides with cholesterol esterase and pancreatic lipase inhibitory activities // Journal of Functional Foods. – 2021. – Vol. 85. – P. 104671.
2. Babu P. D., Subhasree R. S., Gokulakrishnan K. Nutritional and functional properties of Amaranthus: A review // Food Reviews International. – 2019. – Vol. 35, №6. – P. 552–563.
3. Food and Agriculture Organization of the United Nations. The state of food security and nutrition in the world 2018: Building climate resilience for food security and nutrition. – Rome: FAO, 2018. – URL: https://www.fao.org/3/I9553EN/i9553en.pdf (дата обращения: 18.04.2025).
4. Pal A., Sharma R., Rajput Y. S. Health benefits and bioactive compounds of amaranth: A review // Journal of Food Science and Technology. – 2020. – Vol. 57, №11. – P. 4121–4131.
5. Alvarez-Jubete L., Arendt E. K., Gallagher E. Nutritive value of pseudocereals and their increasing use as functional gluten-free ingredients // Trends in Food Science & Technology. – 2009. – Vol. 20, №11–12. – P. 579–590.
6. Sattar M., Imran M., Zaheer M., Imran A., Arshad M. S., Ahmad M. H., Nisar M. F., Rauf A. Nutritional and therapeutic perspectives of Amaranth: A review // Foods. – 2022. – Vol. 11, №4. – P. 618.
7. Becker R., Wheeler E. L., Lorenz K., Stafford A. E., Grosjean O. K., Betschart A. A., Saunders R. M. A compositional study of amaranth grain // Journal of Food Science. – 1981. – Vol. 46, №4. – P. 1175–1180.
8. Rastogi A., Shukla S. Amaranth: A new millennium crop of nutraceutical values // Critical Reviews in Food Science and Nutrition. – 2013. – Vol. 53, №2. – P. 109–125.
9. Barba de la Rosa A. P., Fomsgaard I. S., Laursen B., Mortensen A. G., Olvera-Martínez L., Silva-Sánchez C., Mendoza-Herrera A., González-Castañeda J., De León-Rodríguez A. Amaranth (Amaranthus hypochondriacus) as an alternative crop for sustainable food

production: Phenolic acids, antioxidant activity, and protein // Journal of Agricultural and Food Chemistry. – 2009. – Vol. 57, №20. – P. 9543–9550.
10. He H. P., Corke H., Cai Y. Z. Supercritical carbon dioxide extraction of oil and squalene from amaranthus grain // Journal of Agricultural and Food Chemistry. – 2002. – Vol. 50, №3. – P. 591–595.
11. Sattar M., Khan M. A., Ali A., Farid M. Nutritional composition and functional characteristics of amaranth: A review // Foods. – 2022. – Vol. 11, №4. – P. 618.
12. Das S. Nutritional and therapeutic potential of Amaranthus spp.: An overview // Journal of Food Biochemistry. – 2020. – Vol. 44, №7. – P. e13274.
13. Ajayi A., Fatoki T. H., Omotoso A. B. Bioactive peptides from amaranth protein with cholesterol esterase and pancreatic lipase inhibitory activities // Journal of Functional Foods. – 2021. – Vol. 85. – P. 104639.
14. FAO/WHO. Protein quality evaluation: Report of the Joint FAO/WHO Expert Consultation. – Rome: Food and Agriculture Organization, 1991. – URL: https://www.fao.org/3/t0818e/t0818e00.htm (дата обращения: 18.04.2025).
15. Armitage J., Halliday C., Baigent C., Collins R. Aspirin for the older person: Report of a meeting at the Royal Society of Medicine, London, 3rd November 2011 // Ecancermedicalscience. – 2012. – Vol. 6. – P. 276.
16. Sattar M., Khan M. A., Ali A., Farid M. Nutritional data on carbohydrates, fats, fiber, and vitamins // In: Nutritional composition and functional characteristics of amaranth: A review // Foods. – 2022. – Vol. 11, №4. – P. 618.
17. Belhadj Slimen I., Najar T., Abderrabba M., Hajji R. Betalains: Natural compounds with antioxidant, anti-inflammatory, and anticancer properties // Food & Function. – 2017. – Vol. 8, №9. – P. 3419–3431.
18. Sattar M., Khan M. A., Ali A., Farid M. Heat processing and flour refinement impacts on antioxidant activity and protein content // In: Nutritional composition and functional characteristics of amaranth: A review // Foods. – 2022. – Vol. 11, №4. – P. 618.
19. Н. Р. Джураева, И. Б. Исабаев, Д. Ж. Раджабова. Рациональный способ обогащения скваленом хлебобулочных изделий // Сборник трудов Международной научно-практической конференции «Современные аспекты научно-технического обеспечения переработки сельскохозяйственного сырья и отходов». — Астана, 2014. — С. 107–108.
20. Ganieva M. U. Production of bioactive compound-rich food products from amaranth using resource-saving innovative technologies // *O‘zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari. Buxoro-2025 y.* — B. 351–355.

G‘aniyeva Marjona O‘tkirovna – magistrant, Buxoro davlat texnika universiteti “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi va servis” kafedrasi, tel: +998 93 456 3143, E-mail: marjonaganiyeva477@gmail.com

Djurayeva Nafisa Radjabovna – professor, Buxoro davlat texnika universiteti “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi va servis” kafedrasi, tel: +998 91 405 8059,

E-mail: nafis101@mail.ru

“O‘YNOQI MUSKAT” SHAMPAN VINOSINING YARIMTAYYOR MAHSULOTINI TAYYORLASH

Xaydarov Sh.X., Tairov B.B.

Buxoro davlat texnik universiteti.

Annotatsiya. *Maqolada shampan vinosi ishlab chiqarishning turli usullari qiyosiy taqqoslangan va shampan vinosi ishlab chiqarish uchun vinamaterial va yarimtayyor mahsulotini tayyorlash hamda uni nazorat qilishning eng samarali usuli borasida ilmiy ishlanmalar keltirilgan. Bundan tashqari «o‘ynoqi muskat» uchun vino mahsulotini muskat yong‘og‘idan tayyorlangan maxsus ekstrakt, ya’ni likyor bilan boyitish nazarda tutilgan.*

Tayanch iboralar: *o‘ynoqi shampan, qandorlik, vinomaterial, yarimtayyor mahsulot, mezga, shakar, akrotofor, oq muskat, ekstra, o‘zioqar.*

ПРИГОТОВЛЕНИЯ ПОЛУФАБРИКАТА ДЛЯ ШАМПАНСКОГО “МУСКАТА ИГРИСТОГО”

Хайдаров Ш.Х., Таиров Б.Б.

Бухарский государственный технический университет.

Аннотация. *В этой статье приведена сравнительная характеристика существующих всех способов шампанизации вин и представлены научные разработки по наиболее эффективному способу подготовки и контроля винного материала для производства шампанского. Кроме того, освещен ферментативный способ приготовления виноматериала для производства «Муската игристого». Для этой цели применен экспедиционный экстракт, приготовленный из мускатного ореха.*

Ключевые слова: *мускат игристый, белый мускат, виноматериал, дрожжи, мезга, экстра, сусло, стекатель, сахар.*

SEMI-FINISHED PRODUCT PREPARATION FOR SPARKLING MUSCAT CHAMPAGNE

Xaydarov Sh.X., Tairov B.B.

Bukhara state technical university.

Annotation. *This article provides a comparative description of all existing methods of champagnetization of wines and presents scientific developments on the most effective way to prepare and control wine material for the production of champagne. In addition, the enzymatic method of preparing wine materials for the production of Sparkling Muscat is highlighted. An expedition extract made from nutmeg was used for this purpose.*

Keywords: *sparkling nutmeg, white nutmeg, wine material, yeast, pulp, extra, wort, drier, sugar.*

Uzumchilik mamlakatimiz qishloq xo‘jaligining muhim tarmoqlaridan biri. O‘rta Osiyo respublikalarida, xususan, O‘zbekistonda uning roli ayniqsa katta. O‘zbekistonning qulay tabiiy sharoiti bu yerda xilma-xil nav uzum yetishtirishga imkon beradi. Tok – qimmatbaho o‘simlik hisoblanadi. Uning mevalari juda mazali va foydalidir. Ular tarkibida 15 -30 % shakar, organik kislotalar, pektin, oshlovchi, xushbo‘y hidli va bo‘yoq moddalar, o‘simlik yelimi, bir qancha fermentlar, A, B, C vitaminlari va mineral tuzlar bo‘ladi. Uzum tarkibida yaxshi o‘zlashtiriladigan shakar (glyukoza va fruktoza), organik kislotalar va boshqa moddalar bo‘limi va tarkibiy qismlarining bir-biriga mos ravishda birikkanligi tufayli ular davolash xususiyatiga ega [3].

O‘zbekistonning deyarli barcha viloyatlarida turli navlardan vino tayyorlanadi. Issiq ob-havo sharoitida uzumda qand miqdori ko‘p to‘planib, undan yuqori sifatli vino tayyorlash mumkin emas deb hisoblansa-da, tog‘li tumanlarda alkogolli mahsulot ishlab chiqarish uchun barcha texnologik talablarga javob beradigan xomashyo yetishtirish yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Chunonchi “Risling” (20%) hamda “Bayan-Shirey” (80%) uzumlaridan tayyorlanadigan markali oq xo‘raki “Hosilot” vinosi bir necha marotaba xalqaro ko‘riklarning sovrindori bo‘lgan. O‘zbekistonda dunyoga dong‘i chiqqan xo‘raki vinolar «Soyaki», «Bihishti», «Kaberne-Savinon» navli uzumlardan tayyorlanadi.

Bundan 150 yil muqaddam Bertlo [8] birinchi marotaba achitqi zamburug‘laridan saxarozani zamburug‘lar iste’mol qila oladigan invertaza fermentini ajratib olishga muyassar bo‘lgan. 1883-yilga kelib A.Fanensin [9] shunday yozgan: “Menimcha, bijg‘ish jarayonini achitqi zamburug‘larining o‘zi emas, balki ular chiqaradigan amorf fermentlar sodir qilsa kerak”.

Keyinchalik Y.Salkovskiy [10] birinchi bo‘lib aminokislotalar hosil bo‘lishi bilan achitqi zamburug‘lari avtolizi orasida bog‘lanish borligini aniqlagan va bu jarayonni u fermentativ jarayon bilan bog‘lagan. 189- yilda esa, M.Gan [11] achitqi zamburug‘lari sharbatida proteolitik fermentni topganlar va uni “endotriptaza” deb ataganlar.

1904-yilga kelib A.Garden va I.Yong [10] achitqi zamburug‘lari sharbatini dializ qilganda, u bijg‘itish xususiyatini yo‘qotishini va qaytadan dializatni zamburug‘ga qo‘shganda bijg‘ish jarayoni borishini aniqlagan. Ular 1906-yili spirtli bijg‘ish mahsulotlaridan geksozodifosfatni ajratib olganlar, shundan so‘ng esa A.Garden [11] va R.Robinzon geksozomonofosfatni ajratib olganlar.

Lavuaze va Gey-Lyussak nihoyatda ko‘p izlanishlari natijasida spirtli bijg‘ishning kimyoviy balansini topganlar va balans yuz yillar davomida Bijg‘ish kimyosida hokimlik qilib kelgan.

Xarden-Yongning tenglamasiga binoan hujayrasiz bijg‘ish natijasida qandning bir molekulasi spirt hamda karbonat angidridgacha bijg‘iydi, ikkinchi molekula qand esa oksozofosfor efiri sifatida qoladi.

Shampan vinosini katta idishlar – akratoforlarda tayyorlash texnologiyasi yaratilgandan so‘ng bu mahsulotni ishlab chiqarish texnologiyasi ancha tezlashdi. Lekin vinoning sifatini shishada tayyorlangan shampan vinosi sifatiga tenglashtirish muammosini yechish olimlar oldidagi eng asosiy masala bo‘lib qoldi. Shu muammoni yechish uchun olimlar achitqi zamburug‘lari hujayralarini lizis qilib undan avtolizatlarni ajratib olib, shampanlashtirishdan oldin vinoga qo‘shish yo‘llarini izladilar.

Achitqi zamburug‘lari avtolizatidan vinochilikda foydalanishning birinchi qadamlari shishada shampanlashtirishdan boshlangan. Bundan maqsad shampanlashtirishning muddatini kamaytirish va tayyor mahsulot sifatini oshirish bo‘lgan, turli muddat davomida shampan vinosi saqlanib, uning sifati o‘rganilgan [Shanderl, 12].

Martini [13] shishada shampanlashning mohiyati uzoq muddat davomida shampan vinosining achitqi zamburug‘lari avtolizatidan boyishiga bog‘liq deb hisoblaydi.

Rezervuarda shampanlashtirish shishada shampanlashtirishdan o‘z xususiyatlari bilan farqlanadi. Shampanlashtirish jarayoni bor-yo‘g‘i 21 kecha-kunduzi davom ettiriladi, yana bu davr ichida achitqi zamburug‘lari tirik va faol bo‘ladilar. Bu davr ichida achitqi zamburug‘lari vinodan nihoyatda ko‘p foydali moddalarni olib, unga hech narsa qaytarmaydilar. Lekin achitqi zamburug‘larini vinoda saqlash natijasida vinoning sifati nihoyat yaxshi bo‘lishi qadim zamonlardan beri ma’lum bo‘lgan. Akademik A.Oparin [14] o‘z shogirdlari bilan shampan vinosida fermentlar faolligini ham ikkilamchi bijg‘ish, ham tirajdan keyingi saqlash davrida o‘rganganlar. Eksperimentlar non achitqi zamburug‘lari (xamirturush) avtolizatidan tiraj aralashmasiga qo‘shish bilan olib borilgan. Ular shampan vinosini saqlash davrida vinoning azot moddalari oshishini payqaganlar va “achitqi zamburug‘larining roli faqatgina fermentlar manbayi ekanligini isbot qilganlar”.

“Muskatli shampan” vinosi ishlab chiqarishning yangi texnologiyasini yaratish klassik texnologiyasidan boshlab hozirgi zamonning eng ilg‘or texnologiyalarini ilmiy nuqtayi nazardan o‘rganilib, ularni qiyosiy taqqoslash va yuqori sifatli, kam mablag‘ sarf qiluvchi, yo’qotishlarni kamaytiruvchi usullarini aniqlash va hayotga qo‘llash lozim.

“O‘ynoqi muskat” shampan vinosi 10 %li qand va 11% hajm spirtli konditsiyalarda tayyorlanadi.

Missella sharob tayyorlash mavsumida oq muskat uzumidan tayyorlanadi. Buning uchun muskat mezgasi yengil bijg‘itiladi, (3% qandorlikkacha bijg‘itiladi), so‘ngra 16% haj gacha spirtlanadi hamda vinomaterialdan ajratiladi. Vinomerial tozalanadi va shampan zavodiga yuboriladi [6].

Shampan vinosi yarimtayyor mahsuloti o‘ziga xos xususiyatlari bilan yuksak qadrlanadi: u bakteritsidlik va dietik xususiyatga ega, kislotaligi va pH qiymati bo‘yicha oshqozon shirasiga yaqin bo‘lganligi uchun u ovqat hazm bo‘lishida ishtirok etadi. Tarkibidagi mineral moddalar va kislotalar tanadagi kislota-ishqor muvozanatini normallashtirishda ishtirok etadi. Shu bilan birga bu

turdagi vinolarni tayyorlash ko‘p mehnat talab qiladi: ular tezda oksidlanib va mikroorganizmlar ta’sirida buziladi, shu sababdan ham har doim vinoning holatini nazoratda tutib turish lozim. Shampan vinosi yarimtayyor mahsuloti o‘zining rangi, kimyoviy tarkibi, organoleptik sifat ko‘rsatkichlari va ishlab chiqarish texnologiyasiga ko‘ra ikki - oq va muskat turlariga bo‘linadi. Quyidagi jadvalda (1-jadval) oq va muskat turlaridagi tipik oq va muskat shampan vinosi yarimtayyor mahsulotlarini tayyorlashning asosiy ko‘rsatkichlari keltirilgan.

Shampan vinosi yarimtayyor mahsuloti olishda uzum sharbati tarkibidagi qandning miqdori 18-20 va kislotaligi 7-6 g/l bo‘lganda uzum uziladi. Bunda uzum sharbati tarkibidagi qand to‘laligicha bijg‘itiladi, spirt qo‘shilmaydi.

Muskat shampani uchun yarimtayyor vino mahsuloti tayyorlanganda faqat muskat uzumidan foydalanadilar. Uzumning qanddorligi 20-22% bo‘lishi kerak. Uzum mezgasini chan yoki cherkashga solib madaniylashgan achitqi zamburug‘i innokulyatidan soladilar. Bijg‘ish jarayonini nazorat qiladilar. Muhitda 18-19% qand qolganda yuqori sifatli “Ekstra” spirtidan quyib, mezga quvvatini 16,5-17% hajmgacha ko‘taradilar. So‘ngra mezgani o‘zioqar uskunaga yuborib, shampan vinosi uchun faqat o‘zioqar sharbatni ajratib oladilar.

1-jadval

Oq va muskat shampan vinosi yarimtayyor mahsulotlarini tayyorlashning asosiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	Vino turi	
	Oq	Muskat
Spirt, % hajmi	10-12	16-0,5
Titr kislotaligi, g/l	5-7	5-7
Keltirilgan ekstrakt, g/l	7	22-24
Qoldiq ekstrakt, g/l	18-20	25-30
Fenol moddalari, g/l	11-13	20-25
Vino rangi	oq-yashilsimon	oltin rangi
Uchuvchan kislotaliligi, g/l dan ko‘p emas	0,66	0,66
Hidi	nozik gul hidi	mushki ambar hidi

Shampan vinosi yarimtayyor mahsuloti tayyorlashda uzumni qayta ishlash yumshoq sharoitda, ya’ni uzum maydalanishida va undan sharbatni ajratishda imkoniyat darajasida kam mexanik kuch ta’sir ettiriladi, olingan sharbat tezda po‘stlog‘i va urug‘idan ajratiladi. Sharbatni oksidlanishini kamaytirish maqsadida, olingan sharbat imkoniyat darajasida havo bilan kam to‘yinishi kerak.

Shampan vinosi yarimtayyor mahsuloti olish uchun ishlatiladigan uzum navlari. Bunday vinolar tayyorlash uchun oq rangli: Aligote, Risling, Reynskiy, Rkatsiteli, Shardone, Sovinon, Fetyaska, Traminer, Kokur oq va boshqa navdagi uzumlar ishlatiladi. Bulardan tashqari O‘zbekistonda Baxtiyori, Bayan shirey, Bihishti, Oq soyaki, Soyaki, Tarnau navlari shampan vinosi yarimtayyor mahsuloti ishlab chiqarishda foydalaniladi.

Uzumni maydalash valikli maydalagich, tagaz ajratgichda amalda oshirilishi kerak.

Sharbatni bijg‘itishdan oldin uni yaxshilab tindirish kerak.

Bijg‘ish jarayonini haroratini boshqarib amalga oshirish uchun uzluksiz yoki ikki bosqichda amalga oshirish lozim.

Bijg‘ish jarayoni tugashi bilan yarimtayyor vino mahsulotini darhol achitqi qoldig‘idan ajratish kerak.

Ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida sharbat va vinoni havo tarkibidagi kisloroddan himoya etish darkor.

Vinoni qaytarilish qobiliyatini kuchaytirish uchun qayta ishlashda mezgani, sharbatni va vino yuzasiga sulfat kislota yuborish lozim. Vinoni og‘ir metallar bilan to‘yinishiga yo‘l qo‘ymaslik

zarur. Bu turdagi vinolarni tayyorlash uchun VPL-10K, VPL-20K va VPL-ZOK tipdagi texnologik yo‘nalishlarda amalga oshiriladi.

Uzum maydalanib, mezga olingandan so‘ng sharbatni oksidlanishining oldini olish maqsadida 50-75 mg/l miqdordagi, oltingugurt angidridi qo‘shiladi, agar uzum tarkibida kasallangan va chirigan gujumlar bo‘lsa, oltingugurt angidridining miqdori 1,5-2 marotaba oshiriladi. Shundan so‘ng sharbat mezgadan darhol ajratilib, tindirish sig‘imlariga solinadi. Tindirish jarayoni 10 -15°C haroratda 12-24 soat davom etadi, shundan so‘ng sharbat cho‘kmadan ajratilib, bijg‘itishga yuboriladi. Bijg‘itish jarayoni 18-30 kun davomida 18°C haroratda, laboratoriyada o‘stirilgan achitqi ishtirokida amalga oshiriladi. Bijg‘itish jarayoni sharbat tarkibida 100 ml-da 0,2 -0,3 g. qand qolganda tugaydi, bunda bijg‘igan sharbatning zichligi 0,995 g/l dan kichik bo‘ladi. Shundan so‘ng idishlarda vino mahsuloti to‘ldirilib turiladi hamda 1-2 oy tindirish uchun saqlanadi. Tindirish vaqtida har 3-5 kunda vino mahsuloti holati nazorat qilib boriladi.

Vinomaterial tinib bo‘lgandan so‘ng uning ostidagi cho‘kma qattiq bo‘lganda, u cho‘kmadan ajratilib, tarkibida 25-30 mg/l erkin holdagi oltingugurt angidridi bo‘lguncha sulfidlanadi va 10 °C dan past haroratda saqlanadi. Oradan 1-1,5 oy o‘tgandan keyin ikkinchi qayta quyish amalga oshiriladi va shundan so‘ng shampan vinosi mahsuloti shampan zavodiga jo‘natiladi. Ishlangan vino tinishi uchun 8-20 sutka saqlanadi va shundan so‘ng 10 kun dam oldirib, filtrlanib, butilkalarga quyiladi.

Shampan vinosi yarimtayyor mahsulotining oksidlanishini oldini olish maqsadida, vino shampan zavodiga jo‘natilmasdan oldin tarkibidagi erkin holdagi oltingugurt angidridning miqdori 20 mg/l yetguncha sulfidlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alkogol va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularning aylanmasini tartibga solish sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6033, 2018 yil 12 yanvar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Vinochilik sohasini va alkogolli mahsulotlarni realizatsiya qilishni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3573, 2018 yil 2018 yil 28 fevral.
3. H.T. Salomov. Vinochilik sanoatida texnik kimyoviy nazorat. Toshkent, “Mehnat”, 2004 y, 240 b.
4. H.T. Salomov “Mikrobiologiya asoslari ”, Toshkent “Mehnat”, 2002 y. 163 b.
5. Х.Т. Саломов. Новый способ сбраживания виноградных вин. Диссертация на соискания ученой степени кандидата тех. наук. Ташкент, 1972 г.
6. Sh.X. Xaydarov. Magistrlik ishi “Mahalliy o‘simliklardan foydalanib yangi muskatli shampan vinosi texnologiyasini yaratish va uning biologik xavfsizligini o‘rganish”. Buxoro-2010. 71-bet.
7. M.Sharapova. “Uzumchilik sanoati” fanidan ma’ruzalar matni, 2006 y., 2-3 bet.
8. Karimov I.B, Sei.50, 980, 1860. 1.R.M. Berthelot. Comp. Rend. Asad
9. А.Фаненцин. Обмен веществ и превращение энергии в растаяниях. С.Петербург. 1883 г. стр. 606-680.
10. E.Salkovcki. Uber Zukerbulding und andere Fermentation in der Hefe I.Z. Phiziol. Chem. 13, 120, 1927 e.
11. O.Meerhof Ergebn.Phiziol. стр.39,10,1937 e.ю
12. O.Meerhof Y.Biol,Chem, стр.157,105, 1945 e.
13. В.Энгелгард, И. Сейниц. О природе Харден. Йонговского уровнения брожения, биохимия, т.12. вып. 1с 121.

MAHALLIY O‘SIMLIKLAR TARKIBIDAGI UGLEVODLARNI INNOVATSION USULLAR BILAN AJRATISH LABORATORIYA QURILMASI

[1]Barakayev N.R., [2]Kamolova M.X.

[1]Renessanes ta’lim universiteti, [2]Buxoro davlat texnika universiteti.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada loviya va no'xat tarkibidan uglevodlarni ajratib olishning laboratoriya qurilmasi texnologik tavsifi keltirilgan. Ajratilgan uglevodlar oziq-ovqat sanoatida, farmatsevtika sohasida va bioenergetikada mavjud resurslardan samarali, yuqori sifatli xomashyo sifatida keng foydalanish imkoniyatini beradi.*

Kalit so‘zlar: *uglevodlarni ajratib olish, loviya va no'xat, saxaroza, gulkoza, biotexnologiya, texnologik jarayon, ekologik samaradorlik, innovatsion texnologiyalar.*

ЛАБОРАТОРНАЯ УСТАНОВКА ДЛЯ ИЗВЛЕЧЕНИЯ УГЛЕВОДОВ ИЗ МЕСТНЫХ РАСТЕНИЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ

[1]Баракаев Н.Р., [2]Камолова М.Х.

[1]Образовательный университет ренессанс,

[2]Бухарский государственный технический университет.

Аннотация. *В данной статье представлено технологическое описание лабораторной установки для извлечения углеводов из фасоли и гороха. Сепарированные углеводы широко используются как высококачественное сырье в пищевой промышленности, фармацевтике и биоэнергетике, позволяет создавать новые, весьма полезные технологические решения для сельского хозяйства и промышленности.*

Ключевые слова: *экстракция углеводов, фасоль и горох, сахароза, сорго, биотехнология, технологический процесс, экологическая эффективность, инновационные технологии.*

LABORATORY SETUP FOR EXTRACTING CARBOHYDRATES FROM LOCAL PLANTS USING INNOVATIVE METHODS

[1]Barakayev N.R., [2]Kamolova M.Kh.

[1]Educational university renaissance, [2]Bukhara state technical university.

Annotation. *This article presents a technological description of a laboratory device for the extraction of carbohydrates from beans and peas. The process is carried out by mechanical and chemical methods, in which fermentation, chemical reactions and mechanical separation methods are used together, allowing for complete extraction of carbohydrates.*

Key words: *carbohydrate extraction, beans and peas, sucrose, flower buds, biotechnology, technological process, environmental efficiency, innovative technologies.*

Mahalliy o‘simliklar tarkibida uglevodlar mavjud bo‘lib, ularni ajratib olish, ayniqsa, sanoat va ilmiy tadqiqotlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Loviya va no‘xat tarkibidagi uglevodlarni ajratish, ularning qishloq xo‘jaligi va sanoat tarmoqlarida samarali foydalanilishiga imkon yaratadi. Ushbu maqolada loviya va no‘xat tarkibidan uglevodlarni ajratish uchun mo‘ljallangan laboratoriya qurilmasining texnologik jarayoni va uning ishlash prinsiplari batafsil taqdim etiladi.

Loviya va no‘xat tarkibida asosiy uglevodlar, asosan, kraxmal va boshqa shakardek moddalardan iborat. Ushbu qurilma biologik faol moddalardan, xususan, uglevodlarni ajratib olish uchun turli kimyoviy va mexanik usullarni birgalikda qo‘llaydi. Jarayon mexanik va kimyoviy reaksiyalar orqali amalga oshiriladi, bunda loviya va no‘xat tarkibidagi uglevodlar to‘liq ajratilib, xomashyo sifatida ishlatilish yoki oziq-ovqat sanoatida qo‘llanilishi uchun tayyorlanadi.

No‘xat tarkibida nafaqat uglevodlar, balki ko‘plab biologik faol moddalar ham mavjud. Uglevodlarni ajratib olish qurilmasi, asosan, loviya va no‘xat donlaridan uglevodlarni izolyatsiya qilish va ularni boshqa moddalar bilan aralashgan tarkibdan ajratib olishga qaratilgan texnologik jarayonni amalga oshiradi. Bu jarayonni amalga oshirishda kimyoviy reaksiya va fermentatsiya usullari, shuningdek, mexanik ajratish metodlari qo‘llaniladi. Ushbu texnologik yondashuv loviya va no‘xat tarkibidagi uglevodlarning sifatini oshiradi va ularni sanoat miqyosida ishlov berish imkoniyatini yaratadi [1-2].

Uglevodlarni ajratib olish jarayonining mohiyati loviya va no‘xatning tarkibidagi yuqori ozuqa moddalari, xususan, kraxmal va boshqa shakardek uglevodlarni to‘liq ajratishdan iborat. Ushbu jarayonni amalga oshirish uchun qizdirish, fermentatsiya, kimyoviy reaksiya yoki mexanik ajratish usullari qo‘llanilishi mumkin. Maqsad loviya va no‘xatdagi uglevodlarni xomashyo sifatida

yoki oziq-ovqat sanoatida ishlatiladigan xomashyo sifatida ajratib olishdir. Bu yondashuv yordamida ajratilgan uglevodlar yuqori sifatli xomashyo sifatida turli sohalarda qo‘llanilishi mumkin, shu jumladan, oziq-ovqat sanoatida, bioenergetika va farmatsevtika sohalarida ham.

Shunday qilib, loviya va no‘xat tarkibidan uglevodlarni ajratib olish texnologiyasi nafaqat samarali resurslardan foydalanishni ta’minlaydi, balki ishlab chiqarish jarayonlarining ekologik jihatlarini yaxshilashga ham hissa qo‘shadi. Bu metodlar orqali ajratilgan uglevodlar, nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirishga, balki sanoat va qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Loviya va no‘xat tarkibidan uglevodlarni ajratib olinish qurilmasining qo‘llanilishi:

Loviya va no‘xat tarkibidan uglevodlarni ajratib olish qurilmasi, asosan, quyidagi sohalarda qo‘llaniladi:

- *Oziq-ovqat sanoati:* loviya va no‘xat tarkibidagi uglevodlar, kraxmal yoki boshqa shakardek mahsulotlar oziq-ovqat sanoatida, masalan, qand, sirop yoki boshqa ozuqa mahsulotlarini ishlab chiqarishda ishlatiladi.
- *Biologik ozuqa ishlab chiqarish:* uglevodlar, ayniqsa, kraxmal hayvonlar uchun ozuqa sifatida ishlatiladi.
- *Farmatsevtika sanoati:* loviya va no‘xat tarkibidagi uglevodlar ba’zi dori-darmonlar uchun xomashyo sifatida ishlatiladi.
- *Energetika sohasida:* loviya va no‘xat tarkibidagi uglevodlar bioyoqilg‘i ishlab chiqarishda ham foydalaniladi [3].

Loviya va no‘xat tarkibidan uglevodlarni ajratib olinish qurilmasini boshqarish:

Boshqarish jarayoni, odatda, texnologik jarayonlar va usullarni boshqarishni o‘z ichiga oladi. Bunda, asosan, quyidagilar amalga oshiriladi:

- *Temperatura va bosimni nazorat qilish:* ajratish jarayonida optimum temperatura va bosimni ta'minlash kerak, bu uglevodlarni ajratish samaradorligini oshiradi.
- *Fermentlar va kimyoviy moddalarni qo‘llash:* ba’zan uglevodlarni ajratish uchun fermentlar yoki kimyoviy moddalar ishlatiladi, bu jarayonni tezlashtiradi.
- *Texnologik parametrlarni sozlash:* ajratish jarayoni turli omillarga, jumladan, vaqt, mexanik harakatlar, suyuqliklar va boshqa parametrlar orqali boshqariladi.
- *Sifat nazorati:* uglevodlarni ajratib olishning sifatini doimiy ravishda nazorat qilish muhim, chunki yakuniy mahsulotning sifati ajratish jarayonining samaradorligiga bog‘liq.

Takliflar:

- ✓ **Texnologik usullarni takomillashtirish:** loviya va no‘xat tarkibidan uglevodlarni ajratib olish jarayonini optimallashtirish uchun yangi, innovatsion texnologiyalarni tadbiq etish zarur. Misol uchun, fermentatsion jarayonlar yoki yuqori samarali kimyoviy usullarni qo‘llash.
- ✓ **Resurslarni tejash:** ajratish jarayonlarida energiya va suvni tejash uchun samarali tizimlarni ishlab chiqish.
- ✓ **Tadqiqot va rivojlantirish:** loviya va no‘xat tarkibidagi uglevodlar va boshqa moddalar haqida ko‘proq ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish, ularning ishlatilishi va ajratilishi bo‘yicha yangi metodlarni ishlab chiqish.
- ✓ **Ijtimoiy va iqtisodiy ta’sirlarni tahlil qilish:** loviya va no‘xat tarkibidan uglevodlarni ajratib olishning iqtisodiy va ijtimoiy ta’sirlarini baholash, bu jarayonning qishloq xo‘jaligi va sanoatga bo‘lgan ta’sirini ko‘rib chiqish zarur.

Loviya va no‘xatni tayyorlash va no‘xat tarkibidan uglevodlarni ajratib olinish jarayoni quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- *Loviya va no‘xat namunasini tayyorlash;*
- Loviya va no‘xat olingan miqdoridan bir necha grammni tayyorlash.
- Loviya va no‘xatni ezib, kukun holiga keltirish uchun maydalash.
- *Loviya va no‘xat kukunini suvda eritish:*

Loviya va no‘xat kukuni distillangan suvda eritildi. Bu yerda saxaroza va gulkoza qismi eritma holatiga o‘tadi. Aralashma yaxshilab aralashtiriladi, shunda barcha shakar moddalarining suyuqlikda erishi ta’minlanadi.

Filtrlash jarayoni: eritmani filtrli qog‘oz yordamida filtrlang. Bu qadamda saxaroza va gulkoza qoldiqlari eritmadan ajralib chiqadi. Filtrlangan suyuqlikni alohida idishga olib qo'yiladi.

Saxaroza va gulkozani ajratish.

Gulkoza ajratish: filtrlangan eritmaga etanol (etanol) qo‘shiladi. Gulkoza etanolda erimaydi, shuning uchun u suyuqlikdan ajralib turadi. Bu eritma orqali gulkoza ajratilib olinadi.

Saxaroza ajratish: saxaroza esa etanol yordamida kristallanish jarayoniga o‘tadi. Shu orqali saxaroza kristallari ajralib chiqadi.

Filtrlash va quritish: gulkoza va saxaroza alohida ajratilgandan so‘ng, har birining suyuqlikdagi qoldiqlarini ajratish uchun yana filtrlanadi. Filtrlangan materiallarni quritish jarayoniga o‘tkazing: saxaroza kristallari va gulkoza eritmasi alohida quritilishi kerak.

Tahlil qilish: Gulkoza va saxaroza alohida ajratilganidan so‘ng, ular mikroskop yordamida tahlil qilinishi mumkin. Ularning o‘ziga xos xususiyatlari va miqdori aniqlanishi mumkin.

Natija:

- *Saxaroza va gulkoza* alohida holatda olinadi.
- Gulkoza etanol yordamida suyuqlikda qoladi, saxaroza esa kristallanishi orqali ajratib olinadi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot loviya va no‘xat tarkibidan uglevodlarni ajratib olib ishlab chiqarishning samaradorligini oshiradi va loviya va no‘xat xomashyosining to‘liq foydalanish imkonini beradi. Ushbu qurilma orqali ajratilgan uglevodlar turli sohalarda, xususan, oziq-ovqat, farmatsevtika va energetika sanoatida qo‘llanilishi mumkin. Ajratish jarayonini samarali boshqarish uchun texnologik parametrlar va boshqaruv tizimi muhim ahamiyatga ega [4].



1-rasm. Mahalliy o‘simliklar tarkibidan uglevodlarni ajratib olish laboratoriya qurilmasi

Loviya va no‘xat tarkibidan uglevodlarni ajratib olish qurilmasi nafaqat ishlab chiqarishning samaradorligini oshiradi, balki ekologik barqarorlikni ta’minlash va sanoatni rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi. Kelajakda ushbu texnologiyalarni takomillashtirish va yangi innovatsiyalarni joriy etish orqali ajratish jarayonining samaradorligini yanada oshirishga yo‘l ochiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akhmadov I.R., Sattarov F.M. Oziq-ovqat sanoatida noxatning uglevodlar tarkibini ajratish texnologiyalari. Toshkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Noshirligi, 2020. – 196 b.
2. Кузнетсов Ю.И. Построение информативного базиса в задачакҳ обшчеи тциркулятсии атмосферй: Дисс... канд. физ.-мат. наук. – Новосибирск: ВТс СО РАН, 1997. – 134 б.
3. Intellektual'noye obshcheniye s EVM: Sb. nauch. tr. TashGU. – Toshkent, 1986. – 270 b.
4. Petrov S.M. Vliяnie konechnoy skorosti rasprostranenia poperechnoy volny na dinamiчeskoe povedenie vysokogo sooruzkenia // IV Rossiyskaя konf. po seysmostoykomu stroitel'stvu: Tez. dokl. – Moskva, 2001. – 55 b.

Kamolova Muxlisa Xudoyberdievna - Buxoro davlat texnika universiteti doktaranti. Tel:(+99894) 788-86-86; (+99894) 8670550

UDK 665.335.1

O‘SIMLIK MOYLARINI ISHQORIY RAFINATSIYALASHDA ELEKTROMAGNIT FAOLLASHTIRISH TA’SIRINING XUSUSIYATLARINI O‘RGANISH

Dehqonova N.A., Majidov K.X.

Buxoro davlat texnika universiteti.

Annotatsiya. *Elektromagnit faollashtirish usullaridan foydalangan holda o‘simlik moylarini rafinatsiyalash jihozlarining xususiyatlari o‘rganildi, ishqoriy neytrallash jarayonida elektromagnit faollashtirish darajasining yog‘ kislotalarining assotsiatsiyasiga bog‘liqligi aniqlandi. Moylarni rafinatsiyalashda elektromagnit faollashtirish rejimlari va usullari aniqlandi.*

Kalit so‘zlar*: moylarni rafinatsiyalash texnologik jihozlari, elektromagnit faollashtirish, jarayonni amalga oshirish rejimlari va usullari, yog‘ kislotalarining assotsiatsiyasi.*

ИЗУЧЕНИЕ ОСОБЕННОСТЕЙ ВЛИЯНИЯ ЭЛЕКТРОМАГНИТНОЙ АКТИВАЦИИ ПРИ ЩЕЛОЧНОЙ РАФИНАЦИИ РАСТИТЕЛЬНЫХ МАСЕЛ

Дехконова Н.А., Мажидов К.Х.

Бухарский государственный технический университет.

Аннотация*. Изучены особенности оборудования для рафинации растительных масел с использованием методов электромагнитной активации, установлена зависимость степени электромагнитной активации на ассоциации жирных кислот при щелочной нейтрализации. Определены режимы способы электромагнитной активации при рафинации масел.*

Ключевые слова*: технологическое оборудование для рафинации масел, электромагнитная активация, способы и режимы осуществления процессов, ассоциация жирных кислот.*

RESEARCH OF THE FEATURES OF THE INFLUENCE OF ELECTROMAGNETIC ACTIVATION IN ALKALINE REFINING OF VEGETABLE OILS

Dekhkonova N.A., Majidov K.Kh.

Bukhara state technical university.

Annotation*. The features of equipment for refining vegetable oils using electromagnetic activation methods have been studied, the dependence of the degree of electromagnetic activation on the association of fatty acids during alkaline neutralization has been established. The modes and methods of electromagnetic activation in refining oils have been determined.*

Keywords: *technological equipment for refining oils, electromagnetic activation, methods and modes of process implementation, association of fatty acids.*

Gidratlangan o‘simlik moylaridan ajratib olingan triatsilglitseridga (TAG) yo‘ldosh lipidlar uchun assotsiatsiya darajasini pasaytirish maqsadida tizimga ta’sir qilishning samarali usuli bo‘lib mexanik-kimyoviy faollashtirish usuli hisoblanib [1-2], bu o‘simlik moyida TAG yo‘ldosh lipidlarning assotsiatsiyasi yuqori darajasi (98,4-98,8%) bilan izohlanadi. Biroq gidratlangan o‘simlik paxta moyining TAG yo‘ldosh lipidlari assotsiatsiya darajasi kungaboqar moyiga qaraganda sezilarli darajada past (79,4-83,1%) ekanligini hisobga olsak, dastlabki tajribalar elektromagnit faollashtirish usulini gidratlangan paxta moylari uchun qo‘llash mumkinligini ko‘rsatdi [1-3].

Elektromagnit aktivatordan (EMA) foydalanilganda u tomonidan yaratiladigan o‘zgaruvchan aylanadigan elektromagnit maydonlar deyarli barcha turdagi molekulalararo bog‘larga ta’sir qiladi, shu sababli elektromagnit faollashtirishni erkin yog‘ kislotalari va boshqa yo‘ldosh lipidlarning deassotsiatsiyasini rag‘batlantiruvchi omil sifatida qo‘llash imkoniyati o‘rganildi. Moyga ishlov berish sxematik ko‘rinishi 1-rasmda ko‘rsatilgan stend qurilmada amalga oshirildi.

Tashqi uzatmali elektromagnit aktivatorning tuzilishi 2-rasmda ko‘rsatilgan.

Elektromagnit aktivatorda ishlov beriladigan tizim bir vaqtning o‘zida aylanadigan rotor va qo‘zg‘almas stator o‘rtasidagi tor halqali bo‘shliqda (1,5 mm) bir vaqtning o‘zida elektromagnit ishlov berish va gidrodinamik ta’sirga uchraydi. Yo‘ldosh moddalarni beqarorlashtirish jarayonida elektromagnit ishlov berishning rolini aniqlash maqsadida modifikatsiyalangan konstruksiyali EMA dan foydalanildi. Ushbu EMA rotori aylanadigan magnit maydonning induksiyasidan qat’i nazar doimiy aylanish chastotasini saqlab turish uchun tashqi uzatma bilan jihozlangan.



1-rasm. Aylanadigan elektromagnit maydonda moylarga elektromagnit ishlov berish uchun laboratoriya qurilmasining sxemasi: 1- ta'minot bloki; 2- aralashtiruvchi moslama; 3- aralashtirgich; 4- nasos; 5- tashqi uzatmali elektromagnit aktivator; 6- yig'gich; 7- sarf o'lchagich



2-rasm. Tashqi uzatmali elektromagnit aktivatorning sxemasi: 1- stator; 2- rotor; 3- tashqi uzatma elektr dvigateli; 4- boshqa-ruv bloki; 5- korpus

Keyingi bosqichda elektromagnit faollashtirish rejimlarining "model moy – erkin yog' kislotalari – TAG yo'ldosh lipidlari kompleksi" murakkab tizimining assotsiatsiya darajasiga ta'siri o'rganildi.

Ma'lumotlarni hisobga olgan holda, ishlov beriladigan tizimning elektromagnit aktivator orqali o'tadigan oqim tezligi barcha tajribalarda doimiy bo'lib, 4 m/s ni tashkil etdi. Magnit induksiyaning kattaligi, mavjud ma'lumotlarga ko'ra, 0,2 dan 1,0 T gacha bo'lgan diapazonda o'zgartirilgan. Haroratning yog' kislotalari va boshqa yo'ldosh moddalarning assotsiatsiya darajasiga ahamiyatsiz ta'siri to'g'risidagi 1-jadvaldagi ma'lumotlarni hisobga olgan holda, ishlov berish 60-80°C haroratda amalga oshirildi.

1-jadval

Model tizimlarda konsentratsiyaning erkin yog' kislotalari assotsiatsiyasi darajasiga ta'siri

Yog' kislotalari eritmalari nomi	D_a	D_i	α
Palmitin kislotasi eritmalari konsentratsiyasi, g/l:			
4,25	0,5434	0,2750	0,664
8,50	0,7406	0,1815	0,798
17,00	0,8450	0,1560	0,844
Stearin kislotasi eritmalari konsentratsiyasi, g/l:			
4,25	0,5228	0,3010	0,634
8,50	0,7015	0,2114	0,768
17,00	0,8112	0,1792	0,819
Olein kislotasi eritmalari konsentratsiyasi, g/l:			
4,25	0,4559	0,3467	0,568
8,50	0,5315	0,3000	0,639
17,00	0,6989	0,2218	0,759
Linol kislotasi eritmalari konsentratsiyasi, g/l:			
4,25	0,6989	0,2218	0,759
8,50	0,8239	0,1870	0,815
17,00	1,0000	0,1549	0,866

1-jadvaldagi ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, yog‘ kislotalari konsentratsiyasining ortishi bilan ularning assotsiatsiya darajasi ham oshadi, bunda mazkur ta’sir olein kislota uchun eng yaqqol va linoleik kislota uchun eng kam namoyon bo‘ladi.

Tayyorlangan model tizimlar elektromagnit aktivatordan o‘tkazildi, shundan so‘ng ularning IQ-spektrlari qayd etildi va ishlov berishdan oldin olingan spektrlar bilan taqqoslandi. Magnit induksiyasi nolga teng bo‘lgan, ya’ni elektromagnit maydon ta’sir qilinmagan tajribada tizim faqat gidrodinamik ta’sirlarga uchragan. Bunda EMA da rotorning aylanishi tashqi uzatma yordamida amalga oshirildi. Misol sifatida, 3-rasmda 70 °C haroratda elektromagnit faollashtirishning TAG yo‘ldosh lipidlari molekulalarining assotsiatsiya darajasiga ta’siri to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.



Magnit induksiya, Tl

3-rasm. Elektromagnit faollashtirishning tizimlardagi assotsiatsiya darajasiga ta’siri:
1- “model moy – erkin yog‘ kislotalari”; 2- “model moy – erkin yog‘ kislotalari – sovunlanmaydigan lipidlar”; 3- “model moy – erkin yog‘ kislotalari – TAG yo‘ldosh lipidlari kompleksi”

Keltirilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘zgaruvchan aylanadigan elektromagnit maydon issiqlik ta’siriga qaraganda yog‘ kislotalari assotsiatsiatlari va boshqa yo‘ldosh moddalarni parchalashda sezilarli darajada kuchliroq omil bo‘lib hisoblanadi.

Ko‘rsatildiki, EMA da magnit induksiya qiymatining oshishi bilan o‘rganilayotgan tizimlarda assotsiatsiya darajasining pasayishi kuzatiladi, jumladan, “model moy – erkin yog‘ kislotalari” tizimi uchun maksimal samaraga 0,6 T magnit induksiyada, “model moy – erkin yog‘ kislotalari – sovunlanmaydigan lipidlar” va “model moy – erkin yog‘ kislotalari – TAG yo‘ldosh lipidlari kompleksi” uchun 0,8 T da erishiladi. Ta’kidlash lozimki, “model moy – erkin yog‘ kislotalari – TAG yo‘ldosh lipidlari kompleksi” tizimiga ishlov berish jarayonida magnit induksiya qiymatining 0,8 T dan oshirilishi assotsiatsiya darajasining yanada pasayishiga olib kelmaydi.

O‘rganilayotgan tizimlarda aylanadigan elektromagnit maydon ta’sirida TAG yo‘ldosh lipidlari molekulalarining assotsiatsiya darajasining pasayishi, ehtimol, erkin yog‘ kislotalari molekulalari, shuningdek, erkin yog‘ kislotalari molekulalari va xlorofillar guruhi pigmentlari molekulalari o‘rtasida hosil bo‘lgan molekulalararo vodorod bog‘larining deformatsiyalanishi va kuchsizlanishi natijasida sodir bo‘ladi.

Bizning fikrimizcha, o‘zgaruvchan aylanadigan elektromagnit maydonning deassotsiatsiyalovchi ta’siri rezonans hodisalarining ta’siri bilan bog‘liq. Muayyan parametrlarga ega elektromagnit maydon ta’sirida energiya kvantlarining chiqishi bilan birga rezonans paydo bo‘lishi ehtimolligi mavjud bo‘lib, mazkur kvantlar energiyasi ta’sir qiluvchi maydon energiyasidan oshib ketadigan vodorod va boshqa nisbatan zaif bog‘larni nafaqat deformatsiyalashi, balki yo‘q qilishi ham mumkin. Bu holatda o‘rganilayotgan turli tizimlar uchun elektromagnit maydonning

parametrlaridagi farqni muayyan tizim tarkibiga kiruvchi moddalar kimyoviy tuzilishi va energiya tavsifi o‘ziga xos xususiyatlari bilan tushuntirilishi mumkin.

Shunday qilib, o‘tkazilgan tahlillar va baholashlar natijalari elektromagnit faollashtirishdan foydalanishning texnologik afzalliklarini aniqlash va mazkur maqsadda tegishli jihozlardan foydalanish imkonini aniqladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арутюнян Н.С. и др. Технология переработки жиров. М.: Пищепромиздат. 1999. -247 с
2. Бутина Е.А. Фосфолипиды высокоолеинового подсолнечного масла, совершенствование технологии получения и использование их в качестве добавок к пищевым продуктам. Автореф. канд. техн. наук. Краснодар, КПИ, 1992-24с
3. Гавришкевич Л.Н. Кинетика гетерогенных химических взаимодействий в скрещенных электрических и магнитных полях. Автореф. дис...канд.техн.наук.-Львов., 1984. -24 с.
4. Дехканова Н.А., Мажидов К.Х Совершенствование технологии щелочной нейтрализации растительных масел с новыми видами растворов XIII Международной научной конференции «Техника и технология пищевых производств» 18-19 апреля 2024 года. Могилев.

Majidov Kaxramon Xalimovich – t.f.d. (DSc), Buxoro davlat texnika universiteti “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash texnologiyasi va yog‘-moy texnologiyasi” kafedrasi professori. Tel: (+99890) 514-06-40, E-mail: kafedra-03@mail.ru

Dehqonova Nargiza Abdug‘ani qizi – Buxoro davlat texnika universiteti tayanch doktoranti, “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash texnologiyasi va yog‘-moy texnologiyasi” kafedrasi o‘qituvchi-stajyori. Tel: (+99899) 136-88-77. E-mail: nargizadehkonova@gmail.com

УДК 664.662 :633.8

ПРИМЕНЕНИЕ ПРЯНО-АРОМАТИЧЕСКОГО СЫРЬЯ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОЙ ЦЕННОСТИ РЖАНЫХ СОРТОВ ХЛЕБА

Рахмонов К.С.

Бухарский государственный технический университет.

Аннотация*. Статья посвящена теоретическому и экспериментальному обоснованию целесообразности применения добавок из пряно-ароматического растительного сырья для повышения потребительских достоинств ржаных сортов хлеба и их пищевой безопасности. Проанализирован химический состав исследуемых добавок и их смеси. Приведены результаты анализа пищевой ценности ржаного хлеба со смесью из указанного сырья и вероятности развития меловой болезни в нём в процессе хранения, произведён их анализ.*

Ключевые слова*: хлеб ржаной, пряно-ароматическое растительное сырьё, любисток, базилик, сельдерей, мука ржаная обдирная, рецептура, качество, меловая болезнь.*

JAVDAR NON NAVLARINING ISTE’MOLCHILIK QIYMATINI OSHIRISH MAQSADIDA XUSHTA’M-XUSHBO‘Y XOMASHYONING QO‘LLANILISHI

Raxmonov Q.S.

Buxoro davlat texnika universireti.

Annotatsiya*. Maqola nonning javdar navlarining iste’molchilik afzalliklarini va ularning oziq-ovqat xavfsizligini yaxshilash maqsadida xushta’m-xushbo‘y o‘simlik xomashyosidan olingan qo‘shimchalardan foydalanishning maqsadga muvofiqligi nazariy va tajriba yo‘li bilan asoslashga bag‘ishlangan. O‘rganilayotgan qo‘shimchalar va ular aralashmalarining kimyoviy tarkibi tahlil qilindi. Ko‘rsatilgan xomashyo aralashmasi bilan tayyorlangan javdar nonining ozuqaviy qiymati va saqlash vaqtida unda bo‘r kasalligining rivojlanish ehtimolining tahlili bajarilgan hamda natijalari keltirilgan.*

Kalit so‘zlar*: non, xushta’m-xushbo‘y o‘simlik xomashyosi, arpabodiyon, rayhon, retseptura, modellashtirish, sifat, xavfsizlik.*

USING AROMATIC RAW MATERIALS IN ORDER TO INCREASE THE CONSUMER VALUE OF RYE VARIETIES OF BREAD

Rakhmonov K.S.

Bukhara state technical university.

Annotation. *The article covers the theoretical and experimental substantiation of the feasibility of using additives from spicy-aromatic plant raw materials to improve the consumer qualities of rye bread varieties and their food safety. The chemical composition of the studied additives and their mixtures is analyzed. The results of the analysis of the nutritional value of rye bread with a mixture of the specified raw materials and the likelihood of chalk disease development in it during storage are presented, their analysis is made.*

Key words*: bread, spicy-aromatic plant raw materials, fennel, basil, recipe, modeling, quality, safety.*

Ржаной хлеб является важным элементом рациона питания во многих культурах. Он не только обладает уникальным вкусом, но и содержит множество полезных веществ, необходимых для поддержания здоровья. Рожь отличается самой низкой калорийностью зерна и продуктов его переработки среди всех зерновых культур и одновременно содержит намного больше микроэлементов, витаминов и незаменимых аминокислот, чем пшеница. В ржаной обдирной муке, по сравнению с пшеничной мукой высшего сорта, в 3,5 раза больше пищевых волокон, в 1,9 раза – кальция, в 3,7 раза – магния, в 2,9 раза – железа, в 1,5 раза и более – витамина Е (α-токоферола) и витаминов группы В. Кроме того, в ржаной муке в большом количестве содержатся высокомолекулярные пентозаны – слизи, которые наряду с пищевыми волокнами улучшают работу желудочно-кишечного тракта, а также адсорбируют и выводят из организма продукты обмена и вредные вещества [1, 2].

Ржаной хлеб, в отличие от пшеничного, богат клетчаткой, способствующей нормализации пищеварения, улучшению функционирования желудочно-кишечного тракта, и помогает контролировать уровень сахара в крови. Регулярное употребление данного хлеба может снизить риск развития сердечно-сосудистых заболеваний благодаря высокому содержанию клетчатки и антиоксидантов. Ржаной хлеб обладает низким гликемическим индексом, что способствует более длительному чувству насыщения и помогает контролировать аппетит [3, 4, 5, 6].

В последние годы наблюдается рост интереса к альтернативным ингредиентам, которые могут улучшить питательные свойства хлеба, а также его вкус и текстуру. Так, использование такого нетрадиционного сырья, как семена, орехи, бобовые и даже экзотические злаки, может привести к созданию уникальных сортов хлеба. Наиболее часто используются в производстве ржаных сортов хлеба мука из зерновых и масличных культур. (льняная, гречневая, полбяная и др.), продукты переработки лекарственных и пряно-ароматических растений (шрот крапивы, экстракты лекарственных растений), картофелепродукты (клеточный сок картофеля, сухое картофельное пюре, хлопья), концентрат квасного сусла (вместо ферментированного солода в заварных сортах хлеба) и др. Это не только расширяет ассортимент продукции, но и отвечает на запросы потребителей на более здоровые и разнообразные продукты. Использование местных и сезонных ингредиентов может снизить углеродный след и поддержать местных производителей. Кроме того, применение новых видов сырья может привести к экономическому эффекту за счёт снижения затрат на производство [7, 8, 9, 10, 11].

Усилить функциональные свойства хлебобулочных изделий, содержащих ржаную муку, можно путем введения в их рецептуру пряно-ароматического сырья, характеризующегося уникального химического состава и высокой биологической активности. Пряности и ароматические травы могут значительно обогатить вкус и аромат хлеба, придавая ему уникальные нотки. Например, добавление тмина, кориандра или укропа может не только улучшить органолептические свойства, но и повысить питательную ценность продукта. Кроме того, такие добавки могут способствовать улучшению сохранности хлеба, так как многие пряности обладают антимикробными свойствами. Это делает ржаной хлеб не только вкусным, но и более долговечным. Однако, важно также

учитывать, что использование пряно-ароматического сырья требует тщательного подбора пропорций, чтобы не перебить характерный вкус ржаного теста. В целом, это в настоящее время является перспективным направлением для разнообразия ассортимент и привлечения внимание потребителей к традиционным хлебобулочным изделиям [12].

Цель работы заключалась в оптимизации рецептурного состава хлеба ржаного обдирного с использованием пряно-ароматического сырья.

Серию пробных лабораторных выпечек проводили по общепринятой методике на густой закваске согласно ГОСТ Р ИСО 6820–2021 «Мука пшеничная и ржаная. Общее руководство по разработке методов пробной выпечки хлеба» с добавлением порошка из любистка сорта Удалец, базилика обыкновенного и сельдерея пахучего в тесто со снижением соответствующего количества рецептурного количества муки.

Образцами сравнения служили изделия, приготовленные без добавок. Образцами сравнения – изделия с исследуемыми добавками.

Качество хлеба анализировали через 16-18 часов после выпечки на соответствие требованиям ГОСТ 31807-2018 «Изделия хлебобулочные из ржаной хлебопекарной и смеси ржаной и пшеничной хлебопекарной муки. Общие технические условия» по действующим общепринятым методикам [13].

Экспериментальная часть работы была выполнена в лабораториях кафедры технологии пищевых продуктов Бухарского государственного технического университета. Производственная апробация была проведена на ООО «YUKSAK QASHQADARYO».

Добавки вносили с заменой 7,0 % муки от её рецептурного количества. Контролем служили образцы, приготовленные без добавок.

Выбор образцов был сделан на основе априорного анализа их совместимости по органолептическим показателям и влиянию на вкус и запах готовой продукции.

Результаты исследования представлены на рисунках 1,2 и в таблицах 1 – 5.

Любисток (лат. *Levisticum officinale*) – пряное растение, известное своими антибактериальными свойствами, обусловленными наличием в его составе таких активных веществ и соединений, как эфирные масла (фталиды, фенольные соединения, флавоноиды и др.) [14].

Базилик обыкновенный (лат. Ocimum basilicum) – травянистое растение из семейства яснотковых (лат. *Lamiaceae*), которое широко используется в кулинарии и медицине. Аромат базилика – теплый, сладковато-пряный с легкими перечными, лимонными или анисовыми нотками (в зависимости от вида). Вкус насыщенный, травяной, иногда с оттенком мяты [15].

Сельдерей пахучий (лат. *Apium graveolens var. Dulce*) культивируется во всех сельскохозяйственных регионах мира. В листьях и корнях содержится 4,3% сахара, витамины A, B1, B2, B3, B6, C и E, минералы:



Рисунок 1. Ароматический профиль исследуемого пряно-ароматического сырья

K, Na, Ca, Se, Zn, Mg, Fe, S, Cu; эфирные масла (селенен и лимонен), растительные белки. Экстракты сельдерея (водный и спиртовой) ингибируют рост бактерий, включая устойчивые к антибиотикам штаммы [16, 17].

Композитные смеси из растительных порошков позволяют достичь синергетического эффекта за счёт сочетания органолептических и функциональных свойств отдельных компонентов. С учётом ароматического профиля исследуемого пряно-ароматического сырья (рис.1) была разработана смесь при соотношении любистка, базилика и сельдерея в следующей пропорции 3,0:2,5:1,5. Компоненты тщательно перемешивались до получения гомогенной массы.

Следует отметить, что любисток обладает выраженным пряным ароматом, базилик – сладковато – пряным, а в сельдерее преобладает травяной и цитрусовый оттенок. Из приведённой радарной диаграммы ароматического профиля данного сырья следует, что в смеси сочетается тёплый пряный (любисток), сладковато-пряный (базилик) и свежий травяной (сельдерей) аромат.

Для обоснования возможности частичной замены (в данном случае 7,0%) муки ржаной обдирной в рецептуре хлеба исследовали пищевую ценность вносимых добавок и смеси из них. Результаты исследования представлены в таблице 1.

Таблица 1

Пищевая ценность исследуемого сырья

Компонент	*Массовая доля, в г/100 продукта*				*ЭЦ (ккал)*
	Белки	*Жиры*	*Углеводы)*	*Клетчатка*	
Мука ржаная обдирная	*8,9*	*1,7*	*60,0*	*12,9*	*298*
Порошок любистка	20,0	4,9	55,0	11,3	345
Базилик сушёный	14,0	4,0	61,0	37,0	251
Сельдерей сушёный	11,0	3,0	74,0	12,0	319
Смесь	*9,4*	*1,9*	*60,1*	*13,4*	*299*

Анализ данных диаграммы (рис.2) показал, что базилик содержит наибольшее количество эфирных масел — 140, далее следовали (по убывающей) любисток — 120, смесь из данных растений – 125, затем сельдерей — 110 мг/100 г. Эти данные подтверждают высокую ароматическую активность всех трёх компонентов, особенно базилика.

Теперь построим диаграмму содержания эфирных масел в каждом компоненте.



Рисунок 2 – Содержание эфирных масел в каждом компоненте и смеси в целом, в мг/100 г

Из представленных в таблице 1 данных следует, что в смеси из любистка, базилика и сельдерея массовая доля белков, жиров и клетчатки превышала аналогичные значения в муке ржаной обдирной на 5,6, 11,8 и 3,9% соответственно. При этом по содержанию углеводов и энергетической ценности (ЭЦ) различия не установлены. Полученные данные доказывают возможность использования смеси из исследуемого пряно-ароматического сырья для снижения рецептурного количества муки ржаной обдирной в рецептуре хлеба.

На основании полученных результатов была разработана рецептура и режим приготовления хлеба ржаного «Hushbo`y javdar noni» с данной смесью (табл.2).

Таблица 2

Рецептура и режим приготовления теста для хлеба ржаного «Hushbo`yjavdar noni» на густой закваске в две стадии(с заменой 7,0% рецептурного количества муки ржаной обдирной порошком из -любистока,базилика,сельдерея)

Сырьё, полуфабрикаты и параметры технологического процесса	*Расход сырья по вариантам, kg*	
	закваска	*тесто*
Закваска	19,00	57,00
Мука ржаная обдирная, в т. ч. в закваске на тесто	22,00 -	65,00 28,00
Любисток порошок		3,00
Базилик порошок		2,50
Сельдерей порошок		1,50
Дрожжи прессованные	-	0,06
Соль поваренная пищевая	-	1,50
Вода	16,00	По расчёту
5. Файзуллаев Ш.Р. Каноп толасидан гилам арқоқ ипи йигиришнинг технологик параметрларини асослаш // Диссертация иши. Тошкент 2008.

TURLI KOMBINATSIYADA JOYLASHGAN TAKOMILLASHTIRILGAN QOZIQCHALI PLANKALI BARABANLARNING TAHLILI

[1]Hamroyeva M.F, [1]Muxamedjanova S.F, [2]Tuychiev T.O, [1]Sayfullayev S.S, [1]Xudayarova F.O.

[1]Buxoro davlat texnika universiteti, [2]Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti.

Annotatsiya. *Maqolada to‘rt xil konstruksiyadagi qoziqchali-plankali barabanlar o‘rnatilgan tozalagichning tozalash samaradorligining turli xil seleksiya navida va sanoat navlaridagi paxtani tozalash samaradorligiga ta’siri o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari keltirilgan. Takomillashtirilgan tozalagichda tozalash jarayonidan so‘ng paxta tarkibi passiv iflosliklar miqdorini kamayishi va tozalash samaradorlikni yuqori bo‘lishiga asosiy omil qoziqchali-plankali barabanning turli konstruksiyada ekanligi sababli havo oqimini ko‘payib, ajralgan iflosliklarni to‘rli yuza teshiklaridan chiqib ketishini jadallashganligi bilan izohlanadi.*

Kalit so‘zlar*: paxta, tozalash, ifloslik, plankali baraban, qoziqcha, tola, teshik, to‘rli setka.*

АНАЛИЗ УСОВЕРШЕНСТВОВАННЫХ КОЛКОВНО-ПЛАНЧАТЫХ БАРАБАНОВ, РАЗМЕЩЕННЫХ В РАЗЛИЧНЫХ КОМБИНАЦИЯХ

[1]Ҳамроева М.Ф, [1]Мухамеджанова С.Ф, [2]Туйчиев Т.О, [1]Сайфуллаев С.С, [1]Худаярова Ф.О.

[1]Бухарский государственный технический университет,

[2]Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности.

Аннотация*. В статье представлены результаты исследований, проведенных по изучению влияния эффективности очистки хлопка-сырца на очистительную машину с четырьмя различными конструкциями колковно-планчатых барабанов на эффективность очистки хлопка-сырца различных селекционных и технических сортов.Основным фактором, обусловившим снижение количества пассивных примесей в хлопке-сырце после очистки в усовершенствованной очистительной машине и повышение эффективности очистки, является то, что различная конструкция планчатого барабана увеличивает воздушный поток и ускоряет удаление отделенных примесей из отверстий сетчатой поверхности.*

Ключевые слова: *хлопок, чистка, грязь, решетчатый барабан, колышек, волокно, отверстие, сетка.*

ANALYSIS OF IMPROVED PIN-PLATE DRUMS ARRANGED IN VARIOUS COMBINATIONS

[1]Hamroyeva M.F, [1]Muxamedjanova S.F, [2]Tuychiev T.O, [1]Sayfullayev S.S, [1]Xudayarova F.O.
[1]Bukhara state technical university, [2]Tashkent institute textile and light industry.

Abstract. *The article presents the results of studies conducted to study the effect of raw cotton cleaning efficiency on a cleaning machine with four different designs of slatted drums on the cleaning efficiency of raw cotton of various selection and industrial grades. The main factor that caused a decrease in the amount of passive impurities in raw cotton after cleaning in the improved cleaning machine and an increase in the cleaning efficiency is that the different design of the slatted drum increases the air flow and accelerates the removal of separated impurities from the holes of the mesh surface.*

Key words: *Cotton, cleaning, dirt, grate drum, peg, fiber, hole, mesh.*

***K*irish.** Paxta quritish uskunasidan so‘ng havo yoki tasmali tarnsportyorlar yordamida tozalash texnologiyasiga uzatiladi. Ma’lumki, g‘aramdagi paxtani zichligi yuqori bo‘lganligi uchun paxta bo‘lakchalari bir biri bilan mustaxkam bog‘langan bo‘ladi va quritish jarayonida to‘liq titilmagan holda tozalashga yuboriladi. Bu o‘z navbatida ta’minlovchi valiklardan so‘ng dastlabki qoziqchali plankali barabanlarda paxtani titilishiga olib kelib, tozalash samaradorlikni pasaytiradi. Shuningdek, katta bo‘laklardan iborat xomashyoni qoziqchali plankali baraban va to‘rli yuza orasiga tushgan mexanik shikastlanishni oshishiga olib kelib, keyingi bosqichlarda jarayonlarda tola tarkibida nuqsonlar hosil bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Pirovardda tolaning sinfini pasayishiga olib kelib, tolaning xarid narxi kamayadi.

Tadqiqot o‘tkazish metodikasi. Tadqiqotlarda 1XK tozalagichiga qoziqchali plankali barabanlar quyidagi ketma-ketlikda o‘rnatildi: ta’minlovchi valiklardan so‘ng mavjud variantdagi qoziqchali-plankali baraban, undan so‘ng qoziqcha va plankaning balandligi 65 mm va qoplamaning diametri 270 mm bo‘lgan qoziqchali-plankali baraban, undan so‘ng qoziqcha va plankaning balandligi 80 mm va qoplamaning diametri 240 mm bo‘lgan qoziqchali-plankali baraban hamda qoziqcha va plankaning balandligi 95 mm va qoplamaning diametri 210 mm bo‘lgan qoziqchali-plankali barabanlar.

Tozalash jarayoni quyidagicha amalga oshiriladi: paxta ta’minlovchi valiklar yordamida ularning ostida joylashgan mavjud variantdagi va qoziqcha va plankaning balandligi 65 mm va qoplamaning diametri 270 mm bo‘lgan qoziqchali-plankali barabanlar orasiga uzatib beradi. Paxta xomashyosi dastlab qoziqchali-plankali barabanlarning yuqori qismida titkilanib, alohida bo‘lakchalarga ajratilib, mustahkam bog‘langan iflosliklar passivlashtiriladi. Shundan so‘ng, qoziqcha va plankaning balandligi 95 mm va qoplamaning diametri 210 mm bo‘lgan qoziqchali-plankali baraban va to‘rli yuza orasida tozalanadi. Ikkinchi navbatda turgan qoziqcha va plankaning balandligi 80 mm va qoplamaning diametri 240 mm bo‘lgan qoziqchali-plankali barabanda tozalanadi. Shu tarzda barcha qoziqchali barabanlar va to‘rli yuzalarda paxta xomashyosi tozalandi.

Tadqiqot natijalari. Olib borilgan tadqiqot natijalari 1÷.2-jadvallar va 1÷2-rasmlarda keltirilgan. Tadqiqotlarda Nam-77 va S65-24 seleksiya navidagi paxtani tozalashdan oldingi namligi o‘z navbatida 8,05; 8,50 % va 8,11; 8,6 %lar va iflosligi 8,2; 11,5 % va 7,5; 10,3 %lardagi paxta xomashyosidan foydalanildi.

Mavjud qoziqchali-plankali barabanlar o‘rnatilgan tozalagichning ish unumdorligi 3 tonna/soatni tashkil etganda Namangan-77 seleksiyasidagi paxta xomashyosining I sanoat navi tadqiqot variantidagi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 4,59 %ni, passiv iflosliklar miqdori 26,9 %ni, tozalash samaradorlik 44,06 %ni, chigitning mexanik shikastlanishi-ning oshishi 0,30% ni tashkil etdi. Paxta xomashyosining III sanoat navi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 5,98 %ni, passiv iflosliklar miqdori 32,06 %ni, tozalash samaradorlik 47,96 %ni, chigitning mexanik shikastlanishining oshishi 0,33% ni tashkil etdi.

Paxta xomashyosining S65-24 seleksiyasidagi I sanoat navi tadqiqot variantidagi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 4,22 %ni, passiv iflosliklar miqdori 28,43 %ni, tozalash samaradorlik 43,80 %ni, chigitning mexanik shikastlanishining oshishi 0,28% ni tashkil etdi. Paxta xomashyosining III sanoat navi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning

iflosligi 5,53 %ni, passiv iflosliklar miqdori 34,50 %ni, tozalash samaradorlik 46,28 %ni, chigitning mexanik shikastlanishining oshishi 0,22% ni tashkil etdi.

1-jadval

Mavjud qoziqchali-plankali barabanlar o‘rnatilgan tozalagichda olib borilgan tadqiqot natijalari

t/r	Ko‘rsatkichlar	Nam-77 seleksiya navi		S65-24 seleksiya navi	
		I nav	III nav	I nav	III nav
1.	Paxtaning namligi, %	8,05	8,50	8,11	8,6
2.	Paxtaning iflosligi, %	8,2	11,5	7,5	10,3
ish unumdorlik 3 tonna/soat					
3.	Tozalagichdan so‘ng iflosligi, %	4,59	5,98	4,22	5,53
4.	Tozalagichdan so‘ng paxtadagi passiv iflosliklar miqdori, %	26,9	32,06	28,43	34,5
5.	Tozalash samaradorligi, %	44,06	47,96	43,8	46,28
6.	Tozalagichdan so‘ng chigit shikastlanishining oshishi, %	0,30	0,33	0,28	0,22
ish unumdorlik 5 tonna/soat					
7.	Tozalagichdan so‘ng iflosligi, %	4,81	6,37	4,42	5,87
8.	Tozalagichdan so‘ng paxtadagi passiv iflosliklar miqdori, %	33,65	39,25	35,10	41,35
9.	Tozalash samaradorligi, %	41,35	44,57	41,12	43,04
10.	Tozalagichdan so‘ng chigit shikastlanishining oshishi, %	0,55	0,62	0,60	0,59
ish unumdorlik 7 tonna/soat					
11.	Tozalagichdan so‘ng iflosligi, %	4,98	6,69	4,58	6,12
12.	Tozalagichdan so‘ng paxtadagi passiv iflosliklar miqdori, %	38,50	45,4	39,45	46,83
13.	Tozalash samaradorligi, %	39,25	41,84	38,97	40,56
14.	Tozalagichdan so‘ng chigit shikastlanishining oshishi, %	0,68	0,78	0,80	0,86

Tozalagichning ish unumdorligi 5 tonna/soatni tashkil etganda Namangan-77 seleksiyasidagi paxta xomashyosining I sanoat navi tadqiqot variantidagi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 4,81 % ni, passiv iflosliklar miqdori 33,65 % ni, tozalash samaradorlik 41,35 % ni, chigitning mexanik shikastlanishining oshishi 0,55% ni tashkil etdi. Paxta xomashyosining III sanoat navi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 6,37 % ni, passiv iflosliklar miqdori 39,25 % ni, tozalash samaradorlik 44,57 % ni, chigitning mexanik shikastlanishining oshishi 0,62% ni tashkil etdi.

Paxta xomashyosining S65-24 seleksiyasidagi I sanoat navi tadqiqot variantidagi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 4,42 % ni, passiv iflosliklar miqdori 35,10 % ni, tozalash samaradorlik 41,12 % ni, chigitning mexanik shikastlanishining oshishi 0,60% ni tashkil etdi. Paxta xomashyosining III sanoat navi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 5,87% ni, passiv iflosliklar miqdori 41,35 % ni, tozalash samaradorlik 43,04 % ni, chigitning mexanik shikastlanishining oshishi 0,59% ni tashkil etdi.

Tozalagichning ish unumdorligi 7 tonna/soatni tashkil etganda Namangan-77 seleksiyasidagi paxta xomashyosining I sanoat navi tadqiqot variantidagi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 4,98 %ni, passiv iflosliklar miqdori 38,50 %ni, tozalash samaradorlik 39,25 %ni,

chigitning mexanik shikastlanishining oshishi 0,68% ni tashkil etdi. Paxta xomashyosining III sanoat navi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 6,69 %ni, passiv iflosliklar miqdori 45,4 %ni, tozalash samaradorlik 41,84 %ni, chigitning mexanik shikastlanishining oshishi 0,78% ni tashkil etdi.

Paxta xomashyosining S65-24 seleksiyasidagi I sanoat navi tadqiqot variantidagi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 4,58 %ni, passiv iflosliklar miqdori 39,45 %ni, tozalash samaradorlik 38,97 %ni, chigitning mexanik shikastlanishining oshishi 0,80% ni tashkil etdi. Paxta xomashyosining III sanoat navi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 6,12 %ni, passiv iflosliklar miqdori 46,83 %ni, tozalash samaradorlik 40,56 %ni, chigitning mexanik shikastlanishining oshishi 0,86% ni tashkil etdi.

2-jadvalda keltirilgan ma’lumotlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, tozalagichning ish unumdorligi 3 tonna/soatni tashkil etganda Namangan-77 seleksiyasidagi paxta xomashyosining I sanoat navi tadqiqot variantidagi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 4,06 %ni, passiv iflosliklar miqdori 15,3 %ni, tozalash samaradorlik 50,47 %ni, chigitning mexanik shikastlanishining oshishi 0,25% ni tashkil etdi. Paxta xomashyosining III sanoat navi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 5,18 %ni, passiv iflosliklar miqdori 19,5 %ni, tozalash samaradorlik 54,99 %ni, chigitning mexanik shikastlanishining oshishi 0,24% ni tashkil etdi.

2-jadval.

Qoziqchali-plankali barabanlari takomillashtirilgan tozalagichda olib borilgan tadqiqot natijalari

t/r	Ko‘rsatkichlar	Nam-77 seleksiya navi		S65-24 seleksiya navi	
		I nav	III nav	I nav	III nav
1.	Paxta namligi, %	8,05	8,50	8,11	8,6
2.	Paxta iflosligi, %	8,2	11,5	7,5	10,3
ish unumdorlik 3 tonna/soat					
3.	Tozalagichdan so‘ng iflosligi, %	4,06	5,18	3,74	4,75
4.	Tozalagichdan so‘ng paxtadagi passiv iflosliklar miqdori, %	15,3	19,5	17,67	22,72
5.	Tozalash samaradorligi, %	50,47	54,99	50,11	53,84
6.	Tozalagichdan so‘ng chigit shikastlanishining oshishi, %	0,25	0,24	0,20	0,17
ish unumdorlik 5 tonna/soat					
7.	Tozalagichdan so‘ng iflosligi, %	4,28	5,57	3,94	5,08
8.	Tozalagichdan so‘ng paxtadagi passiv iflosliklar miqdori, %	21,8	25,9	23,65	28,32
9.	Tozalash samaradorligi, %	47,8	51,55	47,5	50,7
10.	Tozalagichdan so‘ng chigit shikastlanishining oshishi, %	0,48	0,50	0,50	0,52
ish unumdorlik 7 tonna/soat					
11.	Tozalagichdan so‘ng iflosligi, %	4,46	5,90	4,10	5,35
12.	Tozalagichdan so‘ng paxtadagi passiv iflosliklar miqdori, %	25,5	30,8	26,9	32,5
13.	Tozalash samaradorligi, %	45,6	48,7	45,4	48,1
14.	Tozalagichdan so‘ng chigit shikastlanishining oshishi, %	0,59	0,65	0,68	0,75

Paxta xomashyosining S65-24 seleksiyasidagi I sanoat navi tadqiqot variantidagi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 3,74 %ni, passiv iflosliklar miqdori 17,67 %ni, tozalash samaradorlik 50,11 %ni, chigitning mexanik shikastlanishining oshishi 0,20% ni tashkil etdi. Paxta xomashyosining III sanoat navi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 4,75 %ni, passiv iflosliklar miqdori 22,72 %ni, tozalash samaradorlik 53,84 %ni, chigitning mexanik shikastlanishining oshishi 0,17% ni tashkil etdi.

Tozalagichning ish unumdorligi 5 tonna/soatni tashkil etganda Namangan-77 seleksiyasidagi paxta xomashyosining I sanoat navi tadqiqot variantidagi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 4,28 %ni, passiv iflosliklar miqdori 21,8 %ni, tozalash samaradorlik 47,8 %ni, chigitning mexanik shikastlanishining oshishi 0,48% ni tashkil etdi. Paxta xomashyosining III sanoat navi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 5,57 %ni, passiv iflosliklar miqdori 25,9 %ni, tozalash samaradorlik 51,55 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini ngoshishi 0,50% ni tashkil etdi.

Paxta xomashyosining S65-24 seleksiyasidagi I sanoat navi tadqiqot variantidagi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 3,94 %ni, passiv iflosliklar miqdori 23,65 %ni, tozalash samaradorlik 47,5 %ni, chigitning mexanik shikastlanishining oshishi 0,50% ni tashkil etdi. Paxta xomashyosining III sanoat navi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 5,8 %ni, passiv iflosliklar miqdori 28,32 %ni, tozalash samaradorlik 50,7 %ni, chigitning mexanik shikastlanishining oshishi 0,52% ni tashkil etdi.

Tozalagichning ish unumdorligi 7 tonna/soatni tashkil etganda Namangan-77 seleksiyasidagi paxta xomashyosining I sanoat navi tadqiqot variantidagi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 4,46 %ni, passiv iflosliklar miqdori 25,5 %ni, tozalash samaradorlik 45,6 %ni, chigitning mexanik shikastlanishining oshishi 0,59% ni tashkil etdi. Paxta xomashyosining III sanoat navi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 5,90 %ni, passiv iflosliklar miqdori 30,8 %ni, tozalash samaradorlik 48,7 %ni, chigitning mexanik shikastlanishining oshishi 0,65% ni tashkil etdi.

Paxta xomashyosining S65-24 seleksiyasidagi I sanoat navi tadqiqot variantidagi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 4,10 %ni, passiv iflosliklar miqdori 26,9 %ni, tozalash samaradorlik 45,4 %ni, chigitning mexanik shikastlanishining oshishi 0,68% ni tashkil etdi. Paxta xomashyosining III sanoat navi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 5,35 %ni, passiv iflosliklar miqdori 32,5 %ni, tozalash samaradorlik 48,1 %ni, chigitning mexanik shikastlanishining oshishi 0,75% ni tashkil etdi.

Takomillashtirilgan qoziqchali barabanlarda passiv iflosliklar miqdori mavjud qoziqchali barabanlarga nisbatan ish unumdorlik 3 tonna/soat bo‘lib, Nam-77 seleksiya navining I sanoat navi qayta ishlanganda 11,6 %ga, III sanoat navi qayta ishlanganda 12,56%ga kamayishiga erishildi. S65-24 seleksiya navining I sanoat navi qayta ishlanganda passiv iflosliklar miqdori 10,76 %ga, III sanoat navi qayta ishlanganda 11,78%ga kamaytirishga erishildi. Tozalagichning ish unumdorligi 5 tonna/soat bo‘lib, Nam-77 seleksiya navining I sanoat navi qayta ishlanganda 11,85 %ga, III sanoat navi qayta ishlanganda 13,35%ga kamayishiga erishildi. S65-24 seleksiya navining I sanoat navi qayta ishlanganda passiv iflosliklar miqdori 11,45 %ga, III sanoat navi qayta ishlanganda 13,03%ga kamaytirishga erishildi. Tozalagichning ish unumdorligi 7 tonna/soat bo‘lib, Nam-77 seleksiya navining I sanoat navi qayta ishlanganda 13,0 %ga, III sanoat navi qayta ishlanganda 14,60 %ga kamayishiga erishildi. S65-24 seleksiya navining I sanoat navi qayta ishlanganda passiv iflosliklar miqdori 12,55 %ga, III sanoat navi qayta ishlanganda 14,3 3%ga kamaytirishga erishildi.

Tozalagichning ish unumdorligi 7 tonna/soat bo‘lganda Nam-77 seleksiyasining I sanoat navida tozalash samaradorlik 45,6 %ni tashkil etgan bo‘lsa, III sanoat navida 48,7 %ni tashkil etib, mavjud tozalagichga nisbatan I sanoat navida 6,35% va III sanoat navida 6,86 %ga tozalash samaradorlikning yuqori bo‘lishiga erishildi.



1-rasm. Paxtaning turli seleksiya va sanoat navlarida tozalagichning har xil ish unumdorliklarida mavjud qoziqchali barabanning tozalash samaradorligiga ta'siri



2-rasm. Paxtaning turli seleksiya va sanoat navlarida tozalagichning har xil ish unumdorliklarida takomillashtirilgan qoziqchali barabanning tozalash samaradorligiga ta'siri

Tozalagichning ish unumdorligi 7 tonna/soat bo'lganda S65-24 seleksiyasining I sanoat navida tozalash samaradorlik 45,4 %ni tashkil etgan bo'lsa, III sanoat navida 48,1 %ni tashkil etib, mavjud tozalagichga nisbatan I sanoat navida 6,43% va III sanoat navida 7,54 %ga tozalash samaradorlikning yuqori bo'lishiga erishildi.

Xulosa. Qoziqchali-plankali barabanning takomillashtirilgan konstruksiyasini tozalash uskunasiga o'rnatilishi natijasida tozalash jarayonidan so'ng paxta tarkibi passiv iflosliklar miqdorini kamayishi va tozalash samaradorlikning yuqori bo'lishiga qoziqchali-plankali barabanning turli konstruksiyada ekanligi sababli havo oqimi ko'payib, ajralgan iflosliklarni to'rli yuza teshiklaridan chiqib ketishining jadallashganligi bilan izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ташпулатов Д.С., Джамолов Р.К., Курбонов Ф.А. 1ХК тозалагичининг қозиқли барабан билан тўрли юза оралиқ масофасини пахта ифлослигига боғлиқ холда ўзгарувчанлигини таъминлаш // Ўзбекистон тўқимачилик муаммолари журнал, №1, 2023.

2. Tuychiev T. et al. Influence of the Direction of Movement of Cotton to Pile Drums on the Cleaning Efficiency //International Scientific Conference on Agricultural Machinery Industry “Interagromash"”. – Cham : Springer International Publishing, 2022. – С. 2084-2091.
3. Росулов Р. Х. и др. Очистка хлопка-сырца вибрационным способом //Universum: технические науки. – 2023. – №. 3-2 (108). – С. 56-60..
4. Кулиев Т. М. и др. Моделирование процесса очистки при воздействии колкового барабана на поток хлопка-сырца //Universum: технические науки. – 2023. – №. 9-3 (114). – С. 54-59..
5. Усманов Х. С. и др. Построение регрессионной модели для процесса вертикальной очистки хлопка-сырца //Universum: технические науки. – 2021. – №. 8-1 (89). – С. 84-89.
6. Усманов Д. А., Каримов Р. Х., Полотов К. К. Технологическая оценка работы четырехбарабанного очистителя //Проблемы современной науки и образования. – 2019. – №. 11-1 (144). – С. 40-42.
7. Туйчиев Т. О., Хамроева М. Ф. Пахтани майда ифлосликлардан тазалашдаги қозиқчали барабан диаметрларини ўзгаришини пахта оқимига таъсири //Yangi O‘zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 291-296..
8. Туйчиев Т. О., Хамроева М. Ф. Пахтани майда ифлосликлардан тозалаш технологиялари тахлили //Journal of international scientific research. – 2024. – Т. 1. – №. 2. – С. 370-376..
9. Madumarov I.D., Ruzmetov R.I., Gapparova M.A., Tuychiev T.O. Changing the Cotton Fiber Temperature// International Journal of Engineering and Advanced Technology (IJEAT) ISSN: 2249 – 8958, Volume-9 Issue-3, February, 2020 – P.974-977.
10. Усманов Д. А. и др. Исследование эффективности очистки хлопка-сырца от мелких сорных примесей // Проблемы современной науки и образования. – 2019. – №. 11-1 (144). – С. 48-51.

TAVSIYA ETILGAN TEPKI UZELINING TO‘LIQ FAKTORLI REJALASH USULI BO‘YICHA REZINA AMORTIZATORLI TISHLI REYKA-TEPKI TIZIMINI O‘RGANISH

Bozorova F.M., Vafoyeva Z.S.

Buxoro davlat texnika universiteti.

Annotatsiya. *Maqolada tikuv mashinasi uchun tavsiya etilgan samarali tepki uzelining tadqiqotni o‘tkazish va o‘lchov natijalarini qayd qilish uchun eksperimentni rejalashtirishning kodlangan matritsasi tuzilgan va tadqiqotlar asosida aniqlangan. Regressiya koeffitsiyentlarining ahamiyatliligini tekshirish uchun bir vaqtning o‘zida plan markazida uchta qo‘shimcha tajriba o‘tkazalib tahlil asosida maqbul qiymatlari asoslangan.*

Tayanch iboralar: *tikuv mashinasi, tepki uzeli, sterjen, prujina, reyka, o‘chov, eksperiment, regressiya, matritsa, rezinali amortizator, fisher mezon.*

ИССЛЕДОВАНИЕ ЗУБЧАТОЙ СИСТЕМЫ ЗУБЧАТОЙ РЕЙКИ С РЕЗИНОВЫМ АМОРТИЗАТОРОМ МЕТОДОМ ПОЛНОФАКТОРНОГО ПЛАНИРОВАНИЯ РЕКОМЕНДУЕМОЙ ТРУБНОЙ СБОРКИ

Бозорова Ф.М, Вафоева З.С.

Бухарский государственный технический университет.

Анататция. *В статье на основе исследований составлена и определена кодированная матрица планирования эксперимента для проведения исследований и регистрации результатов измерения узла эффективной реакции, рекомендуемого для швейной машины. Чтобы проверить значимость коэффициентов регрессии, одновременно в центре плана были проведены три дополнительных эксперимента и на основе анализа были определены приемлемые значения.*

Ключевые слова*: швейная машина, узел нити, стержень, пружина, рельс, измерение, эксперимент, регрессия, матрица, резиновый амортизатор, критерий Фишера.*

STUDY OF THE GEAR SYSTEM OF A RACK WITH RUBBER SHOCK ABSORBER BY FULL FACTOR PLANNING METHOD OF RECOMMENDED TUBE ASSEMBLY

Bozorova F.M., Vafoyeva Z.S.

Bukhara state technical university.

Anatatsion. *In the article, based on research, a coded experiment planning matrix has been compiled and defined for conducting research and recording the measurement results of the effective response unit recommended for a sewing machine. To test the significance of the regression coefficients, three additional experiments were conducted simultaneously at the center of the design and based on the analysis, acceptable values were determined.*

Key words: *sewing machine, thread assembly, rod, spring, rail, measurement, experiment, regression, matrix, rubber shock absorber, Fisher criterion.*

Kirish. Tikuv mashinalarining asosiy ko‘rsatkichlaridan uning sifatli baxyaqatorlarni hosil qilishi yuqori ish unumida bo‘lish hisoblanadi. Baxyalarni hosil qilishda tezlikning ortishi bilan iplarning tarangliklari ortadi, chokni o‘tkazib yuborish, iplarning uzulishi, ignaning sinishi, materiallarning g‘ijimlanishi kabi qator kamchiliklarga olib keladi. Bunda tepki o‘ziga xos vazifani bajaradi. Tepki yetarli darajada materiallarni bosib turishi uchun ular orasida kerakli ishqalanish kuchini hosil qiladi. Matariallar qalinliklari va zichliklari bir tekisda bo‘lmaydi. Shuning uchun tepki kerakli darajada vertikal tebranishi sodir bo‘ladi. Ushbu tebranishlar mavjud tikuv mashinalarida yetarlicha amalga oshirilmaydi.

Tavsiya etilgan tarkibli tepki to‘liq omilli tajribaviy tadqiqotlar natijasida omillarning maqbul qiymatlari aniqlandi, tarkibli tepki amortizatori qalinligi, bahya uzunligi va tepkining bosim kuchi tajribaviy tadqiqotlar o‘tkazilib olingan regressiya tenglamasini maxsus kompyuter dasturi asosida omillarning o‘zaro bog‘lanish grafiklari olindi [1,2].

Adabiyot manbalari, ilmiy hisobotlar va dissertatsiya ishida gazlamalarni o‘rganish natijasida, o‘rganayotgan jarayonga bir qator omillar ta’sir qilishini ko‘rsatdi, ulardan quyidagi kirish omillari reyting bo‘yicha tanlandi: X_1=1,5-2,5mm, tepki rezinali amortizatori qalinligi; X_2= 2-5mm, bahya uzunligi (*l*); X_3= 40-60 N, tepki bosim kuchi (*R*).

$X_n=X_0+\Delta$ va $X_b=X_0-\Delta$ formulalarni inobatga olib, eksperimental shartlar jadvalini to‘ldiramiz (3.5-jadval). Chiquvchi omil sifatida tepkining siljish qiymatlari olingan.

1-jadval

Variatsiya va kirish qiymatlarining darajalari va intervallari jadvali

Kirish qiymatlar	X_n	X_0	X_b	Variatsiya intervali
	-1	0	+1	Δ_i
X_1, mm (Δ)	1,5	2,0	2,5	0,5
X_2, mm (l)	2	3,5	5	1,5
X_3, N (*r*)	20	40	60	20

Bizning holatimizda [3] ko‘rinishdagi chiziqli regressiya tenglamasining koeffitsiyentlarini aniqlash uchun №=23=8 PFY tajribasini tanlaymiz:

$$U = b_0+b_1x_1+ b_2x_2+ b_3x_3+ b_{12}x_{12}+ b_{13}x_1x_3+ b_{23}x_{23}+ b_{123}x_1x_2x_3 \quad (1)$$

Tadqiqotni o‘tkazish va o‘lchov natijalarini qayd qilish uchun eksperimentni rejalashtirishning kodlangan matritsasini tuzamiz va tadqiqot natijalarini kiritamiz (2 - jadval) [3,4].

Regressiya koeffitsiyentini hisoblaymiz [4,5]:

$$b_0 = \frac{\sum_{u=1}^{n} \bar{y}_u}{n}; \quad b_i = \frac{\sum_{u=1}^{n} x_{iu}\bar{y}_u}{n}; \quad b_{ij} = \frac{\sum_{u=1}^{n} x_{iu}\bar{x}_{ju}\bar{y}_u}{n}; \quad (2)$$

$$b_1 = \frac{(+1)3 + (-1)2.9 + (+1)2.8 + (-1)2.6 + (+1)1.8 + (-1)2.7 + (+1)1.6 + (+12.9)}{8} = -1.02$$

$$b_0 = 3.2;\ b_2 = 0.22;\ b_3 = 0;\ b_{12} = -0.24; \quad b_{13} = -0.15;\ b_{23} = 0;\ b_{123} = -1.3.$$

2 - jadval

Eksperiment matritsasi va o‘lchovlar natijalari

№	X_0	X_1	X_2	X_3	X_1X_2	X_1X_3	X_2X_3	$X_1X_2X_3$	Y
1	+	+	+	+	+	+	+	+	3
2	+	-	+	+	-	-	+	-	2,9
3	+	+	-	+	-	+	-	-	2,8
4	+	-	-	+	+	-	-	+	2,6
5	+	+	+	-	+	-	-	-	1,8
6	+	-	+	-	-	+	-	+	2,7
7	+	+	-	-	-	-	+	+	1,6
8	+	-	-	-	+	+	+	-	2,9

Regressiya koeffitsiyentlarining ahamiyatliligini tekshirish uchun bir vaqtning o‘zida plan markazida uchta qo‘shimcha tajriba o‘tkazamiz, ulardan $y_{10}=2,\ y_{20}=3,\ y_{30}=1.$ qabul qilamiz [5].

Dispersiya: $y_0=\frac{\sum_{u=1}^{3}y_{u0}}{3}=\frac{2+3+1}{3}=2;\quad S_y^2=\frac{\sum_{u=1}^{3}(y_{u0}-y_0)}{2}=1;\quad S_y=\sqrt{1}=1,$ (3)

Regressiya koeffitsiyentlarining dispersiyasi [1]:

$$S_{bj}^2=\frac{S_y^2}{n};\qquad S_{bj}^2=\frac{S_y^2}{\sqrt{n}}=\frac{1}{\sqrt{8}}=0.3; \tag{4}$$

Endi koeffitsiyentlarning ishonchliligini styudent mezoniga ko`ra baholaymiz:

$$t_0=(b_i)/S_b=3.2/0.3=10.6, t_1=(b_1)/S_{b0}=-1.02=-3.4,$$
$$t_2=(b_2)/S_{b0}=0.22/0.3=0.73, t_3=0,7;$$
$$t_{12}=-0.8,\ t_{13}=-0.5,\ t_{23}=0.$$

$\alpha=0.05$ dagi ishonchlilik darajasi uchun styudent mezonining qiymati (yoki ishonchlilik darajasi q=0,95) va erkinlik darajalari soni f=m-1=3-1=2 uchun T_{kr}=1,95 ga teng [1].

$$\hat{y}=3.2+1.02x_1+0.22x_2+0.93.x_3-0.24x_1x_2+1.5x_1x_3+x_2x_3-1.3x_1x_2x_3 \tag{5}$$

Agar T< T_{kr} bo‘lsa, u holda koeffitsiyent ahamiyatsiz bo‘lib, uni tenglamadan chiqarib tashlash kerak, ya’ni $b_2;b_3;b_1b_2;b_2b_3.$ koeffitsiyentlari ahamiyatsizdirlar. Ahamiyatsiz koeffitsiyentlarni olib tashlangandan so`ng, regressiya tenglamasi quyidagi shaklga keladi:

$$\hat{y}=3.2+1.02x_1+0.93x_3+1.5x_1x_3-1.3x_1x_2x_3 \tag{6}$$

Olingan tenglamaning mosligini Fisher mezoni bo‘yicha tekshiramiz:

$$F_{ad}=\frac{S_{ad}^2}{S_y^2},\quad S_{ad}^2=\frac{\sum_1^N(y_1-\hat{y})^2}{N-n}, \tag{7}$$

Bu yerda $S_y^2=0.28, n=4$- regressiya tenglamasidagi muhim koeffitsiyentlar soni.

Adekvatlik dispersiyasi: $S_{ad}^2=\frac{27.9}{4}=6.9,$

Bunda Fisher mezonining hisoblangan qiymati $F_p=\frac{6.9}{1}=6.9$

$\alpha=0.05$ uchun Fisher mezonining qiymati $f_1=4;$

$f_2=2; f_2=m-1=3-1=2$- har bir baholashdagi erkinlik darajalari soni,

$f_1=N-m=8-3-1=4$ yoki $f_1=N-n=8-4=2$- dispersiyaning mustaqil baholashdagi soni.

Bu holda Fisher mezonining jadvaldagi qiymati $F_{kr}=(f\ ;f_2)=19.3$, 6,9<19,3 bo‘lgani uchun, olingan tenglama tajribamizni mos ravishda takrorlaydi [2,7,6].

Qoldiq dispersiyani hisoblash uchun 3.7-jadvalni tuzamiz:

3-jadval

Hisoblash natijalari

№	$\bar{y}$	$\hat{y}$	$y_i - \hat{y}$	$(y_i - \hat{y})^2$
1	3	4,9	-1,9	3,5
2	2,9	4	-1,1	1,2
3	2,8	2	0,8	0,64
4	2,6	4	-1,4	1,9
5	1,8	0	-1,8	3,2
6	2,7	4,3	-1,6	2,5
7	1,6	-2	3,6	12,9
8	2,9	-1,9	4,8	23
				$\sum 27.9$

Olingan tenglamadan amalda qo‘llash uchun uni quyidagi formula bo‘yicha natural holatga o‘tkazish qulay bo‘ladi:

$$x_i = \frac{(x_j - x_{0j})}{\Delta}; \quad (8)$$

bunda x_j- kodlangan (normallashtirilgan qiymat) faktori;

x_j, x_{0j}-faktorning natural qiymati,

Δ-variatsiya intervali.

Bunda (8) ga binoan quyidagilarni topamiz [2,7]:

$$x_1 = \frac{\Delta - 2.0}{0.5}; \; x_2 = \frac{l - 3.5}{1.5}; \; x_3 = \frac{P - 40}{20};$$

Ushbu qiymatlarni (2) tenglamaga qo‘yilgandan so‘ng, tepkining tebranishlar amplitudasi qiymatini tavsiflovchi ifodani topamiz [2]:

$$N = 3.2 - 1.02\Delta + 0.53\Delta p - 0.038\Delta lp$$

Bosh valning aylanish tezligi ortishi bilan reykaning qadami ortib, reykadagi tashqi yuk ortishi bilan esa kamayishi aniqlandi.

Olingan regressiya tenglamasini maxsus kompyuter dasturi asosida yechib, omillarning o‘zaro bog‘lanish grafiklari olindi va 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. 1 – X_2 va X_3 – minimal qiymatlari; 2 – X_2 va X_3 – o‘rtacha qiymatlari; 3 – X_2 va X_3 – maksimal qiymatlari

Kiyim qismlarini biriktirish paytida ularni harakatlantirish jarayonini eksperimental tadqiqotlar yordamida o‘rganish natijalarini tahlil qilish, tepkining amortizatori qayishqoqligi (qalinligi) hamda tikilayotgan gazlamalarning fizik-mexanik xususiyatlari gazlamalarning nisbiy

harakatlanish qonuniyatiga ta’sirini aniqlashga imkon berdi. Shu bilan birga tikilayotgan gazlamalarning nisbiy siljishini tartibga soluvchi bir reykali mexanizmlarni loyihalash uchun qo‘shimcha shartlarni belgilash imkonini berdi [8, 9, 10].

Eksperimental tadqiqotlar to‘liq faktorli rejalashtirish usuli yordamida amalga oshirildi. Tepkining siljish qiymati va gazlamaning nisbiy siljishining regressiyali matematik modellari olindi.

Xulosa. Tepkining amortizatori qayishqoqligi (qalinligi) hamda tikilayotgan gazlamalarning fizik-mexanik xususiyatlari gazlamalarning nisbiy harakatlanish qonuniyatiga ta’sirini aniqlashga imkon berdi. Shu bilan birga, tikilayotgan gazlamalarning nisbiy siljishini tartibga soluvchi bir reykali mexanizmlarni loyihalash uchun qo‘shimcha shartlarni belgilash imkonini berdi.

Adabiyotlar:

1. A.Dj.Djurayev, F.M.Bozorova Tikuv mashinasi tepkisi uchun qo’llaniladigan rezina materiallarning qattiqligini o'lchash. nam mti. “to‘qimachilik va yengil sanoatda innovatsion texnologiyalarni joriy qilish istiqbollari” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to’plami., 2023 yil 16-17 may, 1-tom
2. A.Dj.Djurayev, F.M.Bozorova Qayishqoq rezinali elementi mavjud tavsiya etilgan tepki konstruktsiyasi dinamikasining eksperimental tadqiqotlari. Nam MTI. “to‘qimachilik va yengil sanoatda innovatsion texnologiyalarni joriy qilish istiqbollari” Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to’plami., 2023 yil 16-17 may, 1-tom
3. Джураев Динамика рабочих механизмов хлопкаперерабативающих машин// – Ташкент: Фан, 1987. -с. 188.
4. Djurayev A., Turdaliyev V.M., Bobomatov A.X., Xolturayev X.P. Разработка конструкций и методы расчета параметров колеблющихся сеток. Монографий. Изд. ЛАП Ламберт Академис Публишинг, Дейтсчланд/ 2016. -с. 157.
5. A.Dj.Djurayev, F.M.Bozorova Tepkidagi yukning xususiyatlari haqidagi nazariy farazlar. Buxoro muhandislik-texnologiya instituti fan va texnologiyalar taraqqiyoti ilmiy–texnikaviy jurnali-mail: fantt_jurnal@umail.uz. https://journal.bmti.uz/
6. A.Dj. Djurayev, F.M. Bozorova Экспериментальной определение задней нагрузки с новим предлагаемим составом резинвого лапки швейной машины.. “Sanoat va mashinasozlik mahsulotlarini ishlab chiqarishda sifat ko`rsatgichlarini ta`minlashda innovasion texnologiyalar” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to`plami I qism Namangan 2023
7. Djurayev A.Dj., Bozorofa F.M. Tepki konstruksiyasining tahlili. Termiz muhandislik-texnologiya instituti “Paxta tozalash, to`qimachilik va yengil sanoat sohalarining texnologiyasini takomillashtirish” mavzusidagi xalqaro ilmiy-texnik anjumanning materiallar to`plami. 2-qism. Termiz 2023.
8. Mansurova M.A., Vafayeva Z.S., Matyakubova J.B. “Improvement of the design of the shuttle drum in the sewing machine”. Scientific and Technical Journal Namangan Institute of Engineering and Technology Volume-8, Issue 1, 2023. –P 179-185
9. Sharipov J.O., Abrorov A.S. Interactive methods for increasing wear resistance of cutting tool blades, E3S Web of Conferences 417, 06016 (2023)
10. Sayitkulov S.O., Nurmatova N, Sharipov J.O., Salomov A., Saidova G Optimization of the parameters on the combined cotton cleaning machine and analysis of cleaning efficiency, E3S Web of Conferences 508, 08020 (2024)

КОЛОСНИКЛИ ПАНЖАРА ВА АРРАЧАЛИ БАРАБАН ОРАЛИҚ МАСОФАСИНИНГ ТОЗАЛАШ ЖАРАЁНИГА ТАЪСИРИ

[1]Мухамеджанова С.Ф., [1]Ҳамроева М.Ф., [3]Туйчиев Т.О., [1]Худаярова Ф.О.
[1]Бухоро давлат техника университети,
[2]Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти.

Аннотация. *Мақолада колосникнинг диаметри 15 мм бўлганда аррачали барабан билан колосникли панжаранинг оралиқ масофасини тозалаш жараёнига таъсирини тадқиқ этиш бўйича олиб борилган изланишлар натижалари келтирилган. Оралиқ масофа 19 ва 20 мм бўлганда чигитнинг механик шикастланишининг ошиши ва тозалаш жараёнида ажратиб олинган ифлосликлар таркибига қўшилиб кетган пахта бўлакчаларининг миқдори энг кам кўрсаткичлар қайд этилган бўлса-да, тозалаш самарадорликнинг энг юқори кўрсаткичи аррачали барабан билан колосникли панжарани оралиқ масофаси 18 мм бўлганда эришилганлигини эътиборга олиб, тавсия сифатида колосникнинг диаметри 15 мм ва оралиқ масофа 18 мм бўлган йирик ифлосликлардан тозалаш секцияси олинди.*

Калит сўзлар: *пахта, колосник, тозалаш, ифлослик, аррачали барабан, қозиқча, тола, колосникли панжара.*

ВЛИЯНИЕ РАССТОЯНИЯ МЕЖДУ КОЛОСНИКОВОЙ РЕШЕТКОЙ И ПИЛЬНЫМ БАРАБАНОМ НА ПРОЦЕСС ОЧИСТКИ

[1]Мухамеджанова С.Ф., [1]Ҳамроева М.Ф., [2]Туйчиев Т.О., [1]Худаярова Ф.О.
[1]Бухарский государственный технический университет,
[2]Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности.

Аннотация. *В статье представлены результаты исследования влияния промежуточного расстояния пильного барабана и колосниковой решетки на процесс очистки при диаметре колонны 15 мм. Хотя минимальные показатели повышения механической поврежденности семян и количества летучек хлопка-сырца, входящих в отделяемые в процессе очистки сорных примесей, зафиксированы при расстоянии 19 и 20 мм, наиболее высокий показатель эффективности очистки зафиксирован между пильным барабаном и колосниковой решетки с расстоянием 18 мм. С учетом того, что это было достигнуто, в качестве рекомендации была принята секция очистки крупных сорных примесей диаметром колосника 15 мм и расстояния 18 мм.*

Ключевые слова: *хлопок, колосник, чистка, грязь, пильный барабан, колышек, волокно, колосниковая решотка.*

INFLUENCE OF THE DISTANCE BETWEEN THE GRATE AND THE SAW DRUM ON THE CLEANING PROCESS

[1]Muxamedjanova S.F., [1]Hamroeva M.F., [2]Tuychiev T.O., [1]Xudayarova F.O.
[1]Bukhara state technical university, [2]Tashkent institute textile and light industry.

Abstract. *The article presents the results of a study of the influence of the intermediate distance between the saw drum and the grate on the cleaning process with a column diameter of 15 mm. Although the minimum indicators of an increase in mechanical damage to seeds and the number of raw cotton volatiles included in the separated impurities during cleaning were recorded at a distance of 19 and 20 mm, the highest cleaning efficiency was recorded between the saw drum and the grate with a distance of 18 mm. Considering that this was achieved, a section for cleaning large impurities with a grate diameter of 15 mm and a distance of 18 mm was adopted as a recommendation.*

Key words: *cotton, grate, cleaning, dirt, saw drum, peg, fiber, grate latice.*

Кириш. Тозалаш жараёнида аррачали барабан ва колосникли панжаранинг оралиқ масофасини тозалаш самарадорлигига таъсирини кўплаб тадқиқотчилар томонидан изланилган [1-5]. Энг мақбул оралиқ масофа сифатида 14÷16 мм бўлишини тавсия этишган [6-8]. Олдин олиб борилган тадқиқотлардан маълумки, колосникнинг диаметри кичрайиб боришида ажралаётган ифлосликларга пахта бўлакчалари қўшилиб кетишининг ошиши аниқланган [9-10]. Бунда колосникли панжара ва аррачали барабан оралиқ масофаси 15 мм қилиб олинган. Пахта бўлакчаларини илдириб олган аррачали барабан диаметри 15 мм бўлган колосникка бориб урилиш нуқтаси колосникнинг марказидан қуйида жойлашиши пахта бўлакчаларини кўп миқдорда аррачали барабан тишларидан ажралишига олиб келган. Бунда аррачали барабан тишлари пахта бўлакчалари толаларининг қаеридан илаштириб олишнинг энг кўп ҳолати рўй бериши муҳим ҳисобланади. Шунинг учун аррачали барабан билан колосникли панжаранинг оралиқ масофасини пахта бўлакчаларини ифлосликларга

қўшилиб кетиши ва тозалаш самарадорлигига таъсирини ўрганиш мақсадида тадқиқотлар олиб борамиз.

Амалий тадқиқотлар. Тадқиқотларда аррачали барабан ва колосникли панжара оралиқ масофасини 15 мм дан 20 мм гача ўзгартириб, тозалаш жараёнига таъсири тадқиқ этилди. Тадқиқотларда С65-24 селекциясининг I ва III навлари 2 синфда, дастлабки намлиги 10,4 %, 12,5 % ва ифлослиги 8,7 %; 10,3 % бўлган пахта хом ашёсидан фойдаланилди. Тадқиқотларда ускунанинг иш унумдорлиги 7 тонна/соатда ўтказилди. Тадқиқот натижалари 1-2-жадвалларда келтирилган.

1-жадвал.

Колосникли панжара билан аррачали барабан оралиқ масофасининг тозалаш жараёнига таъсири

№	Кўрсаткичлар	Аррачали барабан билан колосниклар оралиқ масофаси, мм					
		15	16	17	18	19	20
1.	Пахтанинг дастлабки намлиги, %	10,4					
2.	Пахтанинг дастлабки ифлослиги, %	8,7					
3.	Тозалашдан сўнг ифлослик миқдори, %	4,95	4,90	4,86	4,67	4,70	4,76
4.	Тозалаш самарадорлиги, %	43,05	43,66	44,18	46,31	45,93	45,24
5.	Чигит механик шикастланишининг ошиши, %	0,56	0,53	0,51	0,49	0,49	0,47
6.	Ажратилган ифлослик таркибидаги пахта бўлакчалари миқдори, %	4,09	3,67	3,30	3,11	2,95	2,78

Пахтанинг дастлабки ифлослиги 8,7 %ни ташкил этиб, аррачали барабан билан колосникли панжаранинг оралиқ масофаси 15 мм бўлганда, чигитнинг механик шикастланишининг ошиши 0,56 %ни, тозалашдан сўнг ифлослик миқдори 4,95 %ни, тозалаш жараёнида ажралган ифлослик таркибидаги пахта бўлакчалари миқдори 4,09 %ни ва ускунанинг тозалаш самарадорлиги 43,05 %ни ташкил этди.

Аррачали барабан билан колосникли панжаранинг оралиқ масофаси 16 мм бўлганда, чигитнинг механик шикастланишининг ошиши 0,53 %ни, тозалашдан сўнг ифлослик миқдори 4,90 %ни, тозалаш жараёнида ажралган ифлослик таркибидаги пахта бўлакчалари миқдори 3,67 %ни ва ускунанинг тозалаш самарадорлиги 43,66 %ни ташкил этди.

Тозалагичнинг аррачали барабан билан колосникли панжарасининг оралиқ масофаси 17 мм бўлганда, чигитнинг механик шикастланишининг ошиши 0,51 %ни, тозалашдан сўнг ифлослик миқдори 4,86 %ни, тозалаш жараёнида ажралган ифлослик таркибидаги пахта бўлакчалари миқдори 3,30 %ни ва ускунанинг тозалаш самарадорлиги 44,18 %ни ташкил этди.

Йирик ифлосликлардан тозалаш ускунасининг аррачали барабани билан колосникли панжарасининг оралиқ масофаси 18 мм бўлганда, чигитнинг механик шикастланишининг ошиши 0,49 %ни, тозалашдан сўнг ифлослик миқдори 4,67 %ни, тозалаш жараёнида ажралган ифлослик таркибидаги пахта бўлакчалари миқдори 3,11 %ни ва ускунанинг тозалаш самарадорлиги 46,31 %ни ташкил этди.

Аррачали барабан билан колосникли панжаранинг оралиқ масофаси 19 мм бўлганда, чигитнинг механик шикастланишининг ошиши 0,49 %ни, тозалашдан сўнг ифлослик миқдори 4,70 %ни, тозалаш жараёнида ажралган ифлослик таркибидаги пахта бўлакчалари миқдори 2,95 %ни ва ускунанинг тозалаш самарадорлиги 45,93 %ни ташкил этди.

Тозалагичнинг аррачали барабан билан колосникли панжарасининг оралиқ масофаси 20 мм бўлганда, чигитнинг механик шикастланишининг ошиши 0,47 %ни, тозалашдан сўнг ифлослик миқдори 4,76 %ни, тозалаш жараёнида ажралган ифлослик таркибидаги пахта бўлакчалари миқдори 2,78 % ва ускунанинг тозалаш самарадорлиги 45,24 %ни ташкил этди.

2-жадвал

Колосникли панжара билан аррачали барабан оралиқ масофасининг тозалаш жараёнига таъсири

№	Кўрсаткичлар	Аррачали барабан билан колосниклар оралиқ масофаси, мм					
		15	16	17	18	19	20
1.	Пахтанинг дастлабки намлиги, %	12,5					
2.	Пахтанинг дастлабки ифлослиги, %	10,3					
3.	Тозалашдан сўнг ифлослик миқдори, %	5,65	5,58	5,51	5,26	5,32	5,40
4.	Тозалаш самарадорлиги, %	45,15	46,01	46,92	48,98	48,36	47,56
5.	Чигит механик шикастланишининг ошиши, %	0,73	0,68	0,65	0,62	0,6	0,59
6.	Ажратилган ифлослик таркибидаги пахта бўлакчалари миқдори, %	4,22	3,76	3,45	3,20	3,08	2,89

Пахтанинг дастлабки ифлослиги 10,3 %ни ташкил этиб, аррачали барабан билан колосникли панжаранинг оралиқ масофаси 15 мм бўлганда, чигитнинг механик шикастланишининг ошиши 0,73 %ни, тозалашдан сўнг ифлослик миқдори 5,65 %ни, тозалаш жараёнида ажралган ифлослик таркибидаги пахта бўлакчалари миқдори 4,22 %ни ва ускунанинг тозалаш самарадорлиги 45,15 %ни ташкил этди.

Аррачали барабан билан колосникли панжаранинг оралиқ масофаси 16 мм бўлганда, чигитнинг механик шикастланишининг ошиши 0,68 %ни, тозалашдан сўнг ифлослик миқдори 5,58 %ни, тозалаш жараёнида ажралган ифлослик таркибидаги пахта бўлакчалари миқдори 3,76 %ни ва ускунанинг тозалаш самарадорлиги 45,81 %ни ташкил этди.

Тозалагичнинг аррачали барабан билан колосникли панжарасининг оралиқ масофаси 17 мм бўлганда, чигитнинг механик шикастланишининг ошиши 0,65 %ни, тозалашдан сўнг ифлослик миқдори 5,51 %ни, тозалаш жараёнида ажралган ифлослик таркибидаги пахта бўлакчалари миқдори 3,45 %ни ва ускунанинг тозалаш самарадорлиги 46,92 %ни ташкил этди.

Йирик ифлосликлардан тозалаш ускунасининг аррачали барабани билан колосникли панжарасининг оралиқ масофаси 18 мм бўлганда, чигитнинг механик шикастланишининг ошиши 0,62 %ни, тозалашдан сўнг ифлослик миқдори 5,26 %ни, тозалаш жараёнида ажралган ифлослик таркибидаги пахта бўлакчалари миқдори 3,20 %ни ва ускунанинг тозалаш самарадорлиги 46,98 %ни ташкил этди.

Аррачали барабан билан колосникли панжаранинг оралиқ масофаси 19 мм бўлганда, чигитнинг механик шикастланишининг ошиши 0,60 %ни, тозалашдан сўнг ифлослик миқдори 5,32 %ни, тозалаш жараёнида ажралган ифлослик таркибидаги пахта бўлакчалари миқдори 3,08 %ни ва ускунанинг тозалаш самарадорлиги 48,36 %ни ташкил этди.

Тозалагичнинг аррачали барабан билан колосникли панжарасининг оралиқ масофаси 20 мм бўлганда, чигитнинг механик шикастланишининг ошиши 0,59 %ни, тозалашдан сўнг ифлослик миқдори 5,40 %ни, тозалаш жараёнида ажралган ифлослик таркибидаги пахта бўлакчалари миқдори 2,89 %ни ва ускунанинг тозалаш самарадорлиги 47,56 %ни ташкил этди.

Тозалаш жараёнида чигитнинг механик шикастланишининг ошиши аррачали барабан билан колосникли панжарани оралиқ масофаси 15 мм дан 20 мм гача катталашиб борган сари I нав пахтада 0,56 %дан 0,47 % гача камайиб бориши аниқланди. III нав пахтада эса 0,73 %дан 0,59 %гача камайиб бориши аниқланди. Аррачали барабанга колосникли панжара қанча яқин бўлса, арра тишлари билан пахта бўлакчаларини илаштириб, колосникка бориб уришида колосникнинг горизонтал ўқига нисбатан пастки қисмига бориб урилишида кўпроқ механик шикастланишнинг ошишига олиб келмоқда. Оралиқ масофа 20 мм гача катталашиб

боришида тозалаш жараёни оптимал кечиши билан биргаликда чигитнинг механик шикастланиши ҳам камайишига эришилмоқда.

Тозалаш ускунасида пахта тозалангандан сўнг ифлосликларга қўшилиб кетган пахта бўлакчалари миқдори аррачали барабан билан колосникли панжарани оралиқ масофаси 15 мм дан 20 мм гача катталашиб борган сари I нав пахтада 4,09 %дан 2,78 % гача камайиб бориши аниқланди. III нав пахтада эса 4,22 %дан 2,89 %гача камайиши аниқланди (1-расм).



1-расм. Тозалаш жараёнида пахта бўлакчаларини ифлосликлар таркибига қўшилиб кетишини аррачали барабан билан колосникли панжара оралиқ масофасига боғлиқ графиги. *1 – I нав пахта хом ашёси қайта ишланганда; 2 – III нав пахта хом ашёси қайта ишланганда.*

Тозалаш самарадорлигини аррачали барабан билан колосникли панжара оралиқ масофасига боғлиқ графигини (2-расм) таҳлил қиладиган бўлсак, аррачали барабан билан колосникли панжарани оралиқ масофаси 15 мм дан 18 мм гача катталашиб борган сари I нав пахтада 43,05 %дан 48,01 % гача ошиб бориши аниқланди. Оралиқ масофа 18 мм дан катталашганда эса тозалаш самарадорлик 45,24 %гача камайиши аниқланди. III нав пахтада эса аррачали барабан билан колосникли панжарани оралиқ масофаси 15 мм дан 18 мм гача катталашиб борган сари 45,15 %дан 48,52 %гача ошиб бориши, оралиқ масофа 18 мм дан катталашганда тозалаш самарадорлик 47,56 %гача камайиши аниқланди.



2-расм. Тозалаш самарадорлигининг аррачали барабан билан колосникли панжара оралиқ масофасига боғлиқ графиги*. 1 – I нав пахта хом ашёси қайта ишланганда; 2 – III нав пахта хом ашёси қайта ишланганда.*

Хулоса. Оралиқ масофа 19 ва 20 мм бўлганда чигитнинг механик шикастланишининг ошиши ва тозалаш жараёнида ажратиб олинган ифлосликлар таркибига қўшилиб кетган пахта бўлакчаларининг миқдори энг кам кўрсаткичлар қайд этилган бўлса-да, тозалаш самарадорликнинг энг юқори кўрсаткичи аррачали барабан билан колосникли панжаранинг оралиқ масофаси 18 мм бўлганда эришилди. Демак, йирик ифлосликлардан тозалаш секциясига киритилган конструктив ўзгартиришлар колосникнинг диаметри 15 мм ва аррачали барабан билан колосникли панжаранинг оралиқ масофаси 18 мм бўлганда пахта таркибидаги ифлос аралашмаларни ажратиш учун энг мақбул шароит яратилиши натижасида тозалаш самарадорлик ошишига эришилмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Аббазов Б.Т. и др. Теоретическое исследование влияния на эффективность очистки хлопка потока между колоссином //European Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2024. – Т. 23. – С. 62-72.
2. Нуриллаева Х. Т. Модернизированная конструкция колосников очистителей хлопка от крупного сора //Universum: технические науки. – 2021. – №. 5-3. – С. 31-34.
3. Ташпулатов Д. С. и др. Пути повышения эффективности очистки волокнистой массы от крупного сора //Проблемы текстильной отрасли и пути их решения. – 2021. – С. 227-232.
4. Ташпулатов Д. С., Плеханов А. Ф., Мадумаров И. Д. Разработка очистительной колосниковой решетки из многогранных колосников для агрегата УХК по очистке хлопка-сырца от крупного сора //Физика волокнистых материалов: структура, свойства, наукоемкие технологии и материалы (SMARTEX). – 2020. – №. 1. – С. 120-123.
5. Джамолов Р. К., Шералиев Ш. Э. Ў. Определение оптимальных параметров очистителя хлопка методом математического планирования экспериментов //Universum: технические науки. -2021. - №. 2-2 (83). - С. 39-42.
6. Усманов Х. С., Хурамова Х. М. Совершенствование процесса очистки хлопка //Universum: технические науки. – 2024. – Т. 4. – №. 10 (127). – С. 46-51.
7. Tuychiev T., Gafurov A., Jumamuratova V. Experimental results of the improved cotton regenerator under production conditions //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 497. – С. 03039.
8. M.A.Gapparova, T.O.Tuychiyev, J.SH.Mardonov. Yirik ifloslikiardan tozalash jarayonida kolosnik turlarining tozalash samaradorligiga ta’sirini tadqiqi. O‘zbekiston to‘qimachilik muammolari, Ilmiy-texnikaviy jurnal, TTESI, 2024 yil 4-son, - B. 25-29.
9. J.SH.Mardonov, T.O.Tuychiev, X.S.Usmonov. Study of influence of colon types on cleaning efficiency. Universum: технические науки. – 2024. – Т. 5. – №. 9 (126). – S. 37-43. ISSN: 2311-5122.
10. Madumarov I. et al. Movement of the trash inside of fiber material when available elastic force of clutch //Engineering. – 2018. – Т. 10. – №. 9. – S. 579-587.

KOLOSNIK QIRRASI BILAN BARABAN ARRA TISHLARI UCHLARI ORASIDAGI MASOFANI TOZALASH JARAYONIGA TA'SIRI

[1]Saparov M.K., [2]Ro'zmetov R.I., [2]Tuychiyev T.O., [2]Axmedov M.X.

[1]Urganch davlat universiteti, [2]Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti.

Annotatsiya. *Maqolada arrachali baraban arra tishlari uchi bilan kolosnikning ishchi qirrasigacha bo'lgan oraliq masofani tozalash jarayoniga ta'sirini aniqlash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari keltirilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kolosnikning diametri 15 mm va ularning o'zaro oraliq masofasi 30 mm arrachali baraban tishlari uchidan kolosnikli panjara qirrasigacha bo'lgan oraliq masofasi 18 mm bo'lganda, tozalashdan so'ng paxtaning ifloslik darajasi 7,55 % ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,51 % ni, tozalash jarayonida ajralgan ifloslik tarkibidagi paxta bo'lakchalarining miqdori 2,8 % ni va uskunaning tozalash samaradorligi 48,28 % ni tashkil etdi. Arrachali baraban arra tishlarining uchlari bilan kolosnik qirrasining oraliq masofasi 15 mm dan 20 mm gacha kattalashib borgan sari chigitning mexanik shikastlanishini oshishi I nav paxtada 0,55 %dan 0,36 % gacha, III nav paxtada esa 0,63 % dan 0,39 % gacha kamayishi, paxta bo'lakchalarini iflosliklar tarkibiga qo'shilib ketishi esa I sanoat nav paxtada 3,67 % dan 2,20 % gacha va IV sanoat nav paxtada esa 3,91 %dan 2,46 % gacha kamayib borishi aniqlandi.*

Kalit so'zlar: *paxta, tola,chigit, namlik, ifloslik, arrachali baraban, kolosnikli panjara,tolali chiqindilar.*

ВЛИЯНИЕ РАССТОЯНИЯ МЕЖДУ КРОМКОЙ ПРУТКА И ВЕРХНОСТЯМИ ЗУБЬЕВ БАРАБАННОЙ ПИЛЫ НА ПРОЦЕСС ОЧИСТКИ

[1]Сапаров М.К., [2]Рузметов Р.И., [2]Туйчиев Т.О., [2]Ахмедов М.Х.

[1]Ургенчский государственный университет,

[2]Ташкентский институт текстильной и лёгкой промышленности.

Аннотация*. В статье представлены результаты исследований, проведенных по определению влияния расстояния между вершиной зуба пильного барабана и рабочей кромкой колосника на процесс очистки. По результатам исследований, при диаметре колосника 15 мм, расстоянии между ними 30 мм и расстоянии от вершины зуба пильного барабана до края гребенки 18 мм степень засоренности хлопка после очистки составляет 7,55%, увеличение механической поврежденности семян – 0,51%, количество частиц хлопка в засоренности, отделенной в процессе очистки, – 2,8%, а эффективность очистки оборудования – 48,28%. Установлено, что с увеличением расстояния между вершинами зубьев пильного барабана и кромкой колосника от 15 мм до 20 мм прирост механическое повреждение семян увеличивается в хлопке первого сорта с 0,55% до 0,36%, а в хлопке третьего сорта уменьшается с 0,63% до 0,39%, а примесь кусочков хлопка в составе примесей в хлопке первого технического сорта увеличивается с 3,67% до 2,20%, а в хлопке IV технического сорта уменьшается с 3,91% до 2,46%.*

Ключевые слова: *хлопок, волокно, влага, семя, сорные примеси, пильный барабан , колосниковая решётка, волокнистые отходы.*

THE INFLUENCE OF THE DISTANCE BETWEEN THE EDGE OF THE ROD AND THE TIPS OF THE DRUM SAW TEETH ON THE CLEANING PROCESS

[1]Saparov M.K., [2]Ru'zmetov R.I., [2]Tuychiyev T.O., [2]Akhmedov M.Kh.

[1]Urgench state university, [2]Tashkent institute of textile and light industry.

Annotation. *The article presents the results of studies conducted to determine the influence of the distance between the saw drum tooth top and the working edge of the grate on the cleaning process. According to the results of the studies, with a grate diameter of 15 mm, a distance between them of 30 mm and a distance from the saw drum tooth top to the edge of the comb of 18 mm, the degree of cotton contamination after cleaning is 7.55%, the increase in mechanical damage to seeds is 0.51%, the number of cotton particles in the contamination separated during the cleaning process is 2.8%, and the cleaning efficiency of the equipment is 48.28%. It has been established that with an increase in the distance between the tops of the saw drum teeth and the edge of the grate from 15 mm to 20 mm, the increase in mechanical damage to seeds increases in first-grade cotton from 0.55% to 0.36%, and in third-grade cotton it decreases from 0.63% to 0.39%, and the admixture of cotton pieces in the composition of impurities in first-grade technical cotton increases from 3.67% to 2.20%, and in IV technical cotton it decreases from 3.91% to 2.46%.*

Key words: *cotton, fiber, moisture, seed, weed impuritie, saw drum, grate, fibrous waste*

***K*irish.** Tozalash jarayonida arrachali baraban arra tishlari uchlari va kolosnikli panjaraning kolosnik qirrasi orasidagi masofasini tozalash samaradorligiga ta'sirini ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan [1-4]. Kolosnikning diametri 20 mm va ularning oraliq masofasi 40 mm bo'lganda eng maqbul oraliq masofa sifatida 14 – 16 *mm* tavsiya etilgan [5-8].

Bir qator tadqiqotchilar olib borgan tadqiqotlarda turli diametrdagi kolosniklarni tozalash jarayoniga ta’sirini tadqiq etishganda iflosliklar bilan paxta bo‘lakchalarini qo‘shib, chiqindiga chiqib ketishini oshishi kuzatilgan [9-11]. Bunda arrachali baraban arra tishlari uchidan kolosnik qirrasigacha masofa 14-16 mm oralig‘ida bo‘lgan bo‘lib, bu o‘z navbatida paxta bo‘lakchasini kolosnik yuzasiga urilish markazini kolosnikning gorizontal o‘qidan pastda bo‘lishi natijasida xomashyoni kolosnik bilan ishqalanish koeffitsiyentini ortib ketishiga sabab bo‘lib, iflosliklar bilan ko‘p paxta bo‘lakchalarini chiqindiga tushishiga olib kelgan [12-15]. Shuning uchun kolosnik diametrini 20 mm dan kichrayishida arrachali baraban arra tishlari bilan kolosnik oraliq masofasini ham tadqiq etishga ehtiyoj tug‘iladi. Biz olib borayotgan tadqiqotlarda kolosnikning diametri kichrayishini e’tiborga olib, oraliq masofani tozalash jarayoni samaradorligiga ta’sirini tadqiq etamiz. Tadqiqotlarda arrachali baraban arra tishlari uchlari bilan kolosnikli panjaraning oraliq masofasini 15 mm dan 20 mm gacha o‘zgartirib, tozalash jarayoniga ta’siri tadqiq etildi.

Tadqiqotlarda Sulton seleksiyasining 2 sinf I va III sanoat navlari, dastlabki namligi 11,1 %, 15,7 % va iflosligi 9,5 %; 14,6 % bo‘lgan paxta xomashyosi ishlatildi. Laboratoriya sharoitida oraliq masofani ta’sirini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan amaliy tadqiqotlar natijalari 1-2-jadvallarda va 1-2 rasmlarda keltirilgan.

Amaliy tadqiqotlar natijalari. Paxtaning dastlabki iflosligi 11,1 %ni tashkil etib, namlik darajasi 8,1% bo‘lganda arrachali baraban arra tishlarining uchlari bilan kolosnik qirrasining oraliq masofasi 15 mm bo‘lganda, tozalashdan so‘ng paxtaning ifloslik darajasi 5,33 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,55 %ni, tozalash jarayonida ajralgan ifloslik tarkibidagi paxta bo‘lakchalarining miqdori 3,67 %ni va uskunaning tozalash samaradorligi 43,93 %ni tashkil etdi.

1-jadval.

Arrachali baraban arra tishlarining uchlari bilan kolosnik qirrasining oraliq masofasini tozalash jarayoniga ta’siri.

№	Ko‘rsatkichlar	Oraliq masofa, mm					
		15	16	17	18	19	20
1.	Paxtaning dastlabki namligi, %	11,1					
2.	Paxtaning dastlabki iflosligi, %	9,5					
3.	Tozalashdan so‘ng paxtaning ifloslik darajasi, %	5,33	5,22	5,11	5,02	5,05	5,11
4.	Chigitni mexanik shikastlanishini oshishi, %	0,55	0,5	0,44	0,38	0,37	0,36
5.	Paxta bo‘lakchalarini ajratilgan ifloslik tarkibidagi miqdori, %	3,67	3,21	2,76	2,48	2,35	2,2
6.	Uskunaning tozalash samaradorligi, %	43,93	45,05	46,16	47,11	46,85	46,18

Arrachali baraban arra tishlarining uchlari bilan kolosnik qirrasining oraliq masofasi 16 mm bo‘lganda, tozalashdan so‘ng paxtaning ifloslik darajasi 5,22 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,50 %ni, tozalash jarayonida ajralgan ifloslik tarkibidagi paxta bo‘lakchalarining miqdori 3,21 %ni va uskunaning tozalash samaradorligi 45,05 %ni tashkil etdi.

Tozalagichning arrachali baraban arra tishlarining uchlari bilan kolosnik qirrasining oraliq masofasi 17 mm bo‘lganda, tozalashdan so‘ng paxtaning ifloslik darajasi 5,11 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,44 %ni, tozalash jarayonida ajralgan ifloslik tarkibidagi paxta bo‘lakchalarining miqdori 2,76 %ni va uskunaning tozalash samaradorligi 46,16 %ni tashkil etdi.

Yirik iflosliklardan tozalash uskunasining arrachali baraban arra tishlarining uchlari bilan kolosnik qirrasining oraliq masofasi 18 mm bo‘lganda, tozalashdan so‘ng paxtaning ifloslik darajasi 5,02 %ni, chigitni mexanik shikastlanishining oshishi 0,38 %ni, tozalash jarayonida ajralgan ifloslik tarkibidagi paxta bo‘lakchalarining miqdori 2,48 %ni va uskunaning tozalash samaradorligi 47,11 %ni tashkil etdi.

Arrachali baraban arra tishlarining uchlari bilan kolosnik qirrasining oraliq masofasi 19 mm bo‘lganda, tozalashdan so‘ng paxtaning ifloslik darajasi 5,05 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,37 %ni, tozalash jarayonida ajralgan ifloslik tarkibidagi paxta bo‘lakchalarining miqdori 2,35 %ni va uskunaning tozalash samaradorligi 46,85 %ni tashkil etdi.

Tozalagichning arrachali baraban arra tishlarining uchlari bilan kolosnik qirrasining oraliq masofasi 20 mm bo‘lganda, tozalashdan so‘ng paxtaning ifloslik darajasi 5,11 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,36 %ni, tozalash jarayonida ajralgan ifloslik tarkibidagi paxta bo‘lakchalarining miqdori 2,20 %ni va uskunaning tozalash samaradorligi 46,18 %ni tashkil etdi (1-jadvalga qarang).

2-jadval.

Kolosnikli panjara bilan arrachali baraban oraliq masofasini tozalash jarayoniga ta’siri.

№	Ko‘rsatkichlar	Oraliq masofa, mm					
		15	16	17	18	19	20
1.	Paxtaning dastlabki namligi, %	15,7					
2.	Paxtaning dastlabki iflosligi, %	14,6					
3.	Tozalashdan so‘ng paxtaning ifloslik darajasi, %	7,92	7,79	7,65	7,55	7,60	7,68
4.	Chigitni mexanik shikastlanishini oshishi, %	0,63	0,57	0,55	0,51	0,44	0,39
5.	Paxta bo‘lakchalarini ajratilgan ifloslik tarkibidagi miqdori, %	3,91	3,46	3,04	2,8	2,65	2,46
6.	Uskunaning tozalash samaradorligi, %	45,73	46,65	47,61	48,28	47,96	47,42

Paxtaning dastlabki iflosligi 14,6 %ni tashkil etib, namlik darajasi 8,4% bo‘lganda arrachali baraban arra tishlarining uchlari bilan kolosnik qirrasining oraliq masofasi 15 mm bo‘lganda, tozalashdan so‘ng paxtaning ifloslik darajasi 7,92 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,63 %ni, tozalash jarayonida ajralgan ifloslik tarkibidagi paxta bo‘lakchalarining miqdori 3,91 %ni va uskunaning tozalash samaradorligi 45,73 %ni tashkil etdi.

Arrachali baraban arra tishlarining uchlari bilan kolosnik qirrasining oraliq masofasi 16 mm bo‘lganda, tozalashdan so‘ng paxtaning ifloslik darajasi 7,79 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,57 %ni, tozalash jarayonida ajralgan ifloslik tarkibidagi paxta bo‘lakchalarining miqdori 3,46 %ni va uskunaning tozalash samaradorligi 46,65 %ni tashkil etdi.

Tozalagichning arrachali baraban arra tishlarining uchlari bilan kolosnik qirrasining oraliq masofasi 17 mm bo‘lganda, tozalashdan so‘ng paxtaning ifloslik darajasi 7,65 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,55 %ni, tozalash jarayonida ajralgan ifloslik tarkibidagi paxta bo‘lakchalarining miqdori 3,04 %ni va uskunaning tozalash samaradorligi 47,61 %ni tashkil etdi.

Yirik iflosliklardan tozalash uskunasining arrachali baraban arra tishlarining uchlari bilan kolosnik qirrasining oraliq masofasi 18 mm bo‘lganda, tozalashdan so‘ng paxtaning ifloslik darajasi 7,55 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,51 %ni, tozalash jarayonida ajralgan ifloslik tarkibidagi paxta bo‘lakchalarining miqdori 2,8 %ni va uskunaning tozalash samaradorligi 48,28 %ni tashkil etdi.

Arrachali baraban arra tishlarining uchlari bilan kolosnik qirrasining oraliq masofasi 19 mm bo‘lganda, tozalashdan so‘ng paxtaning ifloslik darajasi 7,60 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,44 %ni, tozalash jarayonida ajralgan ifloslik tarkibidagi paxta bo‘lakchalarining miqdori 2,65 %ni va uskunaning tozalash samaradorligi 47,96 %ni tashkil etdi.

Tozalagichning arrachali baraban arra tishlarining uchlari bilan kolosnik qirrasining oraliq masofasi 20 mm bo‘lganda, tozalashdan so‘ng paxtaning ifloslik darajasi 7,68 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,39 %ni, tozalash jarayonida ajralgan ifloslik tarkibidagi paxta bo‘lakchalarining miqdori 2,46 %ni va uskunaning tozalash samaradorligi 47,42 %ni tashkil etdi (2-jadvalga qarang).

Tozalash jarayonida ishchi qismlarning mexanik ta’siri natijasida chigitning mexanik shikastlanishini oshishi arrachali baraban arra tishlarining uchlari bilan kolosnik qirrasining oraliq masofasi 15 mm dan 20 mm gacha kattalashib borgan sari I nav paxtada 0,55 %dan 0,36 % gacha, III nav paxtada esa 0,63 %dan 0,39 %gacha kamayib borishi aniqlandi. Arrachali barabanga kolosnikli panjara qancha yaqin bo‘lsa, paxta bo‘lakchalarini baraban arra tishlari bilan ilashtirib, kolosnikka olib borib urishida kolosnikning gorizontal o‘qidan pastki qismiga borib urilishida paxta bo‘lakchasini qaytib chiqishi uchun ko‘proq ishqalanish kuchi ta’siri natijasida ko‘proq mexanik shikastlanishni oshishiga olib kelmoqda. Arrachali baraban arra tishlarining uchlari bilan kolosnik qirrasining oraliq masofasi 20 mm gacha kattalashib borishida tozalash jarayoni optimal kechishi bilan birgalikda chigitning mexanik shikastlanishi xam kamayishiga erishilmoqda.

Tozalash uskunasida paxta tozalangandan so‘ng iflosliklarga qo‘shilib ketgan paxta bo‘lakchalari miqdori arrachali baraban bilan kolosnikli panjarani oraliq masofasi 15 mm dan 20 mm gacha kattalashib borgan sari I sanoat nav paxtada 3,67 %dan 2,20 % gacha va IV sanoat nav paxtada esa 3,91 %dan 2,46 %gacha kamayib borishi aniqlandi (1-rasm).



1-rasm. Tozalash jarayonida paxta bo‘lakchalarini iflosliklar tarkibiga qo‘shilib ketishini arrachali baraban bilan kolosnikli panjara oraliq masofasiga bog‘liq grafigi. *1 – I sanoat nav paxta xomashyosi; 2 – IV sanoat nav paxta xomashyosi.*

Tozalash samaradorligini arrachali baraban bilan kolosnikli panjara oraliq masofasiga bog‘liq grafigini (2-rasm) tahlil qiladigan bo‘lsak, arrachali baraban bilan kolosnikli panjarani oraliq masofasi 15 mm dan 18 mm gacha kattalashib borgan sari I sanoat nav paxtada 43,93 %dan 47,11 % gacha oshib borishi aniqlandi.



2-rasm. Tozalash jarayonida paxta bo‘lakchalarini iflosliklar tarkibiga qo‘shilib ketishini arrachali baraban bilan kolosnikli panjara oraliq masofasiga bog‘liq grafigi. 1 *– I sanoat nav paxta xomashyosi;* ***2*** *– IV sanoat nav paxta xomashyosi.*

Oraliq masofa 18 mm dan kattalashganda esa tozalash samaradorlik 46,18 %gacha kamayishi aniqlandi. IV sanoat nav paxtada esa arrachali baraban bilan kolosnikli panjarani oraliq masofasi 15 mm dan 18 mm gacha kattalashib borgan sari 45,73 %dan 48,28 %gacha oshib borishi, oraliq masofa 18 mm dan kattalashganda tozalash samaradorlik 47,42 %gacha kamayishi aniqlandi.

Oraliq masofa 19 va 20 mm bo‘lganda chigitning mexanik shikastlanishi va tozalash jarayonida ajratib olingan iflosliklar tarkibiga qo‘shilib ketgan paxta bo‘lakchalarini miqdori eng kam ko‘rsatkichlar qayd etilgan bo‘lsada, tozalash samaradorlikning eng yuqori ko‘rsatkichi arrachali baraban bilan kolosnikli panjarani oraliq masofasi 18 mm bo‘lganda erishildi. Demak, yirik iflosliklardan tozalash seksiyasiga kiritilgan konstruktiv o‘zgartirishlar kolosnikning diametri 15 mm va arrachali baraban bilan kolosnikli panjarani oraliq masofasi 18 mm bo‘lganda paxta tarkibidagi iflos aralashmalarni ajratish uchun eng maqbul sharoit yaratilishi natijasida tozalash samaradorlik oshishiga erishilmoqda.

Xulosa. Arrachali baraban arra tishlari uchi bilan kolosnikning ishchi qirrasigacha bo‘lgan oraliq masofani tozalash jarayoniga ta’sirini aniqlash bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, kolosnikning diametri 15 mm va ularning o‘zaro oraliq masofasi 30 mm arrachali baraban tishlari uchidan kolosnikli panjara qirrasigacha bo‘lgan oraliq masofasi 18 mm bo‘lganda, tozalashdan so‘ng paxtaning ifloslik darajasi 7,55 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,51 %ni, tozalash jarayonida ajralgan ifloslik tarkibidagi paxta bo‘lakchalarining miqdori 2,8 %ni va uskunaning tozalash samaradorligi 48,28 %ni tashkil etdi. Arrachali baraban arra tishlarining uchlari bilan kolosnik qirrasining oraliq masofasi 15 mm dan 20 mm gacha kattalashib borgan sari chigitning mexanik shikastlanishini oshishi I nav paxtada 0,55 %dan 0,36 % gacha, III nav paxtada esa 0,63 %dan 0,39 %gacha kamayishi, paxta bo‘lakchalarini iflosliklar tarkibiga qo‘shilib ketishi esa I sanoat nav paxtada 3,67 %dan 2,20 % gacha va IV sanoat nav paxtada esa 3,91 %dan 2,46 %gacha kamayib borishiga erishildi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. R.G. Hardin IV, T.D. Valco and R.K. Byler. (2011, January). Survey of seed cotton cleaning equipment in Mid-South gins. In Proc. Beltwide Cotton Conf (pp. 602-609).
2. O.D. Murodov Influence of the mesh shape of the fine waste cleaner for raw cotton on the cleaning effect //Technology and Quality. - 2021. - No. 2. - P. 52-55.
3. I. Razhabov, A. Safoyev, M. Agzamov and D. Yuldashev (2020). Cleaner of raw cotton with a screw working body. Saudi Journal of Engineering and Technology, 5(10), 361-365.
4. A. Parpiev, M.D. Shorakhmedova, D.I. Khabibullayeva. Study of the deformation of the structure of raw cotton in technological processes //Universum: technical sciences. - 2020. - Row 9-2 (78). - Б. 27-30.
5. A. Mirzaumidov and K. Nurillaeva (2024). Cotton cleaner with multifaceted grates. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 9(4), 77-82.
6. G.L. Barker (1991). Analysis of seed cotton cleaning efficiency using ginqual. Applied Engineering in Agriculture, 7(6), 667-672.
7. M. Djurayev, S. Hakimov and R. Kaldybaev. (2024). Research on an improved cotton cleaner unit. Technical science and innovation, 2023(4), 51-54.
8. Ruzmetov R. I. et al. Modeling of heat exchange processes between raw cotton and coolant in a screw drum //European Science Review. – 2018. – №. 5-6. – S. 335-338.
9. Madumarov I. et al. Movement of the trash inside of fiber material when available elastic force of clutch //Engineering. – 2018. – T. 10. – №. 9. – S. 579-587.
10. Tuychiev, T., Madumarov, I., Gapparova, M., & Ismoilov, A. (2022, May). Influence of the Direction of Movement of Cotton to Pile Drums on the Cleaning Efficiency. In International Scientific Conference on Agricultural Machinery Industry “Interagromash"” (pp. 2084-2091). Cham: Springer International Publishing.

11. Tian, X. Zhang, W. Zhang, H. Dong, X. Jiu, Y. Yu and Z. Zhao (2017). Leaf adhesiveness affects damage to fiber strength during seed cotton cleaning of machine-harvested cotton. Industrial crops and products, 107, 211-216.
12. R.V. Baker, P.A. Boving and J.W. Laird (1982). Effects of processing rate on the performance of seed cotton cleaning equipment. Transactions of the ASAE, 25(1), 187-192.
13. F. Veliev, E. Mustafayeva, A. Mamontov, V. Shevtsov, S. Zinchenko, and A. Rud. (2021). Development of a procedure for determination of damage to seeds and cotton fibers in cotton cleaning machines. Eureka: Physics and Engineering, (4), 125-133.
14. I.K. Siddikov, D.A. Khalmatov, U.O. Khuzhanazarov and G.R.Alimova. (2020). System of analytical control and control of technological parameters of cotton-cleaning production. SYSTEM, 11, 20-2020.
15. Y.B. Abdullayev and X.S. Usmanov. (2025). Foreign technologies and equipment in cotton cleaning. Analysis of modern science and innovation, 1(6), 144-148.

TURLI KOMBINATSIYADA JOYLASHGAN TAKOMILLASHTIRILGAN QOZIQCHALI PLANKALI BARABANLARNING TAHLILI

[1]Hamroyeva M.F, [1]Muxamedjanova S.F, [2]Tuychiev T.O., [1]Sayfullayev S.S., [1]Xudayarova F.O.

[1]Buxoro davlat texnika universiteti, [2]Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti.

Annotatsiya. *Maqolada to‘rt xil konstruksiyadagi qoziqchali-plankali barabanlar o‘rnatilgan tozalagichning tozalash samaradorligining turli xil seleksiya navida va sanoat navlaridagi paxtani tozalash samaradorligiga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari keltirilgan.*

Takomillashtirilgan tozalagichning ish unumdorligi 7 tonna/soat bo‘lganda Nam-77 seleksiyasining I sanoat navida mavjud tozalagichga nisbatan 6,35%ga va III sanoat navida 6,86 %ga, S65-24 seleksiyasining I sanoat navida mavjud tozalagichga nisbatan 6,43%ga va III sanoat navida 7,54 %ga tozalash samaradorlikning yuqori bo‘lishiga erishildi. Takomillashtirilgan tozalagichda tozalash jarayonidan so‘ng paxta tarkibi passiv iflosliklar miqdorini kamayishi va tozalash samaradorlikni yuqori bo‘lishiga asosiy omil qoziqchali-plankali barabanning turli konstruksiyada ekanligi sababli havo oqimini ko‘payib, ajralgan iflosliklarni to‘rli yuza teshiklaridan chiqib ketishini jadallashganligi bilan izohlanadi.

Kalit so‘zlar*: paxta, tozalash, ifloslik, plankali baraban, qoziqcha, tola, teshik, to‘rli setka.*

АНАЛИЗ УСОВЕРШЕНСТВОВАННЫХ КОЛКОВНО-ПЛАНЧАТЫХ БАРАБАНОВ, РАЗМЕЩЕННЫХ В РАЗЛИЧНЫХ КОМБИНАЦИЯХ

[1]Ҳамроева М.Ф, [1]Мухамеджанова С.Ф, [2]Туйчиев Т.О, [1]Сайфуллаев С.С, [1]Худаярова Ф.О.

[1]Бухарский государственный технический университет,

[2]Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности.

Аннотация*. В статье представлены результаты исследований, проведенных по изучению влияния эффективности очистки хлопка-сырца на очистительную машину с четырьмя различными конструкциями колковно-планчатых барабанов на эффективность очистки хлопка-сырца различных селекционных и технических сортов.*

При производительности усовершенствованной очистительной машины 7 тонн/час эффективность очистки увеличилась на 6,35% по сравнению с существующей очистительной машиной селекции Нам-77 в I промышленном сорте и на 6,86% в III промышленном сорте, а также на 6,43% по сравнению с существующей очистительной машиной селекции С65-24 в I промышленном сорте и на 7,54% в III промышленном сорте. Основным фактором, обусловившим снижение количества пассивных примесей в хлопке-сырце после очистки в усовершенствованной очистительной машине и повышение эффективности очистки, является то, что различная конструкция планчатого барабана увеличивает воздушный поток и ускоряет удаление отделенных примесей из отверстий сетчатой поверхности.

Ключевые слова: *хлопок, чистка, грязь, решетчатый барабан, колышек, волокно, отверстие, сетка.*

ANALYSIS OF IMPROVED PIN-PLATE DRUMS ARRANGED IN VARIOUS COMBINATIONS

[1]Hamroyeva M.F, [1]Muxamedjanova S.F, [2]Tuychiev T.O, [1]Sayfullayev S.S, [1]Xudayarova F.O.
[1]Bukhara state technical university, [2]Tashkent institute textile and light industry.

Annotation. *The article presents the results of studies conducted to study the effect of raw cotton cleaning efficiency on a cleaning machine with four different designs of slatted drums on the cleaning efficiency of raw cotton of various selection and industrial grades. With a productivity of the improved cleaning machine of 7 tons/hour, the cleaning efficiency increased by 6.35% compared to the existing cleaning machine of selection Nam-77 in the first industrial grade and by 6.86% in the third industrial grade, as well as by 6.43% compared to the existing cleaning machine of selection S65-24 in the first industrial grade and by 7.54% in the third industrial grade. The main factor that caused a decrease in the amount of passive impurities in raw cotton after cleaning in the improved cleaning machine and an increase in the cleaning efficiency is that the different design of the slatted drum increases the air flow and accelerates the removal of separated impurities from the holes of the mesh surface.*

Key words: *cotton, cleaning, dirt, grate drum, peg, fiber, hole, mesh.*

***K*irish.** Paxta quritish uskunasidan so‘ng havo yoki tasmali tarnsportyorlar yordamida tozalash texnologiyasiga uzatiladi. Ma’lumki, g‘aramdagi paxtani zichligi yuqori bo‘lganligi uchun paxta bo‘lakchalari bir-biri bilan mustahkam bog‘langan bo‘ladi va quritish jarayonida to‘liq titilmagan holda tozalashga yuboriladi. Bu o‘z navbatida ta’minlovchi valiklardan so‘ng dastlabki qoziqchali plankali barabanlarda paxtani titilishiga olib kelib, tozalash samaradorlikni pasaytiradi. Shuningdek, katta bo‘laklardan iborat xomashyoni qoziqchali-plankali baraban va to‘rli yuza orasiga tushgan mexanik shikastlanishni oshishiga olib kelib, keyingi bosqich jarayonlarida tola tarkibida nuqsonlar hosil bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Pirovardda tolaning sinfini pasayishiga olib kelib, tolaning xarid narxi kamayadi.

Tadqiqot o‘tkazish metodikasi. Tadqiqotlarda 1XK tozalagichiga qoziqchali plankali barabanlar quyidagi ketma-ketlikda o‘rnatildi: ta’minlovchi valiklardan so‘ng mavjud variantdagi qoziqchali-plankali baraban, undan so‘ng qoziqcha va plankaning balandligi 65 mm va qoplamaning diametri 270 mm bo‘lgan qoziqchali-plankali baraban, undan so‘ng qoziqcha va plankaning balandligi 80 mm va qoplamaning diametri 240 mm bo‘lgan qoziqchali-plankali baraban hamda qoziqcha va plankaning balandligi 95 mm va qoplamaning diametri 210 mm bo‘lgan qoziqchali-plankali barabanlar.

Tozalash jarayoni quyidagicha amalga oshiriladi: paxta ta’minlovchi valiklar yordamida ularning ostida joylashgan mavjud variantdagi va qoziqcha va plankaning balandligi 65 mm va qoplamaning diametri 270 mm bo‘lgan qoziqchali-plankali barabanlar orasiga uzatib beradi. Paxta xomashyosi dastlab qoziqchali plankali barabanlarning yuqori qismida titkilanib alohida bo‘lakchalarga ajratish va mustaxkam bog‘langan iflosliklarni passivlashtiriladi. Shundan so‘ng qoziqcha va plankaning balandligi 95 mm va qoplamaning diametri 210 mm bo‘lgan qoziqchali-plankali baraban va to‘rli yuza orasida tozalanadi. Ikkinchi navbatda turgan qoziqcha va plankaning balandligi 80 mm va qoplamaning diametri 240 mm bo‘lgan qoziqchali-plankali barabanda tozalanadi. Shu tarzda barcha qoziqchali barabanlar va to‘rli yuzalarda paxta xomashyosi tozalandi.

Tadqiqot natijalari. Olib borilgan tadqiqot natijalari 1÷.2-jadvallar va 1÷2-rasmlarda keltirilgan. Tadqiqotlarda Nam-77 va S65-24 seleksiya navidagi paxtani tozalashdan oldingi namligi o‘z navbatida 8,05; 8,50 % va 8,11; 8,6 %lar va iflosligi 8,2; 11,5 % va 7,5; 10,3 %lardagi paxta xom ashyosidan foydalanildi.

Mavjud qoziqchali-plankali barabanlar o‘rnatilgan tozalagichning ish unumdorligi 3 tonna/soatni tashkil etganda Namangan-77 seleksiyasidagi paxta xomashyosining I sanoat navi tadqiqot variantidagi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 4,59 %ni, passiv iflosliklar miqdori 26,9 %ni, tozalash samaradorlik 44,06 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,30% ni tashkil etdi. Paxta xomashyosining III sanoat navi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 5,98 %ni, passiv iflosliklar miqdori 32,06 %ni, tozalash samaradorlik 47,96 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,33% ni tashkil etdi.

1-jadval.

Mavjud qoziqchali-plankali barabanlar o‘rnatilgan tozalagichda olib borilgan tadqiqot natijalari.

t/r	Ko‘rsatkichlar	Nam-77 seleksiya navi		S65-24 seleksiya navi	
		I nav	III nav	I nav	III nav
1.	Paxtani namligi, %	8,05	8,50	8,11	8,6
2.	Paxtani iflosligi, %	8,2	11,5	7,5	10,3
ish unumdorlik 3 tonna/soat					
3.	Tozalagichdan so‘ng iflosligi, %	4,59	5,98	4,22	5,53
4.	Tozalagichdan so‘ng paxtadagi passiv iflosliklar miqdori, %	26,9	32,06	28,43	34,5
5.	Tozalash samaradorligi, %	44,06	47,96	43,8	46,28
6.	Tozalagichdan so‘ng chigit shikastlanishini oshishi, %	0,30	0,33	0,28	0,22
ish unumdorlik 5 tonna/soat					
7.	Tozalagichdan so‘ng iflosligi, %	4,81	6,37	4,42	5,87
8.	Tozalagichdan so‘ng paxtadagi passiv iflosliklar miqdori, %	33,65	39,25	35,10	41,35
9.	Tozalash samaradorligi, %	41,35	44,57	41,12	43,04
10.	Tozalagichdan so‘ng chigit shikastlanishini oshishi, %	0,55	0,62	0,60	0,59
ish unumdorlik 7 tonna/soat					
11.	Tozalagichdan so‘ng iflosligi, %	4,98	6,69	4,58	6,12
12.	Tozalagichdan so‘ng paxtadagi passiv iflosliklar miqdori, %	38,50	45,4	39,45	46,83
13.	Tozalash samaradorligi, %	39,25	41,84	38,97	40,56
14.	Tozalagichdan so‘ng chigit shikastlanishini oshishi, %	0,68	0,78	0,80	0,86

Paxta xomashyosining S65-24 seleksiyasidagi I sanoat navi tadqiqot variantidagi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 4,22 %ni, passiv iflosliklar miqdori 28,43 %ni, tozalash samaradorlik 43,80 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,28% ni tashkil etdi. Paxta xomashyosining III sanoat navi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 5,53 %ni, passiv iflosliklar miqdori 34,50 %ni, tozalash samaradorlik 46,28 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,22% ni tashkil etdi.

Tozalagichning ish unumdorligi 5 tonna/soatni tashkil etganda Namangan-77 seleksiyasidagi paxta xomashyosining I sanoat navi tadqiqot variantidagi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 4,81 %ni, passiv iflosliklar miqdori 33,65 %ni, tozalash samaradorlik 41,35 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,55% ni tashkil etdi. Paxta xomashyosining III sanoat navi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 6,37 %ni, passiv iflosliklar miqdori 39,25 %ni, tozalash samaradorlik 44,57 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,62% ni tashkil etdi.

Paxta xomashyosining S65-24 seleksiyasidagi I sanoat navi tadqiqot variantidagi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 4,42 %ni, passiv iflosliklar miqdori 35,10 %ni, tozalash samaradorlik 41,12 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,60% ni tashkil etdi. Paxta xomashyosining III sanoat navi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi

5,87 %ni, passiv iflosliklar miqdori 41,35 %ni, tozalash samaradorlik 43,04 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,59% ni tashkil etdi.

Tozalagichning ish unumdorligi 7 tonna/soatni tashkil etganda Namangan-77 seleksiyasidagi paxta xomashyosining I sanoat navi tadqiqot variantidagi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 4,98 %ni, passiv iflosliklar miqdori 38,50 %ni, tozalash samaradorlik 39,25 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,68% ni tashkil etdi. Paxta xomashyosining III sanoat navi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 6,69 %ni, passiv iflosliklar miqdori 45,4 %ni, tozalash samaradorlik 41,84 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,78% ni tashkil etdi.

Paxta xomashyosining S65-24 seleksiyasidagi I sanoat navi tadqiqot variantidagi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 4,58 %ni, passiv iflosliklar miqdori 39,45 %ni, tozalash samaradorlik 38,97 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,80% ni tashkil etdi. Paxta xomashyosining III sanoat navi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 6,12 %ni, passiv iflosliklar miqdori 46,83 %ni, tozalash samaradorlik 40,56 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,86% ni tashkil etdi.

2-jadval.

Qoziqchali-plankali barabanlari takomillashtirilgan tozalagichda olib borilgan tadqiqot natijalari.

t/r	Ko‘rsatkichlar	Nam-77 seleksiya navi		S65-24 seleksiya navi	
		I nav	III nav	I nav	III nav
1.	Paxtani namligi, %	8,05	8,50	8,11	8,6
2.	Paxtani iflosligi, %	8,2	11,5	7,5	10,3
ish unumdorlik 3 tonna/soat					
3.	Tozalagichdan so‘ng iflosligi, %	4,06	5,18	3,74	4,75
4.	Tozalagichdan so‘ng paxtadagi passiv iflosliklar miqdori, %	15,3	19,5	17,67	22,72
5.	Tozalash samaradorligi, %	50,47	54,99	50,11	53,84
6.	Tozalagichdan so‘ng chigit shikastlanishini oshishi, %	0,25	0,24	0,20	0,17
ish unumdorlik 5 tonna/soat					
7.	Tozalagichdan so‘ng iflosligi, %	4,28	5,57	3,94	5,08
8.	Tozalagichdan so‘ng paxtadagi passiv iflosliklar miqdori, %	21,8	25,9	23,65	28,32
9.	Tozalash samaradorligi, %	47,8	51,55	47,5	50,7
10.	Tozalagichdan so‘ng chigit shikastlanishini oshishi, %	0,48	0,50	0,50	0,52
ish unumdorlik 7 tonna/soat					
11.	Tozalagichdan so‘ng iflosligi, %	4,46	5,90	4,10	5,35
12.	Tozalagichdan so‘ng paxtadagi passiv iflosliklar miqdori, %	25,5	30,8	26,9	32,5
13.	Tozalash samaradorligi, %	45,6	48,7	45,4	48,1
14.	Tozalagichdan so‘ng chigit shikastlanishini oshishi, %	0,59	0,65	0,68	0,75

2-jadvalda keltirilgan ma’lumotlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, tozalagichning ish unumdorligi 3 tonna/soatni tashkil etganda Namangan-77 seleksiyasidagi paxta xomashyosining I sanoat navi tadqiqot variantidagi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 4,06 %ni, passiv iflosliklar miqdori 15,3 %ni, tozalash samaradorlik 50,47 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,25% ni tashkil etdi. Paxta xomashyosining III sanoat navi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 5,18 %ni, passiv iflosliklar miqdori 19,5 %ni, tozalash samaradorlik 54,99 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,24% ni tashkil etdi.

Paxta xomashyosining S65-24 seleksiyasidagi I sanoat navi tadqiqot variantidagi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 3,74 %ni, passiv iflosliklar miqdori 17,67 %ni, tozalash samaradorlik 50,11 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,20% ni tashkil etdi. Paxta xomashyosining III sanoat navi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 4,75 %ni, passiv iflosliklar miqdori 22,72 %ni, tozalash samaradorlik 53,84 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,17% ni tashkil etdi.

Tozalagichning ish unumdorligi 5 tonna/soatni tashkil etganda Namangan-77 seleksiyasidagi paxta xomashyosining I sanoat navi tadqiqot variantidagi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 4,28 %ni, passiv iflosliklar miqdori 21,8 %ni, tozalash samaradorlik 47,8 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,48% ni tashkil etdi. Paxta xomashyosining III sanoat navi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 5,57 %ni, passiv iflosliklar miqdori 25,9 %ni, tozalash samaradorlik 51,55 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,50% ni tashkil etdi.

Paxta xomashyosining S65-24 seleksiyasidagi I sanoat navi tadqiqot variantidagi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 3,94 %ni, passiv iflosliklar miqdori 23,65 %ni, tozalash samaradorlik 47,5 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,50% ni tashkil etdi. Paxta xomashyosining III sanoat navi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 5,8 %ni, passiv iflosliklar miqdori 28,32 %ni, tozalash samaradorlik 50,7 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,52% ni tashkil etdi.

Tozalagichning ish unumdorligi 7 tonna/soatni tashkil etganda Namangan-77 seleksiyasidagi paxta xomashyosining I sanoat navi tadqiqot variantidagi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 4,46 %ni, passiv iflosliklar miqdori 25,5 %ni, tozalash samaradorlik 45,6 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,59% ni tashkil etdi. Paxta xomashyosining III sanoat navi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 5,90 %ni, passiv iflosliklar miqdori 30,8 %ni, tozalash samaradorlik 48,7 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,65% ni tashkil etdi.

Paxta xomashyosining S65-24 seleksiyasidagi I sanoat navi tadqiqot variantidagi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 4,10 %ni, passiv iflosliklar miqdori 26,9 %ni, tozalash samaradorlik 45,4 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,68% ni tashkil etdi. Paxta xomashyosining III sanoat navi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 5,35 %ni, passiv iflosliklar miqdori 32,5 %ni, tozalash samaradorlik 48,1 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,75% ni tashkil etdi.

Takomillashtirilgan qoziqchali barabanlarda passiv iflosliklar miqdori mavjud qoziqchali barabanlarga nisbatan ish unumdorlik 3 tonna/soat bo‘lib, Nam-77 seleksiya navining I sanoat navi qayta ishlanganda 11,6 %ga, III sanoat navi qayta ishlanganda 12,56%ga kamayishiga erishildi. S65-24 seleksiya navining I sanoat navi qayta ishlanganda passiv iflosliklar miqdori 10,76 %ga, III sanoat navi qayta ishlanganda 11,78%ga kamaytirishga erishildi. Tozalagichning ish unumdorligi 5 tonna/soat bo‘lib, Nam-77 seleksiya navining I sanoat navi qayta ishlanganda 11,85 %ga, III sanoat navi qayta ishlanganda 13,35%ga kamayishiga erishildi. S65-24 seleksiya navining I sanoat navi qayta ishlanganda passiv iflosliklar miqdori 11,45 %ga, III sanoat navi qayta ishlanganda 13,03%ga kamaytirishga erishildi. Tozalagichning ish unumdorligi 7 tonna/soat bo‘lib, Nam-77 seleksiya navining I sanoat navi qayta ishlanganda 13,0 %ga, III sanoat navi qayta ishlanganda 14,60 %ga

kamayishiga erishildi. S65-24 seleksiya navining I sanoat navi qayta ishlanganda passiv iflosliklar miqdori 12,55 %ga, III sanoat navi qayta ishlanganda 14,3 3%ga kamaytirishga erishildi.



1-rasm. Paxtaning turli seleksiya va sanoat navlarida tozalagichning har xil ish unumdorliklarida mavjud qoziqchali barabanning tozalash samaradorligiga ta'siri.



2-rasm. Paxtaning turli seleksiya va sanoat navlarida tozalagichning har xil ish unumdorliklarida takomillashtirilgan qoziqchali barabanning tozalash samaradorligiga ta'siri.

Tozalagichning ish unumdorligi 7 tonna/soat bo'lganda Nam-77 seleksiyasining I sanoat navida tozalash samaradorlik 45,6 %ni tashkil etgan bo'lsa, III sanoat navida 48,7 %ni tashkil etib, mavjud tozalagichga nisbatan I sanoat navida 6,35% va III sanoat navida 6,86 %ga tozalash samaradorlikni yuqori bo'lishiga erishildi.

Tozalagichning ish unumdorligi 7 tonna/soat bo'lganda S65-24 seleksiyasining I sanoat navida tozalash samaradorlik 45,4 %ni tashkil etgan bo'lsa, III sanoat navida 48,1 %ni tashkil etib, mavjud tozalagichga nisbatan I sanoat navida 6,43% va III sanoat navida 7,54 %ga tozalash samaradorlikni yuqori bo'lishiga erishildi.

Xulosa. Qoziqchali-plankali barabanning takomillashtirilgan konstruksiyasini tozalash uskunasiga o'rnatilishi natijasida tozalash jarayonidan so'ng paxta tarkibi passiv iflosliklar

miqdorini kamayishi va tozalash samaradorlikni yuqori bo‘lishiga qoziqchali-plankali barabanning turli konstruksiyada ekanligi sababli havo oqimini ko‘payib, ajralgan iflosliklarni to‘rli yuza teshiklaridan chiqib ketishini jadallashganligi bilan izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ташпулатов Д.С., Джамолов Р.К., Курбонов Ф.А. 1ХК тозалагичининг қозиқли барабан билан тўрли юза оралиқ масофасини пахта ифлослигига боғлиқ холда ўзгарувчанлигини таъминлаш // Ўзбекистон тўқимачилик муаммолари журнал, №1, 2023.
2. Tuychiev T. et al. Influence of the Direction of Movement of Cotton to Pile Drums on the Cleaning Efficiency //International Scientific Conference on Agricultural Machinery Industry “Interagromash"”. – Cham : Springer International Publishing, 2022. – С. 2084-2091.
3. Росулов Р. Х. и др. Очистка хлопка-сырца вибрационным способом //Universum: технические науки. – 2023. – №. 3-2 (108). – С. 56-60..
4. Кулиев Т. М. и др. Моделирование процесса очистки при воздействии колкового барабана на поток хлопка-сырца //Universum: технические науки. – 2023. – №. 9-3 (114). – С. 54-59.
5. Усманов Х. С. и др. Построение регрессионной модели для процесса вертикальной очистки хлопка-сырца //Universum: технические науки. – 2021. – №. 8-1 (89). – С. 84-89.
6. Усманов Д. А., Каримов Р. Х., Полотов К. К. Технологическая оценка работы четырехбарабанного очистителя //Проблемы современной науки и образования. – 2019. – №. 11-1 (144). – С. 40-42.
7. Туйчиев Т. О., Хамроева М. Ф. Пахтани майда ифлосликлардан тазалашдаги қозиқчали барабан диаметрларини ўзгаришини пахта оқимига таъсири //Yangi O‘zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 291-296..
8. Туйчиев Т. О., Хамроева М. Ф. Пахтани майда ифлосликлардан тозалаш технологиялари тахлили //Journal of international scientific research. – 2024. – Т. 1. – №. 2. – С. 370-376..
9. Madumarov I.D., Ruzmetov R.I., Gapparova M.A., Tuychiev T.O. Changing the Cotton Fiber Temperature// International Journal of Engineering and Advanced Technology (IJEAT) ISSN: 2249 – 8958, Volume-9 Issue-3, February, 2020 – P.974-977.
10. Усманов Д. А. и др. Исследование эффективности очистки хлопка-сырца от мелких сорных примесей // Проблемы современной науки и образования. – 2019. – №. 11-1 (144). – С. 48-51.
11. Sayfullayev S., Khakimov Sh., Ismoyilov F., Tursunov H., Abrorov A. “Theoretical research of the improved condenser device used in technology of lint separation” E3S Web of Conferences 548, 03020 (2024). -P. 1-10.
12. Sayfullayev S S., Xakimov Sh.Sh., Jo’rayev J.B. Усовершенствованный конденсор для волокнистых материалов //Universum: технические науки. Москва: 2022. № 12 (105) С. 15-18.

XORIJIY VA MAHALLIY LINTER MASHINALARINING TAQQOSIY TAHLILI

Ortiqova K.I., Umarov A.A.
Namangan davlat texnika unversiteti.

Annotatsiya. *Maqolada xorijiy va mahalliy linter mashinalarining konstruktiv va texnologik jihatdan taqqosiy tahlili keltirilgan. Linter mashinalarining ishlash prinsiplari, asosiy texnik ko‘rsatkichlari hamda samaradorlik darajasi o‘rganildi. Natijada mahalliy sanoatda linter mashinalarini modernizatsiya qilish yo‘nalishlari yuzasidan takliflar berildi.*

Tayanch so‘zlar: *chigit, lint, arrali silindr, dvigatel, ishchi kamera.*

COMPARATIVE ANALYSIS OF FOREIGN AND DOMESTIC LINTER MACHINES

Ortiqova K.I., Umarov A.A.
Namangan state technical university.

Annotation. *The article presents a comparative analysis of foreign and domestic linter machines in terms of design and technology. The principles of operation, main technical indicators and efficiency of linter machines were studied. As a result, proposals were made on the directions of modernization of linter machines in the domestic industry.*

Keywords: *seed, lint, saw cylinder, engine, roll box.*

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНЫХ И ОТЕЧЕСТВЕННЫХ ЛИНТЕРНЫХ МАШИН

Артыкова К.И., Умаров А.А.
Наманганский государственный технический университет.

Аннотатсия. *В статье приведен сравнительный анализ конструктивных и технологических аспектов зарубежных и местных линтерных машин. Изучены принципы работы линтерных машин, основные технические показатели и уровень эффективности. В результате предложены направления модернизации линтерных машин в местной промышленности.*

Ключевые слова: *семена, волокно, пильный цилиндр, двигатель, рабочая камера.*

To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatining investitsion jozibadorligini va raqobatbardoshligini yanada oshirish, sohaning eksport salohiyatini kengaytirish, mahalliy to‘qimachilik mahsulotlarining xorijiy bozorlarga kengroq kirib borishi uchun sharoitlar yaratish maqsadida, ilg‘or texnologiyalar va zamonaviy dizaynerlik ishlanmalarini keng joriy qilish, ip-kalavani chuqur qayta ishlashni yanada rivojlantirish va to‘qimachilik tarmog‘ida qayta ishlashni chuqurlashtirish uchun qulay moliyaviy shart-sharoitlar yaratish, qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etiladi [1].

Butun jahon linter mashinalar bozori 2034-yilgacha kutilgan CAGR (Compound Annual Growth Rate) ya’ni, O‘rtacha yillik o‘sish ko‘rsatkichining tarixga nisbatan 0,8% ga o‘sishi sharoitida 1,5 baravardan oshishi kutilmoqda. Bu qishloq xo‘jaligida samarali, ishonchli va tejamkor qurilmalarga talab ortib borayotgani bilan bog‘liq. Bozor texnologik innovatsiyalar, qishloq xo‘jaligining kengayishi, to‘qimachilik sanoatining tiklanishi va barqaror amaliyotga e’tibor qaratilishi tufayli yanada o‘sishi kutilmoqda. 2034-yilga kelib, bozorning umumiy daromadi 2 380,6 million dollarni tashkil etadi. So‘nggi tahlillarga ko‘ra, Hindiston, Pokiston, Bangladeshdan tortib Avstraliya va Indoneziyagacha bo‘lgan prognoz davrida global bozorida linter mashinalari ustunlik qilishi kutilmoqda. U 2024-yilda jahon bozoridagi ulushning 26 foizini egallashi kutilmoqda. Pazandachilik, kosmetika va bioyoqilg‘ining asosiy tarkibiy qismi bo‘lgan paxta yog‘iga talabning ortib borishi linter mashinalarga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. Paxta moyi qishloq xo‘jaligida oziq-ovqat xavfsizligiga e’tibor kuchayishi bir qancha ekinlarni, shu jumladan paxta chigitini qayta ishlash uchun linterlash va dilinterlash texnikasini talab qiladi. Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashni rag‘batlantirish va ekinlar hosildorligini oshirish bo‘yicha davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan tashabbuslar mintaqada linter mashinalari bozorining o‘sishiga xizmat qilmoqda [2].

Linter mashinalari qishloq xo‘jaligi va to‘qimachilik sanoatida paxta urug‘idan tola ajratish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu mashinalarning sifati va samaradorligi nafaqat

linterlangan urug‘lik, texnik chigit sifatiga, balki umumiy ishlab chiqarish samaradorligiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Dunyo bozorida turli kompaniyalar tomonidan ishlab chiqarilgan linter mashinalari mavjud bo‘lib, ularning texnik xususiyatlari, ish unumdorligi va energiya sarfi bir-biridan farq qiladi. Shu sababli, xorijiy va mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan linter mashinalarini taqqoslash dolzarb ahamiyat kasb etadi [3].

Turkiya (KV-201, KV-176) [4], Hindiston (Cottor 200, Bajaj-CEC LE 176, Ferro FX 200) [5], Xitoy (MR-144D, MR-161, MR-164M, MR-178) [6] hamda O‘zbekiston (5ЛП-160, 6ЛП-320, ЛП3-320) [7] da ishlab chiqarilgan linter mashinalari texnik imkoniyatlari va samaradorligi bo‘yicha tahlil qilinadi (1-jadval). Ushbu mashinalar orasida xorijiy ishlab chiqaruvchilarning linter mashinalari zamonaviy texnologik yechimlar va avtomatlashtirish tizimlari bilan jihozlangan bo‘lib, ish unumdorligi yuqori, chigitlarni shikastlash darajasi past, shuningdek, energiya samaradorligi va barqaror ishlash ko‘rsatkichlari yaxshilangan.

Hindiston (1-rasm), Xitoyda (2-rasm) va Turkiya (3-rasm), ishlab chiqarilgan linter mashinalari xomashyoni bir maromda ta’minlash, arrali silindr tezligini muvozanatlash va chigitlarni optimal sharoitda qayta ishlash imkoniyatiga ega. Natijada, tolaning sifati yaxshilanib, ishlab chiqarish jarayonidagi yo‘qotishlar kamayadi. Bundan tashqari, avtomatlashtirilgan boshqaruv mexanizmlarining mavjudligi tufayli bu mashinalar doimiy monitoring va aniq sozlanish imkoniyatiga ega, bu esa ularning ishlash barqarorligini oshiradi. Turkiya va Xitoy linter mashinalari texnologik rivojlanish va avtomatlashtirish bo‘yicha yetakchilik qiladi. Ular yuqori unumdorlik, energiya samaradorligi va avtomatik boshqaruv tizimlari bilan ajralib turadi. Hindiston linter mashinalari esa arzon narx va foydalanish qulayligi bilan mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun jozibador variant bo‘lib, yuqori aniqlik va avtomatlashtirish bo‘yicha cheklovlarga ega.

O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan 5ЛП-160, 6ЛП-320 va ЛП3-320 rusumli linter mashinalari (4-rasm) asosan mexanik boshqaruv tizimi asosida ishlaydi. Ushbu uskunalarning avtomatlashtirish darajasi yetarli darajada yuqori emas, natijada ularning unumdorligi cheklangan bo‘lib qolmoqda. Hozirgi kunda faqat ta’minlash tizimi avtomatlashtirilgan bo‘lib, bu jarayon ish yuklamasini biroz kamaytirishga yordam beradi. Biroq, tezlatkich va arrali silindrlarning aylanish tezligini boshqarish avtomatlashtirilmagan. Bu esa operatorlarning doimiy nazorati va qo‘lda sozlash jarayonini talab qiladi.

1-rasm. Hindistonning Ferro FX 200 arrali to‘liq avtomatlashgan linter mashinasi

2-rasm. Xitoy paxta tozalash koxonasidagi MR 160-11C rusumli linter mashinalarining linterlash jarayoni

3-rasm. Turkiyaning Sumer 180 saw linter mashinasi

4-rasm. O‘zbekistondagi 5-ЛП rusumli linter mashinasi

1-jadval

Xorijiy va mahalliy linter mashinalarining taqqosiy tahlili

№	Mashina modellari	Arrali slindr diametri, mm	Chigit bo’yicha unumdorlik, kg/s	Elektromotorning quvvati, kVt	Arralar soni, son
1	MR-144D	320	3500-4500	24	144
2	MR-161	320	3500-4500	27	161
3	MR-164M	320	3500-4500	30	164
4	MR-178	406	4000-5500	35	178
5	SUMER 180	457	9500	30	180
6	KV-210	457	14000	40	210
7	KV-176	457	6500	30	176
8	Cottor 200	406	10000	57	200
9	Bajaj-cec le 176	406	3500	52	176
10	Ferro FX 200	406	10000	54	200
11	5ЛП-160	320	2000-2300	30	160
12	6ЛП-320	320	3000	60	320
13	ЛПЗ-320	320	4000	57	320

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, linter mashinasining ish unumdorligi va mahsulotlar bo‘yicha sifat ko‘rsatkichlari arralar soni, arrali silindr tezligi va arra diametrining o‘zgarishiga bog‘liqdir. Bu firmalari orqali linter mashinasining yangi rusumlari mashinalar ishlash jarayoni, avtomatik boshqaruv tizimini mavjudligi va samaradorligi bilan ajralib turad. Barcha mashinalarda birinchi va ikkinchi ajratish kameralarning mavjudligi, lintni arra tishidan cho‘tkali baraban va havo orqali echilishi, ishchi kameralarini avtomatik holatda kutarilib-tushushini nazorat qilish, va chigit tarog’ini mahsulotlarga qarab o‘zgartirish imkoniyatining mavjudligi bilan ajralib turadi.

Mahalliy ishlab chiqarilgan 5ЛП-160, 6ЛП-320, ЛПЗ-320 linter mashinalari mexanik boshqaruv tizimiga ega bo‘lib, avtomatlashtirish darajasi past. Natijada, linterlash jarayonida chigitlarning ortiqcha shikastlanishi yuzaga kelishi mumkin, bu esa lint sifatining pasayishiga olib keladi. Shuningdek, ishlab chiqarish jarayonida energiya sarfi yuqoriligi kuzatiladi.

Avtomatlashtirish darajasining pastligi tufayli, texnologik jarayonni barqarorlashtirish va mahsulot sifatini yaxshilash uchun qo‘shimcha mehnat va vaqt talab etiladi.

Shu sababli, mahalliy linter mashinalarining samaradorligini oshirish uchun ularni avtomatlashtirish, ishchi kameradagi to’zg’itkich va arrali silindr tezliklarini chigit turlariga qarab avtomatik boshqarish. Bu nafaqat ish unumdorligini oshirish, balki chigitlarning shikastlanishini kamaytirish va linter jarayonining umumiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Avtomatlashtirish jarayonini tadbiq etish orqali ishlab chiqarishning texnologik talablariga mos keluvchi, energiya samarador va yuqori sifatli mahsulot olish imkoniyati yaratiladi. Kelajakda O‘zbekistonda linter mashinalarining avtomatlashtirish darajasini oshirish, avtomatlashtirish tizimlarini integratsiya qilish, shuningdek, energiyani tejovchi texnologiyalarni joriy etish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilar raqobatbardoshligini oshirish mumkin. Bu esa paxta sanoatida samaradorlikni oshirish va eksport salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025 yil 16 yanvardagi PF-6-son farmoni.
2. https://www.futuremarketinsights.com/reports/delinting-machine-market Delinting Machine Market Growth – Trends & Forecast 2024-2034
3. X.Axmedxojayev, A.Umarov, K.Ortiqova “Tarmoq texnologiyasi va jihozlari” O'quv qo’llanma / Namangan, “Iste’dot ziyo press” nashriyoti, 2022. 304b
4. https://keller-vardarci.com/Linter Machine - KV-176, https://sumermakina.com, Cotton Seed Delinter - Sümer Pamuk
5. FX-200DL:FX 200 Saw High Performance Delinter - Ferro Oiltek Pvt. Ltd.
6. “Farming and Cultivation Technologies of Cotton in China” www.intechopen.com
7. M.Omonov. “Paxtani dastlabki ishlash spravochnik” Toshkent-2008 y.

УДК 685.34.073.22

ИССЛЕДОВАНИЕ УСТОЙЧИВОСТИ ПОЛИМЕРНЫХ ПОДОШВ СПЕЦИАЛЬНОЙ ОБУВИ ДЛЯ РАБОТНИКОВ АГРОПРОМЫШЛЕННЫХ КЛАСТЕРОВ К ВОЗДЕЙСТВИЮ МАСЕЛ, РАЗЛИЧНЫХ РАСТВОРИТЕЛЕЙ И СТАРЕНИЮ

Мусаев С.С., Аслонов А.М.

Бухарский государственный технический университет.

Аннотация. *В данной статье исследованы устойчивости полимерных подошв специальной обуви полученного на основе отечественного суспензионного поливинилхлорида и поперечно сшитого порошкообразного бутадиен-нитрильного каучука предназначенной для работников агропромышленных кластеров к воздействию масел, различных растворителей и старению.*

Ключевые слова: *суспензионный поливинилхлорид, порошкообразный бутадиен-нитрильный каучук, полимерные подошвы для обуви специального назначения, эксплуатационные свойства, устойчивость полимерных материалов, агрессивная среда, химические реагенты, физико-химические свойства.*

AGROSANOAT KLASTERLARI XODIMLARI UCHUN MAXSUS POYABZAL POLIMER TAGLIKLARINING MOYLAR, TURLI ERITUVCHILAR VA TABIIY ESKIRISHGA CHIDAMLILIGINI O‘RGANISH

Musaev S.S., Aslonov A.A.

Buxoro davlat texnika universiteti.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada agrosanoat klasterlari xodimlari uchun moylar, turli xil erituvchilar va tabiiy eskirishga qarshi mo‘ljallangan mahalliy suspenziyali polivinilxlorid va ko‘ndalang o‘zaro bog‘langan kukunli butadien-nitril kauchuk asosida tayyorlangan maxsus poyabzalning polimer tagliklarining barqarorligi o‘rganildi.*

Kalit so‘zlar: *suspenziyali polivinilxlorid, kukunli butadien nitril kauchuk, maxsus maqsadli poyabzal uchun polimer tagliklari, ishlash xususiyatlari, polimer materiallarning barqarorligi, agressiv muhit, kimyoviy reagentlar, fizik-kimyoviy xususiyatlar*

INVESTIGATION OF THE RESISTANCE OF POLYMER SOLES OF SPECIAL SHOES FOR WORKERS OF AGRO-INDUSTRIAL CLUSTERS TO THE EFFECTS OF OILS, VARIOUS SOLVENTS AND AGING

Musaev S.S., Aslonov A.M.

Bukhara state technical university.

Annotation. *This article examines the resistance of polymer soles of special footwear obtained on the basis of domestic suspension polyvinyl chloride and cross-linked powdered butadiene-nitrile rubber intended for workers in agro-industrial clusters to the effects of oils, various solvents and aging.*

Key words: *suspension polyvinyl chloride, powdered butadiene-nitrile rubber, polymer soles for special-purpose footwear, performance properties, resistance of polymeric materials, aggressive environment, chemical reagents, physicochemical properties.*

Введение. Известно, что практически все полимерные материалы обладают низкой стабильности свойств во времени. Под воздействием тепла, кислорода воздуха, света, механических напряжений, ионизирующих излучений и других факторов полимерные материалы стареют в них протекают процессы, сопровождающиеся изменением химической и физической структуры, ухудшением прочностных и других свойств.

Наиболее важной, с практической точки зрения, задачей является определение и прогнозирование климатической устойчивости обувных полимерных материалов, которую оценивают в большинстве случаев по изменению значений эксплуатационных свойств исследуемых материалов. Наибольше влияние на уменьшение значений эксплуатационных свойств полимеров оказывают три вида воздействия:

I. Воздействие высоких температур, которое сопровождается изменением физико-механических свойств в результате теплового старения. В данном случае при повышении температуры происходят структурные изменения полимера, протекающие особенно интенсивно в присутствии кислорода (окислительная деструкция, структурирование) и ускоряющиеся под действием нагружений.

II. Различные виды радиационного воздействия, начиная солнечного света и заканчивая жестким радиоактивным излучением. В этом случае происходят фотохимические процессы (фото деструкция), сопровождающиеся изменением цвета, увеличением жесткости и хрупкости полимера вследствие уменьшения его молекулярной массы. Процесс фотохимического старения ускоряется и распространяется вглубь образца при дополнительном воздействии кислорода (особенно следов озона) воздуха и влаги.

III. Воздействия различных агрессивных сред. В этом случае полимеры, вступая в контакт с различными химическими реагентами (нефти-химические продукты, жиры, масла, щелочи и др.) набухают и в результате резко ухудшаются значения деформационно-прочностных и других свойств.

В соответствии с задачами провидимой работы нами исследовано длительное влияние высоких температур, ультрафиолетового излучения и воздействие агрессивных жидких реагентов (вода, бензин, дизтоплива, ацетон, этилацетат), на комплекс физико-механических и физико-химических свойств образцов, полученных методом литья под давлением из полимерной смеси на основе отечественного суспензионного поливинилхлорида и поперечно сшитого порошкообразного нитрил бутадиенового каучука.

Решаемая проблема и постановка задачи. Вопросам старения полимерных материалов посвящено большое число работ. В результате проведенных исследований достигнуты значительные успехи в изучении механизма старения многих полимеров, накоплена информация о влиянии на них совокупности различных внешних факторов, характерных для реальных условий эксплуатации полимерных материалов [1-4].

Старение – фактор, определяющий долговечность и надежность изделий. В работе использованы два метода испытания на старение по ГОСТ 9.708-83:

- метод естественного старения;

– метод искусственного старения.

Под естественным старением понимают изменение значений физико-механических свойств материалов с течением времени. Под искусственным старением понимают изменение физико-механических свойств материалов в результате воздействия факторов, ускоряющий этот процесс. Исскуственное старение полимерной композиции определена с помощи солнечного коллектора D-50354 Huerth (Germani) на ксеноновых излучателях обеспечивающий световой поток с поверхностной плотностью энергии интегрального излучения 1000 Вт/м$^{2.}$ Сущность метода заключается в том, что образцы подвергают воздействию искусственно созданных климатических факторов в аппарате искусственной погоды в течение заданной продолжительности испытаний и определяют стойкость к указанному воздействию по изменению физико-механических свойств и внешнего вида. Описание методики проведения испытаний на искусственное старение приведено в [2-3].

Набухание в жидкостях – одно из характерных свойств высокомолекулярных соединений. Изменение свойств термопластичных материалов при набухании связано с проникновением молекул жидкости в межмолекулярное пространство полимера и ослабление его межмолекулярных связей. Стойкость материалов к набуханию в жидкостях зависит от природы исходного полимера и его содержания в композиции, от свойств и дозировки ингредиентов, условий получения и переработки смеси и др. При этом большое значение имеют свойства жидкости, в которой происходит набухание, продолжительность и температура процесса.

Степень набухания термопластичной полимерной композиции на основе суспензионного поливинилхлорида и сополимера этилена с винилацетатом в различных агрессивных средах определяли по формуле:

$$\alpha = \left[\left(m - m_0\right)/m_0\right] \times 100$$

где a – степень набухания, %

m – масса полимера после набухания, г;

m_0 – масса полимера до набухания, г.

Набухание в течение 3 суток подвергалось 3-5 образцов различной формы массой 0,1 г для полимерной композиции на основе суспензионного поливинилхлорида и сополимера этилена с винилацетатом (ПВХ-С/СЭВА) в воде, масле, диз топливе, бензине и антифризе.

Методика испытания термопластичных полимерных композиций на набухание в жидкостях и агрессивных средах описана в [5].

Эксперимент и анализ полученных результатов. *Устойчивость обувных подошвенных композиций к набуханию.* Процессы взаимодействия полимеров с низкомолекулярными жидкостями, приводящие к набуханию и растворению полимеров, имеют большое практическое значение, как при переработке полимеров, так и при эксплуатации полимерных изделий.

На практике часто наблюдается самопроизвольное растворение полимеров, однако этот процесс имеет характерную особенность: прежде чем раствориться, полимер набухает, т.е. поглощает низкомолекулярную жидкость, увеличиваясь в массе и объеме.

С практической точки зрения важно знать способность полимеров к набуханию в различных агрессивных средах. Эта способность оценивается по степени набухания, которая выражается количеством поглощенной полимером жидкости, отнесенным к единице массы полимера.

Учитывая возможные случаи контакта разработанных полимерных подошвенных материалов с агрессивными средами в процессе эксплуатации обуви, в работе исследована химическая стойкость образцов при длительном (2÷72 часа) погружении в воде, антифриз, ацетон, бензин, дизтопливе и индустриальное масло. Исследуемым подошвенным композициям были присвоены индексы (таблица 1).

Таблица 1

Исследуемые полимерно подошвенные композиции

Индекс материала	Состав полимерного низа спецобуви
1	ПВХС:ПБНК базовая композиция
2	ПВХС:ПБНК:М:К:ПМ:ПЭВ наполненная композиция
3	ПВХС:ПБНК:ДМ:ЭД:ПЭВ наполненная композиция
4	ПВХС:ПБНК:Т:ПМ:ПЭВ наполненная композиция
5	ПВХС:ПБНК:ОЭК:Оксал Т-92:ПЭВ наполненная композиция
6	ПВХС:ПБНК:ОД:Оксал Т-92:ПЭВ наполненная композиция

В таблице 2 приведена кинетика набухания полимерных композиций в различных агрессивных средах в течение 72 часов.

Таблица 2. Степень набухания полимерной подошвы спецобуви в агрессивных средах

Агрес-сивная среда	Степень набухания Q, %						
	Время, час / Индекс	2	4	8	24	48	72
Вода + Антифриз	1 – 4	В воде и антифризе 23 ± 2^0 С , образцы не набухаются					
Бензин	1	0,8	1,9	2,9	3,7	4,0	4,0
	2	2,0	2,0	3,0	4,0	4,0	4,0
	3	2,0	3,0	3,0	5,0	6,0	6,0
	4	1,0	1,0	2,0	2,0	5,0	5,0
	5	2,0	3,6	4,2	4,8	5,6	5,6
	6	2,0	5,0	7,0	8,0	8,0	8,0
Диз топливо	1	0,5	1,3	1,8	2,0	2,0	2,0
	2	1,0	2,5	2,5	2,5	2,5	2,5
	3	1,0	1,5	1,9	2,3	2,3	2,3
	4	0,7	1,1	1,7	2,1	2,1	2,1
	5	1,0	1,3	1,6	2,0	2,0	2,0
	6	0,7	1,5	1,7	2,2	2,2	2,2
Этилацетат	1	23	50	64	73	76	77
	2	28	55	66	72	74	74
	3	30	58	70	76	80	80
	4	23	39	46	62	62	62
	5	25	34	40	52	58	62
	6	32	52	55	63	76	82
Индустриальное масло	1	0,2	0,5	0,8	1,0	1,0	1,0
	2	0,7	1,1	1,5	1,5	1,5	1,5
	3	0,8	1,1	1,2	1,4	1,4	1,4
	4	0,5	0,8	1,1	1,3	1,3	1,3
	5	0,6	0,9	1,2	1,5	1,5	1,5
	6	0,7	1,0	1,3	1,6	1,6	1,6
Ацетон	1	35	63	78	92	95	98
	2	50	65	79	85	90	95
	3	65	80	85	90	100	110
	4	65	80	85	95	105	105
	5	60	66	70	87	92	95
	6	68	70	86	96	101	101

На основе данных таблицы 1 построены кривые кинетики набухания (рис. 1). На рис. 1 показана устойчивость базовой подошвенной композиции к набуханию в различных агрессивных средах. Вид растворителя выбран, исходя из соображений проверки подошвенного материала на водо, масло и бензо стойкость. Анализируя кривые (рис. 1) можно отметить, что самой агрессивной средой из пяти используемых, является ацетон, этилацетат, а затем незначительное влияние оказывает бензин. Набухание полимерно подошвенной композиции в ацетоне и этилацетате объясняется за счет более интенсивного процесса вымыванием пластификатора.



Рис. 1. Кинетика набухания базовый полимерно подошвенной композиции на основе суспензионного поливинилхлорида и сшитого порошкообразного бутадиен-нитрильного каучука в соотношение 85:15 в различных агрессивных средах: *1-ацетон; 2-этилацетат; 3-бензин; 4-дизтопливо; 5-индустриальное масло.*

Анализируя кинетика набухания полимерной подошвенной композиции, можно сделать следующие выводы:

- вид наполнителя в композиции оказывает существенное влияние на масло, - бензо стойкость материала, следовательно, верно подобранный наполнитель даст возможность значительно улучшить способность подошвенных материалов сопротивляться воздействию агрессивных сред;
- ацетон и этилацетат могут быт использованы в качестве растворителей для клеев, применяемых для крепления подошв из разработанных композиций;
- полученные подошвенные материалы являются фактически масло - бензо стойкими, что дает возможность использования их для специальной обуви, эксплуатируемой в условиях работы с агрессивными средами.

Устойчивость термопластичных обувных подошвенных композиций к старению. Степень старения подошвенных материалов во времени обычно оценивается по изменениям их основных физико-механических показателей. В зависимости от условий эксплуатации, испытываемых воздействий на материал, выбирается один или несколько параметров, по которым оценивается скорость старения полимерных материалов и сроки их работоспособности.

Исходя из цели и задачи диссертационной работы, были исследованы образцы подошвенных материалов на естественное, тепловое и световое старение.

Стойкость к естественному старению подошвенных материалов оценивалась по прошествии, 720 ч (1 месяц), 1440 ч (2 месяца) и 2160 ч (3 месяца). Образцы выдерживались

в естественных атмосферных условиях (с 01 июня по 31 августа 2024 г). Через 1, 2 и 3 месяца образцы были испытаны на разрыв и оценены их деформационно-прочностные характеристики. Основной недостаток методов естественного старения является длительность. Однако естественное старение дает точную оценку устойчивости подошвенных материалов к старению в конкретных климатических условиях. Изменения деформационно-прочностных характеристик в процессе естественного старения представлены в таблице 3.

Таблица 3

Влияние процесса естественного старения на деформационно-прочностные свойства подошв спецобуви

Индекс материала	Старение, час	Показатели деформационно прочностных свойств		
		Предел прочности при разрыве, МПа	Относительное удлинение, %	Остаточное удлинение, %
1	720	13.7	350	20
	1440	13.5	345	23
	2160	13.1	340	25
2	720	12.9	328	26
	1440	12.7	325	28
	2160	12.5	320	30
3	720	10.8	308	26
	1440	10.2	300	28
	2160	9.7	290	30
4	720	14.5	292	24
	1440	14.1	285	27
	2160	13.8	280	29
5	720	11.8	346	28
	1440	11.5	340	30
	2160	11.2	335	32
6	720	10.6	330	22
	1440	10.1	320	25
	2160	9.5	300	30

Анализ результатов таблиц 3 показал, что разработанные полимерно подошвенные материалы мало подвержены естественному старению, о чем говорит незначительное изменение деформационно-прочностных характеристик. Из таблицы видно, что свойства модифицированных подошвенных материалов (композиция 2-6) меняются незначительно в отличие от базовой смеси (композиция 1). Следовательно, данные материалы в большей степени пригодны для изготовления деталей низа спецобуви работников АПК, чем базовые смеси на основе ПВХС:ПБНК.

Методы искусственного старения (теплового, светового) позволяют вызвать в подошвенном материале за короткий срок изменения, которые появляются в нем при естественном старении через несколько лет. В таблице 4 приведены результаты деформационно-прочностных свойств базовый композиции на основе ПВХС:ПБНК и наполненных композиций от продолжительности теплового старения при температуре Т=100°С в течение 3-х суток, что идентично изменению свойств при атмосферном старении в течение 5 лет.

Таблица 4

Влияние процесса теплового старения на деформационно-прочностные свойства подошв спецобуви

Индекс материала	Старение, час	Показатели деформационно прочностных свойств		
		Предел прочности при разрыве, МПа	Относительное удлинение, %	Остаточное удлинение, %
1	24	13.9	345	18
	48	12.7	355	25
	72	12.0	360	28
2	24	13.1	325	24
	48	11.9	335	30
	72	11.0	340	35
3	24	11.3	300	25
	48	10.0	325	32
	72	9.5	340	35
4	24	14.9	290	22
	48	13.5	335	32
	72	12.8	358	35
5	24	12.2	340	25
	48	11.0	372	33
	72	10.2	405	38
6	24	11.0	320	20
	48	10.1	350	28
	72	9.3	375	37

Анализ результатов деформационно-прочностных свойств приведенных в таблице 4 показывает, что в условиях теплового старения образцы подошвенных композиций проявляют относительную стабильность свойств, что свидетельствует о наличии определенного запаса устойчивости к тепловому старению при заданных температурах. Увеличение значения условной прочности при разрыве в течение первых суток теплового старения (композиция 1-6) с одновременным снижением значений относительного и остаточного удлинения может быть объяснено, возможно, дополнительным образованием двойных связей, благодаря воздействию температуры. В общем случае, показатели $\varepsilon_{отн}$ и $\varepsilon_{ост}$ (композиция 1-6) более чувствительны к воздействию теплового старения, но снижение этих показателей находится в пределах допустимых значений.

В целом , проведенные исследования готовых образцов на тепловое старение при температуре 100°С в течении 3-х суток (72 часов) показали, что все подошвенные композиции являются достаточно стойкими к тепловому старению и могут быть рекомендованы для эксплуатации в условиях повышенных температур. Полученные результаты хорошо согласуются с результатами ДСК, ДТА и ТГА [8].

В процессе эксплуатации детали низа обуви подвергаются помимо теплового, световому старению (воздействию ультрафиолетового излучения).

Согласно [9], деструкция полимерных материалов наиболее интенсивно протекает при облучении их светом 260-310 нм, что приблизительно совпадает по интенсивности воздействия с солнечным облучением. В таблице 5 приведены результаты изменения деформационно-прочностных свойств подошвенных композиций на основе отечественного суспензионного поливинилхлорида и сшитого порошкообразного бутадиен-нитрильного каучука от продолжительности воздействия УФ лучей.

Таблица 5

Влияние процесса светового старения на деформационно-прочностные свойства подошв спецобуви

Индекс материала	Старение, час	Показатели деформационно прочностных свойств		
		Предел прочности при разрыве, МПа	Относительное удлинение, %	Остаточное удлинение, %
1	24	13.7	350	20
	48	13.3	342	24
	72	12.5	335	26
2	24	12.9	325	27
	48	12.2	315	30
	72	11.8	302	33
3	24	10.8	325	25
	48	10.3	310	32
	72	9.5	290	39
4	24	14.4	290	24
	48	13.8	285	29
	72	12.5	282	33
5	24	11.7	340	25
	48	11.0	332	27
	72	10.2	327	28
6	24	10.5	325	22
	48	10.0	300	29
	72	9.1	275	40

Сравнительный анализ результатов деформационно-прочностных свойств приведенных в таблице 5 показывает, что процесс старения происходит более интенсивным образом, чем при тепловом старении, а все образцы являются относительно светостойкими системами. Показателем деформационно-прочностных свойств подошвенных материалов за 72 часа облучения изменяются в допустимых пределах. Это объясняется сшитой структурой ПБНК в матрице ПВХС, а также наличием в системе светостабилизаторов которые, обеспечивают композицию высокой стойкостью к фотоокислительным деструкциям.

Выводы. Анализируя устойчивости полимерных подошв специальной обуви для работников агропромышленных кластеров к воздействию масел, различных растворителей можно сделать следующие выводы о том, что вид наполнителя в композиции оказывает существенное влияние на масло и бензо стойкость материала, следовательно, верно подобранные модифицирующие тонкодисперсные наполнители даст возможность значительно улучшить способность обувных подошвенных материалов сопротивляться воздействию агрессивных сред. Разработанные обувные подошвенные материалы являются фактическими масло и бензо стойкими, что делает возможным использования их для специальной обуви, эксплуатируемых в условиях работы с агрессивными средами в агропромышленных комплексах.

Исследования проведенные на устойчивость к старению позволяют сделать вывод о том, что разработанные полимерно подошвенные композиции на основе отечественного суспензионного поливинилхлорида и поперечно сшитого порошкообразного бутадиен-нитрильного каучука для изготовления деталей низа специальной обуви методом прямого литья под давлением, хорошо выдерживают испытания на естественное и искусственное

старение и могут быть рекомендованы для эксплуатации в условиях работы с повышенными термо и световоздействием.

Список использованной литературы

1. Филатов И.С. Климатическая устойчивость полимерных материалов. М. Наука, 1993, 323 с.
2. Павлов Н.Н. Старение пластмасс в естественных и искусственных условиях. М.: Химия, 1992, 216 с.
3. Зуев Ю.С. Разрушение полимеров под действием агрессивных сред. М.: Химия, 1999. – 408 с.
4. Musaev S.S., Samieva G.O. Study of the Resistance of Shoe Sole Compositions to various Aggressive Environments. International Journal of Emerging Trends in Engineering Research. Volume 11. No.4, April 2023. India. P.111-115.
5. Тынный А.Н. Прочность и разрушение полимеров при воздействии жидких сред. Киев: Наукова думка, 1995. – 248 с.
6. Musaev S.S., Samieva G.O. Optimization of values of technological parameters for obtaining thermoplastic polymer composition for bottom shoes. REVISTA, Leather and Footwear Journal. Bucharest, Romania, Europe. ISSN: 1583-4433 Volume 21, No. 4, 2021. P 247-256.
7. Musaev S.S., Samieva G.O. The study of thermodynamiccompatibility of polymers. EPRA International Journal of Researh & Development (IJRD). Impact Factor:7.001. Volume 5. Issue 5, May 2020, pages 411-420.
8. Мусаев С.С., Самиева Г.О. Термические исследования свойств обувных подошвенных композиций. Известия высших учебных заведений. «Технология текстильной промышленности». Научно технический журнал. №4, (406). 2023. С 236-243.
9. Мадорский С. Термическое разложение органических полимеров. М.: Мир. 1999. 328 с.

KOLOSNIKLI PANJARA O‘LCHAMLARINING TOZALASH JARAYONIGA TA’SIRI

[1]Saparov M.K., [2]Ro‘zmetov R.I., [2]Tuychiyev T.O.

[1]Urganch davlat universiteti, [2]Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti.

Annotatsiya. *Maqolada turli xil o‘lchamdagi kolosniklarning tozalash jarayoniga ta’sirini aniqlash bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari keltirilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, kolosnikning diametri 15 mm va ularning o‘zaro oraliq masofasi 30 mm, arrachali baraban tishlari uchidan kolosnikli panjara qirrasigacha bo‘lgan oraliq masofasi 17 mm bo‘lgan kolosnikli panjara o‘rnatilgan tozalagichning tozalash samaradorligi 2 sinfdagi I nav paxta qayta ishlanganda 47,78 %ni va III nav paxta qayta ishlanganda 49,85 %ni tashkil etib, qolgan variantlaridagi kolosniklarga nisbatan tozalash samaradorligini yuqori ekanligi aniqlandi.*

Kalit so‘zlar: *paxta bo‘lakchasi, tola, ifloslik, tozalagich, arrachali baraban, kolosnik, tozalash samaradorlik.*

ВЛИЯНИЕ РАЗМЕРОВ ПРУТКОВОЙ РЕШЕТКИ НА ПРОЦЕСС ОЧИСТКИ

[1]Сапаров М.К., [2]Розметов Р.И., [2]Туйчиев Т.О.

[1]Ургенчский государственный университет,

[2]Ташкентский институт текстильной и лёгкой промышленности.

Аннотация. *В статье приведены результаты исследований, направленных на определение влияния колосников различных размеров на процесс очистки. Согласно результатам исследований, очиститель с установленной колосниковой решёткой, имеющей диаметр колосников 15 мм, расстояние между ними 30 мм и расстояние от концов зубьев пильного барабана до края колосниковой решётки 17 мм, показал эффективность очистки в 47,78 % при переработке хлопка 1 сорта 2 класса и 49,85 % при переработке хлопка 3 сорта. Установлено, что данный вариант обеспечивает более высокую эффективность очистки по сравнению с другими вариантами колосников.*

Ключевые слова: *хлопковая частица, волокно, загрязнение, очиститель, пильный барабан, колосник, эффективность очистки.*

INFLUENCE OF BAR GRID DIMENSIONS ON THE CLEANING PROCESS

[1]Saparov M.K., [2]Rozmetov R.I., [2]Tuychiyev T.O.
[1]Urgench state university, [2]Tashkent institute of textile and light industry.

Annotation. *The article presents the results of research aimed at determining the impact of grate bars (kolosniks) of various sizes on the cleaning process. According to the research findings, a cleaner equipped with a grate bar system where the diameter of the grate bars is 15 mm, the spacing between them is 30 mm, and the distance from the tips of the saw cylinder teeth to the edge of the grate bar is 17 mm, demonstrated a cleaning efficiency of 47.78% when processing Grade I, Class 2 cotton, and 49.85% when processing Grade III cotton. It was found that this configuration provides higher cleaning efficiency compared to other grate bar variants.*

Keywords: *cotton particle, fiber, impurity, cleaner, saw cylinder, grate bar, cleaning efficiency.*

***K*irish.** Paxtani tozalash jarayonida iflosliklarni to‘liq ajratib olish, xomashyoning tabiiy sifat ko‘rsatkichlarini saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etadi. Chigitda mexanik shikastlanishlar oshmasada uning yuzasida ko‘zga ko‘rinmaydigan mikro yoriqlar hosil bo‘ladi. Bu mikroyoriqlar jinlash jarayonida kattalashib, ayrimlari chigit po‘stloqli tolalardan iborat nuqsonlar hosil bo‘lishiga olib keladi. Bu o‘z navbatida tolaning ifloslik va nuqsonlar miqdorini oshirib, uning sinfini pasaytirishga sabab bo‘ladi. Shuning uchun tozalash bosqichlarini minimal darajada amalga oshirgan holda paxta tarkibidagi iflosliklarni tozalash jarayonini kechishini ta’minlash zarur.

Tozalash samaradorlikni oshirishning bir qancha imkoniyatlari mavjud bo‘lib, oldingi boblarda olib borilgan tahlillar va nazariy izlanishlar asosida asoslangan variantdagi kolosnikli panjaralarni amaliy tajribalarini o‘tkazish orqali maqsadga erishish mumkindir.

Tadqiqot o‘tkazish metodikasi. Ushbu bobda olib borilgan tadqiqotlardan maqsad paxta tozalash korxonalarida mavjud yirik iflos aralashmalardan tozalash uskunasining kolosnikli panjarasi konstruksiyasini takomillashtirish asosida uskunaning tozalash samaradorligini oshirishdan iboratdir. Shu maqsadda 4 xil konstruksiyadagi kolosnikli panjaralar tayyorlanib, tadqiqotlarda foydalanildi (1-rasm): I-variantda mavjud konstruksiyadagi kolosnikli panjara (diametri $20\ mm$ va ularning oraliq masofasi $40\ mm$); II - variantda kolosnikning diametri $10\ mm$ va ularning o‘zaro oraliq masofasi $35\ mm$, arrachali baraban tishlari uchidan kolosnikli panjara qirrasigacha bo‘lgan oraliq masofasi $17\ mm$ bo‘lgan kolosnikli panjara; III - variantda kolosnikning diametri $15\ mm$ va ularning o‘zaro oraliq masofasi $30\ mm$, arrachali baraban tishlari uchidan kolosnikli panjara qirrasigacha bo‘lgan oraliq masofasi $17\ mm$ bo‘lgan kolosnikli panjara; IV - variantda $30\ mm$ va ularning o‘zaro oraliq masofasi $40\ mm$, arrachali baraban tishlari uchidan kolosnikli panjara qirrasigacha bo‘lgan oraliq masofasi $15\ mm$ bo‘lgan kolosnikli panjara (1-rasmga qarang).

Tozalash texnologiyasining boshida 4ta qoziqchali-plankali baraban, ketma-ket 2ta UXK uskunasi va 4ta qoziqchali plankali barabanlardan iborat bo‘lib, ushbu texnologiyada ikki qayta o‘tkazildi. Tozalash texnologiyasiga berilayotgan namunadagi paxtaning dastlabki namlik va ifloslik ko‘rsatkichlari Davlat standartlari O‘z DSt 643:2006 «Paxta. Namuna tanlab olish usullari», O‘z DSt 644:2006 «Paxta. Namlikni aniqlash usullari» va O‘z DSt 592:2008 «Paxta. Ifloslikni aniqlash usullari» da keltirilgan metodikalar asosida aniqlandi. Shuningdek, tozalash jarayonidan so‘ng paxtaning ifloslik miqdorlari xam shu metodlar asosida aniqlandi.

Tadqiqotlar Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutining “Tolali materiallarni dastlabki ishlash” kafedrasi qoshidagi o‘quv ilmiy laboratoriyada joylashgan UXK tozalash oqimidagi yirik iflosliklardan tozalash sekitsyasida o‘tkazildi. Tadqiqot variantlaridagi kolosniklar asosiy arrachali baraban ostiga o‘rnatildi. Arrachali baraban va kolosnikli panjara oraliq masofalari rostlandi. Shundan so‘ng har bir tajribalar 3 qaytalikda o‘tkazildi.

Amaliy tadqiqotlarning natijalari va tahlili. Tadqiqotlarda tozalovchi yuzalarning turli variantlarini tozalash jarayoniga ta’sirini o‘rganish maqsadida tadqiqotlar olib borildi. Tadqiqotlar oldingi bo‘limda keltirilgan metodika asosida olib borildi.



I-variantdagi kolosnikli panjaraning sxemasi va umumiy ko‘rinishi



II-variantdagi kolosnikli panjaraning sxemasi va umumiy ko‘rinishi



III-variantdagi kolosnikli panjaraning sxemasi va umumiy ko‘rinishi



IV-variantdagi kolosnikli panjaraning sxemasi va umumiy ko‘rinishi

1-rasm. Tadqiqotlarda foydalanilgan kolosnikli panjara variantlari

Tadqiqotlarda Xorazm-127 seleksiyasining I va III navlari 2 sinfdagi, dastlabki namligi 10,1 %, 13,7 % va iflosligi 8,2 %; 10,9 % bo‘lgan paxta xomashyolaridan foydalanildi. Paxtani tabiiy usulda I navda 8,0 %gacha va III navda 8,6 %gacha quritib olindi. Quritilgan paxtadan tadqiqotlar o‘tkazish uchun namuna olindi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qiladigan bo‘lsak, mavjud kolosnikli panjara bo‘lgan I – variantdagi kolosnikli panjara o‘rnatilgan tozalagichdan so‘ng paxta tarkibidagi ifloslik miqdori 4,78 %ni, paxta chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,28 %ni, erkin tolalar miqdori 0,015 % va tozalash jarayonida ajralgan iflosliklar tarkibidagi paxta bo‘lakchalari miqdori 3,85 %ni hamda uskunaning tozalash samaradorligi 41,65 %ni tashkil etdi.

II – variantdagi kolosnikli panjara o‘rnatilgan tozalagichdan so‘ng paxta tarkibidagi ifloslik miqdori 4,73 %ni, paxta chigitining mexanik shikastlanishini oshishi 0,26 %ni, erkin tolalar miqdori 0,023 % va tozalash jarayonida ajralgan iflosliklar tarkibidagi paxta bo‘lakchalari miqdori 3,47 %ni hamda uskunaning tozalash samaradorligi 42,28 %ni tashkil etdi.

III – variantdagi kolosnikli panjara o‘rnatilgan tozalagichdan so‘ng paxta tarkibidagi ifloslik miqdori 4,28 %ni, paxta chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,24 %ni, erkin tolalar miqdori 0,010 % va tozalash jarayonida ajralgan iflosliklar tarkibidagi paxta bo‘lakchalari miqdori 3,13 %ni hamda uskunaning tozalash samaradorligi 47,78 %ni tashkil etdi.

IV – variantdagi kolosnikli panjara o‘rnatilgan tozalagichdan so‘ng paxta tarkibidagi ifloslik miqdori 4,46 %ni, paxta chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,28 %ni, erkin tolalar miqdori 0,018 % va tozalash jarayonida ajralgan iflosliklar tarkibidagi paxta bo‘lakchalari miqdori 3,68 %ni hamda uskunaning tozalash samaradorligi 45,63 %ni tashkil etdi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qiladigan bo‘lsak, mavjud kolosnikli panjara bo‘lgan I – variantdagi kolosnikli panjara o‘rnatilgan tozalagichdan so‘ng paxta tarkibidagi ifloslik miqdori 6,13 %ni, paxta chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,32 %ni, erkin tolalar miqdori 0,019 % va tozalash jarayonida ajralgan iflosliklar tarkibidagi paxta bo‘lakchalari miqdori 4,10 %ni hamda uskunaning tozalash samaradorligi 43,73 %ni tashkil etdi.

II – variantdagi kolosnikli panjara o‘rnatilgan tozalagichdan so‘ng paxta tarkibidagi ifloslik miqdori 5,94 %ni, paxta chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,31 %ni, erkin tolalar miqdori 0,018 % va tozalash jarayonida ajralgan iflosliklar tarkibidagi paxta bo‘lakchalari miqdori 3,79 %ni hamda uskunaning tozalash samaradorligi 45,54 %ni tashkil etdi.



2-rasm. Paxta navlari bo‘yicha tadqiqot variantlaridagi kolosnikli panjalarning tozalash samaradorligiga ta’siri. - I nav 2 sinf; - III nav 2 sinf.

III – variantdagi kolosnikli panjara o‘rnatilgan tozalagichdan so‘ng paxta tarkibidagi ifloslik miqdori 5,47 %ni, paxta chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,27 %ni, erkin tolalar miqdori 0,015 % va tozalash jarayonida ajralgan iflosliklar tarkibidagi paxta bo‘lakchalari miqdori 3,35 %ni hamda uskunaning tozalash samaradorligi 49,85 %ni tashkil etdi.

IV – variantdagi kolosnikli panjara o‘rnatilgan tozalagichdan so‘ng paxta tarkibidagi ifloslik miqdori 5,79 %ni, paxta chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,33 %ni, erkin tolalar miqdori 0,021 % va tozalash jarayonida ajralgan iflosliklar tarkibidagi paxta bo‘lakchalari miqdori 3,97 %ni hamda uskunaning tozalash samaradorligi 46,91 %ni tashkil etdi.

Paxtaning navlari bo‘yicha tadqiqot variantlaridagi kolosnikli panjalarning uskunaning tozalash samaradorligiga ta’siri 2-rasmda gistogramma ko‘rinishida keltirilgan.

Kolosnik variantlarini tozalash samaradorliklarini tahlil etadigan bo‘lsak (2-rasm), mavjud kolosnikli panjara o‘rnatilgan I – variantdagi kolosnikli panjaraga nisbatan II – variantdagi kolosnikli panjara foydalanilganda 0,63 % ga, III – variantdagi kolosnikli panjara foydalanilganda 6,13 % ga va IV – variantdagi kolosnikli panjara foydalanilganda 3,98 % ga tozalash samaradorlikni yuqori bo‘lishiga erishilmoqda. Chigitning mexanik shikastlanishini oshishi barcha variantlarda deyarli bir biriga yaqin ko‘rsatkichlar qayd etildi.

Xulosa. Kolosnikning diametri $15\ mm$ va ularning o‘zaro oraliq masofasi $30\ mm$, arrachali baraban tishlari uchidan kolosnikli panjara qirrasigacha bo‘lgan oraliq masofasi $17\ mm$ bo‘lgan kolosnikli panjaraning tozalash samaradorliklari oshishi ularda kolosniklar sonini ko‘payishi natijasida paxtaga berilayotgan zarba kuchlari o‘zgarishi hisobiga erishilmoqda. Shuningdek tozalash jarayonida ajralgan iflosliklar tarkibiga paxta bo‘lakchalari miqdorini I navda 0,72 %ga va III navda 0,75 % ga kamaytirishga erishilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Tian, X. Zhang, W. Zhang, H. Dong, X. Jiu, Y. Yu and Z. Zhao (2017). Leaf adhesiveness affects damage to fiber strength during seed cotton cleaning of machine-harvested cotton. Industrial crops and products, 107, 211-216.
2. R.V. Baker, P.A. Boving and J.W. Laird (1982). Effects of processing rate on the performance of seed cotton cleaning equipment. Transactions of the ASAE, 25(1), 187-192.
3. F. Veliev, E. Mustafayeva, A. Mamontov, V. Shevtsov, S. Zinchenko, and A. Rud. (2021). Development of a procedure for determination of damage to seeds and cotton fibers in cotton cleaning machines. Eureka: Physics and Engineering, (4), 125-133.
4. I. Razhabov, A. Safoyev, M. Agzamov and D. Yuldashev (2020). Cleaner of raw cotton with a screw working body. Saudi Journal of Engineering and Technology, 5(10), 361-365.
5. A. Parpiev, M.D. Shorakhmedova, D.I. Khabibullayeva. Study of the deformation of the structure of raw cotton in technological processes //Universum: - 2020 - Row 9-2 (78) - Б. 27-30.
6. Madumarov I. et al. Movement of the trash inside of fiber material when available elastic force of clutch //Engineering. – 2018. – Т. 10. – №. 9. – S. 579-587.
7. A. Mirzaumidov and K. Nurillaeva (2024). Cotton cleaner with multifaceted grates. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 9(4), 77-82.
8. Tuychiev, T., Madumarov, I., Gapparova, M., & Ismoilov, A. (2022, May). Influence of the Direction of Movement of Cotton to Pile Drums on the Cleaning Efficiency. In International Scientific Conference on Agricultural Machinery Industry “Interagromash"” (pp. 2084-2091). Cham: Springer International Publishing.
9. Ruzmetov R. I. et al. Modeling of heat exchange processes between raw cotton and coolant in a screw drum //European Science Review. – 2018. – №. 5-6. – S. 335-338.
10. O.D. Murodov Influence of the mesh shape of the fine waste cleaner for raw cotton on the cleaning effect //Technology and Quality. - 2021. - No. 2. - P. 52-55.
11. G.L. Barker (1991). Analysis of seed cotton cleaning efficiency using ginqual. Applied Engineering in Agriculture, 7(6), 667-672.

QUYOSH BATAREYALARINI MAXSUS KIYIMDA QO‘LLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Sayidova M.H.
Buxoro davlat texnika universiteti.

Annotsiya. *Maqolada maxsus kiyimda quyosh batareyalarini qo‘llashning nazariy asoslarini va “inson-maxsus kiyim-tashqi muhit” tizimini matematik modelininig eng optimal nazariy asos yo‘llarini ko‘rib chiqamiz.*

Kalit so‘zlar: *matetimatik model, EHM, dasturiy ta’minot, radiatsiya, elektr toki, matematik model, eksperimental, amaliy metodologiya.*

THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE USE OF SOLAR CELLS IN SPECIAL CLOTHING.

Sayidova M.H.
Bukhara state technical university.

Annotation. *The article considers the theoretical foundations of the use of solar cells in special clothing and the most optimal theoretical foundations of the mathematical model of the “human-special clothing-external environment” system.*

Key words: *mathematical model, computer, software, radiation, electric current, mathematical model, experimental, practical methodology.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРИМЕНЕНИЯ СОЛНЕЧНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ В СПЕЦИАЛЬНОЙ ОДЕЖДЕ

Сайидова М.Х.
Бухарский государственный технический университет.

Аннотация. *В статье рассматриваются теоретические основы применения солнечных элементов в спецодежде и наиболее оптимальные теоретические основы математического моделирования системы “человек -спецодежда -внешняя среда”.*

Ключевые слова: *математическая модель, воздействие, программное обеспечение, излучение, электрический ток, математическая модель, экспериментальная, прикладная методология.*

Dunyo miqyosida innovatsion maxsus kiyimlarini ishlab chiqarishga talab yuqori bo‘lib, ularning sifatini va raqobatbardoshligini oshirish, assortimentini kengaytirish, ergonomik loyihalash tamoyilariga asoslangan ishlab chiqishning samarali texnologiyasini yaratish va amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan innovatsion maxsus kiyimlarni ishlab chiqishda tizimli loyihalash tamoyillariga asoslanish va resurstejamkor texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi [1]. Tikuv buyumlarini ishlab chiqarishda texnologik jarayonlarning ta’sir etadigan muhim omillarini aniqlagan holda, ilmiy asoslangan texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda [2]. Bu borada, quyosh batareyalarini yozgi maxsus kiyimda qo‘llash orqali ekstremal mehnat sharoitlarida muqobil energiya bilan ta’minlash, quyosh batareyalari ishlab chiqadigan muqobil energiyadan kiyim osti qatlamini komfortligini ta’minlash va kommunikativ qurilmalarni quvvatlashda foydalanish, ilmiy asoslangan texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish, mahsulot sifatini yaxshilash hamda ichki bozorlarning ehtiyojlarini to‘liq qondirishga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda tikuvchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini va mahsulot turini ko‘paytirish imkonini beradigan texnologiyalarni ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 sonli «2022-2026 yillarda mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, jumladan «...yangi zamonaviy texnologiyalarni olib kirish bilan birga mahalliy xom-ashyolardan samarali foydalanib, qiymati qo‘shilgan xaridorgir mahsulotlar yaratib, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish..» bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan [3]. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, issiq sharoitda ishlaydiganlar uchun (gaz majmuasi ishchilari misolida) komfort sharoitlarni ta’minlaydigan

quyosh batareyalari va ventilatsion tizim bilan ta’minlangan maxsus kiyimlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Inson organizmining fiziologik funksiyalarining o‘zgarishi uning mehnat, hayot sharoitlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, atrof-muhit omillari ta’sirida bo‘ladi. Ma’lum bir geografik hududdagi iqlim sharoitini tashkil etuvchi omillar majmuidan havo harorati, shamol tezligi, namlik va quyosh radiatsiyasi kabi meteorologik ko‘rsatkichlar insonning issiqlikni sezishiga eng katta ta’sir ko‘rsatadi. Havoning harorati va quyosh radiatsiyasi insonning haddan tashqari qizib ketishiga olib keluvchi asosiy omillardir [4]. Ayniqsa, og‘ir sharoitlarda havo harorati 5-6 oy davomida 40-45 °Cdan oshib, yoz jaziramasida esa kunduzi 45-50 °Cgacha va undan yuqori bo‘lganda ochiq maydondagi ishlar olib boriladi. Insolyatsiya tufayli bu davrda ish joylarida havo harorati 40-50% atrofida o‘zgarib turadi. Gaz majmuasi ishchilari yozda haddan tashqari qizib ketish (bosh og‘rig‘i, holsizlik, charchoq) ga xos shikoyatlar bilan murojaat qilishadi: ularda ba’zan tana harorati ko‘tarilishi 37,5-37,8℃ gacha kuzatiladi.

O‘zbekiston uchun umumiy quyosh radiatsiyasining yuqori qiymatlari xos. Masalan, bu mintaqada o‘rtacha jami quyosh radiatsiyasi may oyida -17.7; iyun-19,4; iyul-19,4; avgust-18,1 kkal/sm^2 ni tashkil etadi. Buning sababi shundaki, quyosh nurining davomiyligi o‘rtacha 10 soatni tashkil etib, yozda (iyun) kuniga 14 soatni tashkil etadi [5].

Ma’lumki, quyosh radiatsiyasi inson tanasiga ham, atrof-muhitning barcha narsalariga ham issiqlik yetkazadi; bunda ochiq maydonda ishlaydigan inson issiqlikni bir necha yo‘l bilan oladi. U atrof havo haroratidan qat’i nazar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri quyosh radiatsiyasidan eng ko‘p issiqlik oladi. Bu havoning isishi asosan quyosh nurlari bilan emas, balki quyosh radiatsiyasini o‘zlashtiradigan va o‘zgartiradigan tuproqning issiqlik berishi bilan bog‘liq.

Yuqori havo harorati sharoitlarida foydalanish uchun mo‘ljallangan maxsus kiyimlarini loyihashda muhit sharoitlarining o‘zgarishi bir tomondan va kiyim materiallarining issiqlik va namlik xususiyatlari o‘zgarishi ikkinchi tomondan, inson tanasining reaktsiyalari va ularga mos maxsus kiyim materiallarini tanlash bo‘yicha uzoq muddatli yo‘naltirilgan tajribalarni o‘tkazishni talab etadi. Bundan tashqari, atrof muhit sharoitlarining va kiyimni shunday ekstremal kombinatsiyalari vujudga kelishi mumkinki, ularda tajribalar o‘tkazish imkoni bo‘lmaydi, bu esa o‘z navbatida inson salomatligi uchun xavf tug‘diradi (issib ketish, tana haroratining ko‘tarilishi, bosh aylanish, holdan ketish, qon bosimining oshishi kabi kasalliklarni kelib chiqishi va boshqalar).

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida va bizning malakatimizda o‘xshash masalalarni yechishda matematik modellashtirish usullari keng va muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Matematik modellashtirish- bu fizik hodisalarni ularni matematik modellarini yaratish yo‘li bilan o‘rganish usuli [6]. Shunday qilib, matematik modellashtirish- bu EHM va maxsus dasturiy ta’minotdan foydalanishga asoslangan eksperimental va amaliy metodologiya bo‘lib, uning maqsadi:

- tizim xatti –harakatlarini tasvirlab berish;
- kuzatilgan tizim xatti –harakatlarini tushuntiruvchi kontseptsiyani ishlab chiqish;
- tizimning alohida qismlarini tasvirlovchi matematik bog‘liqliklarni ishlab chiqish;
- maxsus dasturiy ta’minotni ishlab chiqish;
- ushbu ishlanmalardan omillari o‘zgaruvchan tizimning xatti-harakatlarini tahlil qilish jarayonida foydalanish.

Amaliy tizimli tahlil usullari orasida matematik modellashtirish murakkab dinamik tizimlarni o‘rganish bo‘yicha eng mukammal usul hisoblanib, real obyektlarda tajribalar o‘tkazish imkoni bo‘lmagan hollarda, juda kam moddiy va vaqt sarfi evaziga tizimlar bilan ketma-ketlikda tajribalar o‘tkazish imkonini beradi. Ushbu masalaning yechimi talablarga javob beradigan maxsus kiyim konstruktsiyasi va uning materiallarni izlashni o‘z ichiga oladi hamda inson tanasining reaktsiyalarini hisobga olgan holda maxsus kiyim parametrlarining miqdoriy qiymatlarini aniqlashga qaratilgan.



1-rasm. Issiq va quruq havo sharoitlarida “Inson-maxsus kiyim-tashqi muhit” tizimi matematik modelining blok- sxemasi



2-rasm. “Inson- maxsus kiyim” tizimining shartli silindr ko‘rinishi: 1-inson tanasi (yadro), 2- mushaklar, 3- teri, 4- kiyim osti havo qatlami; 5-ichki kiyim; 6-maxsus kiyim

“Inson-maxsus kiyim-tashqi muhit” tizimining matematik modelining blok-sxemasi (2.1-rasmda keltirilgan). Dastlabki ma’lumotlarga insonning biologik xususiyatlari, kiyim osti qatlami parametrlari, maxsus kiyim materiallari maketining parametrlari va atrof muhit parametrlari kiradi. “Inson-maxsus kiyim-tashqi muhit” tizimining matematik ifodalashning qulayligi uchun kiyim ko‘p qatlamli silindr sifatida qabul qilingan bo‘lib [7,8], uning tanlangan qatlamlari inson tanasi, kiyim osti qatlami va kiyim materiallari paketiga to‘g‘ri keladi.Ushbu tizimda issiqlik va namlik (ter) ning harakatlanishi va uzatilishi statsionar bo‘lmagan sharoitda odamning chuqur termostatlangan qatlami (yadro) dan inson terisi orqali kiyim osti bo‘shlig‘i va kiyim materiallari paketi orqali atrof muhitga issiqlik o‘tkazuvchanlik £, konvektsiya $Q_{конв}$ va bug‘lanish $Q_{исп}$ jarayonlarini hisobga olgan holda ko‘rib chiqildi.

Inson tanasini qatlamlarga bo‘linishi har bir qatlamning asosiy vazifasiga asoslangan holda amalga oshirildi: yadro -70% gacha issiqlik ishlab chiqadigan qatlam, mushaklar – intensiv jismoniy faoliyat jarayonida issiqlik ishlab chiqadigan qatlam, teri –tashqi muhit bilan havo almashinuvda aktiv ishtirok etadigan qatlam. Inson tanasining qatlamlari o‘rtasida issiqlik almashinuvi qon aylanishi orqali konvektiv va ter orqali bug‘lanish usulda amalga oshiriladi.

Kiyim osti qatlamining matematik modeliga asos bo‘lgan terni tana sirtidan bug‘lanish fizik hodisalarini ko‘rib chiqamiz. Fundamental fizika nuqtayi nazaridan, suyuqlikni ochiq sirt ustidan bo‘g‘lanishi diffuzion jarayon hisoblanib, issiqlikni va namlikni uzatish hodisalarini o‘zida mujassam etadi bug‘ va havodan iborat aralashmaning termodinamik holatining o‘zgarishi bilan bog‘liq [9].

Namlik bo‘g‘lanishi davrida vujudga keladigan fizik jarayonlarni quyidagicha tavsiflash mumkin: suyuqlikning aniq miqdori asta sekin bug‘lanib, kiyim osti qatlami havosidagi bug‘ miqdorini va namligini oshishiga olib keladi;

-kiyim osti qatlamida havo harorati pasayadi, chunki bug‘lanish uchun kerakli bo‘lgan harorat havodan olinadi;

-bug‘lanish natijasida havo harorati oshmaydi, chunki issiqlik namlikni quritish uchun sarflanadi.

Tavsiya etilayotgan modelda bug‘lanish orqali issiqlik almashinuvidan tashqari konvektsiya yo‘li bilan issiqlik almashinuvi ham nazarda tutilgan bo‘lib, u havo tezligi, atmosfera bosimi va maxsus kiyim parametrlariga bog‘liq. Kiyim osti qatlamining konvektiv havo almashinuvi tenglamasi Arximed, Nussel’t va Prandtl kriteriyalari funktsiyasi hisoblanadi [10].
Maxsus kiyimning ratsional parametrlarini aniqlash maqsadida, jumladan kiyim erkinligi uchun qo‘shimcha haq miqdorini, modelda inson tanasi va kiyim o‘rtasidagi havo qatlami miqdorini hisoblash tenglamasi qo‘llangan.

Matematik modelning yechimi inson termik holati, tashqi muhitdagi havo harorati, materiallar xossalari va kiyimning konstruktiv xususiyatlariga bog‘liq holda kiyim osti havo qatlami qiymatini aniqlashga imkon beradi.“Inson-maxsus kiyim-tashqi muhit” tizimining matematik modelini yaratishning oxirgi bosqichida texnik tadqiqot modelini ishlab chiqish, texnik eksperimentlarni o‘tkazish va ishlab chiqilgan matematik modelni real obyektga adekvatligini tekshirish ishlari amalga oshiriladi. “Inson-maxsus kiyim-tashqi muhit” tizimining taqdim etilgan kontseptual modeli matematik tadqiqot usullaridan foydalangan holda, fizik tajribalar shartlarini aniqlash, maxsus kiyimning materiallar va konstruktsiyasini tanlash va asosiy parametrlarini takomillashtirishga imkon beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 sonli «2022-2026 yillarda mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni.
2. 2019 yil 16 sentyabrdagi PQ-4453-son «Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi qarori.
3. 2019 yil 12 fevraldagi PQ-4186-son «To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
4. Inson ekologiyasi, https://arxiv.uz.
5. Sayidova M., Pulatova S. “Marketing research to determine consumer preferences for protective clothing of gas industry employees” MIP: Engineering-V-2025.
6. F.F. Norova, Matematik modellashtirish bosqichlari va uni amaliyotda qo’llash, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal, 2024, №3 (1).
7. Pulatova S.U. Agrosanoat kompleksi ishchilari uchun maxsus kiyimni loyihalash metodologiyasi va ishlab chiqarishning samarali texnologiyasini yaratish: avtoreferat t.f.d., 2022y.13b
8. И.В.Черунова Построение математической модели теплообмена системы «Человек-одежда-среда» для проекти, г 2007,43-45ст.
9. Черунова И.В.Теоретические основы комплексного проектирования специальной теплозащитной одежды: дис. докт. техн. наук:05.19.04. – Шахты: ЮРГУЭС - 2008.-307 с.
10. GOST 3816-81, Полотна текстильные. Методы определения гигроскопических и водоотталкивающих свойств.

Sayidova Maftuna Hamroqul qizi - Buxoro davlat texnika universiteti, doktorant.
E-mail:maftuna.sayidova@bk.ru

ENERGETIKLAR UCHUN MAXSUS ISH KIYIM YARATISHDA ZAMONAVIY ESTETIK VA XAVFSIZLIK TALABLARNI SHAKLLANTIRISH

Barakayeva D.F., Gafurova N.T.
Buxoro davlat texnika universiteti.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada energetika sohasida faoliyat yurituvchi ishchilarning mehnat sharoitlari, xavfsizlik talablariga mos maxsus ish kiyimlarini loyihalash, ularga qo‘yiladigan talablar, mos materiallar tanlovi va ularni laboratoriya sharoitida sinovdan o‘tkazish natijalari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *maxsus kiyim, xavf omillari, harorat, dielektrik, antistatik, termik himoya, namlik, sovuq, kimyoviy ta’sir, bardoshlilik.*

ФОРМИРОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТРЕБОВАНИЙ К ЭСТЕТИКЕ И БЕЗОПАСНОСТИ ПРИ СОЗДАНИИ СПЕЦИАЛЬНОЙ СПЕЦОДЕЖДЫ ДЛЯ РАБОТНИКОВ ЭНЕРГЕТИКИ

Баракаева Д.Ф., Гафурова Н.Т.
Бухарский государственный технический университет.

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы проектирования специальной одежды для работников энергетической отрасли, отвечающей условиям труда и требованиям безопасности, предъявляемые к ней требования, выбор подходящих материалов и результаты их испытаний в лабораторных условиях.*

Ключевые слова: *специальная одежда, факторы риска, температура, диэлектрик, антистатик, тепловая защита, влажность, холод, химическое воздействие, стойкость.*

FORMATION OF MODERN AESTHETIC AND SAFETY REQUIREMENTS IN CREATING SPECIAL WORKWEAR FOR ENERGY WORKERS

Barakayeva D.F., Gafurova N.T.
Bukhara state technical university.

Abstract. *This article discusses the design of special workwear for workers in the energy sector, meeting the working conditions and safety requirements, the requirements for them, the selection of suitable materials and the results of their testing in laboratory conditions.*

Keywords: *special clothing, risk factors, temperature, dielectric, antistatic, thermal protection, humidity, cold, chemical exposure, resistance.*

***K*irish.** Bugungi kunda energetika sohasi ishlab chiqarishning asosiy tayanchlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassislar ko‘plab xavf omillariga duch keladilar: elektr toki urishi, yuqori harorat, kuchli yorug‘lik, portlash xavfi va boshqa ishlab chiqarish jarayonlariga xos bo‘lgan noqulay sharoitlar. Shu sababli energetiklar uchun maxsus ish kiyimlari nafaqat xavfsizlikni ta’minlashi, balki qulaylik va estetik ko‘rinishga ham ega bo‘lishi lozim.

Mazkur maqolaning maqsadi — energetiklar uchun maxsus ish kiyimlarini ishlab chiqishda estetik va xavfsizlik talablarini shakllantirish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Zamonaviy energetika sohasida xavfsizlik va qulaylik ustuvor ahamiyat kasb etadi. Energetika sohasida ishlovchi mutaxassislar kundalik mehnat faoliyatida turli xavf-xatarlar bilan yuzma-yuz keladilar. Bu xavflar elektr toki ta’siri, yuqori harorat, mexanik shikastlanishlar, hamda atrof-muhit sharoitlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu bois, bu sohaga oid mehnat faoliyatida ishtirok etuvchi kishilar uchun maxsus himoya kiyimlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda ko‘plab ilmiy ishlar va tadqiqotlar amalga oshirilganligiga qaramay, energetiklar uchun mo‘ljallangan ish kiyimini loyihalash va tadqiq qilish orqali ularning xavfsizligini oshirish, mehnat unumdorligini saqlash hamda xalqaro xavfsizlik standartlariga muvofiq kiyim yaratish maqsad qilingan. Ish kiyimiga qo‘yiladigan texnik, ergonomik va gigiyenik talablar asosida optimal modellar ishlab chiqiladi hamda ularning himoya darajasi tajriba asosida tekshiriladi [1].

Asosiy qism. Maxsus ish kiyimlari – bu shunchaki ishchi libosi emas, balki hayotni saqlab qoladigan, mehnat xavfsizligini ta’minlaydigan vosita hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqarilgan materiallar yordamida bu kiyimlar ko‘plab xavf-xatarlarga qarshi

mustahkam himoya ta’minlaydi. Ish kiyimi nafaqat texnik, balki inson fiziologiyasiga mos ergonomik yechimlarga ham ega bo‘lishi zarur.

Energetika sohasidagi xavfli omillar. Hozirgi davrda energetika sohasi mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotida muhim o‘rin tutadi. Elektr energiyasini ishlab chiqarish, taqsimlash va uzatishda faoliyat yurituvchi energetik mutaxassislar murakkab mehnat sharoitida ishlaydi. Ularning faoliyati yuqori xavf darajasi bilan ajralib turadi: elektr toki urishi, yuqori harorat, mexanik jarohatlar, yonuvchan muhit, kuchli elektromagnit maydonlar, hamda yorug‘lik radiatsiyasi kabi omillar sog‘liqqa tahdid soladi.

Bunday sharoitda maxsus ish kiyimlari energetiklar uchun asosiy himoya vositalaridan biri hisoblanadi. Kiyim nafaqat xavfsizlikni ta’minlashi, balki inson organizmining issiqlik almashinuvi, qulayligi, ergonomikasi va psixologik holatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishi lozim. Shu bilan birga, estetik jihatdan ham zamonaviy va qulay dizayn yechimlari ishlab chiqish, ishchi kayfiyatini ko‘tarishda ham muhim rol o‘ynaydi.

Energetika sohasidagi ish faoliyatida turli xil jismoniy, kimyoviy va iqlimiy xavf-xatarlar ko‘plab uchraydi. Xavf omillarining noto‘g‘ri baholanishi yoki himoya vositalarining yetishmasligi baxtsiz hodisalarga olib kelishi mumkin. Quyida keltirilgan hodisalar ishchilar real holatlarda duch keladigan holatlar:

1. *Elektr toki urishi xavfi (yil davomida yuzlab baxtsiz hodisalar).*
   - Yuqori kuchlanish (0.4 kV – 500 kV) bilan ishlash odam organizmi uchun bevosita xavf tug‘diradi.
   - Elektr toki urishi yurak to‘xtashi, kuyish va hayot uchun xavfli oqibatlarga olib kelishi mumkin.
   - Elektr yoyi paydo bo‘lishi natijasida harorat 10000°C gacha ko‘tarilishi mumkin.
2. *Yuzaga keladigan yuqori harorat va uchqunlar.*
   - Elektr yoyi — ikki kuchlanishli nuqta o‘rtasida havo orqali kuchli tok oqimi.
   - Bu holat kuchli issiqlik, yorug‘lik nurlanishi va yong‘in xavfini keltirib chiqaradi.
   - Ish kiyimi yonuvchan bo‘lsa, ishchining butun tanasiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin.
3. *Issiqlik va sovuqqa nisbatan bardoshlilik.*
   - Ba’zi energetik qurilmalar (transformatorlar, generatorlar, kabel liniyalari) ishlash paytida yuqori harorat chiqaradi.
   - Doimiy issiqlik ta’siri teri kuyishiga yoki issiqlik urishiga olib keladi.
   - Issiqlikka chidamli kiyimlar zarur.
4. *Mexanik zarar yetkazadigan omillar (kesish, sanchish, bosish).*
   - ✓ Jihozlar orasida harakat paytida tushish, urilish, siqilish, kesilish kabi holatlar.
   - ✓ Sim, metall buyumlar va kesuvchi asboblar ishchi xavfsizligiga tahdid soladi.
5. *Kimyoviy moddalarning ta’siri (transformator yog‘i va h.k.).*
   - ➢ Transformator yog‘i, texnik moylar, sovutuvchi suyuqliklar, zangga qarshi vositalar - bular teriga yoki nafas yo‘llariga zarar yetkazishi mumkin.
   - ➢ Himoya qoplamali (laminatsiyalangan) matolar bu xavfdan saqlaydi.
6. *Balandlikda ishlash xavfi*
   - Elektr ustunlari, podstansiyalar, uzatish liniyalarida ishlashda qulash xavfi mavjud.
   - Maxsus tutqichlar, xavfsizlik kamarlari, sirpanmas oyoq kiyimlar talab qilinadi.
7. *Ob-havo va ekologik omillar*
   - Ochiq havoda ishlash (yomg‘ir, shamol, qor, issiq quyosh) organizmga salbiy ta’sir qiladi.
   - Namlik matolarga kirsa, ularning dielektrik xossasi yo‘qolishi mumkin.
8. *Shovqin va vibratsiya*
   - Yirik turbinalar va transformatorlar ishlaganda doimiy shovqin va vibratsiya bo‘ladi.
   - Bu esa eshitish, mushak va asab tizimiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Energetika sohasidagi xavf omillari ko‘p qirrali va murakkab bo‘lib, ularning har biri alohida e’tibor va texnik himoya choralarini talab qiladi. Shu bois, maxsus ish kiyimlari loyihalashda quyidagilarga e’tibor berish zarur:

- Dielektrik va antistatik xossalar;
- Issiqlik va uchqunlardan himoyalash;
- Ergonomik va mexanik xavfdan saqlanish;
- Namlik, sovuq va kimyoviy ta’sirlarga bardoshlilik.

Energetiklar uchun maxsus ish kiyim quyidagi turlari va vazifalari mavjud:

1. Elektr yoyi (duga)dan himoyalovchi kiyimlar. Yuqori kuchlanishli elektr qurilmalari bilan ishlaganda yuzaga keladigan elektr yoyi (duga)dan himoya qilish. Yonishga chidamli (olovda kuymaydi, erimaydi), issiqlikni kamaytiruvchi qatlamlarga ega, antistatik xususiyatga ega (statik tokni chiqarib yuboradi), maxsus tolalardan (masalan, aramid, modakrilik) tayyorlanadi.
2. Antistatik kiyimlar. Ishchi tanasida statik elektr to‘planishini oldini olish va portlovchi muhitlarda xavfsizlikni ta’minlash. Maxsus iplar (uglerodli yoki metallizatsiyalangan iplar) bilan to‘qilgan. Statik zaryadni erga yo‘naltirishga qodir. Ko‘pincha neft-gaz, kimyo va elektr tarmoqlarida qo‘llaniladi.
3. Dielektrik qo‘lqoplar va etiklar. Tananing ochiq qismlarini elektr toki urishidan himoya qilish. Dielektrik materiallardan tayyorlangan (kauchuk, PVX). Maxsus testdan o‘tkaziladi.Ma’lum kuchlanishgacha qarshilik ko‘rsatadi (masalan, 1000V, 20kV va h.k.).
4. Issiqlikka va olovga chidamli kiyimlar. Qizigan jismlar, uchqunlar, erigan metall va boshqa issiqlik manbalaridan himoya qilish. Ko‘pincha metallurgiya bilan bog‘liq energetik ishlarda ishlatiladi. Ichki qatlamlari havo aylanishiga imkon beradi.
5. Ko‘rinuvchan (signal) ish kiyimlari. Energetiklarning qorong‘i yoki yomon yoritilgan muhitda ko‘rinishini ta’minlash. Yorqin rangli matolardan tikilgan (sariq, to‘q sariq, yashil). Reflektorli elementlarga ega (nurda porlaydi). Yo‘l qurilishi, elektr tarmoqlari ustida ishlashda zarur.

Energetiklar maxsus ish kiyimlari haqida umumiy ma’lumot. Energetiklar maxsus ish kiyimlari - bu ishchining kasbiy faoliyati davomida duch keladigan xavf-xatarlardan himoya qilish uchun mo‘ljallangan kiyimlardir. Bu kiyimlar ishchining xavfsizligini ta’minlab, mehnat unumdorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

1-rasm. Maxsus ish kiyim namunalari

Mavjud maxsus ish kiyimlari quyidagi vazifalarni bajarishi xizmat qiladi:

Xavfsizlikni ta’minlash – elektr toki, olov, kimyoviy modda, mexanik zarba kabi tahdidlardan himoya;

Gigiyenik talabni qondirish – issiq havo harorati, namlik, terini ifloslanish, chang, zararli moddalar bilan bevosita ta’siridan saqlash;

Ergonomik talabga javob berish – harakatlanish erkinligini ta’minlash;

Tashqi belgilar bilan ajratish – ishchining lavozimi, bo‘limi yoki xavf darajasi ko‘rsatkichlarini berish (reflektor, ranglar).

Shu jumladan, energetiklar uchun maxsus ish kiyimining asosiy talablari:

1. ***Fizik-mexanik talab:*** Energetiklar elektr toki bilan ishlashgani sababli, kiyimlar yuqori kuchlanishga chidamli dielektrik, antistatik gazlamalardan tayyorlanishi kerak.
   Elektr yoylarining yuzaga kelishi ehtimolini inobatga olib, maxsus kiyim inson tanasiga elektr tokini o'tkazmasligi uchun xavfsizlik yuqori darajada bo'lishi shart.
   Maxsus kiyim yirtilish, ishqalanish, uzayish kabi xususiyatlarga chidamli bo'lishi kerak.
2. ***Gigiyenik talab****:* Ochiq havoda ishlovchi xodimlar har xil ob-havo sharoitida faoliyat yuritadi. Shu sababli kiyimlar namlik va sovuqdan himoya qilishi lozim.
3. ***Ximoya talablari:*** Ishchilar kechasi yoki kam ko'rinadigan joylarda ishlashlari mumkin, shuning uchun ular yoritilgan yoki aks ettiruvchi lenta va elementlarga ega bo'lishi zarur.
4. ***Ergonomik talablar:*** Harakatni cheklamaydigan, qulay va nafas oladigan materiallardan tayyorlangan kiyimlar ish samaradorligini oshiradi.
5. ***Estetik talablar:*** Maxsus kiyim estetik jihatdan yoqimli kiyim ishchining kayfiyatini ko'taradi, o'zini hurmat qilgan holda ishlashiga yordam beradi. Bu esa bevosita ish unumdorligi va xavfsizlik darajasiga ta'sir qiladi.

2-rasm. Energetiklar uchun maxsus ish kiyimining asosiy talablari

Energetiklar uchun maxsus ish kiyimlarini ishlab chiqishda estetik va xavfsizlik talablarini uyg'unlashtirish zarurligi ilmiy asoslandi. Yangi ishlab chiqilgan model xavfsizlik darajasini oshiradi, inson salomatligini muhofaza qiladi va mehnat unumdorligini ko'taradi.

Maxsus ish kiyimlarni tayyorlashda quyidagi jadvalda ko'rsatilgan standartlar asosida tayyorlash tavsiya etiladi [3].

1-jadval. Energetiklar uchun maxsus ish kiyimi assortimenti

№	Kiyim nomi	Tavsiflanishi
1	Kombinezon / Kurtka	Barcha tanani yopadi, yonuvchan emas, antistatik xususiyatga ega
2	Shim	Issiqlik va elektr yoyi ta'siriga chidamli
3	Qo'lqop	Dielektrik, issiqqa chidamli, mexanik shikastlarga qarshi
4	Etik	Dielektrik taglikka ega, sirpanmaydigan taglik
5	Shlem / Kaska	Boshni urilish va elektr kontaktidan himoya qiladi
6	Ko'zoynak / Yuz niqobi	Ko'z va yuzni uchqun, yorug'lik yoki zarralardan himoya qiladi

Energetiklar uchug tavsiya etiladigan maxsus kiyimlarning quyidagi xususiyatlari quyidagi laboratoriya sinovlaridan o'tkazilishi kerak:

- *Yonuvchanlik xususiyati* – ochiq olovning 10 soniyagacha ta'siri.
- *Elektr o'tkazuvchanligi*– elektr kuchlanishga qarshiligi (200 V va undan yuqori).
- *Yuvishga bardoshlik* – 25–50 marta yuvishdan keyin xususiyatlarning saqlanishi.
- *Mexanik ta'sirga chidamliligi* – yirtilish, ishqalanish va cho'ziliishga chidamlilik.
- *Gigiyenik xususiyati*– havo va nam o'tkazuvchanligi

2-jadval. Energetiklar maxsus ish kiyimi uchun muhim standartlar

№	Standart raqami	Mazmuni
1	ISO 11611	Payvandlashda ishlatiladigan himoya kiyimlari
2	ISO 11612	Issiqlik va alangaga chidamli kiyimlar
3	EN 1149-5	Antistatik xossalarga ega kiyimlar
4	GOST 12.4.280	Dielektrik kiyimlar uchun talablar
5	O‘z DSt 3036	Maxsus ish kiyimlarini loyihalash va sinash bo‘yicha qoidalar

Energetiklar maxsus ish kiyimi uchun mato va konstruktiv yechimlar tanlash quyidagi omillarni e’tiborga olgan holda amalga oshiriladi [4]:

- Tanlanadigan mato elektr o‘tkazuvchanlikka qarshi, mustahkam, yengil bo‘lishi lozim;
- Maxsus kiyim dielektrik qo‘lqoplar bilan to‘ldirilishi kerak;
- Qorong‘i joylarda xavfsizlikni ta’minlash uchun yorituvchi elementlardan foydalanish zarur;
- Tanani to‘liq himoya qilish uchun yopiq bo‘yin va bilaklarni yopish kerak.

Energetiklar uchun maxsus ish kiyimi - bu oddiy kiyim to‘plami emas, balki ularning sog‘lig‘i va hayotini muhofaza qiluvchi individual vositadir.

Zamonaviy talablar asosida ishlab chiqilgan bunday kiyimlar energetika sohasida xavfsizlik madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Bunda quyidagi innovatsion yondashuvlardan foydalanish o‘rinlidir:

- Sensorlar yordamida ishchining tana harorati yoki yurak urishini nazorat qilish;
- GPS orqali ishchining joylashuvini aniqlash;
- Elektr toki ta’sirida rang o‘zgartiruvchi yoki signal beruvchi matolar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, turli soha xodimlari uchun maxsus kiyimlar yaratishda ko‘plab xorijlik, hamda mustaqil davlatlar hamkorligi (MDH) olimlari izlanishlar olib borishgan.
Maxsus kiyimlarni loyihalash jarayonida ularning gigiyenik talablarga javob berishi, inson tanasining harorati bir xilda bo‘lishini ta’minlashi va yuqori havo harorati, namligi, chang va shovqin kabi ishlab chiqarish omillaridan himoya qilishiga ratsional kiyim konstruksiyasi va materiallarning optimal tanlovi evaziga erishiladi.

Olib borilayotgan tadqiqotlar asosida energetiklar uchun samarali va xavfsiz maxsus ish kiyimi ishlab chiqiladi. U dielektrik, antistatik va termik himoya xususiyatlariga ega. Ushbu kiyimlar zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, laboratoriya sinovlarida yuqori natijalar ko‘rsatdi. Kelgusida ushbu kiyimlarning sanoat miqyosida sinovdan o‘tkazilishi va sertifikatlashtirilishi rejalashtirilmoqda. Energetiklar uchun maxsus kiyim yaratish ko‘p bosqichli, muhim texnologik jarayon bo‘lib, bunda: avfsizlik standartlariga amal qilish, innovatsion materiallardan foydalanish, ish sharoitiga mos dizayn va qulayliklarni hisobga olish zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi va xavfsizlik standartlari (O‘zDSt).
2. ГОСТ 12.4.280-2014 – Dielektrik xususiyatli kiyimlarga qo‘yiladigan talablar.
3. “Textile Materials for Protective Clothing”, J. Fan & L. Hunter, 2019.
4. Karimov A. “Texnologik kiyimlar dizayni”, Toshkent, 2021.
5. Куренова И.В. Разработка и исследование специальной нефтезащитной одежды с модифицированним пакетом материалов: автореф. канд. техн. наук: 05.19.04. - Шахты: ЮРГУЭС - 2013. - 28 с.
6. Gafurova N.T. and Mirjanova N.N. 2014 Quantification of design parameters using metrological properties Young scientist 19(78), 187-188

ТОЛА ТАРКИБИ ТУРЛИЧА БЎЛГАН КОСТЮМБОП МАТОЛАРНИНГ МЕХАНИК ХОССАЛАРИНИ ТАДҚИҚОТИ ВА ТАҲЛИЛИ

[1]Худайбердиев М.Р., [2]Очилов Т.А., [2]Ҳамроева С.А., [1]Нурбоев Р.Х.

[1]Бухоро давлат техника университети,

[2]Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти.

Аннотация. *Толалар таркиби турлича бўлган костюмбоп матоларнинг механик хоссалари тадқиқ этилди. Олинган синов натижалари танда ипига 100% пахта толаси+арқоқ ипига 20% жун толаси, 30% пахта толаси билан 50% полиэстер толали иплардан олинган костюмбоп матонинг кўрсаткичларига нисбатан солиштирилди.*

Таянч сўзлар: *Тола, полиэстер, танда, арқоқ, зичлик, мато, ип.*

ИССЛЕДОВАНИЕ И АНАЛИЗ МЕХАНИЧЕСКИХ СВОЙСТВ КОСТЮМНЫХ ТКАНЕЙ С РАЗЛИЧНЫМ СОСТАВОМ ВОЛОКОН

[1]Худайбердиев М.Р., [2]Очилов Т.А., [2]Хамроева С.А., [1]Нурбоев Р.Х.

[1]Бухарский государственный технический университет,

[2]Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности.

Аннотация. *Изучены механические свойства костюмных тканей с различным составом волокон. Результаты испытаний сопоставлены с показателями костюмных тканей, изготовленных из пряжи с содержанием 100% хлопкового волокна в основе + 20% шерстяного волокна в утке, 30% хлопкового волокна и 50% полиэфирного волокна.*

Ключевые слова: *тело, основа, плотность, костюмная ткань, пряжа.*

RESEARCH AND ANALYSIS OF MECHANICAL PROPERTIES OF COSTUME FABRICS WITH DIFFERENT FIBER COMPOSITION

[1]Khudayberdiev M.R., [2]Ochilov T.A., [2]Khamroeva S.A., [1]Nurboev R.KH.

[1]Bukhara State Technical University, [2]Tashkent Institute of Textile and Light Industry.

Abstract. *The mechanical properties of suit fabrics with different fiber compositions were studied. The test results were compared with the indicators of suit fabrics made from yarn containing 100% cotton fiber in the warp + 20% wool fiber in the weft, 30% cotton fiber and 50% polyester fiber.*

Keywords: *body, warp, density, suit fabric, yarn*

Хомашё таркибига кўра, костюмбоп матолари жуда хилма-хил бўлиб, улар пахта, зиғир, жун, табиий ипак ва кимёвий толалардан, аралаш тузилишдаги иплар асосида ишлаб чиқарилади. Пахта толавий таркибли матолар ҳар хил мақсаддаги либослар учун ишлатилади – мавсумий кийим кечаклар, сарафанлар, халатлар, блузкалар, болалар либослари ва бошқалар.Тўқимачилик саноати, шунингдек, мавсумийлигига қараб ёзги, мавсумий ва қишга бўлинган кенг ва хилма-хил либосли матолар ишлаб чиқаради. Кўплаб янги, истиқболли матолар жорий қилинганига қарамай, эски турдаги матолар кўп миқдорда ишлаб чиқарилади.

Мавсумий қишки ва баҳорги костюмбоп матолар карда ва қайта тараш йигириш системаси билан олинган иплардан ишлаб чиқарилади. Бу гуруҳга кирувчи газламалар ёзги гуруҳдагиларга нисбатан бир оз қалин, зич ва оғирроқдир. Костюмбоп матолар ҳар хил мақсадларда фойдаланиш учун ишлаб чиқарилади - кундалик ёзги ва қишки кўйлаклар учун, спорт услубидаги кўйлаклар ва ҳоказо. Кундалик спорт туридаги кўйлаклар учун, асосан, ёркин рангли матолардан фойдаланилади.

Костюмбоп матолар енгил, юмшоқ, эластик бўлиши талаб этилади. Бундан ташқари, улар ҳаво ўтказувчанлик хусусиятига эга, кам қисқариши, пишиқ бўлиши, айниқса ёруғлик ва ювиш таъсирига чидамли бўлиши керак. Костюмбоп матоларнинг асосий кўрсткичларидан бири, уларнинг узилиш кучи, ишқаланишга чидамлилиги ва бикрлиги киради. Матоларнинг узиш кучи - бу юқорида айтилган ўлчовли намуналарни узиш учун сарф қилинган куч. Узиш кучи матоларнинг узилиш кучини кўрсатади.

Матоларнинг узилиш кучи уларнинг тола таркибига, ҳосил қилувчи ипларнинг тузилиши ва чизиқий зичлиги, ўрилиши, зичлиги, пардозлаш турига боғлиқ. Иплар қанча йўғон ва қанча зич бўлса, у шунча мустаҳкамдир. Босиш, аппретлаш каби пардозлаш

жараёнлари матоларнинг мустаҳкамлигини оширади, оқартириш, бўяш жараёнлари бўлса, мустаҳкамликни бироз пасайтиради. Узиш кучини аниқлаш билан бир пайтда намуналарнинг чўзилишдаги узайиши ҳам аниқланади. Чўзилишдаги узайиши деб намуналарнинг дастлабки узунлиги билан узилгунгача чўзилгандаги узунлиги орасидаги фарқи тушунилади.

Намуналарни узиш учун маълум миқдорда сарфланган энергия уларнинг узилишдаги бажарилган ишнинг ҳақиқий миқдоридир. Турли тузилишдаги матоларнинг механик хусусиятларини тақосслаш учун нисбий узиш кучи ва узилишда бажарилган ишнинг солиштирма миқдори каби кўрсаткичлар қўлланилади.

Костюмбоп матоларнинг асосий кўрсаткичларидан бири унинг ишқаланишга чидамлилигидир. Матоларнинг ишқаланишга чидамлилиги тола таркибига, зичлигига, ипларнинг ингичка ёки йўғонлигига, қалинлигига ва бошқа кўрсаткичларига боғлиқдир. Масалан, матолар қанчалик кўп ишқаланса, тузилиши бузилади, таркибидаги иплар узилади, мустаҳкамлиги пасаяди.

Костюмбоп матоларнинг емирилиши асосан ишқаланиш таъсири натижасида бўлади. Матоларнинг ишқаланишга чидамлилиги уларнинг толавий таркибига, сиртининг тузилишига боғлиқ. Энг аввал матоларнинг сиртига чиқиб турган тола учлари ишқаланиш таъсирида бўлади. Костюмбоп матодаги ипларнинг букилган жойларига чиқиб турган толалар емирила бошлайди. Тола сиртининг баъзи жойлари шикастланади ва толалар узилади. Айрим толалар ёки тола қисмлари ип таркибидан чиққани туфайли иплар ҳам узилади (1-жадвал).

1-жадвал

Тола таркиби турлича бўлган костюмбоп матоларнинг механик хоссаларини тадқиқоти ва таҳлили

т/р	Кўрсаткичлар номи	Костюмбоп матонинг тола таркиби бўйича вариантлар				
		20% жун толаси, 30% пахта толаси билан 50% полиэстер толали (1)	65% пахта толаси билан 35% полиэс-тер толали (2)	60% пахта толаси билан 40% полиэстер толали (3)	70% пахта толаси билан 30% полиэстер толали (4)	100% полиэстер толаси (5)
1.	Матонинг узилиш кучи, Н					
	танда бўйича	425	432	439	429	430
	арқоқ бўйича	650	612	620	606	678
2.	Матонинг узилишдаги узайиши, %					
	танда бўйича	15,2	15,4	14,9	14,6	14,8
	арқоқ бўйича	17,8	16,2	16,8	16,4	17,6
3.	Матонинг ишқаланишга чидамлилиги, цикл	20000	18900	19200	18600	24000
4.	Бикрлиги, $mkN \cdot sm^2$					
	танда бўйича	35486	35478	35606	35458	35644
	арқоқ бўйича	44078	43230	43226	43224	43204

Матоларнинг сиртига чиқиб турган ипларнинг букилган жойлари ишқаланиш таъсирида энг биринчи бўлиб емирилади. Бу жойлар матоларнинг таянч сирти ҳисобланиб,

яъни матоларнинг таянч сирти қанча катта бўлса, унинг емирилишга чидамлилиги ҳам шунча яхши бўлади. Матоларнинг таянч сиртини кучайтириш йўли билан унинг емирилишга чидамлилигини ошириш мумкин. Бунинг учун узун қопламали ўрилишлар (сатин, атлас), тола таркибида ишқаланишга чидамли толалар (капрон, лавсан) ёки пардозлаш жараёнлар (аппретлаш) қўлланилади.

Костюмбоп матосининг ишқаланишга чидамлилиги ҳам таянч сирти миқдорига боғлиқ. Шунинг билан бирга трикотажни ҳосил қилувчи иплар ишқаланиб узилганда матоларнинг ўрилишига кўра ҳалқа устунчаларидаги ёки қаторидаги ҳалқалар бири биридан чиқади ва матоларнинг тузилиши бузилади.

Толалар таркиби турлича бўлган костюмбоп матоларнинг танда ва арқоқ йўналиши бўйича узилиш кучи, танда ва арқоқ йўналиши бўйича узилишдаги узайиши, ишқаланишга чидамлилиги ва бикрлигига тола таркибининг таъсирини тадқиқ этишдан олинган синов натижалари гистограмма кўринишида 1-4-расмларда келтирилди.



1-расм. Костюмбоп матоларнинг танда ва арқоқ йўналиши бўйича узилиш кучига тола таркибининг таъсири.



2-расм. Костюмбоп матоларнинг танда ва арқоқ йўналиши бўйича узилишдаги узайишига тола таркибининг таъсири.

Тўқимачилик матоларининг асосий кўрсаткичларидан бири, бикрлигидир. Тўқимачилик матоларнинг эгилишидаги бикрлиги деб уларнинг эгилганда ўз шаклини ўзгартиришига қаршилик кўрсатиш хусусиятидир. Матоларнинг бикрлиги уларни ҳосил қилувчи толалар ва иплар тузилишига ва хусусиятларига, пардозлаш турига, ипларнинг зичлиги ва ўрилишига боғлиқ бўлади, ўз навбатида матоларнинг бикрлиги бичиш жараёнига таъсир этади. Толалар таркиби турлича бўлган костюмбоп матоларнинг механик хоссаларини аниқлаш борасида тадқиқот ишлари ўтказилди ва олинган синов натижалари юқоридаги 1-жадвалда келтирилган.



3-расм. Костюмбоп матоларнинг ишқаланишга чидамлилигига тола таркибининг таъсири.



4-расм. Костюмбоп матоларнинг танда ва арқоқ йўналиши бўйича бикрлигига тола таркибининг таъсири.

Толалар таркиби турлича бўлган костюмбоп матоларнинг механик хоссалари тадқиқ этилди. Олинган синов натижалари танда ипига 100% пахта толаси+арқоқ ипига 20% жун

толаси, 30% пахта толаси билан 50% полиэстер толали иплардан олинган костюмбоп матонинг кўрсаткичларига нисбатан солиштирилди. Танда ипига 100% пахта толаси+ арқоқ ипига 65% пахта толаси билан 35% полиэстер толали иплардан олинган костюмбоп матонинг танда йўналиши бўйича узилиш кучи 1,7% га ошди, арқоқ йўналиши бўйича узилиш кучи 5,9% га камайди, танда йўналиши бўйича узилишдаги узайиши 1,3% га, арқоқ йўналиши бўйича узилишдаги узайиши 9,0% га, ишқаланишга чидамлилиги 4,5% га, танда йўналиши бўйича бикрлиги 0,1% га, арқоқ йўналиши бўйича бикрлиги 2,0% га камайди.

Танда ипига 100% пахта толаси+ арқоқ ипига 60% пахта толаси билан 40% полиэстер толали иплардан олинган костюмбоп матонинг танда йўналиши бўйича узилиш кучи 3,2% га ошди, арқоқ йўналиши бўйича узилиш кучи 4,7% га, танда йўналиши бўйича узилишдаги узайиши 2,0% га, арқоқ йўналиши бўйича узилишдаги узайиши 5,6% га, ишқаланишга чидамлилиги 4,0% га камайди, танда йўналиши бўйича бикрлиги 1,3% га ошди, арқоқ йўналиши бўйича бикрлиги 2,0% га камайди.

Танда ипига 100% пахта толаси+ арқоқ ипига 70% пахта толаси билан 30% полиэстер толали иплардан олинган костюмбоп матонинг танда йўналиши бўйича узилиш кучи 0,9% га ошди, арқоқ йўналиши бўйича узилиш кучи 6,8% га, танда йўналиши бўйича узилишдаги узайиши 4,0% га, арқоқ йўналиши бўйича узилишдаги узайиши 7,9% га, ишқаланишга чидамлилиги 7,0% га, танда йўналиши бўйича бикрлиги 0,1% га камайди, арқоқ йўналиши бўйича бикрлиги 1,9% га ошди.

Танда ипига 100% пахта толаси+ арқоқ ипига 100% полиэстер толали иплардан олинган костюмбоп матонинг танда йўналиши бўйича узилиш кучи 1,2% га, арқоқ йўналиши бўйича узилиш кучи 4,1% га ошди, танда йўналиши бўйича узилишдаги узайиши 2,6% га, арқоқ йўналиши бўйича узилишдаги узайиши 1,1% га камайди, ишқаланишга чидамлилиги 16,7% га ошди, танда йўналиши бўйича бикрлиги 0,4% га ошди, арқоқ йўналиши бўйича бикрлиги 2,0% га камайди.

Толалар таркиби турлича бўлган костюмбоп матоларнинг механик хоссаларидан кейин асосий кўрсаткичлардан бири ғижимланмаслиги ва ҳаво ўтказувчанлигининг ўзгариши тадқиқ этилди.

Адабиётлар рўйхати

1. Жуманиёзов Қ.Ж., Ғофуров Қ.Ғ., Матисмаилов С.Л., Пирматов А., Холиёров М.Ш., Файзуллаев Ш.Р. Тўқимачилик маҳсулотлари технологияси ва жиҳозлари. «Ғофур Ғулом», Тошкент, 2012.
2. Жуманиёзов Қ.Ж., Полвонов Ю.М. Пахта йигириш технологик жараёнларини лойиҳалаш. Тошкент, ТТЕСИ, 2007.
3. Павлов Ю.В. и др. Теория процессов технология и оборудование прядения хлопка и химических волокон. Иваново, 2000 г.
4. Симонян, В. О. Проектирование технологии производства хлопчатобумажной пряжи: учеб, пособие / В.О. Симонян, В. Ф. Галкин, О. Ю. Дмитриева, В. Л. Тарасов.-М.: ИНФРА-М, 2017.-55 с.
5. Сотскова О.П. Разработка технологии изготовления основовязаных полотен с уточной нитью, проложенной вдоль всей ширины игольницы, канд. дисс. Ленинград. 1986.
6. Козулини В.В. Нормализация процесса вязания ПАН пряжи на плоскофанговым оборудовании, канд. дисс. Ленинград. 1981.

ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА ТЕРМИНОВ И ИХ РЕШЕНИЯ

Казакова Д.Г.
Бухарский государственный технический университет.

Аннотация. *Для того чтобы понять проблемный характер терминологии в контексте переводческой практики и требования к управлению терминологией и терминологической последовательности, необходимо осознать языковые и содержательные терминологические проблемы, присущие переводу текстов. В этой статье рассматривается некоторые проблемы современного перевода и интерпретации терминов и их решения с лингвистическими и стилистическими методами.*

Ключевые слова: *терминология, технический перевод, междисциплинарный, динамичный, межъязыковой, домен, полисемия, синонимия, неологизм.*

TERMINLARNING TARJIMA MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMI YO‘LLARI

Kazakova D.G.
Buxoro davlat texnika universiteti.

Annotatsiya. *Tarjima amaliyoti kontekstida atamashunoslikning muammoli mohiyatini hamda terminlarni boshqarish va terminologik izchillikka qo‘yiladigan talablarni tushunish uchun matnlar tarjimasiga xos bo‘lgan lingvistik va mazmunli terminologik muammolarni tan olish zarur. Ushbu maqolada atamalarni zamonaviy tarjima va talqin qilishning ba’zi muammolari va ularni lingvistik va stilistik usullar vositasida hal qilish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *terminologiya, texnik tarjima, fanlararo, dinamik, tillararo, domen, polisemiya, sinonimiya, neologizm.*

PROBLEMS OF TRANSLATING TERMS AND THEIR SOLUTIONS

Kazakova D.G.
Bukhara state technical university.

Abstract. *In order to understand the problematic nature of terminology in the context of translation practice and the requirements for terminology management and terminological consistency, it is necessary to understand the linguistic and substantive terminological problems inherent in the translation of texts. This article examines some of the problems of modern translation and interpretation of terms and their solutions via linguistic and stylistic methods.*

Key words: *terminology, technical translation, interdisciplinary, dynamic, interlingual, domain, polysemy, synonymy, neologism*

***В*ведение.** Изучение терминологии в процессе подготовки переводчиков должно быть направлено на использование терминов в реальных жизненных контекстах и рассматривать эти специализированные единицы знаний в контексте динамичных коммуникативных процессов. Когда значение и употребление терминологических единиц анализируются в текстах, устной речи и ситуациях общения, становится очевидным, что общий язык и специализированные языки не так уж сильно отличаются друг от друга. Например, полисемия и синонимия довольно часто встречаются в специализированной коммуникации, и порождают проблемы перевода. Напротив, стандартизация и неологизмы, которые являются ключевыми вопросами во многих традиционных программах по терминологии, отходят на второй план [1, 2].

Необходимо учитывать тот факт, что переводчики, как правило, не обладают тем же уровнем экспертных знаний, что составители и читатели текста. Следовательно, они должны научиться быстро находить термины в соответствующих концептуальных системах. В то же время этот процесс должен позволить переводчикам увеличить свои знания в специализированной домене, чтобы они достигли того порога, который позволит им удовлетворительно перевести оригинальный текст [4].

Переводчики часто жалуются: «Только 10 % вашего времени уходит на то, чтобы перевести исходный текст на язык перевода. Большая часть вашей энергии уходит на разъяснение опечаток и ошибок автора и на изучение терминологии». Хотя этот процент варьируется от текста к тексту и хотя переводчики понимают, где им нужно искать информацию, приведенное выше высказывание иллюстрирует две основные трудности:

низкое качество многих исходных текстов и огромное количество времени, затрачиваемое на приобретение терминологической и справочной информации, относящейся к конкретной области. Несоответствия и двусмысленности, характерные для многих оригинальных текстов, порождают различные проблемы как при получении, так и при создании. Для решения этих проблем необходимы комплексное управление терминологией, т.е. тщательное приобретение, разработка, представление, проверка и обновление терминологии. Однако до сих пор терминологии не уделяется должного внимания.

Другая проблема заключается в том, что права на копирование и интеллектуальную собственность на терминологию до сих пор не урегулированы законодательною, поэтому терминологии не продаются, не распространяются свободно. Напротив, терминологии, составленные агентствами, штатными или даже внештатными переводчиками, хранятся под замком, чтобы использовать их в конкурентной борьбе. В результате возникает огромное количество двойной работы. Каждый переводчик начинает заново прорабатывать терминологию, которая уже была собрана в другом месте.

Терминологическая работа затруднена тем, что она обычно рассматривается не как неотъемлемая часть перевода, а как отдельная единица. Хотя необходимость терминологической работы для перевода все больше признается не только самими переводчиками, но и заказчиками, ее статус в контексте перевода еще не получил должной оценки. В более узком контексте перевода, однако, он не рассматривается как необходимая задача, которую нужно выполнять. Глоссарии, например, часто считаются автоматически созданными как побочный продукт перевода.

Техническая коммуникация — это динамичный процесс. Ее лексика характеризуется по узкоспециализированному характеру и быстро меняющееся использование терминов. Кроме того, технические тексты как прагматические образования имеют свои особенности. Термины в контексте ведут себя скорее гибко, чем не статично. В этих условиях переводчик сталкивается с непростыми терминологическими проблемами как при восприятии исходного текста, так и при создании текста перевода.

Одной из основных трудностей является референциальная синонимия, т.е. многие факты и объекты обозначаются множеством различных терминов. Часто контекст не дает представления о том, обозначают ли эти термины одно и то же. Так, отнюдь не редкость, когда в одной и той же компании инженеры, торговые представители и сотрудники мастерских, например, используют совершенно разные выражения для обозначения одного и того же факта или объекта.

Еще одна проблема - полисемия, т.е. одни и те же термины используются для обозначения разных доменах. Еще больше усложняет ситуацию внутридоменная полисемия, когда один и тот же термин используется для обозначения разных фактов в пределах одного домена. Переводчики, работающие в незнакомых им доменах, должны быть крайне осторожны при использовании терминов, которые в остальном для них ясны как кристалл.

Согласно Кабре, перевод и терминология являются относительно недавними академическими дисциплинами, несмотря на то, что они существовали на протяжении столетия как прикладные виды языковой деятельности [3]. Кроме того, обе дисциплины являются междисциплинарными, а также они являются точками соприкосновения лингвистических, когнитивных и коммуникативных наук. Однако они отличаются друг от друга, поскольку терминология, как перечень терминов в рамках специализированной области, сама по себе не является типом речевого акта, а скорее инструментом, используемым в специализированной коммуникации. Перевод в первую очередь фокусируется на процессе коммуникации, в то время как терминологии уделяется второстепенное внимание. Терминология интересна переводчику в той мере, в какой она является частью сообщения, передаваемого специализированным текстом. В результате отношения между терминологией и переводом асимметричны, поскольку терминология не

имеет внутренней необходимости обращаться к переводу. Напротив, перевод должен использовать терминологию как средство межъязыковой передачи специализированных знаний.

Практическая необходимость терминологического анализа очевидна. Технические переводчики тратят значительную часть своего рабочего времени на терминологические проблемы, выясняя значения терминов, с которыми они сталкиваются в исходном тексте, проверяя эквиваленты перевода, ища информацию, связанную с целевым текстом, о синтаксических формах, особых условиях использования и соответствующих словосочетаниях.

Однако практические проблемы также очевидны. Чтение и анализ текстов с целью извлечения полезной терминологической информации отнимает много времени. Словари и терминологические банки часто дают только неполную или даже вводящую в заблуждение информацию. Они, скорее всего, устареют и - за немногими исключениями [6] – не написаны с учетом потребностей переводчика.

Менее очевидны теоретические недостатки терминологического подхода, ориентированного на перевод, особенно в отношении его переводческих, лексикологических и семантических основ. В последние годы терминологический анализ для целей перевода получил значительное внимание. В Германии, например, Арнц и Пихт (1982) предприняли попытку спроецировать традиционную модель, лежащую в основе терминологической стандартизации, на контекст перевода, переместив внимание со стандартизации на описание и подчеркнув необходимость межъязыкового сравнения.

И также появляется все больше доказательств того, что известные терминологические доктрины, касающиеся таких вещей, как точность, независимость от контекста и межъязыковая инвариантность терминов, хотя и подходят для целей стандартизации, просто недействительны для больших частей специализированных словарей и для многих важных предметных областей, если рассматривать их с описательной точки зрения.

И что еще более важно, в дополнение к одноязычным знаниям о терминологическом значении и использовании, создание текста в условиях перевода требует знаний о межъязыковых терминологических отношениях (так называемых эквивалентах перевода), областях сложности и распространенных ошибках перевода. Описательный подход должен быть расширен, чтобы включить контрастивный терминологический анализ исходных и целевых языков и текстов для исследования межъязыковых контрастов и межтекстуальных отношений перевода.

Авторы энциклопедии переводоведения Routledge отмечают [7-9], что для принятия правильных решений при выборе эквивалентов или создании нового термина переводчик должен обладать базовыми знаниями терминологии. Терминологические навыки становятся особенно важными, если учесть, сколько времени переводчик обычно тратит на поиск нужных терминов. «Переводчики и терминологи работают совершенно по-разному: первые имеют дело с используемым языком, а вторые — с языком как концептуальной системой. Именно переводчикам необходимо приобрести базовое понимание терминологии и ее различных приложений, а не наоборот, потому что переводчики должны работать как терминологи, когда они сталкиваются с решениями, касающимися правильного выбора среди альтернативных форм выражения или создания неологизма или парафраза» [5]

Выводы. Терминологические базы знаний, нацеленные на то, чтобы быть релевантными для целей перевода, должны быть разработаны для удовлетворения конкретных потребностей переводчиков при попытке решить терминологические проблемы понимания исходного текста и создания целевого текста. В противном случае они будут иметь лишь ограниченное применение, как это очевидно из иногда резкой критики, которую терминологические базы данных и специальные словари вызывают среди профессиональных переводчиков. С точки зрения переводчика, релевантность терминологического анализа

возрастает пропорционально степени его сосредоточенности на терминологических аспектах обработки переводческого текста.

Список использованной литературы:

1. Arntz, R./Picht, H. (1982), Einführung in die übersetzungsbezogene Terminologiearbeit, Hildesheim
2. Chambers (1988), Science and Technology Dictionary, Edinburgh/Cambridge Jackendoff, R. (1983), Semantics and Cognition, Cambridge.
3. Cabré, M. T. 2000.La enseñanza de la Terminología en España: Problemas y propuestas. Hermèneus 2, 41-94
4. Faber,P. 2004.Terminological competence and enhanced knowledge acquisition In Fleischmann, P.A., J. Schmitt and G. Wotjak (eds) Translationskompetenz. 479. T ubingen: Staufenburg.
5. Sager, J. (2000). Terminology, applictions. In M. Baker (Ed.), Routledge Encyclopedia of Translation Studies. London and New York: Routledge.
6. Schmitt, P. A. (1986a), Dictionary of Automotive Emission Control. English-German/German-English, Wiesbaden
7. Гринев С. В. Основы лексикографического описания терминосистем: дис. ... д-ра филол. наук. М., 1990. 309 с.
8. Мельников Г. П. Основы терминоведения. М.: Изд-во РУДН, 1991. 116 с.
9. Панасенко Н. И. Когнитивно-ономасиологическое исследование лексики: дис. ... д-ра. филол. наук. М., 2000. 397 с.

Казакова Дилора Гаффаровна - старший преподаватель кафедры узбекского и иностранных языков Бухарского государственного технического университета.

УДК 711.116

АППРОКСИМАЦИЯ ОРНАМЕНТОВ РЕЗЬБЫ ПО ДЕРЕВУ КУБИЧЕСКИМИ СПЛАЙНАМИ

Авлякулова Ш.Б.

Бухарский государственный технический университет.

Аннотация. *Исходя из этого в настоящем статье рассмотрена интерполяция сложных кривых поверхности резьбы по дереву полиномиальными функциями. Автоматизированном проектирование орнаментов резьбы по дереву в положительных отрицательных, нулевой гауссовой кривизны рельеф, барельеф и плоскостной модели требует высокой категории сложности аппроксимации их элементов дугами кривых второго порядка, который приводит к большому число исходных параметров.*

Ключевые слова: *резьбы по дереву, интерполяция, функция, орнамент, сплайн, кривых поверхность, полинома, формулировать, коэффициент, параметр, элемент, автоматизировать.*

APPROXIMATION OF WOOD CARVING PATTERNS USING CUBIC SPLINES

Avlyakulova Sh.B.

Bukhara state technical university.

Abstract. *Automated design of wood carving ornaments in positive negative, zero Gaussian curvature relief, bas-relief and planar models requires a high level of complexity in approximating their elements by arcs of second-order curves, which leads to a large number of initial parameters. Based on this, this article examines the interpolation of complex curves on the surface of wood carvings using polynomial functions.*

Key words: *wood carving, interpolation, function, ornament, spline, curved surface, polynomial, formulate, coefficient, parameter, element, automate.*

ЁҒОЧ ЎЙМАКОРЛИГИДА НАҚШЛАРНИ КУБИК СПЛАЙНЛАР ЁРДАМИДА АППРОКСИМАЦИЯЛАШ

Авлякулова Ш.Б.

Бухоро давлат техника университети.

Аннотация. *Мақолада мураккаб эгриликларга эга бўлган ёғоч ўймакорлигидаги сиртларни полинома сплайн функциялар орқали ифодалаш ёритилган. Ёғоч ўймакорлигини автоматик тарзда лойиҳалашда қўлланиладиган барельеф, горельеф ва текисликда амалга ошириш учун мусбат, манфий, Гаус эгриликларини ҳисоблаш учун юқори даражадаги мураккаб элементларга эга бўлган кўп сонли параметрлардан фойдаланишга тўғри келади.*

Калит сўзлар: *ёғоч ўймакорлиги, интерполяция, функция, орнамент, сплайн, эгри сиртлар, полинома, шакллантириш, коэффициент, параметр, элемент, автоматлаштириш.*

При автоматизированном проектирование орнаментов резьбы по дереву высокой категории сложности аппроксимация их элементов дугами кривы второго порядка приводит к большому количеству исходных параметров. Поэтому для интерполирования участков сложных кривых, на поверхности резьбы по дереве целесообразно применять полиномиальные функции. [1]

Рассмотрим одномерные кубические сплайн применяемые для интерполяции функции $y = f(x)$ и обладающие непрерывными производными до второго порядка.

Задачу интерполирования кривых кубическими сплайнами можно формулировать следующим образом. [2] На каждом из отрезков $[x_i, x_{i+1}]$ функция $f(x)$ аппроксимируется по мономами вида:

$$P_0(x) = \sum_{\alpha=1}^{3} A_\alpha (x - x_1)^{\alpha-1}, \qquad \alpha\epsilon[x_0; x_1]$$

$$P_i(x) = \sum_{\alpha=1}^{4} A_\alpha (x - x_i)^{\alpha-1}; \qquad \alpha\epsilon[x_i; x_{i+1}] \tag{1}$$

$$P_{n-1}(x) = \sum_{\alpha=1}^{3} A_\alpha (x - x_{n-1})^{\alpha-1}; \ \alpha\epsilon[x_n; x_{n+1}]$$

где $i = \overline{1,2,\dots,n-2}$

Коэффициенты A_α определяются с помощью специальных граничных условий:

$$P_0(x) = y_0; \qquad \frac{\partial^k P_0(x_1)}{\partial x^k} = y_1^k; \qquad \frac{\partial^n i(x_{i+s})}{\partial x^k} = y_{i+s}^k.$$

$$\frac{\partial^k P_{n-1}(x_{n-1})}{\partial x^n} = y_{n-1}^k; \qquad P_{n-1}(x_n) = y_n \qquad [s, k = \overline{0,1}] \tag{2}$$

В развернутом виде уравнение (2) записывается:

$$P_0(x) = A_1 + A_2(x - x_1) + A_3(x - x_1)^2;$$
$$P_i(x) = A_1 + A_2(x - x_i) + A_3(x - x_i)^2 + A_4(x - x_i)^3; \tag{3}$$
$$P_{n-1}(x) = A_1 + A_2(x - x_i) + A_3(x - x_{n-1})^2;$$

Коэффициенты, определенные с помощью условий (2) будут ровны:

$$x\epsilon[x_0; x_1], \quad A_1 = y_1; \quad A_2 = y_1^1;$$
$$A_3 = h_0^{-2}(y_1^ъ h_0 - y_1 + y_0;)h_0(x - x_0) \tag{4}$$

при $x\epsilon[x_i; x_{i+1}]; \quad A_1 = y_i; \quad A_2 = y_i^ъ;$

$$A_3 = -h_i^{-2}\left(h_i(2y_i^ъ + y_{i+1}^ъ)^{-3}(y_{i+1} - y_i)\right); \ h_i = x_{i+1} - x_i \tag{5}$$

при $x\epsilon[x_n; x_{n-1}], A_1 = y_{n-1}; \ A_2 = y_{n-2};$ (6)

$$A_3 = -h_{n-1}^{-2}(y_n - y_{n-1}^ъ h_{n-1} - y); \ h_{n-1} = x_n - x_{n-1}$$

Подстановка соотношений (4), (5) и (6) в формулу (3) даст уравнение для кубического сплайна

$$P_0(x) = h_0^{-2}(y_1^ъ h_0 - y_1 + y_0)(x - x_1)^2 + y_1^ъ(x - x_1) + y_1;$$

$$P_i(x) = -h_i^{-3}\left(2(y_{i+1} - y_1) - h_i(y_i^ъ + y_{i+1})\right) \cdot$$
$$\cdot (x-x)^3 \; - h_i^{-2}\left(h_i(2y_i^ъ + y_{i+1}^ъ) - 3(y_{i+1} - y_i)\right)(x - x_i)^2 + y_i^ъ(x - x_i) + y_i;$$
$$P_{n-1}(x) = h_{n-1}^{-2}(y_n - y_{n-1}^ъ y_{n-1})(x - x_{n-1})^2 + y_{n-1}^ъ(x - x_{n-1}) + y_{n-1}. \quad (7)$$

Неизвестные $y_i^ъ (i = 0; 1; \dots, n-2)$ определяются из условий непрерывности вторых производных полинома $P_i(x)$ т.е.

$$\frac{\partial^2 P_i(x_{i+1})}{\partial x^2} = \frac{\partial^2 P_{i+1}(x_{i+1})}{\partial x^2};$$

Для этого определяются значения вторых производных уравнения (7) и полученные результаты приравниваются друг к другу.

$$\frac{\partial^2 P_0(x_1)}{\partial x^2} = 2A_3; \; \frac{\partial^2 P_1(x_1)}{\partial x^2} = 2A_3; \; A_3 \equiv A_3 \quad (8)$$

Первая часть равенства (8) является коэффициентом квадратичной параболы, а вторая (правая) кубической

$$\frac{\partial^2 P_i(x_{i+1})}{\partial x^2} = 6A_4 h_i + 2A_3; \quad (9)$$
$$\frac{\partial^2 P_{i+1}(x_{i+1})}{\partial x^2} = 2A_3;$$

отсюда $3A_4 h_i + A_3 = A_3$

Обе части равенства (9) являются коэффициентами кубической параболы

$$\frac{\partial^2 P_{n-2}(x_{n-2})}{\partial x^2} = 6A_4 h_{n-2} + 2A_3; \qquad \frac{\partial^2 P_{n-1}(x_{n-1})}{\partial x^2 x^2} = 2A_3; \quad (10)$$

отсюда $3A_4 h_{\tau-2} + A_3 = A_3$.

Левая часть равенства (10) является коэффициентом кубической параболы, о правая квадратичной.

Далее в равенства (8), (9) и (10) подставляются значения коэффициентов (4), (5) и (6)

$$h_0^{-2}(y_1^ъ h_0 - y_1 + y_0) = -h_1^{-2}\left(h_1(2y_1^ъ + y_2^ъ) - 3(y_2 - y_1)\right);$$
$$-3h_i^{-3}\left(2(y_{i+1} - y_i) - h_i(y_i^ъ + y_{i+1}^ъ)h_i - h_i^{-2}\left(h_i(2y_i^ъ + y_{i+1}^ъ) - 3(y_{i+1} - y_i)\right)\right)$$
$$= -h_{i+1}^{-2}\left(h_{i+1}(2y_{i+1}^ъ + 2y_{i+2}^ъ) + 3(y_{i+2} - y_{i+1})\right);$$
$$-3h_{n-2}^{-2}\left(2(y_{n-1} - y_{n-2}) - h_{n-2}(y_{n-2}^ъ + y_{n-1}^ъ)h_{n-2} - h_{n-2}^{-2}\left(h_{n-2}(2y_{n-2}^ъ + y_{n-1}^ъ) - \right.\right.$$
$$\left.\left.3(y_{n-1} - y_{n-2})\right)\right) = -h_{n-1}^{-2}(y_n - y_{n-1}^ъ h_{n-1} - y_{n-1}). \quad (11)$$

После некоторых преобразований (11) принимает вид

$$y_1^ъ + \lambda_0 y_2^ъ = \mu_0(y_1 - y_0)h_0^{-1} + 3\lambda_0 h_1^{-1}(y_2 - y_1);$$
$$\mu_i y_i^ъ + 2y_{i+1}^ъ + \lambda_i y_{i+2}^ъ = 3\mu_i h_i^{-1}(y_{i+1} - y_i) + 3\lambda_i h_{i+1}^{-1}(y_{i+2} - y_{i+1})$$

$i = 1, 2, \dots, n-3$

$$\mu_{n-2} y_{n-2}^ъ + 2y_{n-1}^ъ = 3\mu_{n-2} h_{n-2}^{-1}(y_{n-1} - y_{n-2}) + \lambda_{n-2} h_{n-1}^{-1}(y_n - y_{n-1})$$

где $\mu_0 = h_1(h_1 + 2h_0)^{-1}; \quad \mu_i = h_{i+1}(h_{i+1} + h_i)^{-1};$

$$\mu_{n-2} = h_{n-1}(h_{n-2} + 2h_{m-1})^{-1}; \; \lambda_0 = h_0(h_1 + 2h_0)^{-1}; \; \lambda_1 = h_i(h_{i+1} + h_i)^{-1};$$
$$\lambda_{n-2} = h_{n-1}(h_{n-2} + 2h_{n-1})^{-1}. \quad (12)$$

После определения неизвестных параметров $y_i^ъ$ решением системы уравнений (12) устанавливающих непрерывность второй производной в точках соединения двух промежутков, можно получить уравнения сплайна [3]

$$S(x) = \sum_{i=0}^{n-1} P_i(x) \quad (13)$$

При практических вычислениях полиномы $P_i(x)$ можно выразить через базисные полиномы $P_{k,s}(x)$:

$$P_i(x) = \sum_{k,s=0}^{1} P_{k,s}(x)\, y_{i+s}^{(k)} \qquad (14)$$

Коэффициенты полинома $P_{k,s}(x)$ определяются из равенства:

$$\frac{\partial^2 P_{k,s}(x_{i+2})}{\partial x^2} = \delta_{k,q}\,\delta_{s,t} \qquad (15)$$

где $k, s, q, t = 0{,}1.$

$$\delta_{k,q} = \begin{cases} 1, \text{если } k = q, \\ 0 \text{ если } k \neq q. \end{cases}$$

Значения краевых условий, определенные с помощью уравнения (15) сведены в таблицу 1.

Таблица 1.

к	т	й	$P_{0,0}(x)$	$P_{0,1}(x)$	$P_{1,0}(x)$	$P_{1,1}(x)$
0	0	y_i	1	0	0	0
0	1	y_{i+1}	0	1	0	0
1	0	$y_i^{ъ}$	0	0	1	0
1	1	$y_{i+1}^{ъ}$	0	0	0	1

Значения краевых условий.

Подстановкой значений $y_i, y_{i+1}, y_i^{ъ}, y_{i+1}^{1}$ (табл.1) на второе уравнение системы (7) определяются значения полиномов $P_{k,s}(x)$:

$$\begin{cases} P_{0,0}(x) = -h_i^{-3}(x - x_{i+1})^2(3x_i - 2x - x_{i+1}) \\ P_{0,1}(x) = h_i^{-3}(x - x_i)(x - x_{i+2})^2(3x_{i+1} - 2x - x_i); \\ P_{1,0}(x) = h_i^{-2}(x - x_i)(x - x_{i+2})^2; \\ P_{1,1}(x) = h_i^{-2}(x - x_i)^2(x - x_{i+1}). \end{cases} \qquad (16)$$

После раскрытия уравнение (14) принимает вид:

$$P_i(x) = P_{0,0}(x)y_i + P_{0,1}(x)y_{i+1} + P_{1,0}(x)y_i^{ъ} + P_{1,1}(x)y_{i+1}^{ъ}. \qquad (17)$$

С помощью уравнения (17) определяется значение полинома для любого узла x_i отрезка $[a, b]$.

В обобщенном виде вычисление значения полинома в точке х=2, обычно заданной функции (табл.2) можно произвести следующим образом. [4] Значения й и ҳ подставляются в уравнение (12)

$$y_1^{ъ} + \lambda_0 y_2^{ъ} = \mu_0 h_0^{-1}(y_1 - y_0) + 3\lambda_0 h_1^{-1}(y_2 - y_1);$$

$$y_1^{ъ} + y_2^{ъ}(2 + 2\cdot 1)^{-1} = 2(2 + 2\cdot 1)^{-1}(4{,}9 - 5)\cdot 1^{-1} + 3\cdot(2 + 2\cdot 1)^{-1}\cdot 2^{-1}(4 - 4{,}9) \qquad (18)$$

$$\mu_1 y^{ъ} + 2y_2^{ъ} + \lambda y_3^{ъ} = 3\mu_1 h_1^{-1}(y_2 - y_1) + 3\lambda_1 h_2^{-1}(y_3 - y_2)$$

$$\frac{1}{1+2}\cdot y_1^{ъ} + 2y_2^{ъ} + 2(1+2)^{-1}y_3^{1} = 3\cdot(1+2)^{-1}\cdot 2^{-1}(4 - 4{,}9) + 3\cdot(1+2)^{-1}\cdot 1^{-1}(3 - 4) \qquad (19)$$

Таблица 2.

Порядок определения значений полинома для любого узла

ҳ	х	й
$h_0 = 1.0$	$x_0 = 0.0$	$y_0 = 5{,}0$
$h_1 = 2.0$	$x_1 = 1.0$	$y_1 = 5{,}9$
$h_2 = 1.0$	$x_2 = 3.0$	$y_2 = 4.0$
$h_3 = 0{,}5$	$x_3 = 4.0$	$y_3 = 3.0$
	$x_4 = 4{,}5$	$y_4 = 2{,}18$



Рис. 1. Значение полиномов в произвольной точке заданного отрезка

Вычисление значение полинома $P_1(x)$ в отрезке $[0;4,5]$.

$$\mu_2 y_2^{ъ} + y_3^{ъ} = 3\mu_2 h_2^{-1}(y_3 - y_2) + \lambda_2 h_3^{-1}(y_4 - y_3)$$

$$0{,}5 \cdot (1 + 2 \cdot 0{,}5)^{-1} y_2^{ъ} + y_{3=}^{ъ}$$

$$= + \cdot 0{,}5 \cdot (1 + 2 \cdot 0{,}5)^{-1} 1^{-1}(3 - 4) + (1 + 2 \cdot 0{,}5)^{-1} \cdot 0{,}5^{-1}(2{,}18 - 3). \quad (20)$$

Совместным решением уравнений (18), (19) и (20) определяются:

$$y_1^{ъ} = -0{,}57;\ y_2^{ъ} = -0{,}73;\ y_3^{1} = -1{,}39 \quad (21)$$

Значения производных (21) подставляются в уравнение (7)

$$P_0(x) = 1 \cdot 1^{-2} \cdot (-0{,}57 \cdot 1 - 4{,}9 + 5)(x - x_1)^2 - 0{,}57 \cdot (x - x_1) +$$
$$+4{,}9 = 0{,}47(x - x_1)^2 - 0{,}57(x - x_1) + 4{,}9$$

$$P_1(x) = -2^{-3} \cdot \big(2(4 - 4{,}9) - 2 \cdot (-0{,}57 - 0{,}73)\big)(x - x^3) - 2^{-2} \cdot$$

$$\cdot \big(2 \cdot (2 \cdot (-0{,}57) - 0{,}73) - 3 \cdot (4 - 4{,}9)\big)(x - x_1^2) - 0{,}57 \cdot (x - x_1) + 4{,}9 =$$

$$= 0{,}1 \cdot (x - x_1)^3 + 0{,}26 \cdot (x - x_1)^2 - 0{,}57 \cdot (x - x_1) + 4{,}9;$$

$$P_2(x) = -\tfrac{1}{1^3}\big(2(3 - 4) - 1 \cdot (-0{,}73 - 1{,}39)\big)(x - x_2)^3 - \tfrac{1}{1^2}\big(1 \cdot (2 \cdot (-0{,}73) - 1{,}39) -$$

$$-3(3 - 4)\big)(x - x_2)^2 - 0{,}73(x - x_2) + 4 = -0{,}1156 \cdot (x - x_2)^3 - 0{,}158 \cdot (x - x_2)^2 -$$

$$-0{,}73(x - x_2) + 4$$

$$P_3(x) = (0{,}5)^{-2}(2{,}18 + 1{,}39 \cdot 0{,}5 - 3)(x - x_2)^2 - 1{,}39 \cdot (x - x_3) + 3 =$$
$$= -0{,}504(x - x_3)^2 - 1{,}39(x - x_3) + 3 \quad (22)$$

Выражение (22) позволяет вычислить значение полиномов в любой точке отрезка $[0;4,5]$. Поскольку искомая точка $x = 2$ находится во втором кубическом сегменте [5] (рис.1) вычисляется значения полинома $P_1(x)$

$$P_1(2) = -0{,}1 \cdot (2 - 1)^3 + 0{,}26 \cdot (2 - 1)^2 - 0{,}57 \cdot (2 - 1) + 4{,}9 = 4{,}49.$$

В практике вычисление значений полинома $P_i(x)$ по формуле (14) с помощью компьютера производится нижеследующем порядке. [6] По формуле (16) определяются значения базисных полиномов $P_{k,s}(x)$ при $i = 0,1$

$$P_{0,0}(2) = -h_1^{-3}(x - x_2)^2(3x_1 - 2x - x_2)\mathrm{I}_{\substack{x=2 \\ x_2=3 \\ h_1=2}} = -2^{-3} \cdot (2 - 3)^2 \cdot (3 \cdot 1 - 2 \cdot 2 - 3) = 0{,}5;$$

$$P_{0,1}(2) = h_1^{-3}(x - x_1)^2(3x_2 - 2x - x_1) = 2^{-3} \cdot (2 - 1)^2 \cdot$$
$$\cdot (3 \cdot 3 - 2 \cdot 2 - 1) = 2^{-1};$$

$$P_{1,0}(2) = h_{-1}^{-2}(x - x_1)(x - x_2)^2 = 2^{-2} \cdot (2 - 1)(2 - 3)^2 = 4^{-1};$$

$$P_{1,1}(2) = h_1^{-2}(x - x_1)^2(x - x_2) = 2^{-2} \cdot (2 - 1)^2(2 - 3) = -4^{-1}.$$

Далее по уравнению (17) вычисляется значение полинома в заданной точке

$$P_1(2) = P_{0,0}(2)y_1 + P_{0,1}(2)y_2 + P_{1,0}(2)\cdot y_1^{ъ} + P_{1,1}(2)y_{2=}^{ъ}$$
$$= \frac{1}{2}\cdot 4{,}9 + \frac{1}{2}\cdot 4 + \frac{1}{4}\cdot(-0{,}57) - \frac{1}{4}\cdot(-0{,}73) = 4{,}49$$

Выводы.

1. Здесь же формулировании требования к математической модели для задач проектирования растительных орнаментов резьбы по дереву различной категории сложности. На основе этих требований разработана математический модель, величающая в себя различные функции, описываю и аппроксимирующие линии орнаментов резьбы по дереву трех категорий сложности.

2. Предложения математическая модель, преобразующая кривые второго порядка в части замечательных кривых, позволяет конструировать множества фрагментов специальных орнаментов резьба по дереву, из которых формируются разнообразные композиции декоративных узоров растительного происхождения.

3. Созданная математическая модель на базе параболической интерполяции и интерполяционных кубических сплайнов является основой программного обеспечения автоматизированного проектирования растительных орнаментов резьбы по дереву средствами интерактивной компьютерной графики.

Выбрать примера для вычисления

$$y = \frac{e^x + e^{-x}}{2} \quad \text{и} \quad y = \frac{e^x - e^{-x}}{2}$$

Таким образом, сплайны функции как средство интерполяции сложных кривых применяющиеся к резьбе по дереву. Являются очень оптимальными для проектирования растительных орнаментов резьбы по дереву с помощью компьютерной графики.

Список использованной литературы:

1. Авлякулова Ш.Б. Филлинг тҳе орнаментал фиелд оф woодсарвинг басед он сймметрй тйпес ин релатион то компутер грапҳисс // Универсум: течнисал ссиенсес: элестрон. ссиентифис магазине 2022.4(97). УРЛ: ҳттпс://7универсум.сом/ру/теч/арчиве/итем/13369
2. Авлякулова Ш.Б. Заполнение орнаментального поля резьбы по дереву на основе типов симметрии применительно к компьютерной графике // Универсум: технические науки: электрон. научн. журн. 2022. 4(97). УРЛ: хттпс://7универсум.сом/ру/теч/арчиве/итем/13369
3. Ахмедов Ю.Х., Авлякулова С.Б. Использование цифровых технологий в автоматизированном проектировании поверхностей архитектурно-строительных украшений и технических форм //Журнал инновационного развития в фармацевтическо-технической науке (ЖИФТН). – 2021. – Т. 4. – №.3.
4. Бабаджановна А.С. Описание геометрии архитектурно-строительных орнаментов с помощью обобщенных эрмитовых сплайнов на прямоугольной сетке //Азиатский журнал многомерных исследований. – 2021. – Т. 10. – №. 5. – С. 30-36.
5. Акҳмедов Ю.Кҳ., Авлякулова Ш.Б. Тҳе усе оф дигитал течнологиес ин компутер-аидед десигн оф сурфасес оф арчитестурал анд буилдинг десоратионс анд течнисал формс // Жоурнал оф Инновативе Девелопмент ин Пҳармасеутисал анд Течнисал Ссиенсе (ЗҲИФТН). - 2021. - Вол. 4. - Но. 3.
6. Авлякулова Ш.Б. Дессриптион оф тҳе геометрй оф арчитестурал анд буилдинг орнаментс усинг генерализед Ҳермитиан сплинес он а рестангулар грид // Асиан Жоурнал оф Мултидименсионал Ресеарч. - 2021. - Т. 10. - Но. 5. - С. 30-36.
7. Ахмедов Ю.Х., Авлякулова Ш.Б., Ули Й. С. С. Критериа фор тҳе эмотионал персептион оф сурвес ин арчитестурал обжестс //э-конференсе глобе. – 2021. – с. 129-134.

Авлякулова Шоҳида Бабаджановна – старший преподаватель кафедры «Начертательной геометрии и инженерной графики» Бухарский государственный технический университет, Тел.: +998919741261, Э-маил: шоҳидаавлякулова82@маил.ру

ZAMONAVIY QURILISHDA ENERGIYATEJAMKOR VA SAMARADOR TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Hikmatov N.I.
Buxoro davlat texnika universiteti.

Annotatsiya. *Maqolada bugungi kunda dunyo miqyosida sodir bo‘layotgan global iqlimiy o‘zgarishlar jarayonida qurilish sohasida qo‘llanilayotgan innovatsion texnologiyalar hamda energiya tejamkor binolar qurilishining dolzarbligi bo‘yicha taklif va tavsiyalar o‘rin olgan.*

Kalit so‘zlar: *innovatsiya, innovatsion texnologiyalar, energiya samarador binolar, issiqlik o‘tkazuvchanlik, energiya tejamkorlik, passiv uy.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЭНЕРГОСБЕРЕГАЮЩИХ И ЭФФЕКТИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СОВРЕМЕННОМ СТРОИТЕЛЬСТВЕ

Ҳикматов Н.И.
Бухарский государственный технический университет.

Аннотация. *Эта статья содержит предложения и рекомендации по инновационным технологиям, применяемым в строительной отрасли, а также по актуальности строительства энергоэффективных зданий в процессе глобальных климатических изменений, происходящих сегодня во всем мире.*

Ключевые слова: *инновации, инновационные технологии, энергоэффективные здания, теплопроводность, энергосбережение, пассивный дом.*

THE USE OF ENERGY-SAVING AND EFFICIENT TECHNOLOGIES IN MODERN CONSTRUCTION

Khikmatov N.I.
Bukhara state technical university.

Annotation. *This article contains suggestions and recommendations on innovative technologies used in the construction industry, as well as on the relevance of the construction of energy-efficient buildings in the process of global climate change taking place around the world today.*

Keywords: *innovation, innovative technologies, energy efficient buildings, thermal conductivity, energy saving, passive house.*

Qurilish – innovatsiya katta rol o‘ynaydigan jalb qiluvchan va ko‘p tarmoqli jarayon. Bugungi kunda qurilish raqobatbardosh tarmoq bo‘lib qolishi uchun yangi g‘oyalarni va texnologiyalarni talab etuvchi tez rivojlanuvchi faoliyat sohasi hisoblanadi.

Ammo iqtisodiyotning o‘sishida lokomotiv vazifasini bajaruvchi qurilish tarmog‘ining uy-joy qurilishi sohasida innovatsiya jarayoni nisbatan qiyin kechadi. Nimaga mazkur tarmoqda holat shunaqa, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash ushbu sohada qanday ijobiy o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin. Qurilish texnologiyalari bir joyda turgani yo‘q. Kecha xomxayol hisoblangan narsalar bugun real voqelikka aylanmoqda. Qurilishda innnovatsiya – bu amalda bino va inshootlarni yangidan qurish yoki ekspluatatsiyalash jarayonlari samaradorligining sifatli o‘sishini ta’minlovchi yangilik hisoblanadi.

Innovatsiya (inglizchadan, innovation) – bu har qanday yangilik yoki yangilik kiritish emas, balki amaldagi tizimning samaradorligini sezilarli darajada oshiradigan holatdir. Shunday ekan, innovatsion qurilish texnologiyasi yoki materiali bir yoki bir nechta quyidagi mezonlarga mos kelishi kerak:

- qurilish jarayonini soddalashtirish yoki tezlashtirish;
- qurilish tannarxini yoki ekspluatatsiya xarajatlarini pasaytirish;
- obyektning energiya samaradorligini oshirish;
- bino va inshootning hayotiylik davrini orttirish.

Me’moriy-qurilish loyihalashtirish jarayonida innovatsiya qo‘llaniladigan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, yoki texnologiya shaklidagi yakuniy natija sifatida aniqlanadi.

Qurilishda innovatsiya – bu nafaqat aniq bir zamonaviy texnologiya yoki qurilish materialining amaliyotda qo‘llanilishi, balki yetarlicha keng muhandislik yechimlarining tashkiliy-huquqiy joriy etilganligidir.

Ushbu tarafdan kelib chiqib, quyidagicha fikr yuritish mumkin, qurilishda innovatsiyalarning samaradorligi ularning quruvchilar orasidagi foydaliligi va talab yuqoriligi darajasiga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq. Tarixdan bu borada bir qancha misollar mavjud, ya’ni innovatsion mahsulot yoki zamonaviy ilg‘or texnologiya aksariyat hollarda insonlarning bunga tayyor emasliklari sababli amaliyotga joriy etilmagan yoki joriy etilsa ham qisman joriy etilib kutilgan natijani bermagan. Bugungi kunda ham mazkur holat innovatsion qurilish texnologiyalari va materiallarini amaliyotga joriy etishdagi murakkabliklarning eng asosiy sabablaridan biri hisoblanadi [1].

Oxirgi yillarda G‘arb bozorida qurilish kompaniyalari innovatsion mahsulotlarni o‘z orqasidan ergashtiruvchi asosiy lokomotivga aylantirib borishmoqda. Ularning mantig‘i oddiy: tezda, arzon va sifatli quramiz. Bizda esa ushbu vaziyat biroz boshqacharoq. Innovatsion mahsulotlarni, ko‘proq, qurilish materiallarini ishlab chiqaruvchi korxonalar joriy etishadi. Masalan, bunga bugungi kunda tez-tez ishlatiladigan energiya samarador uylarning qurilishi misol bo‘la oladi.

Energiya samarador binolarni qurish 1974- yildagi jahon energetika inqirozidan keyin boshlandi. O‘sha davrda neftni eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti (OPEK) neftning narxini ko‘tarish maqsadida neftni qazib olish hajmini taxminan 5 foizga pasaytirishgan va natijada uning narxi 70 foizga oshib ketgan. Aynan shu davrdan boshlab OPEKga a’zo bo‘lmagan Yevropa mamlakatlari o‘zlarining energiya xavfsizligi va mustaqilligi ustida bosh qotira boshlashdi va bu o‘z navbatida energiya tejamkor texnologiyalarni va energiya samarador binolar qurilishiga olib keldi. Bu davrda sobiq Ittifoqda o‘z energiya resurslariga boyligi sababli undan tejamkor foydalanish to‘g‘risida ko‘p ham bosh qotirilmasdi. Ammo aholini “uy-joy” bilan ta’minlash masalasi jiddiy bo‘lganligi bois uy-joy bilan ta’minlashda sifatga emas asosan miqdorga ko‘proq e’tibor qaratilardi.

Shu bilan birga jahonda dastlabki ko‘p qavatli energiya samarador binoni hayotga tatbiq etish bundan sal oldindroq, ya’ni 1972-yilda Amerika Qo‘shma Shtatlarining Manchesterida qurilgan. Ushbu binoni qurishdan maqsad yangi yo‘nalish doirasida va undan keyin quriladigan barcha binolarda energiya resurslarini tejashga yo‘naltirilgan me’moriy va muhandislik yechimlarini qo‘llash orqali energiya tejashning umumiy samarasini aniqlashdan iborat bo‘ldi. Oxirgi yillarda energiyani samarali foydalanishga yo‘naltirilgan turli texnologik binolarni qurish hajmi oshdi va bunday binolarning energiya samaradorligini baholash va loyihalashtirish bo‘yicha xalqaro amaliyotda standart qoidalar va boshqa normativ hujjatlardan foydalanish rivojlandi.

Turli ekspert baholashlarga ko‘ra asosiy energiya manbalari (neft, gaz va ko‘mir)ning zaxirasi ko‘pi bilan yana 100 yilga yetishi mumkin. Rivojlangan mamlakatlarda energiya iste’molining deyarli yarmi yashash uy-joylariga to‘g‘ri keladi. Shu sababli resurs tejashning asosiy usullaridan biri bu binolarning energiya samaradorligini oshirish hisoblanadi.

Tejamkorlik va undan foydalanish masalalari bir-biriga qarama-qarshidir. Shuning uchun me’morning asosiy vazifasi ushbu qarama-qarshiliklarni bir-biriga ta’sirisiz hal qilmog‘i lozim.

Umuman, energiya samarador uy qanday bo‘lishi lozimligi to‘g‘risida jiddiy fikr yuritishlar o‘tgan asrning oxirlaridan boshlandi. Bu borada Avstriya, Germaniya, Shvetsiya mutaxassislarini, avvalo, elektr energiyasi va binoni isitishga ketadigan iqtisodiy sarf-xarajatlarni tejash masalalari qiziqtirdi. Ular tomonidan olib borilgan chuqur izlanishlar natijasida, uyning umumiy energiya samaradorligiga nafaqat izolyatsion yoki isitish tizimi kabi ma’lum omillar, balki oldinlari hech qachon hisobga olinmagan binoning nisbatan yorug‘likka qarab qurilishi, qurilish shakli va hokozalar ham ta’sir qilishi aniqlandi.

Shu o‘rinda ota-bobolarimiz ushbu qoidani necha asrlar oldin bilishganliklarini, binolarni loyihalashda va qurishda unga katta ahamiyat berishganliklarini alohida ta’kidlab o‘tish mumkin.

Yuqorida ta’kidlanganidek, yaqin o‘tmishda uylarni gaz bilan isitish arzon bo‘lgan davrda insonlar issiqlikni tejovchi uylar haqida deyarli o‘ylashmagan. Ya’ni bunda quruvchi nafaqat uyni isitishni, balki ko‘chani ham isitish to‘g‘risida o‘ylashi mumkin edi. Dunyo bo‘yicha energiya resurslariga bo‘lgan narxlarning doimiy ravishda o‘sib borishi natijasida bugungi kunda vaziyat tubdan o‘zgardi. Quruvchilar ko‘proq issiqlikni yo‘qotish darajasini minimallashtirishga olib keladigan issiqlik saqlovchi uylarni qurish to‘g‘risida o‘ylaydigan bo‘lib borishmoqda. Sababi issiqlikning devorlardan, derazalardagi tirqishlardan o‘tishi ham katta yo‘qotishlarga sabab bo‘lishi mumkin.

Ma’lumotlarga ko‘ra, binoning issiqlik yo‘qotishi darajasi quyidagicha: ventilyatsiya orqali -30-35 foiz, tomdan-10-20 foiz, derazalardan 20-40 foiz, devorlardan-15-25 foiz va fundamentlar orqali yo‘qotish esa 15-20 foizni tashkil etadi [2].

Hozirgi davrda asosiy e’tibor binolarning energiya iste’molini pasaytirishga qaratilmoqda. Shu narsa aniqlanganki, binolarni isitishga energiya resurslarining (turli mamlakatlarda 20 foizdan 40 foizgacha) sezilarli darajadagi kattagina qismi sarflanadi.

Energiya samarador uylarni loyihalashtirishning asosiy prinsipi – bu ichki haroratni, binoni maksimal germetizatsiyalash va muqobil energiya manbalaridan foydalanish hisobiga isitish tizimi va ventilyatsiyani qo‘llamagan holda maqbul holatda saqlab turish hisoblanadi.

“Energiya samarador” tushunchasi, avvalo, texnika va texnologiyaning eng so‘nggi yutuqlari asosida energiya resurslaridan iqtisodiy jihatdan oqilona foydalanishga erishganlikni anglatadi. Uyning maksimal energiya samaradorligiga birinchi navbatda, yakuniy natijani yomonlashtirmagan holda issiqlik yo‘qotishni kamaytirish va barcha energiya jarayonlarida issiqlik energiyasidan oqilona foydalanish hisobiga erishiladi.

Energiya samaradorlikning ilg‘or texnologiyalari xorijiy amaliyotdan ma’lum. Birinchi energiya samaradorli uylarning loyihasi bilan yuqorida ta’kidlanganidek, AQSHda shug‘ullanishgan. Hozirgi davrda energiya samarador binolarni qurish bo‘yicha bir qator ijobiy ishlar Yevropada ham amalga oshirilmoqda. Yevropa mamlakatlari tajribasiga ko‘ra, hattoki, eski me’yorlar asosida qurilgan yashash uy-joylarida ham energiya yo‘qotilishini kamaytirish mumkin. Yevropada binolarning energiya iste’moli bo‘yicha turkumlanish quyidagicha:

«Eski binolar» (1970yilgacha) yiliga 300 kVt·s/m^2 sarflaydi.

«Yangi bino» (1970- yildan 2000-yilgacha) yiliga 150 kVt·s/m^2 dan ko‘p sarflamaydi.

«Energiyani past iste’mol qiladigan uy» yiliga 60 kVt·s/m^2 dan ko‘p sarflamaydi.

«Passiv uy» yiliga 15 kVt·s/m^2 dan ko‘p sarflamaydi.

«Nol energiyali uy» yiliga 0 kVt·s/m^2 sarflaydi.

«Plyus energiyali uy» yoki «aktiv uy» qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish hisobiga iste’mol qilganiga ko‘ra ko‘proq energiya ishlab chiqaradi.

Shunday ekan, binolarning energiya samaradorligiga ta’sir etuvchi asosiy omil – bu qo‘llaniladigan issiqlik saqlovchining samaradorligi va xizmat qilish muddatidir. Shu sababli so‘nggi yillarda Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarida xususiy uy qurilishida va passiv uylarni yaratish uchun asosiy komponentlar bo‘lib hisoblanuvchi mashhur issiqlikni saqlovchi isitkichlar PIRdan keng qo‘llanilmoqda.

Energiya samarador uy deganda – bu eng kam energiyani iste’mol qiluvchi va qulay mikroklimatga ega bo‘lgan bino tushuniladi. Bunday uylarda energiyaning tejalishi 90% ga yetadi. Energiya samarador uyni issiqlik tizimi orqali issiqlik energiyasiga bo‘lgan yillik talabi bir kvadrat metrga 15 kVt*s ni tashkil etadi.

Energiya samarador binolarni qurish ishlari o‘ziga xos texnologiyalar asosida amalga oshiriladi. Bunda yorug‘likning qaysi tomondan tushishi e’tiborga olinadi, tabiiy konveksion shamollatish tizimi joylashtiriladi, barcha sirtlar (devorlar, tomlar, poydevorlar, pollar) shovqin va termoizolyatsiya bilan ta’minlanadi va sifatli derazalar o‘rnatiladi.

Zamonaviy energiya samarador va passiv uylar quyidagi ustunliklari bilan ajralib turadi:

1. Ratsional rejalashtirish. Xonalarning maydoni va joylashuvi qulay yashash sharoiti hamda issiqlik energiyasiga bo‘lgan sarf-xarajatlarni kamaytirish uchun optimaldir. Shu sababli yashash xonalari, asosan, janub tomonga, ya’ni quyosh nuri to‘planadigan tomonga joylashtiriladi.
2. Kompaktlilik. Obyektning maydoni uncha katta bo‘lmagan, ya’ni keng koridorga ega emas yoki juda katta xonalari mavjud.
3. Loyihani tayyorlash jarayonida va joyni tanlashda yorug‘lik tushayotgan tomonni hisobga olish. Binolar janubga qarab yo‘naltirilgan. Deraza romlarining katta qismi shu tomonga yo‘naltiriladi. Bu esa xonalarda har kuni issiqlikni yig‘ish imkonini beradi.
4. Uzluksiz termoizolyatsiya. Bunda binoning butun perimetri bo‘ylab, ya’ni poydevor, pol, devorlar va tomni kuchaytirilgan himoya qatlami qo‘llaniladi. Tirqishlar va bo‘g‘inlar bundan mustasno. Bu sovuq havo oqimini kirishiga to‘sqinlik qiladi va issiqlikni yo‘qotilishini kamaytiradi.
5. Energiya samarador materialli xavfsiz uy. Karkas, isitgich va sarflagichlar ekologik jihatidan toza.
6. Germetiklik. Ushbu parametr n50<0,6/s ko‘rsatkichiga mosdir. Xonalar ichida issiqlik yig‘iladi va bu isitish tizimidan chiqayotgan issiqlikni tejaydi.
7. Maxsus ventilyatsiya tizimi. Ishlatilgan havodagi issiqlikni qayta tiklashda qo‘llaniladi. Bu 75% gacha bo‘lgan issiqlik energiyasini qaytaradi.
8. Isitish tizimi. Odatda, an’anaviy batareyalar kerak bo‘lmaydi. Agar siz qishda sovuq bo‘ladigan hududlarda istiqomad qilsangiz, unda yashash xonalarda o‘rnatiladigan oddiy konvektorlar bilan kifoyalansa bo‘ladi.
9. Suv ta’minoti. Quduqdan individual ravishda suv uzatilishi tanlansa, unda binoning qavatlari ham hisobga olinishi kerak.
10. Yoritish tizimi. Energiya tejovchi svetodiotlar qo‘llaniladi.

Bunday yondashuv xonalarda optimal haroratni va namlikni saqlash imkonini beradi. Shu sababli energiya samarador uylarda istiqomad qilish qulaydir. Bundan tashqari, energiya resurslari uchun to‘lovlar ham tejaladi [3].

Passiv uy – bu energiya tejashning passiv usullarini qo‘llagan holda kam energiya iste’mol qiluvchi binodir. Passiv uy – bu energetik standart emas, balki qurilishning kompleks konsepsiyasidir. Passiv uylarda quyoshdan, ichki isitish manbalari va issiqlikni qayta tiklash usulidan samarali foydalaniladi, bu esa o‘z navbatida, qishning sovuq kunlarida an’anaviy isitish tizimlaridan foydalanmaslik imkonini beradi. Issiq kunlarda esa passiv uylarda passiv sovutish usullaridan, ya’ni soya-salqinlikdan foydalaniladi.



1-rasm. Zamonaviy qurilishda energiyatejamkor texnologiyalardan foydalanish

Arxitekturaviy nuqtayi nazardan passiv uylar, birinchi navbatda, passiv energiya manbalarini va sovuq oqimdan himoyalovchi samarali issiqlik izolyatsiya materiallarining qo‘llanilishi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, qo‘shimcha ravishda zonalarga bo‘lish prinsiplari, binoning to‘g‘ri geometriyasi va uni yorug‘lik yo‘nalishiga qarab joylashtirish usullari qo‘llaniladi.

Amalda passiv uy qulay haroratni saqlashni talab etmaydigan mustaqil energiya tizimi bo‘lishi kerak. Passiv uyning isitilishi unda yashovchi odamlar va maishiy uskunalardan ajralib chiquvchi isiqlik orqali amalga oshiriladi. Zaruriyat bo‘lganda esa qo‘shimcha ravishda “aktiv” isitish, ya’ni alternativ energiya manbalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ayrim hollarda, “passiv uylar”ni “aqlli uylar” bilan ham adashtiradilar. Chunki uning asosiy xususiyati binoning muhandislik qurilmalarini (qo‘riqlanishi, pardalar, isitish tizimlari va shunga o‘xshash) avtomatlashtirilganidir. Shuningdek, “passiv uylar” kam energiya iste’mol qilishi bilan birga o‘zi ham energiya ishlab chiqarish imkoniga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гранева А.В. “Применение эффективных теплоизоляционнных материалов в ограждающих конструкциях зданий и сооружений, на основе перлита, изготовленных методом самоуплотняющих масс”, Инженерный вестник Дона №2 (2022).
2. Xikmatov N.I. “Qurilish materiallari sanoatida innovatsion texnologiyalar” Monografiya, Buxoro, “Durdona” nashriyoti 2022.
3. Jamol Urinov, Navfal Hikmatov, Akmal Sharipov Durability of non-autoclaved cell concrete at non-multiple repetitive load /// AGRITECH-V-2021, , IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 839 (2021) 052042 IOP Publishing doi:10.1088/1755-1315/839/5/052042, s. 1 – 7

UDK 711.116

CAM TIZIMLARIDA GEOMETRIK MODELLASHTIRISH ASOSLARI

Xaitov B.U., Avlyakulova Sh.B.

Buxoro davlat texnika universiteti.

Annotatsiya. *Mazkur maqola CAM (Computer-Aided Manufacturing) tizimlarining ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirishdagi muhim o‘rnini ko‘rib chiqadi. CAD/CAE/CAM bosqichlaridagi CAM tizimlarining vazifalari, ularning raqamli boshqaruvdagi dastgohlar (RBD) bilan integratsiyasi, geometrik modellashtirishning ahamiyati va CAM tizimlaridagi asosiy jarayonlar tahlil qilinadi. Maqolada, shuningdek, CAD tizimlarida yaratilgan modellarning CAM tizimlaridagi roli va rastrli tasvirlarni vektorli formatga o‘tkazishning dolzarbligi muhokama qilinadi. Xususan, mebelsozlik sanoatidagi rastrli tasvirlarni vektorlashtirish bilan bog‘liq muammolar va ularni yechish yo‘llariga e’tibor qaratiladi.*

Kalit so‘zlar: *CAM tizimlari, CAD/CAM, geometrik modellashtirish, raqamli boshqaruvdagi dastgohlar (RBD), ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, G-kod, 2D modellashtirish, 3D modellashtirish, rastrli grafika, vektorli grafika, konvertatsiyalash, mebelsozlik.*

ОСНОВЫ ГЕОМЕТРИЧЕСКОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ В CAM-СИСТЕМАХ

Хаитов Б.У., Авлякулова Ш.Б.

Бухарский государственный технический университет.

Аннотация. *В статье рассматривается важная роль систем CAM (Computer-Aided Manufacturing) в автоматизатsiu производственных protseссов. Анализируются функции CAM-систем на этапах CAD/CAE/CAM, их интеграция со станками с числовым программным управлением (ЧПУ), значение геометрического моделирования и основные процессы в CAM-системах. В статье также обсуждается роль моделей, созданных в CAD-системах, в CAM-системах и актуальность преобразования растровых изображений в векторный формат. В частности, будет уделено внимание проблемам, связанным с векторизацией растровых изображений в мебельной промышленности, и путям их решения.*

Ключевые слова: *CAM-системы, CAD/CAM, геометрическое моделирование, станки с числовым программным управлением (ЧПУ), автоматизация производства, Г-код, 2D-моделирование, 3D-моделирование, растровая графика, векторная графика, конвертация, производство мебели.*

BASICS OF GEOMETRIC MODELING IN CAM SYSTEMS

Xaitov B.U., Avlyakulova Sh.B.
Bukhara state technical university.

Annotation. *V state rassmatrivaetsya vajnaya role system CAM (Computer-Aided Manufacturing) v avtomatizatsii proizvodstvennyx protsessov. Analyziruyutsya funktsii CAM-system na etapax CAD/CAE/CAM, ix integration with machines with numerical program control (ChPU), meaning of geometrical modeling and basic processes in CAM-sistemax. V state also obsujdaetsya role models, created in CAD-systems, v CAM-systems and actuality of transformation of raster image and vector format. In particular, I will pay attention to the problems related to the vectorization of the raster image and the furniture industry, and the solution.*

Key words: *CAM-systems, CAD/CAM, geometric modeling, machines with numerical program management (ChPU), production automation, G-code, 2D-modeling, 3D-modeling, raster graphics, vector graphics, conversion, production furniture.*

Kirish. Zamonaviy ishlab chiqarish jarayonida avtomatlashtirishning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bunda CAM (Computer-Aided Manufacturing) tizimlari yetakchi o‘rinni egallaydi, chunki ular mahsulot ishlab chiqarish siklini sezilarli darajada tezlashtirish va samaradorlikni oshirish imkonini beradi. CAM tizimlari CAD (Computer-Aided Design) tizimlarida yaratilgan loyihalarni raqamli boshqaruvdagi dastgohlar (RBD) orqali amalga oshirish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, bu ishlab chiqarishda yuqori aniqlik, tezkorlik va iqtisodiy samaradorlikni ta’minlaydi. Geometrik modellashtirish CAM tizimlarining asosiy tarkibiy qismi hisoblanib, mahsulotning raqamli modelini yaratish va ishlab chiqarish jarayonini rejalashtirish uchun zamin yaratadi. Shu bilan birga, rastrli tasvirlarni vektorli formatga o‘tkazish kabi muammolar CAM tizimlarining samaradorligini yanada oshirish uchun dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. CAM avtomatlashtirilgan loyihalashtirish tizimlarining (ALT) uchinchi bosqichi bo‘lib, ingliz tilidagi Computer Aided Manufacturing so‘zining bosh harflaridan olingan [1].

Umuman olganda, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish uch bosqichda olib boriladi. Bular CAD/CAE/CAM bosqichlaridir. CAD – Computer Aided Design, ya’ni loyiha chizmasini avtomatlashtirish bo‘lib, unda muhandislik go‘yasi chizma yoki model ko‘rinishida shakllanadi. CAE – bu Computer Aided Engineering – muhandislik hisob-kitob ishlarini avtomatlashtirish hisoblanib, ushbu bosqichda loyiha virtual sinovdan o‘tkaziladi. CAM bosqichida esa yaratilgan loyiha (g‘oya) raqamlashtirilgan boshqaruv dastgohlarda bevosita ishlab chiqarilishi tushuniladi. Ushbu bosqichda ishlab chiqilgan loyiha CAM apparat tizimi tushunadigan dasturiy tilga o‘girilishi nazarda tutiladi [1-3].

CAM tizimlariga umumiy tavsif beradigan bo‘lsak, CNC raqamli boshqariladigan dastgohlar (RBD)da metall, plastmassa, yog‘och va boshqa materiallarni ishlov berish, sanoat robotlarini avtomatlashtirilgan boshqarish va nazorat qilish, 3D printerlar orqali mahsulotlarni ishlab chiqarish va material sarfini optimallashtirish, yuqori aniqlikdagi kesish jarayonlarini avtomatlashtirish, mikrochiplar, elektron platalar va boshqa elektron qurilmalarni ishlab chiqarish tizimlari tushuniladi.

- CAM tizimlarining asosiy funksiyasi – bu:
- RBDni boshqarish va ularni oldindan tayyorlangan dasturlar bo‘yicha ishlashini ta’minlash;
- ishlab chiqarish jarayonida material sarfini kamaytirish, vaqtni tejash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish;
- ishlab chiqarish jarayonini oldindan modellashtirish;
- mahsulot ishlab chiqarishda inson omiliga bog‘liq xatolarni kamaytirish va yuqori sifatni ta’minlash;
- ishlab chiqarish liniyalarini tez o‘zgartirish va yangi mahsulotga moslashtirish.
- CAM tizimlarida quyida ketma-ketlikda ish olib boriladi:
- CAD tizimi asosida mahsulotning raqamli 2D yoki 3D modelini yaratilish;
- kesish, frezalash, burish, quyish va boshqa jarayonlarning texnologik parametrlarini aniqlash, belgilash;
- CAM dasturiy ta’minoti orqali kod yaratish va RBDga yuborish uchun G-kod ishlab chiqish;

- ishlab chiqarish jarayonini virtual sinov va simulyatsiya muhitda sinovdan o‘tkazish;
- tayyorlangan G-kodni RBDga yuklansh va ishlab chiqarish jarayonini boshlash.

CAM titzimlari CAD titzimlarida yaratilgan modellar asosida ishlaydi. Shu nuqtayi nazardan CAD tizimlarida asosan ikki turdagi modellashtirish mavjud. Bular – ikki o‘lchamli tekis chizma (2D) va hajmli jismni modellashtirish (3D) hisoblanadi [4].

Har ikki turdagi modellarda geometrik obyektlar – chiziqlar (tekis, fazoviy), shakllar (polygon) sirtlar (chiziqli, chiziqsiz), jismlar (figuralar) matematik apparatda RBD uchun dasturlash tillarida qayta kodlanadi yoki o‘giriladi.

CAM tizimlari uch turdagi dastgohlarda qo‘llanadi. Bular – raqamli boshqariladigan dastgohlar, robotlashtirilgan dastgohlar va maxsus ixtisoslashtirilgan dastgohlar. Raqamli boshqariladigan dastgohlar (RBD)ga freza dastgohlari, tokarlik dastgohlari, plazmali kesish dastgohlari, lazerli kesish dastgohlari, suv bosimi bilan kesish dastgohlari, shtapovkalab kesuvchi (teshuvchi) dastgohlar kiradi [5-8].

Robotlashgan dastgohlar esa bir nechta operatsiyar majmuyi asosida ishlashni nazarda tutadi. Misol uchun – payvandlash, quyish, bo‘yash, yig‘ish, burish, tashish va boshqa operatsiyalarni avtomatik amalga oshiradi. Bugungi kunda keng ommalashib borgan 3D printerlar ham ushbu robotlashtirilgan dastgohlar oilasiga mansubdir [14-17].

Maxsus ixtisoslashtirilgan dastgohlar ma’lum bir tor doiradagi sohalarda qo‘llanadi. Misol uchun – yuqori aniqlikda elektron plata va mikrosxemalar ishlab chiqish, meditsina uchun imlantlar, protezlar va jarrohlik asbob-uskunalarini ishlab chiqish va h… [9-13].

Dastlabki RBDlar uchun modelni G-kodini yaratish va buning uchun maxsus dasturchilarni jalb etish talab qilinganligi sabab CAM tizimlarining ishlab chiqarish jarayoniga integratsiyalashuvi qiyin kechgan. Bugungi kunda aksariyat RBDlar personal kompyuter va CAD tizimi dasturiy ilovasi bilan ta’minlangan bo‘lib, unda modelni CAD tizimida yaratish, RBD muhitiga avtomatik eksport qilish, dastlabki sinovdan o‘tkazish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri RBDda modelni real ishlab chiqarish mumkin. Zamonaviy CAM tizimlari CAD tizimlari bilan ta’minlanganligi, CAD tizimida yaratilgan modelni CAM tizimiga avtomatik konvertatsiya qilish imkoniyati sabab, ishlab chiqarishda jadal rivojlanishni olib keldi.

Demak, dastlab modelni CAD tizimida yaratish so‘ng uni CAM tizimi uchun konvertatsiya qilish asosiy shartlardan bibri bo‘lib qolmoqda. Shunga qaramay bugungi kunda RBDlarda real ob’yektni 3D scanerlash yoki raqamli fotonusxalash asosida to‘g‘ridan-to‘g‘ri uning CAD yoki CAM modelini yaratish istiqbollari kuzatilmoqda. Yani real ob’yektni konvertatsion dasturlar asosida virtual modelini yaratish dolzarb muammo va real masalalardan biri bo‘lib bormoqda.

Bugungi kunda CAM tizimlari ishlab chiqarishning barcha jabhalarida keng qo‘llanilib, aksariyat CAM tizimlari personal kompyuter va unda CAD tizimi integratsiya qilingan dasturiy interfeysiga ega. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, so‘nggi 15-20 yilda CAD/CAM tizimlari va ularni ishlab chiqarish jarayoniga interatsiyalashtuvi ishlab chiqarishni yangi bosqichga olib chiqdi. Bu hol shiddat bilan rivojlanib borayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida maxsulotni tez, arzon va sifatli ishlab chiqarishga bo‘lgan talabni kelib chiqishi bilan izohlanadi. Bunday talablarni esa faqatgina CAD/CAM tizimi joriy etilgan ishlab chiqarish tarmog‘idagina amalga oshirishi mumkin.

So‘nggi yillarda mebelsozlik sanoatida ham CAD/CAM tizimlari tub burilish yaratdi. Murakkab naqsh kompozitsiyalariga ega bo‘lgan yog‘och o‘ymakorlik ishlari turli mebellarda keng qo‘llanilishini kuzatish mumkin. Aksariyat CAM tizimiga ega rover dastgohlari CAD dasturiy ta’minotiga ega bo‘lgan interfeys va tayyor vektor formatli turli kompozitsion andozalar bibliotekasi bilan birga yetkazib berilmoqda. Muammo shundaki, ixtiyoriy kompozitsion yechim talab etilsa u holda ushbu kompozitsiya CAD tizimi interfeysidan foydalanib yaratilishi nazarda tutiladi. Ma’lum bir rastr formatiga ega bo‘lgan tasvir esa dastlab CAD tizimiga import qilinishi, ya’ni konvertatsiyadan o‘tkazilishi talab etiladi. shundan so‘ng uni vektor tasvir formatida rover dastgohiga uzatish mumkin bo‘ladi. Muammo shundaki CAD/CAM tizimli rover dastgohlarining

rastr formatlarini vektor formatiga o‘tkazilishi yetarli darajada tatbiq qilinmaga. Rastr tasvirlarni o‘zini dastlabki ishlov berish orqali unda tasvir sifatini boshqarish (yoqrinlik va yorig‘lik), tasvir konturlarini konkretlashtirish algoritmlari yetarli sifatni ta’minlab bermaydi. Natijada, rast tasvirlar CAD tizimiga import qilinganidan keyin to‘liq qaytadan konturlashni talab etadi va juda ko‘p vaqt sarfini talab etadi. Bundan tashqari foydalanuvchidan yetarli darajada tajriba va malakani talab etadi.

Turli rastr formatlarining asosiy tavsiflari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Ratr formatlarining asosiy tavsifi

Xususiyati	Rastr formatlari			
	BMP	TIFF	JPEG	PNG
Siqilish turi	Asosan, siqilmagan, oxirgi versiyalarda RLE siqish algoritmi mavjud	Yo‘qotishsiz (LZW, ZIP) va yo‘qotuvchi	Yo‘qotuvchi (Lossy)	Yo‘qotishsiz (Lossless)
Rang chuqurligi	1, 8, 24, 32 bit	1, 8, 16, 24, 32, 48 bit (Deep Color)	24 bit (True Color)	32-bit (True Color + Alpha kanal (shaffoflikni ta’minlaydi))
Metama’lumotlar	Cheklangan (odatda header ma’lumotlari)	Kengaytirilgan (EXIF, IPTC, XMP va boshqalar)	Cheklangan (EXIF mavjud)	Cheklangan, lekin metama’lumot qo‘llab-quvvatlanadi
Shaffoflik	Yo‘q	Ba’zi variantlarda qo‘llanishi mumkin	Yo‘q	Qo‘llab-quvvatlanadi (alpha kanal mavjud)
Fayl hajmi	Katta (siqilmaganligi sabab)	Keng turli: yo‘qotishsizda katta, yo‘qotuvchida kichik	Kichik, siqilish darajasiga qarab	JPEGga qaraganda kattaroq, ammo siqilish samarali

Umuman olganda, barcha vektor formatlari umumiy ichki tarkibiy tuzilishga ega bo‘lib ushbu tafsilotlar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Vektor formatining tarkibiy tuzilishi

Komponent	**Tavsif**	**Misol**
Sarlavha	Fayl haqida umumiy ma’lumotlar, formati, versiyasi	<?xml version= “1.0” encoding= “UTF-8”?>
Koordinata tizimi	Grafik elementlarning joylashuvini belgilaydi	viewBox="0 0 500 500"
Geometrik shakllar	Nuqtalar, chiziqlar, egri chiziqlar, to‘g‘ri burchaklar va doiralar	<circle cx="50" cy="50" r="40"/>
Rang va chizgi atributlari	Shakllarning ichki va tashqi ko‘rinishini aniqlaydi	fill="red" stroke="black" stroke-width="2"
Matn elementi	Grafik tarkibida matn yaratish	<text x="50" y="100">Shoxida</text>
Transformatsiya	Aylantirish, masshtablash, burish va siljitish amallari	transform="rotate(45)"
Qatlamlar	Grafik elementlarni alohida guruhlash	<g id="layer1">...</g>
Effektlar va filtrlar	Gradient, soyalar va boshqa vizual effektlar	<linearGradient id="grad1">...</linearGradient>

Shu o‘rinda, rastr formatini yetarli darajada boshqarish, rangli xromatik tasvirni oq-qora axromatik tasvirga o‘tkazish asosida tasvir konturlini yetarli aniqlik darajasiga olib chiqish, kontur chiziqlari qalinligini boshqarish imkoniyatlariga ega bo‘lgan konvertatsion dasturlarga talab katta ekanligi namoyon bo‘ladi. Ushbu imkoniyatlarga ega bo‘lgan konvertatsion dasturlar CAM tizimida ishlovchi RBDlarni sifat va vaqt nuqtai nazaridan yangi bosqichga olib chishi shubhasizdir.

Rastrli va vektorli grafika turlarining o‘zaro integratsiyasi deganda, asosan, ular orasida tafovutning bartaraf etilishi va har ikkala formatlarni bitta dasturiy ilova muhitida tahrirlanishi tushuniladi. Bunday integratsion dasturlar asosan vektor formatida ishlovchi dasturlar bo‘lib ular bevosita rastr formatlarni import qila oladi va tafovut bermaydi.

Xulosa. CAM tizimlari zamonaviy ishlab chiqarishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, geometrik modellashtirish ularning asosini tashkil etadi. CAD/CAM integratsiyasi ishlab chiqarish jarayonlarini sezilarli darajada soddalashtiradi va tezlashtiradi. Maqolada ko‘rib chiqilgandek, CAM tizimlari turli xil ishlab chiqarish sohalarida keng qo‘llaniladi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xatolarni kamaytirish va mahsulot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shunga qaramay, rastrli tasvirlarni vektorli formatga o‘tkazish kabi ba’zi muammolar mavjudligicha qolmoqda, ayniqsa, mebelsozlik kabi sohalarda, murakkab o‘ymakorlik namunalarini qayta ishlashda bu muammo yaqqol seziladi. Kelajakda bu sohadagi tadqiqotlar rastrli tasvirlarni sifatli vektorlashtirish texnologiyalarini takomillashtirishga va real obyektlardan to‘g‘ridan to‘g‘ri CAD/CAM modellarini yaratish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilishi lozim. Bu esa, o‘z navbatida, ishlab chiqarish avtomatlashtirishning yanada yuqori darajasiga erishishga imkon beradi.

Adabiyotlar:

1. CAM. https://ru.wikipedia.org/wiki/CAM (murojaat 04. 03. 2025).
2. CAE. https://ru.wikipedia.org/wiki/Computer-aided_engineering (murojaat 04. 03. 2025).
3.CAD.https://translated.turbopages.org/proxy_u/en-ru.ru.22a713aa-67c69d4f-7ff9a7ae-74722d776562/https/en.wikipedia.org/wiki/Computer-aided_design (murojaat 04. 03. 2025).
4. Быков А. Желаемое и действительное в геометрическом моделировании // САПР и графика. – М.: 2002. №1. https://sapr.ru/article/6692?ysclid=m8xzmzig1419323897 (murojaat 01.04.2025)
5. Ковалькова И.Н. Автоматизация проектирования объектов заготовительно-штамповочного производства деталей сложной формы: автореф… канд. тех. наук: 05.13.12. – Самара. 2000. – 17 с.
6. Михалев О.Н. Автоматизация технологических protseccов обработки точных отверстий на многооператsионных станках: автореф… канд. тех. наук: 05.13.06. – Иркутск. 2008. – 20 с.
7. Зазвонных А.В. Адаптация технологических возможностей СЧПУ к условиям обработки на основе интегрированной клиент-серверной системы: автореф… канд. тех. наук: 05.13.06. – Москва. 2012. – 20 с.
8. Петунин А.А. Методологические и теоретические основы автоматизатsii проектирования раскроя листовых материалов на машинах с числовым программным управлением: автореф… канд. тех. наук: 05.13.12. – Уфа. 2010. – 35 с.
9. селюкова Н.А. Оптимизация лечения патsиентов с применением CAD/CAM технологий в клинике ортопедической стоматологии: автореф… док. мед. наук: 14.01.14. – Москва. 2013. – 45 с.
10. Разумная З.В. Совершенствование технологии изготовления зубных протезов с помощью CAD\CAM систем: автореф… канд. мед. наук: 14.01.14. – Москва. 2012. – 24 с.
11. Огородников А.И. Параметрическое компьютерное моделирование механической обработки хрупких материалов для интеграtsii в автоматизированную систему технологической подготовки производства: автореф… канд. тех. наук: 05.13.12. – Yекатеринбург. 2021. – 22 с.

12. Черемисин И.Н. Разработка алгоритмов восстановления векторных описаний печатных плат на основе их растровых изображений: автореф… канд. тех. наук: 05.13.18. – Үекатеринбург. 2005. – 24 с.
13. Макеев П.А. Разработка методики автоматизированного размещения элементов на гибко-жесткой печатной плате электронного средства: автореф… канд. тех. наук: 2.3.7 (05.01.08). – Үекатеринбург. 2005. – 24 с.
14. Божко А.Н. Автоматизированный структурный анализ и синтез проектных решений в технической подготовке сборочного производства сложных изделий: автореф… док. тех. наук: 05.13.12. – Москва. 2019. – 34 с.
15. Мамаев Ю.А. Динамика движения робота-станка с параллельной кинематикой (гексапода) для окончательной обработки деталей сложной геометрии: автореф… канд. тех. наук: 01.02.06. – Курск. 2014. – 16 с.
16. Мельниченко М.А. Разработка интеллектуальных моделей и алгоритмов повышения эффективности функsионирования роботизированных технологических protseccов: автореф… канд. тех. наук: 2.3.3 (05.13.06). – Комсомольс-на-Амуре. 2024. – 24 с.
17. Серков Н.А. Точность многокоординатных машин с ЧПУ: теория, эксперимент, практика: автореф… док. тех. наук: 05.02.18, 05.11.15. – Москва. 2017. – 34 с.

Xaitov Bafo Usmonovich – DSc, Buxoro davlat texnika universiteti "Mexanika va muhandislik grafikasi" kafedrasi dotsenti, Tel.: +998936208131, E-mail: xb75@mail.ru

Avlyakulova Shohida Babadjanovna – Buxoro davlat texnika universiteti "Mexanika va muhandislik grafikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi, Tel.: +998919741261

ЮРТИМИЗНИНГ ШАҲАР-ҚИШЛОҚЛАРИДА АВТОТУРАРГОҲЛАР ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ

Рабиев Ғ.Б.

Бухоро давлат техника университети.

Аннотатсия. *Мақолага автотураргоҳлар ташкил этиш муаммолари, ер ости ва қаватли автотураргоҳлар қуриш, улар учун ер майдони тақчиллиги масалари баён этилган.*

Калит сўзлар: *автотураргоҳлар, ер ости ва қаватли автотураргоҳлар, жамоат ва тураржой бинолари атрофида автотураргоҳлар.*

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ОРГАНИЗАЦИИ ПАРКОВОК В ГОРОДСКИХ И СЕЛЬСКИХ РЕГИОНАХ НАШЕЙ СТРАНЫ

Рабиев Г.Б.

Бухарский государственный технический университет.

Аннотация. *Проблемы организации паркингов, строительство подземных и этажных паркингов, вопросы дефицита земельного пространства для них.*

Ключевые слова: *автостоянки- паркинги, подземные и этажные паркинги, паркинги вокруг общественных и жилых зданий.*

CURRENT ISSUES OF ORGANIZATION OF PARKING LOTS IN URBAN AND VILLAGE REGIONS OF OUR COUNTRY.

Rabiev G.B.

Bukhara state technical university.

Abstract*. Problems of organization of parking lots, construction of underground and storey parking lots, issues of shortage of land space for them.*

Keywords: *parking lots, underground and storey parking lots, parking lots around public and residential buildings.*

Охирги йилларда, республикамизда шаҳарсозлик-урбанизация жадал ривожланаётган бир пайтда, халқимизнинг турмуш шароити яхшиланганлиги муносабати билан оилаларнинг енгил автомобиль сотиб олишга эҳтиёжи ортганлиги ва ҳозирги кунларда автотранспорт воситаларининг сони бундан 15-20 йил аввалги кўрсатгичдан кескин фарқ қилиб, статистик маълумотларга кўра халқнинг 55-60 фоизидан ортиғи енгил автомобилга эга эканлиги, бу ижобий натижа бўлганлиги, аммо бу масала шаҳарлар ва туман марказлари ҳудудларида янги автотураргоҳларни ташкил этиш-қуриш заруратини келтириб чиқарди.

Ушбу масала яқин вақтларда ечилиши лозим бўлган жуда муҳим масала бўлиб, унга жиддий ёндашилмаса, бир қатор муаммолар келтириб чиқариш эҳтимоли кўпдир. Ҳозирги кунда автотураргоҳлар муаммоси шаҳар ва туманлар бозорлари атрофларида мавжуд бўлиб, катта жамоат ва давлат идоралари, ОТМлар, спорт ва маданият объектлари атрофида ҳам долзарб бўлиб турибди [5].

Ўзбекистон Республикасининг Қурилиш Вазирлиги томонидан тасдиқланган “Шаҳарсозлик. Шаҳарлар ва қишлоқ аҳоли пунктлари ҳудудларини ривожлантириш ва қуришни режалаштириш”. ҚМҚ 2.07.03 *(қурилиш меъёрлари ва қоидалари)* да қуйидагилар кўзда тутилган:

- *179-банд.* Фуқароларга тегишли 100 % автомобилларни доимий сақлаш жойларини уларнинг эгалари яшаш жойидан кўпи билан 800 м. масофада кўзда тутиш лозим, қайта қуриш жойлари ва шаҳарларнинг тарихий зоналарида бу масофа 1500 м гача оширилиши мумкин. Ногиронларга қарашли транспорт воситаларини сақлаш учун бокс туридаги гаражлар ногирон яшаш жойидан кўпи билан 200 м. пиёда етиш масофасида кўзда тутилиши керак.

- *180-банд.* Сақлашни ташкил этиш учун қурилишнинг биринчи навбати учун кутилган автомобиллар сонини очиқ тўхташ жойларида жойлаштириш учун зарур бўлган ҳудудни ажратиш керак. Ҳисоб муддати ва ундан кейинги даврда ажратилган ҳудудда ҳисоб муддатига кутиладиган автомобиллар сонини жойлаштириш учун етарли бўлган сиғимдаги ер ости ва кўп қаватли гаражлар кўзда тутилади [3].

Ушбу ҚМҚ тасдиқланган вақтда *(2003 йил)* корхона ва ташкилотлар атрофидаги автотураргоҳларда шу корхона ва ташкилотларда ишловчиларнинг энг кўпи билан 15% фоизининг автомашинасини жойлаштиришни кўзда тутилган эди. Ҳозирги кунда эса автомобилга эга бўлган ходимларнинг фоизини 55-60 % дан ортиқ деб ҳисоблаш тўғри бўлади *(бу рақамлар янада ортиши кутилмоқда),* аммо мавжуд автотураргоҳларнинг майдонини ҳозирги кунда кенгайтиришнинг имкони йўқ, чунки шаҳар ва қишлоқлар асосан шаклланиб бўлган.

Агар автотураргох ташкил этиш учун ҳар бир енгил автомашинага, нормага аосан 20-25 м2 ер майдони ажратилиши лозим бўлса ва 1 гектар ер майдонига ўртача 400та енгил автомашина сиғишини хисобга олсак, шаҳар ва туман марказида ҳозирги кунда 1гектар (10 000м2) бўш ер майдони топиш ва ажратиш имконияти жуда паст. Демак, ушбу масалани ечиш учун ривожланган давлатлар тажрибасидан келиб чиқиб, бизда ҳам ер ости *(қаерда имкон бўлса)* ёки ер устида эса қаватли (3-4 қават) автотураргоҳларни қуриш керак деб хисоблайман [2].

Ундан ташқари: *181-банд*. Енгил автомобиллар гараж ва автотўхташ жойлари ер участкаларининг майдонларини уларнинг қаватлилигига боғлиқ ҳолда бир машина-жой учун $м^2$ да олиш керак:

- гаражлар учун: 1-қаватли - 30
- 2-қаватли - 20
- 3-қаватли - 14
- 4-қаватли - 12
- 5-қаватли - 10
- ер усти тўхташ жойлари учун - 25

- кўчатзорларни ҳисобга олган ҳолда ер усти тўхташ жойлари учун – 35 [3].

Мазкур талаблардан кўриниб турибдики, қаватлар ҳисобига автотураргоҳлар сиғими 3-4 баравар кўпайтирилади, бу нарсанинг иқтисодий самараси ҳам анча яхшиланади. Бундай автотураргоҳларни пандусли ва лифтли вариантлари мавжуд бўлиб, қайси вариантдан фойдаланиш масаласи ушбу бино-иншоот буюртмачисининг моддий шароитидан ва объект жойлашган ҳудуднинг релъефи, тупроқ-асос талабларидан келиб чиқиб белгиланади.

Қуйида автотураргоҳларни қуриш вариантлари таклифи келтирилган:



1-расм. Автотураргоҳнинг ер устидаги қаватли варианти таклифи

Мазкур бино-иншоотларни ер ости ёки ер устига қуриш варианти, юқорида айтилганидек, объект жойлашган ҳудуднинг релъефи, тупроқ-асос талабларидан келиб чиқиб белгиланади. Жумладан, Бухоро вилояти шариотида ер ости сувларининг сатҳи баландлиги ва агрессивлик даражаси баландлиги сабабли, ер ости автотураргоҳларни қуриш унчалик тўғри бўлмайди. Бизнинг шароитимизда қаватли автотураргоҳлар қуриш тўғри бўлиб, бино томидан ҳам фойдаланиш мумкин, яъни энг юқори қаватнинг устини енгил конструкцияли айвон билан ёпиш моддий ва табиий шароитга мос бўлади, ундан ташқари бу объектнинг ён томонларини девор билан ёпиш керак бўлмайди *(фақатгина енгил чамбара билан тўсилади, холос)* ва бинони иситиш ёки совутиш зарурати йўқлиги, уларни қуриш харажатларини анча камайтиришга ҳамда иқтисодий самарадорликнинг юқори бўлишига олиб келади [1].

Худди шундай муаммо, мен анча йиллардан буён ишлаб келаётган, Бухоро муҳандислик-технология институти биноси атрофида ҳам мавжуд бўлиб, ҳар куни юзлаб автомобилларнинг кўча-йўлнинг қатнов қисми четида турганлигига гувоҳ бўламиз, охирги йилларда янгидан ташкил этилган автотураргоҳ, мавжуд муаммони ечиб билмайди, чунки бу автотураргоҳга бор йўғи 80-100 та автомашина сиғади, холос. Ҳисоб-китобга қараганда ушбу автотураргоҳ институтда ишловчи педагог ва ходимларда мавжуд бўлган машиналар билан тўлиб қолади, қолган автомобиллар яна кўчада қолаверади. Демак, институт ҳудудининг шимоли-ғарб томонида бўш турган ер майдонида, келажак учун қаватли автотураргоҳ қуриш зарурати мавжуд бўлиб, ушбу масала эътиборга молик деб ҳисоблайман [2].

1-расм. Автотураргоҳнинг ер остига кириш ёки бино томидаги варианти таклифи.

Юқорида айтилганлардан ташқари, янгидан қурилиши кўзда тутилган автотурар-гоҳлар қурилишида ва айниқса, уларни лойиҳалаш пайтида бизнинг қуруқ-иссиқ иқлим шароитимиз талабларидан келиб чиқиб, автотураргоҳлар бўш ва очиқ майдон сифатида эмас, балки йўлаклар қатори орасида, кўкаламзор-дарахтзорлар ташкил этилиши, яъни соя-салқин муҳитни яратиш лозим, деб ҳисоблайман, бу эса ўз навбатида, автотураргоҳ-ларнинг асфальт юзасини ва автомобилларнинг ўзини қаттиқ қизиб кетишдан сақлайди ҳамда шаҳар-қишлоқнинг экологик муҳитининг яхшиланишини таъминлайди, деб умид қиламан [4].

Фойдаланилган адабиётлар ва норматив ҳужжатлар рўйхати:

1. Махмудов С.М. Қуруқ иссиқ иқлим шароитида шаҳарсозлик. ТАҚИ-2021й.
2. Рабиев Ғ.Б. «Шаҳарсозлик ва ландшафт лойиҳалаш» 1-қисм. Дарслик. Бухоро-«ББС» нашриёти. 2024 й.
3. ШНҚ 2.07.01-03. Шаҳарсозлик. Шаҳар ва қишлоқ аҳоли пунктлари ҳудудининг ривожланиши ва қурилишини режалаштириш.
4. СанПиН 0246-08. Санитарные нормы и правила по охране атмосферного воздуха населённых мест Республики Узбекистан.
5. ВМҚ 2019 й.10 январь. «Урбанизация жараёнларини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»

BUXORO VILOYATIDA INVESTITSIYAVIY MUHITNI TAHLIL QILISH: MAVJUD HOLAT VA ISTIQBOLLAR

Sadirov S.S.

Buxoro davlat texnika universiteti.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Buxoro viloyatidagi investitsiyaviy muhitning 2025 yildagi holati va uning rivojlanish istiqbollari tahlil qilingan. Ilmiy tadqiqotda xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish darajasi, asosiy sohalarda amalga oshirilayotgan loyihalar, xususan, energetika, sanoat, qishloq xo‘jaligi va infratuzilma sohalaridagi ishlanmalarga alohida e’tibor qaratilgan. Maqolada shuningdek mavjud muammolar – moliyalashtirishning cheklanganligi, infratuzilma kamchiliklari va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ham keltirilgan. Tadqiqot natijalari asosida Buxoro viloyatida investitsiya muhitini yanada takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *investitsiyaviy muhit, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar, xorijiy kapital, infratuzilma loyihalari, sanoat rivoji, quyosh energetikasi, chiqindilarni qayta ishlash, barqaror rivojlanish, moliyalashtirish manbalari*

АНАЛИЗ ИНВЕСТИЦИОННОЙ СРЕДЫ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ: ТЕКУЩЕЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Садиров С.С.

Бухарский государственный технический университет.

Аннотация. *В статье анализируется состояние инвестиционной среды Бухарской области в 2025 году и перспективы ее развития. В научном исследовании особое внимание уделяется уровню привлечения иностранных и местных инвестиций, проектам, реализуемым в ключевых секторах, в частности, развитию энергетики, промышленности, сельского хозяйства и инфраструктуры. В статье также представлены существующие проблемы – ограниченное финансирование, инфраструктурные недостатки и предложения по их устранению. По результатам исследования разработаны практические рекомендации по дальнейшему улучшению инвестиционного климата Бухарской области.*

Ключевые слова: *инвестиционный климат, прямые инвестиции, иностранный капитал, инфраструктурные проекты, развитие промышленности, солнечная энергетика, переработка отходов, устойчивое развитие, экономический анализ на 2025 год, источники финансирования.*

ANALYSIS OF THE INVESTMENT ENVIRONMENT IN BUKHARA REGION: CURRENT STATE AND PROSPECTS

Sadirov S.S.

Bukhara state technical university.

Abstract. *This article analyzes the state of the investment environment in Bukhara region in 2025 and its development prospects. The scientific study pays special attention to the level of attraction of foreign and local investments, projects implemented in key sectors, in particular, developments in the energy, industry, agriculture and infrastructure sectors. The article also presents existing problems - limited financing, infrastructure deficiencies and proposals for their elimination. Based on the results of the study, practical recommendations have been developed to further improve the investment climate in the Bukhara region.*

Keywords: *investment climate, direct investments, foreign capital, infrastructure projects, industrial development, solar energy, waste processing, agricultural investments, sustainable development, economic analysis for 2025, sources of financing*

***K*irish.** O‘zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar bozor munosabatlari shakllanishi mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari rivojlanishi va mavqeini tubdan o‘zgartirmoqda. Turli xil mulk, hajmi va faoliyati turlicha bo‘lgan korxonalarning mavjud bo‘lishi yangi iqtisodiy, va huquqiy munosabatlar shakllanishiga sabab bo‘lmoqda. Bu holat insonlar o‘rtasidagi munosabatlarga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda, ularning mulkka, olinayotgan natija va uning samaradorligiga bo‘lgan qarashi tubdan o‘zgarib bormoqda.

Hozirgi davrda jahon iqtisodiyotining globallashuvi va bozor iqtisodiyoti tamoyillarining chuqurlashib borayotgani sharoitida investitsiyalarning mamlakat va mintaqalar taraqqiyotidagi o‘rni yanada ortib bormoqda. Xususan, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, zamonaviy texnologiyalarni olib kirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va iqtisodiy o‘sishni jadallashtirishda muhim omil hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan investitsion muhitni yaxshilash, xususiy sektor faolligini oshirish va xorijiy investorlar uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu boradagi tashabbus va loyihalar hududiy kesimda, xususan, Buxoro viloyatida ham o‘z aksini topmoqda.

Buxoro viloyati o‘zining boy tabiiy resurslari, tarixiy merosi, qulay geografik joylashuvi va mehnat resurslari bilan ajralib turadi. Shu boisdan ham ushbu viloyat iqtisodiy rivojlanish va investitsiyalarni jalb etish nuqtayi nazaridan katta salohiyatga ega. So‘nggi yillarda sanoat, turizm, qishloq xo‘jaligi va xizmatlar sohasi yo‘nalishlarida bir qator investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Biroq investitsiyaviy muhitni to‘laqonli baholash, mavjud muammolarni aniqlash va istiqbolli yo‘nalishlarni belgilash masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Ushbu tadqiqotning maqsadi — Buxoro viloyatidagi investitsiyaviy muhitni tahlil qilish, mavjud holatni baholash, mavjud muammolar va ularning yechimlarini ko‘rsatish hamda istiqboldagi imkoniyatlarni aniqlashdan iborat. Mazkur mavzuning amaliy ahamiyati shundaki, u

hududiy investitsiya siyosatini takomillashtirish, mahalliy va xorijiy investorlar uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratishda foydali bo‘lishi mumkin.

1. Hozirgi investitsiya muhitining umumiy ko‘rinishi. Milliy va viloyat darajasida investitsiya hajmi 2025-yil I choragida O‘zbekiston bo‘ylab chet el investitsiyalari 8,7 mlrd AQSH DOLLARI ni tashkil etdi, shundan Buxoro viloyati 971,7 mlrd UZS chet el kreditlari – ya’ni taxminan 100 mln AQSH DOLLARI – olib foydalandi. 2021–2024-yillardagi viloyatda amalga oshirilgan loyihalar umumiy qiymati 269 mln AQSH DOLLARIga yetgan.

Tarmoqlar ko‘lamida rivojlanish. Mashinasozlik va energetika tarmoqlari boshqa hududlarga nisbatan yanada aktiv, aholi va korxona investitsiyalari bilan qishloq xo‘jaligiga urg‘u berilmoqda. Buxoro statistikasi iyun holatiga ko‘ra sanoatda 107,3 %, qishloqda 103,9 %, asosiy kapital investitsiyalari viloyatda 70,7 % o‘sishga erishdi.

2. Loyihalar va infratuzilma. *Chiqindilarni yoqish zavodi (Tadweer).* 2025-yilda boshlanishi rejalashtirilgan bu zavod 200 mln AQSH DOLLARI evaziga quriladi. Kuniga 1 500 tonna chiqindini yondirib, yiliga 363 mln kVt/s elektr energiya ishlab chiqariladi, viloyatda 150 yangi ish o‘rni ochiladi.

Suv va kanalizatsiya loyihasi (AIIB hamkorligi). 2025-yil iyun–mart oralig‘ida AIIB tomonidan moliyalashtirilgan ikkinchi bosqich loyihasi ishga tushirilmoqda; 2024-yildagi biznes-rejalarda texnik va ijtimoiy hujjatlar tayyorlandi .

Quyosh energetikasi. G‘ijduvon tumanida 191.6 MW quvvatli quyosh elektrstansiyasi qurilishi 2025-yil oxirigacha tugashi kutilmoqda .

Temir yo‘l aloqalari. Buxoroni Toshkentga bog‘lovchi Afrosiyob yuqori tezlikdagi poyezdi faoliyatda; elektrlashtirish va kengayish loyihalari davom etmoqda .

3. Yutuqlar. *Iqtisodiy o‘sish.* 2025-yil yanvar–iyun oylari bo‘yicha Buxoro viloyatida YHM 106,4 %, sanoat 107,3 %, qurilish 106 % ga o‘sdi.

Barqaror rivojlanish strategiyasi. Butun O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyot va atrof-muhitni muhofaza qilish siyosati kuchaymoqda. Buxoro loyihalari – chiqindi zavodi, quyosh stansiyasi – bu tendentsiyaga mos keladi.

4. Muammolar. *Moliyalashtirish va kreditlarga ega bo‘lish.* Buxoro tadbirkorlari uchun moliyalashtirish manbalarining chekligi, kredit ehtiyojlari, kooperatsiyani shakllantirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Suv-kanalizatsiya loyihasida konsalting va dizayn mutaxassislari tanlovi sekin kechmoqda.

Infrastruktura ehtiyojlari. Buxoroning elektr va gaz bilan bog‘liq tarmog‘i hali ham rivojlanmoqda; davlat tomonidan yechimlar qidirilmoqda.

5. Istiqbollar

1. Yashil va toza energetikaga e’tibor – quyosh stansiyalari, chiqindi yoqish zavodi kabi loyihalar viloyatning ekologik strategiyasini kuchaytiradi.
2. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish – Uzbekistan 2024-yili 34,9 mlrd AQSH DOLLARI chet el investisiyasini jalb etgan; Buxoro ham bu oqimdan foyda ko‘rishi mumkin.
3. Infratuzilmani rivojlantirish – AIIB, EU biznes forumi va Germaniya jamg‘armalari orqali moliyalashtirilgan loyihalar viloyatni modernizatsiya qiladi.
4. IT va raqamli sektorni rivojlantirish – IT Park loyihalari keyinchalik Buxoroda kengaytirilishi mumkin.

Quyida “Buxoro viloyatida investitsiya muhiti: mavjud holat va istiqbollar” ga oid eng so‘ngi 2025-yil ma’lumotlari asosida tuzilgan ikki asosiy jadvalni keltiraman:

Bu ma’lumotlarga ko‘ra, 2025-yil I choragida O‘zbekistonga kirgan jami chet el investitsiyalari va kreditlar hajmi 8,7 mlrd AQSh dollarini tashkil etdi. Shulardan 33,1 trln UZS – ya’ni 27,5% ishlab chiqarishga, 20 trln UZS energetikaga, 13,6 trln UZS konchilikka ajratilgan.

1-jadval.

2025-yil I chorak: Sektorlar bo‘yicha chet el investitsiyalari (O‘zbekiston)

№	Tarmoq	Trln	UZS F. (ulushi (%))
1	Mahsulot ishlab chiqarish	33.1	27.5
2	Elektr, gaz va konditsiya (energetika)	20.0	16.6
3	Konchilik (mining)	13.6	11.3
4	Qishloq xo‘jaligi	12.4	10.3
5	Uy-joy qurilishi	9.5	7.9
6	Transport va saqlash	5.3	4.4
7	Chakana savdo	3.0	2.5
8	Sog‘liqni saqlash	2.1	1.7
9	**Jami** (chet el investitsiyalari orqali)	8.7 mlrd AQSH DOLLARI	—

2-jadval.

2025-yil I chorak: Mintaqalar bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya kreditlari (FAO shartlari ostida)

№	Mintaqa	Kredit hajmi (bln UZS)
1	Namangan viloyati	7 490
2	Toshkent viloyati	6 360
3	Toshkent shahri	4 380
4	Navoiy viloyati	3 700
5	Samarqand viloyati	3 650
6	Buxoro viloyati	971.7

Buxoro viloyati I chorakda olgan kreditlar hajmi: 971,7 milliard UZS. Bu kreditlar viloyat sanoati, infratuzilma va boshqa tarmoqlarda ekspansiyani qo‘llab-quvvatlash uchun ishlatilgan.

Tahliliy sharh.

Sektoral yo‘nalish: O‘zbekistonga kirgan investitsiyalarda eng katta ulush ishlab chiqarish (27.5 %) va energetikaga (16.6 %) to‘g‘ri kelmoqda. Qishloq xo‘jaligi ham o‘sishda – 10.3 %.

***Buxoro viloyati*:** 2025-yil I chorakda viloyatga taqsimlangan 971.7 mlrd UZS kreditlar — mamlakatdagi hisoblangan mintaqalar qatorida o‘rta darajani anglatadi. Ammo jadal rivojlanayotgan sektorlar va loyihalar uchun bu kapital muhim.

Yechim va istiqbollar.

1. Sektor diversifikatsiyasi: Investitsiyalarni Buxoroda energiya, qishloq xo‘jaligi va agro-yakuniy sanoatlar (masalan, gidroponika, qayta ishlash) yo‘nalishlariga qaratishni davom ettirish kerak.

2. Infratuzilmani rivojlantirish: Kreditlar asosida transport, energetika tizimini kengaytirish orqali jadal o‘sishni ta’minlash.

3. Xorijiy investorlarga qiziqishni oshirish: Kredit imkoniyatlari, grantlar va moliyaviy-quvvat dasturlarini kengaytirish orqali chet el investitsiyalarini ko‘paytirish mumkin.

4. Barqaror rivojlanish yo‘lida: “Yashil” va ijtimoiy investitsiyalarni jalb etish – chiqindi yoqish, quyosh energetika loyihalarini kengaytirib, Buxoro ekologik brendini mustahkamlash.

Xulosa. 2025 yilgi ko‘rsatkich holati istiqbollari. Investitsiya hajmi 269 mln AQSH dollari (2021-24), I chorakda chet el 100 mln AQSH dollari To‘la amalga oshirilsa yana ko‘payadi. Iqtisodiy ko‘rsatkichlar +6 % atrofida o‘sish, barqaror o‘sish saqlanadi

Yashil energetika loyihalari, Quyosh, chiqindi, suv loyihalari boshlanmada Kuchaytiriladi, Xitoy, EU va Saudi fondlari bilan. Ishbilarmon muhit Moliyalashtirish, infratuzilma muammolari mavjud Bank reformlari, EU–O‘zbek fondlari orqali yaxshilanishi mumkin.

Tavsiya va omillar. Moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni kengaytirish – bank kreditlari, grant va kafillik tizimlari orqali tadbirkorlarga resurs yetkazish. Raqamli va IT qatlam tegizish – IT Park va digital rivojlanish dasturlarini mintaqalarga kengaytirish. Ekologik barqarorlikni kuchaytirish – “Yashil strategiya” loyihalariga davlat va xorijiy investitsiyalarni jalb etish. Infratuzilmaga e’tibor berish – transport, suv, gaz va elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Obida Akramova “Buxoro viloyatining investitsion jozibadorligini baholash” – Chet el investitsiyalarini tahlil qilgan, ijtimoiy-iqtisodiy salohiyat va xavflarni baholagan maqola. 2024
2. Obida Akramova “Buxoro viloyatining investitsion jozibadorligini oshirish yo‘llari” – Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ularni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar, 2024
3. Matyakubova Y.B. “Hududiy investitsion tahlil Uzbekistonda chet eldan to’gridan-to’g’ri investitsiya salohiyati va Buxaro kabi hududlarning taqqoslanishi, 2024
5. Tursunov S.S. “Iqtisodiy rivojlanishni muhiti va investitsiyaviy jozibadorlikni yaxshilash masalalari” 2024
6. “Buxoro viloyatida xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi” Stat.uz, 2023
7. “Buxoro viloyatining investitsion jozibadorligini oshirishda korxonalarning o‘rni va ahamiyati” (CyberLeninka)
8. “Buxoro shahri – zamonaviy iqtisodiy infratuzilmalarini rivojlantirish masalalari” – 2020–2021 davridagi iqtisodiy infratuzilmaga oid kichik sanoat zonalari va loyihalar tahlili. yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz+10КиберЛенинка+10https://yuz.uz+10
9. “Buxoro viloyatini sanoat va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish masalalari” (Yuz.uz, 2021)– Sanoat rivoji va tarmoq loyihalari, masalan ichimlik suvi, yo‘llar, Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida. Stat+5https://yuz.uz+5Kun.uz+5

KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARIDA O‘QUVCHILARNI AMALIYOTGA YO‘NALTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Sharipov A.A.

Professional ta’limni rivojlantirish instituti.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada kasbiy ta’lim tashkilotlarida o‘quvchilarni amaliyotga yo‘naltirish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, pedagogik shart-sharoitlarni yaratishning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda amaliyotga yo‘naltirishning shakl, metod va vositalari tahlil qilinib, samaradorlikni oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *kasbiy ta’lim, amaliyotga yo‘naltirish, pedagogik shart-sharoitlar, texnologiya.*

PEDAGOGICAL CONDITIONS OF DIRECTING STUDENTS TO PRACTICE IN VOCATIONAL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Sharipov A.A.

Institute for the Development of Professional Education.

Abstract. *This article discusses the importance of creating pedagogical conditions for practice-oriented learning in vocational education institutions through the use of modern pedagogical technologies. The study analyzes forms, methods, and tools of practice-oriented teaching and provides scientific-practical recommendations for improving efficiency.*

Keywords: *vocational education, practice-oriented learning, pedagogical conditions, technology.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ НАПРАВЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ НА ПРАКТИКУ В ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ОРГАНИЗАЦИИ

Шарипов А.А.
Институт развития профессионального образования

Аннотация. *В данной статье рассматривается значение создания педагогических условий для практико-ориентированного обучения в учреждениях профессионального образования с использованием современных педагогических технологий. В исследовании анализируются формы, методы и средства практико-ориентированного обучения и даются научно-практические рекомендации по повышению эффективности.*

Ключевые слова: *профессиональное образование, практико-ориентированное обучение, педагогические условия, технологии.*

***K*irish.** Kasbiy ta’lim tashkilotlarida o‘quvchilarni amaliyotga yo‘naltirish – ta’lim jarayonida nazariy bilimlarni hayotiy tajriba bilan uyg‘unlashtirish, kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish va ularni mehnat bozoriga tayyorlash jarayonidir. Ushbu jarayon o‘quvchilarni real hayot sharoitida ishlashga, mustaqil fikrlash va muammolarini o‘zlari hal qilishga o‘rgatadi.

Kasbiy ta’lim tashkilotlarida o‘quvchilarni amaliyotga yo‘naltirish**ning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat - o**‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyot orqali mustahkamlash, ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlash, mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan mutaxassisliklar bo‘yicha tajriba orttirish, mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirish, kasbiy kompetensiyalarini, innovatsion va ijodiy yondashuvlarni shakllantirish. Bu jarayon o‘quvchilarning kasbga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularga mustaqil ishlash va mas’uliyat hissini singdirish, shuningdek, kelajakdagi ish faoliyatiga tayyorlash uchun muhim ahamiyatga ega [9].

Asosiy qism. Pedagogik tajribalardan ma’lumki, kasbiy ta’lim tashkilotlarida o‘quvchilarning amaliyotga yo‘naltirilishi — bu o‘quv jarayonida nazariy bilimlar bilan birga ularni amaliy ko‘nikmalarga aylantirish, real mehnat muhitiga tayyorlash jarayonidir. Ushbu jarayon o‘quvchilarning kasbiy mahoratini mustahkamlash, tanlangan soha bo‘yicha mustaqil ish faoliyatini yurita olishga tayyor bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladi.



1- rasm. O‘quvchilarning amaliyotga yonaltirishning mazmuni va mohiyati

Amaliyotga yo‘naltirishning mohiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi: o‘quvchi shaxsining kasbiy shakllanishida asosiy o‘rin tutadi; bilimlarni amaliyotga tatbiq etish orqali kasbiy kompetensiyalarni rivojlantiradi; bozor iqtisodiyoti talablariga javob bera oladigan kadrlar tayyorlanishini ta’minlaydi; ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlab, mehnat bozori bilan uzviy bog‘liqlikni yaratadi [10] (1-rasm).

XXI asrda kasbiy ta’lim tizimida o‘quvchilarning amaliy faoliyatga tayyorligi dolzarb masala sifatida namoyon bo‘lmoqda. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Yoshlarimizni zamonaviy kasb-hunarlarni egallashga, ishlab chiqarishda faol ishtirok etishga tayyorlash – mamlakatimiz kelajagini belgilovchi asosiy omillardan biridir”. Shu bois kasbiy ta’lim tashkilotlarida o‘quvchilarning amaliyotga yo‘naltirilishi pedagogik jarayonning markaziy vazifasiga aylanmoqda. Amaliyotga yo‘naltirish samaradorligi bir qator shart-sharoitlarning ta’minlanishiga bog‘liq: [2] *pedagogik jarayonni to‘g‘ri tashkil qilish, zamonaviy o‘quv-laboratoriya jihozlari mavjudligi, malakali pedagog va ustozlar ishtiroki, ishlab chiqarish bilan integratsiya, axborot texnologiyalari vositalaridan samarali foydalanish va boshqa*lar. Ushbu maqolada aynan pedagogik shart-sharoitlar ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi orqali ushbu yo‘naltirish jarayoni yanada takomillashadi [11]. Xususan, raqamli axborotlarni qayta ishlash ustasi kabi kasb yo‘nalishlarida virtual laboratoriyalar, modulli o‘quv dasturlar va interaktiv mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilar real muammolarni hal qilish, analitik va ijodiy fikrlash kabi ko‘nikmalarni amaliy faoliyatda mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Tadqiqot ob’ekti va qo‘llanilgan metodlar. Kasbiy ta’lim tashkilotlarida o‘quvchilarni amaliyotga yo‘naltirish jarayoni mazkur tadqiqotning ob’ekti hisoblanadi. U o‘quvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, nazariy bilimlarni real ishlab chiqarish amaliyoti bilan uyg‘unlashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlashga qaratilgan.

Tadqiqot predmeti — zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘quvchilarni amaliyotga yo‘naltirish shakllari, metodlari va vositalari hamda ularning samaradorligini ta’minlovchi pedagogik shart-sharoitlarni o‘z ichiga oladi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-pedagogik metodlardan [5] foydalanildi:

Nazariy metodlar:

- Pedagogik va psixologik adabiyotlarni tahlil qilish;
- Ilmiy-nazariy manbalarni umumlashtirish;
- Pedagogik tajribalarni taqqoslash va tahlil qilish.

Empirik metodlar:

- Kuzatish (o‘quvchilarning amaliyot jarayonidagi ishtirokini tahlil qilish);
- So‘rovnoma va suhbatlar (o‘quvchi, ustoz va ishlab chiqarish korxonalari mutaxassislari o‘rtasida);
- Tajriba-sinov ishlari (pedagogik shart-sharoitlar asosida tashkil etilgan amaliyot mashg‘ulotlari samaradorligini tekshirish).

Statistik va matematik metodlar:

- Tadqiqot natijalarini sonli ko‘rsatkichlar asosida umumlashtirish;
- Jadval va diagrammalar orqali o‘quvchilarning o‘zgarishini aks ettirish;
- Samaradorlik ko‘rsatkichlarini hisoblash.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Tadqiqot davomida kasbiy ta’lim tashkilotlarida o‘quvchilarni amaliyotga yo‘naltirish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash samaradorligi o‘rganildi. Tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko‘rsatdiki:

O‘quvchilarning bilim_darajasi - tajriba-sinov guruhida nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish ko‘rsatkichlari 20–25% ga yuqoriligi kuzatildi. Bu, asosan, multimedia vositalari, interaktiv dars metodlari va ishlab chiqarish simulyatsiyalaridan foydalanish hisobiga erishildi.

Amaliy ko‘nikma va malakalar - amaliy mashg‘ulotlarda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llagan guruh o‘quvchilarida quyidagicha o‘sish kuzatildi:



2- rasm. O‘quvchilarning amaliyotga yonaltirishda amaliy ko‘nikma va malakalarning o‘zgarishi

Motivatsiya va qiziqish - O‘quvchilarning amaliyot jarayoniga bo‘lgan qiziqishi ham sezilarli darajada ortdi. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra:

- tajriba guruhidagi 82% o‘quvchi amaliy mashg‘ulotlarni “juda foydali” deb baholadi;
- nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkich 57% ni tashkil etdi.

Pedagogik shart-sharoitlarning ta’siri - o‘quv jarayonida:

- raqamli platformalardan (Google Classroom, Moodle, Zoom) foydalanish,
- ishlab chiqarish ustaxonalarida amaliyot mashg‘ulotlarini tashkil etish,
- modulli o‘quv dasturlarini qo‘llash samaradorlikni ta’minlovchi omillar sifatida aniqlandi.

1-jadval.

Pedagogik shart-sharoitlar tahlili

№	Pedagogik shart-sharoit	Ahamiyati
1	Amaliyotga yo‘naltirilgan dasturlar	Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantiradi
2	Korxonalar bilan hamkorlik	Ishlab chiqarish muhitini o‘rganishga yordam beradi
3	Innovatsion texnologiyalar	O‘quvchilarning mustaqil ishlashini rivojlantiradi
4	Malakali ustozlar	Kasbiy mahoratni o‘rgatadi

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarni amaliyotga yo‘naltirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish an’anaviy usullarga nisbatan yuqori natija beradi. Amaliyot mashg‘ulotlari samaradorligini ta’minlash uchun [4]:

- o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini hisobga olish;
- nazariy va amaliy mashg‘ulotlar o‘rtasida uzviylikni ta’minlash;
- o‘quvchilarning faol ishtirokini rag‘batlantirish;
- pedagogik texnologiyalarning integratsiyasiga e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy ta’limni amaliyotga yo‘naltirish masalasi ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Jumladan, Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda “pedagogik sharoit” tushunchasiga ko‘plab ta’riflar berilgan (I.G.Adishev, N.V.Ippolitova, E.V.Yakovlev va boshqalar). Muayyan faoliyatning muvaffaqiyatini ta’minlaydigan shart-sharoitlarni aniqlashning turli xil yondashuvlari N.N.Tulkibaeva tomonidan tavsiflanadi [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**].



3-rasm. Amaliyotga yo‘naltirishda pedagogik shart-sharoitlar o‘zaro bog‘liqligi

Shunday qilib, pedagogik shart-sharoitlar majmuasi Kasbiy ta’lim tashkilotlarida o‘quvchilarni amaliyotga yo‘naltirish orqali kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish uchun biz ishlab chiqiladigan modelning samaradorligini oshirishga qaratilgan. Kasbiy ta’lim tashkilotlarida o‘quvchilarni amaliyotga yo‘naltirish orqali kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish pedagogik sharoitlar to‘plamini kiritish bilan ta’minlanadi.

Pedagogik shart-sharoitlar o‘quvchilarda tahlil, sintez, umumlashtirish, baholash kabi funksiyalarni shakllantirishga qaratilgan; kasbiy ta’limda kasbiy tayyorgarlikni chuqur anglash va o‘quvchilarda egallangan bilimlarni amaliyotda qo‘llash va umumlashtirilgan intellektual harakatlarni amalga oshirish ko‘nikmalarini shakllantirishga hissa qo‘shishi kerak.

Umumiy ma’noda pedagogik shart-sharoitlarni uchta katta guruhga bo‘lish mumkin: *tashkiliy pedagogik, pedagogik-psixologik, predmetli-didaktik.*

1. *Tashkiliy-pedagogik.* Bunda amaliyot nizomini tahlil qilish, amaliyot nizomi mazmuniga qo‘shimchalar kiritish, malaka talablarida malakaviy amaliyot bo‘yicha keltirilgan izohlarni mazmunan to‘ldirish;

2. *Pedagogik-psixologik.* Bunda o‘quvchilarni malakaviy amaliyoti jarayonida kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish bo‘yicha o‘z-o‘zini kasbiy rivojalnishini ta’minlash, refleksiv harakatlarni amalga oshirishga tayyorlash va imkoniyatlar berish;

3. *Predmetli-didaktik.* Bunda o‘quvchilarni kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan o‘quv-uslubiy, pedagogik dasturiy va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, onlay va oflayn bilim olishga sharoitlar to‘plamini ishlab chiqish.

Bunda o‘quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish orqali o‘ziga xos xususiyatlariga asoslanib, pedagogik shart-sharoitlarini nazariy jihatdan aniqlash mumkin. Ular quyidagilardan iborat:

- kompetentli yondashuv asosida malakaviy amaliyot jarayonini loyihalash;
- malakaviy jarayonida maqbul emotsional-psixologik va ijodiy muhit yaratish;
- kompetentli yondashuv asosida amaliyotga yo‘naltirish; ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash;
- o‘quvchilarga o‘zining asosiy ta’lim komponentlarini erkin tanlash imkoniyatini taqdim etish: o‘qitishning ma’nosi, sur’ati, shakl va metodlari;
- o‘quvchilarni interfaol rejimda taqdim etiladigan predmet haqidagi ma’lumotlar bilan ta’minlaydigan yagona axborot muhitini yaratish;
- malakaviy amaliyot jarayonida maxsus o‘quv-metodik ta’minotdan foydalaniladigan yaxlit o‘quv jarayonini tashkil etishning yagona tizimini yaratish;

- kompetentli yondashuv asosida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan zamonaviy ta’lim texnologiyalarni joriy etish.

Malakaviy amaliyotlar o‘quv jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, hozirgi kunda mamlakatimizdagi barcha kasbiy ta’lim muassasalarida malakaviy va ishlab chiqarish amaliyotlari tasdiqlangan Nizom talablari asosida tashkil etilmoqda.

Malakaviy amaliyotni samarali amalga oshirishni ta’minlaydigan va bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorgarlik mazmunini belgilaydigan tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlar quyidagilardan iborat:

- ♦ nostandart kasbiy vaziyatlardan foydalanish va o‘quvchilarning shaxsiy tajribasiga tayanib muammoli vaziyatlarni hal qilish;
- ♦ amaliyotning har bir bosqichida olingan o‘quv va kasbiy tajriba o‘quvchilar tomonidan aks ettirilishini ta’minlash;
- ♦ malakaviy amaliyot davomida o‘quvchilarni o‘quv-bilish va ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etish orqali ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash;
- ♦ malakaviy amaliyotni o’tashning har bir bosqichi uchun asosiy maqsadlarni aniqlash;
- ♦ o‘quv jarayoni subyektlarining faol o‘zaro hamkorligini ta’minlash;
- ♦ malakaviy amaliyotni o’tashda uslubiy-didaktik qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratish;
- ♦ malakaviy amaliyotini tashkil etishda algoritmik bosqichlarning uzluksizligini ta’minlash [13].

Bo‘lajak mutaxassislarni amaliyotga yo‘naltirishda kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish modelini kompetentli yondashuv asosida amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlari turli xil tadqiqot va amaliy tadbirlar bilan to‘ldirilib modelining ishlashini ta’minladi.

Malakaviy amaliyot jarayonida o‘quvchilarni kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish mustahkamlik, uzluksizlik, integrallik, fanlararo aloqalar, o‘quvchi shaxsining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Malakaviy amaliyot jarayonining kasbiy yo‘nalishini aniqlash bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy kompetensiyalarini bosqichma-bosqich shakllantirishga qaratilgan kompetentli yondashuvni joriy etish, o‘quv-pedagogik o‘zaro ta’sir, shu jumladan o‘quvchining o‘quv faoliyati, o‘qituvchining pedagogik faoliyati, ularning birgalikdagi faoliyati, o‘quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etish orqali aniqlandi.

Amaliyotga yo‘naltirishning pedagogik shart-sharoitlari

Ko‘plab olimlarning ishlari tahliliga ko‘ra, kasbiy ta’limda amaliyotga yo‘naltirish samarali bo‘lishi uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlar muhim hisoblanadi: [4]

1. O‘quv dasturlarining ishlab chiqarish talablari bilan uyg‘unligi - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlarida ham bu asosiy yo‘nalish sifatida belgilangan.
2. Ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi – korxonalarda amaliyot bazalarini tashkil etish, dual ta’lim elementlarini joriy etish.
3. Pedagogik texnologiyalarni yangilash – virtual simulyatorlar, elektron ta’lim platformalari, multimedia resurslaridan foydalanish.
4. O‘qituvchi va ishlab chiqarish ustalarining hamkorligi – nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlarga integratsiya qilish.
5. O‘quvchilarni faol subyekt sifatida jalb etish – loyihaviy ishlar, mustaqil izlanishlar, startap g‘oyalari orqali amaliyotni mustahkamlash.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, ilmiy manbalar va olib borilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kasbiy ta’limda o‘quvchilarni amaliyotga yo‘naltirish samaradorligi bevosita pedagogik shart-sharoitlarni to‘g‘ri tashkil etish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish bilan uzviy hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga bog‘liqdir. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, kompleks va funksional tahlil usullaridan foydalanilgan.

Olimlarning tadqiqotlariga asosan quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- O‘quvchilarni amaliyotga yo‘naltirish uchun muhit, texnologiya va metodlar uyg‘unligi zarur;

- Amaliy faoliyat samaradorligi nazariya va amaliyot integratsiyasi darajasiga bog‘liq;
- Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, ish joyida ta’lim, dual tizim, tajriba asosida o‘qitish eng samarali usullar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Абдуллаева, M. (2021). Kasbiy ta’limda innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning samaradorligi. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Jumayev, R. (2020). Kasbiy ta’lim metodikasi va pedagogik shart-sharoitlar. Toshkent: Ilm Ziyo.
3. Ziyamuhamedov, B., & Ochilov, N. (2019). Kasbiy ta’lim jarayonida zamonaviy yondashuvlar. Samarqand: SamDU nashriyoti.
4. Karimova, G. (2022). “Kasbiy ta’limda amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishning pedagogik asoslari.” Professional ta’lim jurnali, №2, 45–52.
5. Jalolov, J. (2021). “O‘quvchilarni amaliyotga yo‘naltirishda pedagogik muhitning o‘rni.” Pedagogika va psixologiya jurnali, №3, 27–34.
6. Dewey, J. (2004). Experience and Education. New York: Free Press.
7. Kolb, D. A. (2015). Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Pearson Education.
8. Lave, J., & Wenger, E. (1991). Situated Learning: Legitimate Peripheral Participation. Cambridge: Cambridge University Press.
9. Nichkalo, N. G., Filonov, G. N., & Suxodolskaya-Kuleshova, O. V. (red.). *(2012).* Sovremennoye obrazovaniye kak otkrытaya sistema. Institut nauchnoy i pedagogicheskoy informatsii RAO, "YURKOMPANI".
10. Nauchno-prakticheskiy kommentariy k Federalnomu zakonu ot 23-avgusta 1996 g. N 127-FZ "O nauke i gosudarstvennoy nauchno-texnicheskoy politike" (postateynыy) / pod red. akademika Rossiyskoy akademii obrazovaniya V.Ye. Usanova. – M.: YURKOMPANI, 2012
11. Muallif(lar). (2021*).* Sistema povыsheniya professionalnogo masterstva prepodavateley v sifrovoy obrazovatelnoy srede. V sbornike materialov Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii “Sovremennыe podxodы k obrazovaniyu v usloviyax sifrovizatsii”, str. 599. Moskva: Izdatelstvo «Obrazovaniye i nauka»
12. Sharipov A.A .Pedagogik texnoogiyalar vositasida amaliyotga yo‘naltirish metodikasini takomillashtirish” .- Ilmiy maqola 2023 yil
13. Sharipov A.A .Kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida amaliyotga tayyorlash metodikasini takomillashtirish.- Ilmiy maqola 2023 yil
14. UNESCO (2020). TVET for Sustainable Development. Paris: UNESCO Publishing.